

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**S.I. KAMBAROVA**

**O'QUVCHILARNI MAXSUS  
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA  
MUTOLAAGA QIZIQTIRISH**

**TOSHKENT – 2018**

**UO‘K: 028.01:37(072)**

**KBK 74.268.3**

**S 30**

- S 30      S.I. Kambarova. O‘quvchilarni maxsus savol va top-shiriqlar vositasida mutolaaga qiziqtirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 312 bet.**

**ISBN 978–9943–11–839–3**

Qo‘lingizdagи metodik qo‘llanmani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizi-mini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida ko‘zda tutilgan adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy ommabop va ko‘rgazmali adabiyotlarni chop etish vazifasi ijrosining amaliy namunasi, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha yangilanishga bo‘lgan zarurat va ehtiyoj mahsuli sifatida qarash lozim.

Mas’ul muharrir: S.Matchonov – pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Z.Mirzayeva – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi

M.Mirqosimova – Toshkent islom universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2017-yil 29-dekabrdagi 5-sonli qaroriga asosan nashr etildi.*

**ISBN 978–9943–11–839–3**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

# MUNDARIJA

---

<b>So'zboshi</b> .....	4
<b>7-sinf</b>	
Halima Xudoyberdiyeva ijodini o'rganish.....	8
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
Tursunoy Sodiqova. "Baxt nima?".....	17
Shukur Xolmirzayev ijodini o'rganish.....	23
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
Mixail Gar. Mahallamning oltin tuproqlari .....	51
Normurod Norqobilov ijodini o'rganish.....	57
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
Suyun Qorayev. Yer jonli mavjudot .....	122
<b>8-sinf</b>	
Shavkat Rahmon ijodini o'rganish.....	125
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i> U.Abdurahmonova.	
She'rlarining birinchi "senzurachisi" o'zim edim .....	132
Faxriyor ijodini o'rganish.....	138
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
Oydin Niso. "Eplab yozishdan boshqa mezon yo'q" .....	143
Muhammad Ali ijodini o'rganish.....	147
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
"Sohibqiron siymosiga obraz sifatida yondashuv" .....	163
Xayriddin Sultonov ijodini o'rganish.....	166
Saodat sohili .....	168
<b>9-sinf</b>	
Rauf Parfi ijodini o'rganish.....	214
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i>	
Shodmon Otabek. Antiqa uchrashuv.....	221
Nazar Eshonqul ijodini o'rganish.....	226
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i> E.Norbo'tayeva.Yuzma-yuz .....	241
Muhammad Rahmon ijodini o'rganish.....	246
<i>Mavzuga qo'shimcha material:</i> Bahouddin Naqshband .....	296
<b>"Mutolaa san'ati"</b> kursi dasturi.....	299
<b>Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan asarlar ro'yxati</b> .....	301
<b>Foydalanilganadabiyotlar</b> .....	308

## **SO'ZBOSHI**

---

### **MUTOLAA ZAVQI VA MUSHOHADA MASHAQQATI**

Dunyoda hech bir jamiyat yo'qki, uning rivojida ham, tanazzuvida ham inson omili hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsin. Insonlar ning jamiyatda tutgan o'rni esa, ularning yangilanishga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Yangilanish zarurati va uning ijrosi zaminda ta'lif tizimi poydordir.

Mustaqillik ta'lifning o'zini yangilashga keng yo'l ochdi. Nati-jada tashkiliy jihatdangina emas, mazmunan ham jahon andoza-lari bilan bellasha oladigan yo'nalishlar vujudga keldi, qarashlarga o'zgarishlar kiritildi, vazifalar yangilandi.

Qo'lingizdagagi metodik qo'llanmani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizi-mini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"<sup>1</sup>gi Qarori<sup>1</sup>da ko'zda tutilgan adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy ommabop va ko'rgazmali adabiyot-larni chop etish vazifasi ijrosining amaliy namunasi, shuningdek, umumiy o'rta ta'lif tizimida adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha yangilanishga bo'lgan zarurat va ehtiyoj mahsuli sifatida qayd et-gim keladi.

Bungacha yaratilgan sohaga oid metodik qo'llanmalarda asosan muallifning o'z g'oyasini uqtirish, izohlash, tashviq qilish, tavsiya etish kabi an'anaviy usullardan foydalanganiga guvoh bo'linar edi. Ushbu qo'llanmani ham aynan shunday usullar asosida yaratilgan deb baholash mumkin.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida. //Ma'rifat. -T.: 2017 yil 16 sentyabr. - B. 6.

Farq shundaki, muallif o'z g'oyasini savol-topshiriqlar asosida o'quvchining o'zi anglab olishi yo'lidan boradi. Natijada o'quvchi-kitobxon muallif g'oyasining shunchaki ijrochisi emas, balki uning mohiyatini o'zgartiruvchi – anglab oluvchi darajasiga ko'tariladi.

Kitobda keltirilgan savol-topshiriqlar maqsad-mazmuniga ko'ra milliy va xorij tajribalari integratsiyalashuviga tayanilgan mutolaadan oldingi savol-topshiriqlar, mutolaa davomidagi savol-topshiriqlar, mutolaadan keyingi savol-topshiriqlar yoxud murojaat hamda ta'kidlar tarzida berilishi o'quvchini mavzu ichiga chuqur-roq kirib borishga undaydi.

Mutolaadan oldingi savol-topshiriqlar o'quvchini mutolaaga tayyorlash, mutoalaa davomidagi savol-topshiriqlar matn mazmuniga doir mantiqni anglashga, o'zlashtirishga yo'naltiradi, mutolaadan keyingi savol-topshiriqlar matnning san'at asari sifatidagi o'ziga xosligini tushunishga, xulosa chiqarishga, mutolaa tufayli asar qahramonlarining xatti-harakatlariga nisbatan tug'ilgan muhabbat va nafratni aniqlashtirishga yordam beradi.

Qo'llanma yozuvchi haqida turli manbalardan olingan ma'lumotlar, mavzuga doir qo'shimcha materiallar, mustaqil mutolaaga oid tavsiyalar, kurs dasturi va sinflar kesimida mustaqil o'qishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatining keltirilishi muallif g'oyasining keng qamrovligidan dalolat beradi, o'qituvchini mavzuga turli jihatdan yondashishga tayyorlaydi.

Har qanday matnni sidirg'asiga o'qish ko'p hollarda uning mazmunini yuzaki o'zlashtirish bilan chegaralanishga olib kelishi mumkin. Negaki badiiy asar mutolaasi har safar o'quvchi tuyg'usini oldingi tanishuvda anglanmagan jihatlar bilan boyitishi tabiiy holdir.

Izlanuvchan o'qituvchi qo'llanmada keltirilgan savol-topshiriqlar va matn ustida ishlashga oid tavsiyalarni qat'iy qoida darajasida tushunmasliklari, balki namuna tarzidagina foydalanishlari anglashilarlidir.

Albatta, muallif loyihalarini mukammal deb baholash fikridan yiroqmiz. Ishdag'i bahstalab o'rinalar, fikrlar takrori, o'z xulosalarini qoidalashtirishga intilish mavjudligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ammo fan-texnikaning beqiyos rivoji, maishiy turmush sharoitining hozirgi shiddati mustaqil mutolaaga o'z ta'sirini o'tkazayotgan

bir davrda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan ushbu qo'llanmaning yaratilishi har jihatdan qo'llab-quvvatlashga loyiq.

**Safo Matchonov**  
**Pedagogika fanlari doktori, professor**

## MUALLIFDAN

---

Ta'lrim oluvchilarda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish adabiyyot o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyaniq mushtarak muammosi sifatida soha xodimlarini ko'pdan buyon qiziqtirib keldi. Ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyatimiz davomida yuzaga kelgan ushbu ishda muammoning yechimi maxsus savol va topshiriqlar tizimi misolida topishga harakat qilindi.

Savol va topshiriqlar badiiy asarning tasvir obyekti, matn tarkibini mazmunli ochish vositasi bo'lib, u tuyg'ular tarbiyasini to'la yoritishga, obrazlilikni tasavvur ettirishga, o'quvchilarni kitob bilan hayot o'rtaсидаги aloqadorlik xususida mushohada yuritishga undaydi.

**Mazkur qo'llanmaning asosiy xususiyati shundaki, unda o'quvchilarni mutolaaga qiziqtirish va badiiy asar matni ustida ishslash jarayonida o'qituvchilarga savol-topshiriqlardan foydalanishning quyidagi bosqichlari tavsiya qilinadi:**

- *o'qishdan oldingi savollar (asarga qiziqish uyg'otish, matn mavzusi haqida mushohada yuritishga yo'naltirish, kontekstni tushunishga tayyorlash);*
- *o'qish davomidagi savollar (bilish, tushunish, tahlil qilish, asarning muhim o'rinaliga ahamiyat qaratish, so'z ma'nosini ustida ishslash);*
- *o'qishdan keyingi savollar (sintez, qo'llash, baho berish, mustaqil ishlar).*

**Qo'llanmaning tuzilishi va mazmuni quyidagicha shakllantirildi:**

**1. Yozuvchi haqida ma'lumot.** Bunda asar muallifi haqidagi ma'lumotlar taniqli ijodkorlarning xotira yoki e'tiroflaridan parchalar tarzida berildi.

**2. Yozuvchi ijodidan namunalar.** 7-9-sinflar kesimida she'r, hikoya, qissa, dramatik doston kabi turli janrdagi namunalardan foydalanildi.

**3. Mavzuga qo'shimcha materiallar.** Materiallarning mantiqiy izchilligi va mazmunan rang-barangligi kitobxonni yozuvchiga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilishi nuqtai nazaridan tanlab olindi. Ma'lumotlar ijodkor ichki portreti, maslak va intilishlari, jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga munosabati aks etgan voqeahodisalarni o'quvchi tasavvurida jonlantirishi barobarida asar va berilgan manba o'rtasidagi mushtaraklikni qiyoslashga hamda fikrlar rang-barangligiga zamin yaratadi.

**4. Mustaqil mutolaaga tavsiyalar.** Tavsiyalarning mavzular va predmetlararo integratsiyani mustahkamlashiga xizmat qilishi jihatidan dolzarbligini ta'kidlash mumkin.

**5. Mutolaa san'atini o'zlashtirishga doir kurs dasturi.** Dastur mazmuni o'quvchilarning o'qish texnikasini o'zlashtirish, matnda ifodalangan fikrni anglash, asarni ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qish kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

**6. Mustaqil o'qishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.** Badiiy asarlar ro'yxatini tarkiblantirishda xronologik tamoyilga yondashildi.

Qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining filologik ta'lim yo'nalishi bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalari, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot o'qituvchilari badiiy asarlar tahlilida, mustaqil o'qishga rahbarlik qilishda foydalanishlari mumkin.

## 7-sinf

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODINI O'RGANISH



*Muhabbatsiz mutolaa, hayratsiz bilim, qalbsiz ta'lif  
- ruh qarshisidagi eng og'ir gunohlardir.*

HERMAN HESSE

Nemis yozuvchisi, Nobel mukofoti laureati

**HALIMA XUDOYBERDIYEVA**  
(1947-yilda tug'ilgan)

#### DA'VAT



Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,  
Yozganda ko'ksimga tig' urib yozdim.  
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,  
Qalamni qonimga botirib yozdim.

Qon asli yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k,  
Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.  
Qancha qoning bo'lsa – Vatan uchun to'k,  
Qancha shoning bo'lsa – Vatanni ko'tar!

#### YURAGIDA YO'LARS O'KIRGAN SHOIRA

"Men butun hayotim davomida "o'rtacha bo'lishdan qo'rqib yashaganman. "A'lo" bo'lish oson emas, bila-man. Buning uchun katta iroda, ko'p bilim, tinimsiz mehnat talab qilinadi. "A'lo" bo'lolmayotganimni sezardim, lekin "o'rtacha" yashashga ham rozi bo'lolmasdim. H.Xudoyberdiyevaning "Shunchaki" she'rinib qiganimda qarashlarim shunday shoiranining shaxsiyatiga monand ekanidan hayratlandim:

Men shunchaki o'ylagim kelmas,  
Xayol – sharob misol, qilsin sarkush, mast,  
Men shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa, bas...

Ma'lumki, inson tabiatan o'ziga o'xshagan odamni yaxshi ko'radi. Shoirani men avvallari ham yaxshi ko'rardim, she'rlarini yodlab olardim. "Shunchaki"dan keyin oramizdag'i kichkina o'xshashlik meni u kishining ijodiga yanada ko'proq tortadigan bo'lib qoldi. Kitoblarini qidirib topadigan, gazeta yoki jurnallarda she'rlari bosilib chiqsa, jon-dilim bilan, o'zgacha bir ishtiyoyq ila o'qiydigan bo'lib qoldim...

Shoiraning "Yo'ldadirman" kitobini bir misra ham qoldirmay o'qib chiqdim. Mutolaa davomida tomog'imga tiqilgan yig'idan ovozim titrab, tuyganim lazzatlardan qichqirgan paytlarim bo'ldi. Hayratdan "Yo, Rab" deya yoqa ushlagan vaqtlarim ko'p bo'ldi.

... O'zining shaxsiyatini asarlari zamiriga berkitgan shoira yoza-di: "Bu tug'yonsiz, parchin qonsiz, ishqqa jonsiz, Bu qurbonsiz umr meniki emas". U ishqisiz, fidoyiliksiz, tug'yonsiz yasholmaydi.

Halima Xudoyberdiyeva "Ayol otib borar" she'rida shunday yozadi:

Sen so'rama, men ham aytmayin,  
Kuragimni singanini qars.  
Shovqin solma, men uyg'otmayin,  
Yuragimda yotar bir yo'lbars.

Ayol zoti mungli, tayanchtalab bo'ladi. Bizning shoira sirtdan shunday bo'lib ko'rinsa-da, tabiatan o'zi aytmoqchi "Ich-ichida yo'lbars o'kirib, Sirtdan mayin jilmaygan ayol". Bunday ayollar kamdan-kamligini o'zi ham biladi. Shuning uchun ham o'zini mumtoz-larga mengzay oladi...

... Halima Xudoyberdiyeva o'zining bir inson, ayricha shoira sifatida qandayligini quyidagi to'rtligiga mujassam qilib joylab qo'ygan:

Menam o'z-o'zimcha roz aytdim, ketdim.  
Ne aytdim. O'zimga xos aytdim. Ketdim.  
Bu dunyoga kelib bor qilgan ishim:  
Bir-ikki so'z aytdim. Rost aytdim, ketdim.

Halima Xudoyberdiyeva samimiyatga moyil she'rxonni mana shu haqiqatlari bilan o'ziga rom qiladi. U o'zbekning ulkan onasi si-fatida farzandlarni rostlikka, yurt obodligi uchun kurashlarga chorlab turadi. Millatning shoirlarini buyuklik, uyg'oqlik, ziyraklik va ogohlikka undab turadi. Millat onalari ulug'larga intilishdan, ularga ergashishdan tolmasin"<sup>1</sup>.

*Qunduzxon Husanboyeva  
Pedagogika fanlari doktori, professor*

### **Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar**

1. *Onajoningizning cheksiz mehri balqqan nigohlariga ko'zingiz tushganda o'zingizni qanday his qilasiz?*
2. *Mehriboningizning boshqalardan farq qiluvchi qaysi jihatlari borligidan g'ururlanasiz?*
3. *Gohida o'ylamay qilgan "shumlik"laringizni onajoningiz qanday "taqdirlaydi"?*
4. *Bir bora bo'lsa ham onangiz qalbidagi armonlarini bilishga uringanmisiz? Orzulari ushalishiga intilganmisiz? Volidai muhtaramangizning niyatlari, maqsadlari amalga oshishida siz qanday ish tutsangiz yanada yaxshi bo'ladi?*
5. *Biror nojo'ya ishingiz tufayli vijdon azobini boshdan kechirganmisiz? Bundan ortiq azob bormi? Agar shunday holat ro'y bergen bo'lsa bu haqda tengdoshlarining so'zlab bering.*
6. *Ota-onangizning ajdodlari tarixi, bolalik yillari, orzu-istiklariga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlari haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashishni unutmang.*
7. *Yaqin insonlaringiz ko'magida oilangiz shajarasini tuzishga urinib ko'ring.*

---

<sup>1</sup> Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Yuragida yo'lbars o'kirgan shoira. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 324-, 339-b.

## OLDIMDAN OQQAN SUV

Yashamoq saodat, yashamoq azob,  
Bekorga egilmas Sizdan boshqa ko'k,  
Ko'ngillarni ovlab umrim bo'pti sob,  
Sizning ketishingiz xayolda ham yo'q.

*Nima uchun odamlar umr o'tkinchiligini hamisha ham yodda tutavermaydilar? Lirik qahramon iqrоридаги haqiqat mohiyatiga munosabat bildiring.*

Oldimdan oqqan suv, beqadr suvim,  
Umrida bir yayrab yozilmaganim.  
Bor turishi shafqat, bori sir suvim,  
To qurib qolguncha sezilmaganim.

*Onalar farzand kamoli uchun o'zlarini qurban qilib ya-shashlarini qachon anglaymiz? O'z vaqtida yaqin kishila-rimizni qadrlay olmaganimizni tushunganimizda vaqtini ortga qaytarishning imkonи bormi? Banddagи ma'no ko'chishining hayotiyligini asoslang.*

Boshqalar yonimdan ketmasin debman,  
Vaqt topib ularga boribman tong-kech,  
Boshqalarga ozor yetmasin debman,  
Sizga ham yetishin o'ylamabman hech.

*Ba'zan ota-onamiz oldidagi burch va mas'uliyatni unutib qo'yishimizga ortiqcha hoyu-havaslar, mayda-chuyda ishlarni sabab qilib ko'rsatishimizni oqlab bo'ladimi? Nega kun kelib yo'qotajak baxtimizning diydorimizga ilhaqligini payqamay-miz?*

Boshqalarga chopdim shahar, kentda man,  
Bir qaytarib yo bir kesatmadingiz.

Manam g'animatman, manan ketaman,  
Deb nechun bir bora eslatmadingiz?  
Onam, onam-a?!<sup>1</sup>

*Bu dunyodan ko'z yumganlar hech qachon qaytmasligini  
kech tushunib yetmoq insomni qay ko'y larga soladi?*

*Nima deb o'ylaysiz, o'talmagan burchdan afsus-nadomat  
chekayotgan lirik qahramon butun umr ruhiy iztiroblardan  
poklana olarmikan?*



---

<sup>1</sup> Xudoyberdiyeva H. Osoyishta sham: She'rlar. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.  
- 144-b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. "Yashamoqlik azobi"ini o'z tushunchangiz doirasida sharhlashga harakat qiling.
2. Birinchi banddag'i "Bekorga egilmas sizdan boshqa ko'k" misrasidagi mazmun ko'lami haqida mushohada yuriting.
3. Nima uchun umr o'lchab berilganligi lirik qahramon xayoliga kelmaydi? Uning bag'rini ezg'ilayotgan armon zalvorini tasvirlashga so'z qodirmi?
4. Qaysi misralarda onaning ichki dunyosi yaxlitligicha o'zini namoyon etadi?
5. Lirik qahramon va ona siymosidagi kontrast holatlarni solishtirib, ulardagi o'ziga xoslikni ajrating.
6. Vaqtinchalik muammolar, ba'zan ahamiyatsizligimiz bizi ni qay tarzda "jazolaydi"?
7. She'rni yod oling.

## Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar

1. *Hech inson tana a'zolarining ovoz chiqarib, qarsillab singaniga guvoh bo'lganmisiz?*
2. *Mutolaa jarayonida e'tiboringizni shikastlangan a'zo, yurakni makon etgan jonzot tasviriga qarating. Bu chizgilar orqali muallifning maqsadini aniqlashga harakat qiling.*
3. *Qahramonning oniy lahzalardagi holati tagzaminidagi ma'noga e'tibor qarating.*

## AYOL O'TIB BORAR

Sen so'rama, men ham aytmayin  
Kuragimning singanini qars.

*Lirik qahramonning jismiga yetgan jarohat sababini so'ramaslikni iltimos qilishi zamirida qanday ma'no yashiringan? Nima deb o'ylaysiz, agar buning boisi oshkor qilinsa, qahramonga azob berayotgan qandaydir sir yoki dard ham-maga ma'lum bo'lib qoladimi?*

Shovqin solma, men uyg'otmayin,  
Yuragimda yotar bir yo'lbars.

*Yurakdan joy olgan jonzotni uyg'otib yubormaslikka da'vatning boisi nimada? Sir saqlash faqat o'zbek ayollariga xos fazilatmi?*

Baland bir o't yongan ichimni,  
Men sovutib yashashim kerak.  
O'z-o'zimga sarflab kuchimni,  
Men ovutib yashashim kerak.

***Ichda olov yonishi va uni sovutish tasviridagi ruhiy holatni tahvil qiling.***

Ayol o'tib borar... sho'x yurib,  
Shamollarda soch yoygan ayol.  
Ich-ichida yo'lbars o'kirib,  
Sirtdan mayin jilmaygan ayol.

***Botinan dard cheksa ham zohiran "mayin jilmayish" tas-viri ma'nosini qanday tushundingiz?***

Sen so'rama, men ham aytmayin...<sup>1</sup>

***Xalqda qaysi hollarda "Sen so'rama, men aytmay" iborasi qo'llaniladi? Lirik qahramonning bu kabi murojaatiga munosabat bildiring.***



<sup>1</sup> Xudoyberdiyeva H. Osoyishta sham: She'rlar. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 146-b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. *Munisa siyratidagi yo'lbars qiyofasini qanday tasavvur etdingiz?*
2. *Bu obraz zimmasiga qanday mas'uliyat yuklangan?*
3. *Ichda baland o't yonishi deganda, shoira nimani nazarda tutadi?*
4. *Lirik qahramon siyratidagi jonzot hayqirig'i qanday tuyg'ular mahsuli?*
5. *Muallif shaxsiyati aynan qaysi satrlarda bo'y ko'rsatadi?*
6. *She'rda qanday tasviriy-ifodaviy vositalar imkoniyatlari dan unumli foydalanilgan? (Masalan, dardachil kechinmalar ning lovullagan alanga tarzida berilishi \_\_\_\_\_, jonzot hayqirig'i \_\_\_\_\_, lirik qahramon o'zligiga sayqal bershda \_\_\_\_\_ kabi san'atlar qo'llanilgani kabilar).*
7. *Nima deb o'ylaysiz, bugun hamma ayollar ham she'rda tasvirlangandek matonatlimi? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.*

---

### **Mustaqil mutolaaga shoira ijodidan**

---

#### **LOQAYDLIKKA KINOYA...**

Yig'lasang, boshingda oylar yig'lasa,  
Oyog'ingga sachrab loylar yig'lasa,  
Ishonib yurgani – birdan-bir o'qi,  
Mo'ljalga tegmagan yoylar yig'lasa.  
Ko'ngli qolib molu dunyolaridan,  
Xazinasi to'zib boylar yig'lasa.  
Erkini to'g'onga topshirib tingan,  
Shiddatlari singan soylar yig'lasa.  
Hech kim yig'lamasa...  
Ko'zing shishib yurma bekorga sen ham...<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Xudoyberdiyeva H. Osoyishta sham. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –69-b.

### BAXT NIMA?

### Tursunoy Sodiqova

Siz yulduzlarni bir, ikki, uch, to'rt... deya hisoblab ko'ring – bir daqiqaning ichida 70, 80 gacha sanab qo'yasiz. Yulduzlar esa behisobdir...

Bir, ikki, uch... deya odimlab ko'ring, bir daqiqada 70, 80 qadamni yurib qo'yasiz – yo'llar cheksiz, qadamlarning esa son-sanog'i yo'qdir!

Faqat inson umrígina go'yat qisqa. 60, 70, 80... deysiz-u, taqqa to'xtaysiz – u yog'iga yo'l ham, sanog'ingiz ham to'xtaydi!

Bir aylanib, yetmishga borib qolibman-a, deydi yetmish yoshli-lar. Yetmish yil yetmish qadamcha bo'lmadi-ya, deyishadi yana nadomat bilan.

Men kechagina 13 yoshda edim. Onam kokillarimni 40, 45 ta qilib o'rib, uchlarini oq ip bilan chatib, so'ng "quloch-quloch o'ssin" deb pichirlab, o'rimalarning ustidan asta shapatilab qo'yardi.

Kechagina 18 da edim, gilam do'ppi ustiga sochlariimni chambor qilib, dorilfununning azim pillapoyalarida bir gapirib, o'n kilib, uchib-qo'nib yurardim. Bugun esa 50 yosh! Axir sinfdoshlarim, kursdoshlarim bilan xayrashgan kuni kecha edi-ku! Umrning o'tish tezligi naqadar dahshat! Go'yo men osmonga qarab 50 yulduzni sanagunimcha, zaminda 50 yil o'tib ketibdi! Naqadar g'aflatilik! Yigirma, o'ttizim, qirqim qayoqda qoldi? Qancha aziz chehralarga tuzukroq to'ylmay, ne-ne muqaddas ostonalarga yetolmay qolibman. Mening ham diydorimga kimdir zor, kimdir yo'llarimga intizor qolib ketgandir! Menga ixlos qo'yib, yukunganlarni nechun g'animat bilmadim, huzurlariga nega shoshilmadim, mamnun etib qolmadim?!

Endi bilsam, ota-onam but – boyvachcha paytlarim, o'zimning og'irligimdan boshqa yukim yo'q – parday yengil va beozor davrlar,

xaridorlar kokillar sanog'idan ham ko'p – yashnab-charaqlab yur-gan kezlarim eng baxtiyor kunlarim ekan! Nega o'sha damlar moviy osmonga, gullarga, chax-chax urgan bulbullarga aylanib ketmadim! Darvoqe, o'sha paytning o'zi chug'urlagan ozod qushday, bir dasta gulday davrim ekan.

Hozirgi qilday toraygan ko'nglimga qarab, afsus qilaman – nega yigirma yoshimning navolariga, xush havolariga to'yib-to'yib qol-madim! Atirgulday o'rtoqlarimning diydoriga nega cho'mib ket-madim! Ro'znomalarda goho chiqib qoladigan bugungi toliqqan suratimga qarab turib, bir zum tinib ketaman va nechun o'sha payt-lar ko'zguga uzoq-uzoq qarab, g'animat o'n to'qqiz yoshli, lolarang libosli, nozik qad, qora ko'z, qora mayizgina qizga – o'zimga to'yib-to'yib qarab olmadim, deyman zor bilan!

*Ota-onamning baquvvat, norg'ul paytalarini xotirimning jonli lavhalariga yozib, asrab qololmaganim armon. Otamni va onamni o'z bolaliklari, ota-onalari haqida uzoq-uzoq gapirtirmaganim, uqib, eshitib qolmaganim armon. Endi hech kim tirilib kelmagay, naslu nasabim haqida boxabar qiladi-gan boshqa hech kimim yo'qdir. Evhoh, deyman beixtiyor! Ne-ne tabarruk kунларни izsiz, maslaksiz o'tkazib yuboribman-a!*

Qanchadan-qancha nodir kitoblar o'qilmay qolganini, o'sha davrlarning tirik parchasi bo'lib qolishi mumkin bo'lgan qancha-dan-qancha she'rlarning bitilmay qolganini aytmaysizmi? Bundoq o'ylab qarasam, men birinchi darajali ne'matlarimni tinmay boy berib, nuqul o'ninchи darajali ishlar bilan mashg'ul bo'lib umrimni o'tkazib kelaveribman. Bugunga kelib, qo'lga kiritgan eng katta o'ljam – ARMON, ARMON va yana ARMON bo'lib turibdi.

Har bir davrning ne'matlari o'zgacha aziz. Ammo bag'ring butun vaqtidagi farog'ating boshqa olam ekan! Mana atrofimni farzandlar o'rab, ularning ko'riniib qolgan bo'ylarini ko'z-ko'z qilay desam – Onam yo'q! Qo'limga pul tushib, bozorga dadil kirib ko'targanimcha xarid qilib, olib kelib yediray-ichiray desam – Otam yo'q!

Muhabbat haqida yozganlarim tiniqlashganda, muhabbat neli-gini rosa uqqanimda, qadrlaganimda, muhabbatni bergen o'sha 20 yoshim va yigirma yoshlilar yo'q.

Bahor bilan bahorning farqini aytmaysizmi! Oldinlari bahor kelsa, nazdimda qaldirg'ochlar bayot aytar, shamol nay chalar, g'uncha nim pushti rang qo'shiqqa to'lib turar, yomg'ir gul g'unchalarini qiqirlatib cho'miltirar, chor taraf shodiyona umr sura boshlardi. Onam vafotidan keyin esa bahor men uchun butunlay boshqacha keldi: o'sha bahor qaldirg'ochlar meni har tong yig'lab uyg'otardilar. Shamol esa ularga qo'shilishib uv tortardi. Jami o't-o'lanning kiprigida yosh, bag'ri qon bo'lgan g'unchalarning yonog'ida yosh. Yuragim bahor yomg'irlarini ivib, uvishib kuzatarkanman, deyman: onamdan keyin bahorlar ham yig'lab kelib, yig'lab ketyapti...

Men qog'ozga bag'rimni to'kib, o'zimni o'zim so'rovga tutib o'tiribman. Lekin hurmatli o'quvchim, mening har bir hasratim sizning ham ko'ksingizni tilib o'tayotganini shundoqqina ko'rib turibman. Chunki siz ham mening xuddi o'zginamsiz. Yutish-yutqizish bobida inson zotining bir-biridan qolar joyi yo'q.

Ichki iztiroblarimni atayin oshkor bityapman, toki bizdan keyin kelayotganlar hushyorroq bo'lsinlar. Alloh, ularga atab bergan ne'matlarni vaqtida tuysinlar, tanisinlar. Qo'llaridagi imkonlardan foydalanishni ham, shukrona keltirishni ham bilsinlar.

Tunov kuni bir gazetaning muxbiri "Siz o'zingizni baxtli deb bilasizmi?" deb so'rab qoldi. Shu zahoti dedim: – Mendan baxtiyorroq odam yo'q bo'lsa kerak. Falon yoki pismadon maqtovlarga ega bo'lganim uchun emas, aslo! Deylik, mana Siz meni Farg'onai azimdan yo'qlab kelibsiz – yo'lquyun faqat meni so'roqlab kelishgiz, kimadir kerak bo'layotganimning o'zi – katta Baxt!

Charaqlab turgan Oftobni qarang, bu mo'jizani ko'rib turgan ko'zimizning borligi, yalpiz hidini tuya bilayotganimiz, Sizni andijoncha lutf bilan eritayotgan so'zlash imkonimning borligi, barmoqlarimning do'st kaftini tutishga yarayotgani – yana bir Baxt!

Ikki qizim ikki gulgun olamim ekanligi, mo'ylablari sabza urib qolgan, kirib kelsa darvozalar to'lguday o'g'lolnarimning borligi cho'ng Baxt! Uyimning xotirjamligi, meni tushunadigan birodarlarimning ko'pligi, men intilayotgan ka'balarimning borligi, qo'ni-qo'shnilarimning tamizliligi, Andijonning, O'zbekistonning tinchligi, tunlari xavotirsiz uxlayotganim – ming karra Baxtdir. Men

bundan ortiq baxtni orzu qilolmayman... Otam ekkan yong'oq bu yil ilk mevaga kiradi. Demak, endi otam tirilajak, har yili novdalardan nabiralariga hovuch-hovuch yong'oq ulashajak! Bu – entiktiruvchi Baxtdir men uchun!

Otamni katta qilgan anhor bo'yalarini har ko'rganimda, onam ke-lin bo'lib tushgan yo'llardan har safar o'tganimda yurak-yuragim-dan iftixor tuyaman: ota-onamning izlariga izlarim ulandi, demak, ular o'lmaydi. Endi esa bolamni ham shu yo'ldan yetaklab o'tmoqdamon. Demakki, uch avlodning izlari ko'zlarim guvohligida bir-biriga ularashdi. Endi bu yerdan o'tgan avlodlarim ruhi bolalaramga madad berajak. Bu ham Toledir. Bu baxtning qadrini vatsanzlardan so'rangiz. Yuqorida sanab o'tganim ne'matlar armonini o'sha imkonlardan mahrum bo'lganlardan so'rangiz.

Siz har kuni ostona hatlab ko'chaga chiqqangizda, sizni ko'tarib turgan oyoqlaringiz uchun shukrona aytинг. Necha yil yashasangiz, o'shancha yil tinmay urib turgan yuragingizni kunda bir tavof qiling. Dilbar musiqani sozanda emas, sizga qulog'ingiz chalib bera-yotir – eshitish imkoningiz borligi uchun Allohga shukrona o'qing.

Anovi gullab turgan shaftoli siz uchundir, chuldiragan billur bu-loqlar sizni izlab kelayotir. Dehqon sizga atab don sepayotir, atir-gul kurtaklari siz uchun bo'y yig'ayotir – qarang, kamalak rangli bu yaraqlagan olam sizniki, faqat siznikidir! Oling, bag'ringizga bosing, bu qutlug' Baxtingiz muborak bo'lsin!

Ming afsuslar bo'lsinki, baxillar, dilozorlar, hasadgo'ylar, qasd oluvchilar bu ulkan baxtdan benasibdurlar. Agar ular o'zlaridagi ne'matlarni tanigan va qadrlaganlarida edi, birovga yomonlikni ravo ko'rmasdilar. Mening bu zotlarga g'oyat rahmim keladi va al-lohdan shafqat qilishini so'rayman.

Insondagi har bir tuhfa – ko'z, quloq, til, oyoq, yurak, aql-idrok yaxshilik uchun yaratilgandir. Biz ularni tinmay ishlatyapmizmi, demak, ularning zakotini to'lashimiz kerak. Zakot bu – sizdan hech narsa so'ramaganlarga qaytimini kutmay yaxshilik ularashishdir. Agar shu zakotni to'lamasak, ustiga-ustak qo'limiz, tilimiz, fe'limizni o'zgalarga ziyon keltirishga majbur qilsak, bizga nasib etgan bu ne'matlar bir kuni, albatta, o'z xunini so'raydi. Baxtsizlik, kulfat hech qachon chetdan kelmaydi, biz uni o'z fe'limiz bilan yasab olamiz.

...Baxtning kaliti Yaxshilikdir. Yaxshilik qilgan sari kishi poklanib boraveradi. Poklangan sari mushkullari osonlashib, niyatlarini usha-laveradi.

...Mana Navro'z keldi. Alloh osmondan tinmay rahmat yog'diradur: dovu daraxtlarda shoda-shoda zumrad marjonlar, ona zamin xamirday ko'pchib turibdi. Dimog'ingizga jannatiy iforlar uriladi. Bu manzarani ko'rmoq va his qilmoq qanchalik Baxt!

... Ariqdan olgan bir ketmon loy ham, o'tqazilgan bitta ko'chat, asfalt qilingan bir quloch yo'l, oqlangan bitta uy ham marhumlar uchun chiqarilgan bir is, bola-chaqamiz, qolaversa, o'z jonimiz uchun qilingan sadaqadir.

Umr – charxpalakdir, tinmay aylanaveradi. Dunyodan rohat olib yashash va dunyoni ham yashartirib qolishga shoshilmoq kerakdir.

Bugun 50 yoshdasiz. Yarashib turgan mana bu ko'ylagingiz ertaga yarashmay qolishi mumkin – liboslar yarashgan ellik yoshingiz bilan yayrab oling bugun!

60 yoshingizdagagi bugungi oyoqlaringiz ertaga uzoqqa tortolmasligi mumkin – boradigan joylaringizga borib, ko'radigan odamlaringizni ko'rib qoling.

70 yoshingizdagagi bugungi so'zlariningizni saksoningizda topolmay qolishingiz mumkin. Tilingiz bilan bugun ko'ngillarni yashnabit, shirin suhbatlar qurib qoling. Inson yoshining har bir daqiqasi bebaho boylikdir. Har bir yoshingizning bugungi kuni ertaga armon bo'lajak!

Aziz o'quvchim, har birimiz bir daraxtmiz. Tomirlarimiz jismimizdan o'sib chiqqan novdalarimizdir. Shu novdalar Yaxshilik kur taklariga to'lib ketsin. Butun jismimiz Yaxshilik gullariga cho'milsin. Bir-birimizga Yaxshilik mevalarini ilníb yashaylik!<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Sodiqova T. Baxt nima? – A., Andijon, 1994. – 122-131-b.

## **TOPSHIRIQ**

“Oldimdan oqqan suv” she’ri va “Baxt nima?” maqolasini birlashtirib turuvchi qanday xususiyatlarni angladингiz? Kelgusi ha-yotingizda she’rdagi lirik qahramon va maqola muallifidek afsus-nadomatlar chekmasligingiz uchun qanday yo'l tutmog'ingiz kerak, deb o'ylaysiz? Shu haqdagi fikrlaringizni ifodalab, “Farzandlik bur-chim” mavzusida esse yozing.

## **SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODINI O'RGANISH**

*Adabiyotga xizmat qilish – buyuk saodat, qismat aslida...*

**SHUKUR XOLMIRZAYEV**



**SHUKUR XOLMIRZAYEV  
(1940-2005)**

### **ADABIYOTNING BAXTI**

Shukur Xolmirzayev dunyoni qamrab olaman deya behuda chirangan yozuvchilardan farqli o'laroq, faqat o'zi ko'rgan, o'zi bilgan narsalarni yozdi. U ko'rgan va bilgan narsalar kitoblarda yozilmish hayotga mutlaqo o'xshamasdi, ya'ni hayotning o'zi edi. Uning qahramonlari tirik odamlar edi, balandparvoz shiorlarsiz, xudo bergen kunini xudo bergen aql-idroki va kuchu uquviga munosib o'tkazardi, xolos. Adashardi, lekin bir dumalab tuzalib qolmasdi. Yaxshi odam yaxshilagini, ablah odam ablahligini davom ettirardi. Shukur aka ularga zug'um qilmasdi, hukm o'tkazmasdi. Fe'liga yarasha harakat va so'z topib turardi, xolos. Go'yo u turfa fe'l'u atvor solingan qozon tepasida cho'mich olib turganday: biriga buncha, biriga muncha...

Yozuvchining maslagi bitta edi – xolislik.

Ba'zida xolislikni oshirib yuborgan paytlari, Shukur aka o'ta berahm odam bo'lib tuyulardi. Rost gapni aytishga kelganda nafaqat boshqalarni, balki o'zini ham ayamasdi. O'zaro "Shukur akaning shafqatsiz realizmi" deya mutoyiba qillardik, ba'zida fe'l'i og'ir akamizdan

posmana arazlardik, hatto arazlab, etak qoqib ketardik, lekin hafta o'tmay Shukur akani sog'ina boshlardik...

Shukur Xolmirzayev mag'rur odam edi. Garchi qahramonlariga qo'shib ming alvonda turlansa-da, zamonga moslashib ketolmadi. Balki shuning uchun ham umri qisqa bo'ldi.

Shukur aka ko'rgan behalovat, birinchi qarashda o'ta betartib hayotda aslida qattiq tartib hukmron edi. U adabiyotga halol, beg'arez va beta'ma xizmat qildi. Xizmati evaziga izzat talab qilmadi.

Unga tuzukroq mehr ko'rsatolmagan bo'lsak, bu – bizning aybimiz<sup>1</sup>.

*Murod Muhammad Do'st  
Yozuvchi*



<sup>1</sup> Murod Muhammad Do'st. Adabiyotning baxti. Muhabbat Ato. So'nmas yulduzlar. – T.: Tafakkur Qanoti, 2010. 107-108, 110-b.

## Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar

1. Biror tushunmovchilik, kelishmovchiliklar tufayli tengurlaringiz ichida yakkalanib qolganmisiz? Agar o'shanday vaziyatni boshingizdan kechirgan bo'lsangiz muammoni qanday bartaraf qilgansiz?
2. O'rtoqlaringizning nojoiz xatti-harakatlarini ko'r-ganiningizda qanday yo'l tutasiz? Ularga qilayotgan ishlari noto'g'ri ekanligini ikkilanmay ayta olasizmi yoki jum keta-sizmi?
3. Atrofingizdagilarning yolg'on so'zlari, ikkiyuz-lamachiliklariga qarshi borolmay vijdoningiz qiyalnigan paytaringiz bo'lganmi?
4. Garchi o'zgalarga yomon ko'rinishib bo'lsa-da, haqiqatni tik ayta olishga jur'atingiz yetadimi?

**Xarakter** – [yun. charakter – farqlanuvchi xususiyat, belgi].

1. *Odam, narsa va hodisalarining o'ziga xos ko'rinishi, xususiyati, boshqalardan ajralib farq qilib turadigan tomoni.*
2. *Psixologiyada: odamning xatti-harakatlari va atrof-muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyati, ichki ma'naviy barqarorligi.*
3. *Adabiyot va san'atda: xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvorning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi<sup>1</sup>.*

---

<sup>1</sup> O'zbektilining izohli lug'ati. 5 jildli. 4-jild. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 384-b.



## O'ZBEK XARAKTERI

---

### HIKOYA

... Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinci kursda paxtaga bordik. O'sha Bo'ka rayoniga<sup>1</sup>. Chetdagi bir kolxozga. Mana shu o'zimizning Surxon vohasiga o'xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoqlar o'sgan. Bog'-bog' yosh qamishni tagi bilan o'tqazib qo'yganday. Yeri jiqqa ajriqzor. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da!

Qadrdon, (*Aziz o'quvchi, hikoya qahramonining bu tarzdagi murojaatidan qandaydir iliqlikni his qildingizmi?*) men uning o'zimga, mana shu ko'ngil qurg'urga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da! Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. Yigirma-o'ttiz xonodon tursa kerak. Tomlari bari loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyulgan, yomg'ir yog'ib o'tgan payt edi, pichanlar sap-sariq.

---

<sup>1</sup> Rayon – lotincha “rayon” so’zidan, “tuman” ma’nosini anglatadi.

Ba'zisining ustida yosh bolakaylar o'tirardi. ***Bu kabi tasvirlardan salqin kuz nafasi seziladi-ya!***

Bizni ko'rib qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq ko'chada mashinamiz to'xtadi. O'qituvchilar o'zaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi.

Bitta brigadirning bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashdigan bo'ldik. Buyam shunchaki somon suvoq qilingan. Deraza romlari yo'q. Yer zax. Odatdag... baraklardan<sup>1</sup> farqsiz edi. Bolalar orasida mendan yoshi ulug'lari ko'p edi: birlari armiyani bitirib kelgan, birlari texnikumni... Biz endi, o'zingiz qatori o'nni bitirib, universitetga kira qolgan edik. Shuni aytish kerakki, savod masalasida ham ulardan kam emas, ba'zan balandlik ham qilib qolardik: har qalay o'nni bitirib to'g'ri institutga kirgan bolamiz. Bilimlar hali svejiy<sup>2</sup>... Bundan tashqari, o'zingizga ma'lum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental<sup>3</sup> kutubxonaning faol o'quvchilaridan.

Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir... qishlog'imiz-da, to'g'risi. Balki "uddalik" bobida ham ancha jo'n edik.

Yo'q? E! Sizni o'sha uyg'a joylab qo'ysa, nima qilardingiz? Kolxoz idorasidagi bug'altirning xonasidan pechni qo'porib kelarmidingiz? Kelolarmidingiz? Yo'q. Deraza o'rniqa nima tutar edingiz? To'l<sup>4</sup>... Uni qayerdan topardingiz? Ana shunday... ***Tasavvur qiling, siz ham o'shanday muhitga tushib qoldingiz? Qanday yo'l tutar edingiz?***

O'rmon degan bir kurskomimiz<sup>5</sup> bor edi. Novcha, oriq yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. Sibirga pomidor, piyoz oborib sotgan. Poyezddagi sarguzashtlarini eshitsuq, hee... pishiqlarida! Komsorgimiz<sup>6</sup> ham Azimjon degan yigit edi. Nuqlu Remark bilan Xemengueyni o'qib: "Bizning yozuvchilarimiz yolg'onchi", - deb yurardi. Men? Albatta, unga qarshi turardim!.. ***Nima deb o'ylaysiz,***

<sup>1</sup> Baraklar – hasharchilar uchun paxtazorning o'rtasiga qurilgan harbiycha omonat bino.

<sup>2</sup> Svejiy (ruscha) – yangi, unutilmagan ma'nosida.

<sup>3</sup> Fundamental – asosiy ma'nosida.

<sup>4</sup> To'l – nam o'tkazmaydigan saqichli qalin qora qog'oz.

<sup>5</sup> Kurskom – kurs boshlig'i ma'nosida.

<sup>6</sup> Komsorg – sho'rolar davridagi yoshlар tashkilotining kichik yetakchisi ko'zda tutilgan.

*balki haqiqatan ham Azimjonning  
fikrida jon bordir? Yoki Ergashvoyni  
qo'llab-quvvatlaysizmi?*

Shunday qilib, joylashib oldik. Yer-ga poxol to'shadik, ustiga chodir yoy-dik. Keyin ko'rpa-to'shakni yozdik.

Choynak, chelak ham topib keli-shdi.

Kech bo'lib qolgan edi. Bilasiz, dastlabki kecha uqlash qiyin. Latifa aytishardi bolalar: "Siz ko'rgan o'sha afandi, siz bilgan o'sha afandi..."

Bolalar darhol to'rni, yon tomon-larni egallab olishgani uchun menga eshik og'zidan joy tekkan edi, bilmadim, kechasi eshik ochilib ketganmi, sahar tursam, burnim bitib qolgan.

Havoda zildek og'ir, qoramtil bu-lutlar aylanar, lekin etakdag'i paxtazor yaqqol ko'zga tashlanar edi. Ikkinch'i terimdan chiqqan. Ko'p g'o'zalar barg to'kib, sarg'ayib qolgan.

Ayvon ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar... U yer-bu yerda chug'urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi to-monida bo'zrang bir uzun imorat ko'rindardi. Uning oldida bak<sup>1</sup>ni qay-natishyapti shekilli, karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.

Keyin, shundoq pastlikdag'i pax-tazorni bizdan ajratib turgan ariq bo'yidagi yolg'iz kulbaga ko'zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlar g'ujg'on: chiriq-chiriq...



<sup>1</sup> Bak – ko'pchilikka choy qaynatishga mo'ljallangan idish.

Ariq bo'yida esa bir qoraqlapoq kursdoshim, ha, o'sha – Saparboy maykachan bo'lib chopib yuribdi.

Bet-qo'lni yuvGANI pastga endim.

– Yechin. Yugur. Fizkultura qil! – dedi Sapar.

– E, pizkulturam chiqib turibdi, – dedim.

Shunda qarasam, haligi kulba... odam yashaydigan uycha ekan. Men, bilmadim, uni bostirma deb o'ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor. *Taraqqiy etgan asr oxirlarida odamlarning kulbasifat uychada yashashini qanday baholaysiz? Qoloqlikmi, boriga shukr qilib yashashmi yoki buning boshqa sabablari ham bormi?*

Uychaning oldida esa, bilasizmi nima, o'rmak... o'rmak tikilgan.

Bir ayol katta tayoq bilan gursillatib urib, kalavani qatimlar orasidan u yoq-bu yoqqa otib, sholcha to'qiyapti. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon! *O'rmaK, sholcha to'qish jarayoni nima uchun yigitni to'lqinlantirib yubordi?*

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro'molini peshanasiga tushirdi.

– Salom alaykum, hormang opa! – dedim.

– Keling, uka, – dedi u. Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib ol dinglarmi?

– Ha, rahmat. Juda-a yaxshi joylashdik... Shu uyda yashaysizlarmi?

– Ha, – dedi u. Xo'jayin molga ketgan.

“Molga ketgan!”

– Mol ham boqasizlarmi? – dedim. – Ha, kolxozi bir otar<sup>1</sup> berib qo'yan.

“Bir otar!” O, Toshkentda bu so'zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. Ana shunday qilib, bularga ko'nglim ilidi. *“Molga ketgan!”*, *“Otar”*. *Bu so'zlar shunchalik yoqimli yoki sehrlimidiki notanish odamlarga yigitning “ko'nglini ilitsa”?*

– Echkimi, qo'ymi? – dedim.

---

<sup>1</sup> Otar – bir cho'pon-cho'liq tomonidan boqilishi, bir qo'raga qamalishi mumkin bo'lgan miqdordagi qo'ylar to'dasi.

- Aralash.

Qarasam, uychaning narigi tomonida uzun qo'ra bor. Tevaragi shox-shabba bilan o'ralgan. Sekin o'tdim. Qiy<sup>1</sup> hidi... Ha-ha-ha!

**Tuygan hidi yigitga nimalarni eslatdi deb o'ylaysiz?** Qo'raning erganagidan<sup>2</sup> qaradim: yetmish-sakson mayda mol sig'arkan... men nimagadir bu yerlarda ham odamlar faqat paxtani biladi, deb o'ylardim. Endi deng, mol tufayli paxtayam ko'zimga yuz chandon yaxshi ko'rinish ketdi. Buning ustiga havo yumshoq, g'o'zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq, zilol suv oqyapti... O! O'sha paytlar Bo'kadayam suvlar toza bo'lgich edi. Ximikatlar ham kam sepilardi, nazarimda. Lekin men bu tomonlariga e'tibor qilmaganman... Chunki o'zimiz tarafdayam ximikat, suv no-toza, ul-bul degan gaplar kam bo'lardi.

Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgan edim.

Shu payt uydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladilar. Ba'zisi Saparga qo'shilib chopishga tushdi. Ba'zilari paxtazorga oralab ketishdi. O'rmon aka o'rmak to'qiyotgan ayolning qoshiga keldi.

- Qalaysiz, opa? Hormang!
- Bor bo'ling, uka... Kelib zap ish qildilaring-da...
- Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo'ladimi? Ko'k choy bormi? Qurug'idan.

- Bor, bor. – Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi. Oyog'ida eski kirza etik, uzun sochlari ustida sochbog'. Rangi o'ngib ketgan ko'ylagi g'ijim. Sal o'tmay bir banka bilan bir parcha gazeta ko'tarib chiqdi. Gazetani O'rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to'kildi. O'rmon:

- Bo'lar, rahmat, – dedi.
- Kerak bo'lsa...
- Kerak bo'lsa, yana so'raymiz... **Bu so'zlari orqali O'rmonjon tabiatidagi qaysi sifatlarni anglaganday bo'ldingiz?**

- Bemalol, og'ajon. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o'qishlarni goldirib, ota-onalarining tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat...

---

<sup>1</sup> Qiy – qo'y tezagi, qumalog'i.

<sup>2</sup> Erganak – bino eshigining tepa qismi.

– Endi, terish kerak-da! – dedi O'rmon aka... – Ha, paxtaning kigrammi necha tiyindan?

– Shu o'n tiyinmi, besh tiyinmi, men ko'pam farqiga bormayman.

– E! Unday bo'lmasa kerak! – dedi O'rmon aka. Keyin kului.

– Yaznamiz<sup>1</sup> bilsalar kerak?

– Ha. U kishi biladilar.

– Yaxshi... Sizlar biron yoqdan kelganmisizlar deyman?

– Yo'q, og'ajon. Biz shu yerning odami.

– Bundan boshqa uchastkalaring ham bordir-da?

– Yo'q, og'ajon. Bori shu... Buyam yaxshi. O'zimiz uch jon. Jiyaningiz otasi bilan ketgan... Cho'pon bo'laman deydi. Halizamon kep qoladi. Choyni qayerda ichasizlar? **Ayolning gap-so'zlari, o'zini tutishi va kiyinishidan jamiyatning umumiy kayfiyatini bilish mumkinmi?**

– Choyni? Hm, bugun endi yotoqda... keyin yana o'ylab ko'ramiz.

Men O'rmon akani hozir qitmir<sup>2</sup>, suqatoy<sup>3</sup> qilib ta'riflayotyganga o'xshayman. Yo'q, bir hisobda u o'zicha haq edi: bizniyam o'ylandi, harqalay.

Shundan so'ng terimga jo'nadik.

Kun chiqib, uyam sarg'ayib nur sochyapti. Biz etaklarni bo'yinga ilib, xuddi oshalolga<sup>4</sup> ketayotgan podachiday boryapmiz. E, do'stim, menga mana shunday kun zarda berib chiqayotganda namxush so'qmoqlardan yurish ham yoqadi-da! **Namxush so'qmoqlardan yurishning gashtini his qilganmisiz?**

Tepangda chug'urchiqlar o'ynaydi. Oyog'ingga ho'l yaproqlar o'ralashadi. Unda-bunda xirmon joylardan bug' ko'tariladi. Ko'rganmisiz? G'o'zaning qavachog'i yonishga mahtal bo'ladi. Uzoq vaqt uyulib yotsa, tutun ham chiqib ketadi.

O'sha kuni terdik. Uyat o'limdan qattiq... El qatori terdim. Lekin burun ochilmadi.

<sup>1</sup> Yazna – (sheva) pochcha.

<sup>2</sup> Qitmir – shum, quv.

<sup>3</sup> Suqatoy – ochko'z, nazari past.

<sup>4</sup> Oshalol – podachilarining ish haqi o'rniga oladigan yeguliklari, oshhalol.

Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab ko'rdida:

- Osh, - dedi bizga qarab.
- Hu, - dedi O'rmon aka, - qozon kichkina ekan-da.
- Yuring, yuring.
- Shoshmang, ho xo'jayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora chophonining tirsaklari yirtilib paxtasi oqqan, soqoli o'siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. *Uy egasining tashqi qiyofasidan uning hayot tarzi qanday ekanligini bilib oldingizmi?* Xuddi o'ngirni bosib oladigandek surilib-shoshib kelib, biz bilan bir-bir ko'rishdi.

- Xush kepsizlar, xush ko'rdik! Qani, uyga marhamat!
- Oldin yuvinib olaylik-chi, - dedi O'rmon aka. - Aytmoqchi, bu ukamizning tomog'i shamollab qopti. Burning ham bitgan-a? - deb so'radi mendan. - Shu, shu... Dori-pori topiladimi. Medpunktlarining markazda ekan, bu yer - Kamchatka<sup>1</sup>.
- E, topiladi-da. Dori topiladi! - Yigit etigini qo'lantayoq kiyib chiqqan ekan, oyog'idan tushib qoladigandek, tal panglab uyga kirdi. Keyin bir bog' ituzum<sup>2</sup> olib chiqdi.
- Shu bo'ladi, tomoqqa bog'lasalar, - dedi.
- Bo'ldi, bo'ladi! - dedim. Ozginasi bo'ladi.
- E, ozginani nima qilasan? - dedi O'rmon aka. - Hali yana kerak bo'ladi. *O'rmonjonning so'zlash ohangidan nimani sezdingiz? Sodda qishloq odamlariga nisbatan yaqinliknimi yoki bepisandlik?*

Ituzumni olib yotoqqa keldim. Unga tikilaman: tanish-da bu o'simlik ham! Qadrdon, bizdayam bir momo bo'lgichi edi. Bobomiz bosmachilarining otlariga xashak bergani uchun "xalq dushmani" deb otolib ketgan, undan qolgan o'n bir qursoqni<sup>3</sup> boqaman, deb

---

<sup>1</sup> Kamchatka – Rossianing sharqiy nuqtasidagi yer. Ovloq joylar “olis, odam oyog’i yetmaydigan” ma’nosida shunday atalgan.

<sup>2</sup> Ituzum – mayda qora mevali yovvoyi o'simlik.

<sup>3</sup> Qursoq – qorin. Bu yerda nonxo'r ma'nosida.

umrini toq o'tkazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin yaratganga topshirib, bizning maymoq ota bilan qolgan.

O'sha kampir davolardi shunaqa ituzumlar bilan... tomoqlarimizni. Tildan tersak<sup>1</sup> chiqsa, oq gulbo'tani<sup>2</sup> quritib-ezib, kukuni ni separdi. Hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketardik.

Omborimizda mana shunday ituzum bog'laridan yog'och qoziqlarga osib qo'yardilar.

Biz ham devordagi bir mixga osib qo'yardik. Keyin mevasidan bir hovuch olib, bo'z etakning chetidan bir parchani yirtib, mevani ezib-ezib tomoqqa ko'tardik. ***Bu kabi davolash usulidan qishloq joylardagi tibbiy yordam ko'rsatish ahvolini tasavvur qilish mumkinmi?***

Ertasi ko'zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik.

Bizga choy qaynatiladigan bak ortidagi kulbalarning orqasida hududsiz dalalar bor, biz o'sha yoqda paxta terdik. Har joy-har joyda mitti-mitti shiyponchalar qo'qqayib turardi. Yeri zax, devorlari qabarib ketgan, atrofida tuproq o'ynab yotar, unda sichqon-kalamushlarning izlari ko'p edi.

Biz goho o'shanday kulbachalarga kirib dam olardik.

Men, men o'zim o'shanaqa joylarda izg'ishni yaxshi ko'rardim. Shunday shiyponchalarining yaqinidan, albatta, biron ariq o'tgan bo'lar, uning qirg'oqlaridan qamishlar g'ovlab ko'tarilgan, qamishlar ichida turfa tikanlar qizil, sariq bo'lib gullagan, o'shalarning ham yolg'iz tomoshachisi biz edik.

Ba'zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albatta, bitta-ikkita burishgan, tirishgan tuynak<sup>3</sup> bo'lardi. Ammo, uni yorib yesangiz mazasi tilni yoradi. E, azizim, menga, bir faqir studentga shunday tuyulgan-da! Bo'lmasa ichi tushgan, ayniy boshlagan tarrakning nimasi shirin? Balli, odam degan munday injiq bo'lmaydi: boriga qanoat qilish kerak...

Terimda esa, hamma vaqt qornimiz to'yan qo'zining qornidek bo'lmasligi o'zingizga ma'lum... bir tuyur go'sht-u makaron solib qaynatilgan sho'lan sho'rva mana shunday joningizga tegib ketadi: rahmat.

---

<sup>1</sup> Tersak yoki terskan – tilga chiqadigan yara.

<sup>2</sup> Gulbo'ta – tog'risi "gilbo'ta". Ta'msiz mayin tuproq.

<sup>3</sup> Tuynak – kech tuyGANI uchun pishmay qolgan qovun-tarvuz.

Hozir paxtani yomonlash, uning mehnatini eng og'ir mehnat deb atash modada. Bir hisobda haqiqatan ham shunday. Biroq terim paytidagi romantika!

Tonglari eslasang! Tuprog'i nam tortgan so'qmoqlarni. Yiroqda arava yo'ldan ko'tarilgan changni, ufqdan endi bosh ko'tarayotgan quyosh yog'dulariga yo'g'rilib, zarrin bir to'zonga aylanib turishlarini eslang! Buning ustiga o'sha paytda: "Eng ulug' ishni men qilyapman! O'zbekning milliy iftixori uchun kurashiyapman!" – deb o'ylab tursangiz. Bitta o'rtog'ingiz o'yinqaroqlik qilib, kamroq paxta tersa, ko'zingizga yov bo'lib ko'rinsa...

Bitta go'zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog'lab olib, endi zo'rg'a terayotganini ko'rsangiz: "E, shaharlik oyimqiz! Soyapar-da, soyapar!" – deb ich-dan haqorat qilar edingiz.

Ha-da, avvalo, o'zim haqimda gapiryapman! Yo hikoyamni tutagib qo'ya qolaymi?

Mayli...

Rasvo bo'lib, shalabbo bo'lib yotoqqa yetib keldim. Ertasi saharlab turish kerak, terimga chiqish kerak. Yomg'ir, qor – paxtaning oldida kapeyka!<sup>1</sup>

Kiyim-boshni yuvib, pechga tutib sal-pal quritdim. Keyin bir dono o'rtoqning maslahati bilan: "To'shakda qurib qoladi", deb kiyib yotdik.

Ertasi rasvogarchilik.

---

<sup>1</sup>. Kapeyka – ruscha "kopeyka" so'zining buzilgani. "Bir tiyin" ma'nosida.



– Juda nozik ekansan-da, shoir, – dedi O’rmon aka. Nozik, xayolparast odamlarni “shoir” deb atash o’shnadan rasm bo’la boshlagan edi.

... Saparboy – haligi qoraqalpoq yigit menga yaqin edi... Shu yigit:

– Qol, sen uchun ikki fartuk<sup>1</sup> terib beraman, – dedi.

Ikki fartuk paxta – bu olamjahon mehnat! Bu – kamida ikki-uch ming marta egilib-ko’tarilish degani. Yana qancha mashaaqqati bor... Ko’nglim buzilib, unga nima minnatdorchilik bildirishni bilmay qoldim. Boshim aylanar, ichim o’z-o’zidan yonib ketayotgandek edi. Azimjon aka ham peshonamga qo’l qo’yib:

– Qoling. Mumkin emas. Jon ham kerak, – dedi.

Qarang, odamlar qanday realist.

Qoldim. Bolalar ketishdi. Uyda yotib qolgan bemor uchun ham shartshu edi: u yoq-bu yoqni supurib, tozalab qo’yishi kerak. Birato’la qutulay deb uyni supurdim. Ayvonnarniyam tozaladim. Axlatni imorat orqasiga o’tib to’kib qaytayotgan edim, bir manzarani ko’rib qoldim.

Jo’xoripoya chetida yovvoyi supurgi panasida bitta o’n-o’n bir yoshlardagi bolakay qo’lchalarini tizzasiga tirab nari tomonga qarayapti. U yoqda bo’lsa, paxsadevorga taqab to’kilgan somon ostida bir sariq it yotibdi.

Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Shunda it g’ingshib, sapchib turdi-da, devordan lippa oshib o’tdi. Saldan so’ng musht-dek kuchukvachchani tishlab, bu yoqqa sakrab o’tdi. Yerga qo’yib yaladi. Yana yotdi.

– Qiziq-a? – dedim.

Bola cho’chib tushdi. Aft-basharasi kir, telpagining qulog’i pe-shanasiga tushgan edi.

– Ha, – dedi tashvish bilan. – Bu yer ko’cha, opketishadi bolalar... Men bolasini hovliga o’tkazib qo’yaman, bu uyasiga olib o’tadi. U yoq yaxshi-ku?

Men xo’rsindim. *Ergashvoyning xo’rsinishidan qanday ma’noni uqish mumkin?*

– Ming qilsayam o’zining uyi-da... Sen kimning o’g’lisan?

---

<sup>1</sup> Fartuk – etak.

Odamzod qiziqda, a? Uning kimga o'g'il bo'lishini menga nima ahamiyati bor deng?

- Botir cho'ponni, - dedi.

- Ha-a, ordeni bormi?

- Yo'q, - u g'amgin tortib qoldi. - Eshimboyning ordeni bor. Lekin qo'yil kam.

Ana, yosh bolalar ham o'sha maxinatsiyalarni<sup>1</sup> bilishardi.

- Hechqisi yo'q, - dedim. - Sening otang ham oladi. Botirboy zo'r cho'pon. A, uylaring shu devor orqasidagimi?

- E, e! - dedi u ustimidan kulganday. - Ana-ku! Sizga otam ituzum berganda, men derazadan qarab turib edim... Yana kerakmi? Ko'zingiz yoshlaniib ketyapti!

- Yo'q. Ituzumim bor, - dedim. - Aka-ukalaring ham bormi?

- Ukam o'ldi. Doya kampir chala tug'ilgan, dedi. O'ldi. Ko'mib kel-dik. Kichkina edi.

- Attang, - dedim.

Shu yerga kelib joylashgandan beri haligi ayol bilan erining yashash sharoiti, yotish-turishini ham ko'rib turardim: ayol tong otmasdanoq uyg'onardi: sigir sog'adi, erini kuzatadi, keyin o'rmak to'qiydi... Kun ko'tarilaver-ganda, ariqning u betidagi paxtazorga tushadi: kechgacha bir qopni tikka qilib qo'yadi. Kechasi ham alla-mahalgacha ularning kulbasidagi yolg'iz derazadan ariq bo'yiga nur tushib turadi. ***Sizning onangiz bilan ayolning kundalik yumushlari orasida qanday o'xshahlik yoki farq bor?***

O'rmon aka bilan Azimjon aka, tag'in uch-to'rt bolalar ularning choyini ichib chiqqan, bir-ikki marta ovqatlarigayam sherik bo'lgandi.

Shu narsalarni o'ylab: "Ishi og'ir, bolatashlagandir-da", - deb o'yladim.

Bilasizmi, ey qadrdon, ko'zimiz ochiq bo'lgani bilan ojiz ekanmiz-da: siz ham shunday g'arib kulbalarda yashayotgan dehqonni, paxtakorni ko'rgansiz. Albatta... Lekin buni tan olmas edik-a? Qanday ablak ekanmiz!

Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. Birovlardan ham yashirar edik.

---

<sup>1</sup> Maxinatsiya – ko'zbo'yamachilik, firibgarlik.

Shoshmang-shoshmang, bu yerda bir gap bor: bunarsa faqat qo'rquvdan deb o'ylaysizmi?

Gumonim bor. Bechora o'zbekni bilasiz-ku, o'zi yemasdan mehmonga tutadi...

Kambag'alligini yashiradi. Qiziq-a? Holbuki, kambag'al odam o'z holatiga ko'nikkan bo'ladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag'al bo'lib qolganday: shuning uchun o'kinch bilan buni yashirishga intilayotganday tuyuladi menga... balki boshqa bizning aqlimiz yetmaydigan sabablari bordir? **Hiko-yachining gaplariga qo'shilasizmi? Nazaringizda, cho'pon oila-si o'zlarini kambag'al hisoblashadimi?**

Bolaning ismi Abduqodir ekan.

Birga-birga ayvonga keldik.

- Itga tegma, - dedim. - Senga o'zingning uying yaxshi, unga o'ziniki yaxshi.

- Bu yerda yomon bolalar o'g'irlab ketishadi. Sotadi, - dedi Abduqodir.

- Kimga sotadi?

- Sotadi-da... Bitta gektarchi karis oltita kuchukni sotib olib kelgandi.

- O'qisanmi?

- Beshinchida... Tushdan keyin maktabga boramiz. Hey keyin-roq ko'rak chuviyimiz.

- O'qish nima bo'ladi?

- To'xtaydi! - deb kuldi bola. - Kelasi yildan paxtaga chiqamiz! Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? O'qiymen. "Robinzon Kruzo" bor. Bitta felsher<sup>1</sup> tashlab ketgan. O'tgan yili... U kamni ko'rgani kelgandi... Men yig'ladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!

Azizim, men ham xuddi shu bolakayning yoshida o'qigan edim o'sha kitobni. Siz ham...

Biografiyamiz qanchalik yaqin-a?

Hikoyamni cho'zib yuboryapmanmi? Shoshib qayerga borasiz, qadrdon? Goho miriqib gaplashib, o'ylashib olish ham kerak-ku! O'sha damlarni qaytadan yashab, a?

---

<sup>1</sup> Felsher – "Feldsher" so'zining buzilgani. Kichik tibiyy xodim.

U xotiralar odamning yuragini tozalaydi. Shundoq ham fisq-u fujurga, keraksiz koni ziyon o'ylarga to'lib ketgan bu ko'krak... Siga-retdan cheking.

Shunday qilib Abduqodir bilan jo'ra bo'lib qoldik.

Tutzor ortidagi barakda qizlarimiz ham turardi. Ulardan ham ikkitasi kasal bo'lgan ekan, doktor keldi. Meniyam ko'rib, analgin-panalgin deganlaridan berib ketdi.

Uch kun qattiq yotdim.

To'rtinchi kun edi shekilli, ayvonga chiqayotsam, Botir cho'pon bitta tarvuzni qo'ltinglab pastga tushib ketdi. Shu kuni tushdan keyin havo ochilib, kun ancha qizidi.

Kechga tomon yana uyni supurib bo'lib, ayvon – ustun tagida cho'nqayib o'tirgandim. Abduqodir yarim palla tarvuzni ko'tarib, pishnab chiqib kela boshladi.

O'zi bitta tarvuz olib tushishgan edi...

– Sizga. Yeng, – dedi. – Otam berib yubordilar. Opam yesin dedilar... Keyin kechqurun uyga kirar ekansiz.

– Yemayman. Rahmat. Qornim to'q, – dedim.

– Yo'q. Yeysiz! – dedi u men bilan urishadiganday. – Siz kasal. Bu tarvuz yaxshi ekan.

– Yemayman.

Abduqodir turdi-turdi-da, tarvuzni shatta yerga qo'yib, chopib tushib ketdi. **Ergashvoyning bu ishini oqlaysizmi?**

Bolalar terimdan qaytgach, haqiqatan ham Botir cho'pon chiqib kelib, bizlarni uyiga aytди:

– Kelinglar, ukalar. Bir osham osh qilgan edik. Sizlarga rahmat. Bu yerda ota-onalaring yo'q...

– E, uyingizga sig'maymiz-ku, – dedi O'rmon aka.

– Ko'ngil keng bo'lsa, bemalol sig'ishamiz, – dedi cho'pon, – tushinglar.

– Biz axir yigirma kishi!

– Bo'lmasam, yigitlar, o'ntamiz bugun mehmon bo'lamiz. O'ntamiz keyin! – dedi O'rmon aka.

Meni qo'ymay olib bordilar.

To'rt kishi zo'rg'a sig'adigan xona edi. Burchakda g'ishtin pech. Oqlangan. Lekin choyning dog'i, yog' to'kilgan. Yerga ikki qavat

palos solingan. To'rda taxmon yuk. Ensiz-ensiz ko'rpachalar solingan. Tiqilishib ornashdik.

Botir cho'pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi. Qo'sh-qo'sh yopgan non qo'ydi. Bir taqsimcha oq qandni sochib tashladi. Keyin ikki hovuch jiyya bilan mayiz ham sochdi. Keyin kattakon xum choynakka ko'k choy damldi.

Ikki tovoq palov hash-pash deguncha yo'q bo'ldi. Keyin bosibbosib choy icha boshlashdi.

Men... qanday o'tirganimni bilmas edim. Kasallikdan tuzalmaganim, injiqlik sababdir... Lekin bir burda non yeishga istihola qilardim.

Bu oila – kambag'al edi. *Ergashvoyning bu xonadondan oyoq tortishi ularning nochor hayotiga daxldormi? Javoblariningizi yigit tabiatiga xos sifatlarga tayanib izohlang.*

– Ha, paxtalar oyoqlab qoldi... Qani, bu yashash qalay endi? – dedi O'rmon aka. – Yig'inayapsizlar deyman-a? Ha-ha-ha! O'zbekning odati shu-da: bolamga bo'lsin deydi...

– Ha, endi bizning otalar ham qilgan-da, – dedi Botir cho'pon. – Opangizga uylantirib qo'yishdi. Elni oldidan o'tdik. To'y deganday, xarajati bor-da...

– Lekin bizni aldashyapti, cho'pon aka! Kunlik mehnatimiz ovqatimizni qoplamaydi. Bir kiloga o'n tiyin to'laydi. Hozir o'n kilo terish o'limdan qiyin.

– Ha, endi chidaymiz-da, og'ajon. O'zimizni paxta, o'zimizni humumat.

– Hey, tushunmay qolaman-da, bu ishlarni! *O'rmonjonning yozg'irishlaridan sobuq tuzumning o'zbek xalqiga nisbatan qanday munosabatini sezdingiz?*

Ayol meni kuzatib turgan ekan.

– Shu ukamiz hech narsa tatimadi-da, – deb qoldi. – Yo bizni pisand qilmayaptilarmi?

– E, nimaga... Olovim chiqib ketdi. – O'zim, shu...

– He, ishtahasi yo'qdir-da, – dedi O'rmonjon aka. – Bo'lmasa ovqatdanam ham tortinadimi odam!

- Ha, ishtaham yo'qroq... - dedim. *Ko'pchilik qatori oldiga qo'yilganni tanovul qilib, suhbatlashib o'tirishning yomon tomoni bormi? Bu bilan ularning nimasidir kamayib qolarmidi?*

Tezroq chiqib ketgim kelardi. O'rmon akaning gaplari, so'roqlari jonimga tekkan edi... Nima? E, qadrdon, meni nahot tushunmaydi deb o'ylasiz? Ha-ha! O'rmonjon akayam o'zicha haq edi...

Masalaning boshqa tomoni ham bor: biz o'zimiz ham qornimiz to'yib yashamasdik. Bittasi yarim kilo qand obkelgan bo'lsa, boshqa bittasi o'g'irlardi, birovning kosasidagi go'shtni birov... Aytishga til bormaydi. Tutab ketasan kishi.

N-nima qilishim kerak bo'lmasa? Hadeb qo'l uzataveraymi? Qo'ying bu gaplarni.

Og'a! O'sha sharoitda siz ham mendan o'zgacha tutmasdingiz o'zingizni!

Shu-shu, bularning uyiga qayta kirmadim. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. "Xo'p" deyman. Paysalga solaman. *Nazaringizda, qahramonimizning o'zini tutishida xudbinlik alovatlari sezilmayaptimi? Agar siz uning o'rnidagi bo'lganiningizda mezonning ra'yiga qarshi borarmidingiz?*

Ularning kulbasiga kunora kirib chiqadigan, dasturxonini quritadigan bolalar ko'zimga yomon ko'rinish qoldi. Asta-sekin ular bilan ham hamardlikni uza boshladim.

Shunda, siz tasavvur ham qilolmaydigan bir voqeа sodir bo'ldi.

Surunkasiga yomg'ir quya boshladи. Ikki kun ovqatsiz qoldik. Shundoq ham ko'p bolalar qarzdor bo'lishgan edi. *Erta tongdan qorong'i tushguncha tinimsiz ishlab, oqibatda qarzdor bo'lib qolish... Buning ustiga to'yib ovqat yemaslik... Siz mana shunday vaziyatda qanday yo'l tutar edingiz?*

Asta-sekin elchilarimiz qishloq ko'chalarida izg'iydigan odat chiqarishdi: kechasi bir mahalda o'ntalab, o'n beshtalab qovun-tarvuz ko'tarib kelishadi.

Ertasi shtabda janjal: kimdir hovlisiga o'g'ri tushganini aytib shikoyat qilib kelgan...

Ana, o'g'rilikkayam o'rgana boshladik.

Ammo eng katta o'g'rilik... Kechasi dovul bo'ldi. Bir payt eshik qattiq ochilib, shalabbo bo'lgan Botir cho'pon ko'rindi.

– Mollar chiqib qochdi! Yordam beringlar!

Qo'y-echkilarni nima hurkitgan – bilmay qoldim. ***Haqiqatan qattiq shamol otarni hurkitib yubordimikan?*** Yoki bu yerda boshqa bir sir bormi? Boshqalar qatori chiqib, izlab ketdik. Qishloq ko'chalarida deng, it ko'p. Balki bo'ri oralagandir. Yomg'ir bo'lsa chelaklab quyyapti... E, ko'p izladik. Dabdalamiz chiqib, qo'y-echkilarning bir bo'lagini paxtazordan, besh-oltitasini ko'chadan, ayrim xonadonlardan topib keldik.

Cho'pon eshik og'zida fonar yoqib, ko'zlari javdirab turibdi. Nuqul rahmat deydi. Ayoli alqaydi. O'g'ilchasi xursand... Lekin bitta qo'zi topilmagan edi.

– Uni o'zim topaman. Sizlar dam olinglar endi... Topsam, o'zimning ikki qo'yimdan bittasini so'yib, qovurib beraman sizlarga, – dedi Botir cho'pon. ***Butun otarni boqqan cho'ponning atigi ikki qo'yga egaligi xalqimizdag'i qaysi maqolni yodga soladi?*** Shulardan birini esa minnatdorchilik o'rnila yigitlarga ilinmoqchi bo'layotgani cho'ponning qanday inson ekanlidan dalo-lat beradi?

– Shunaqa qiling-e, bir go'shtga to'yaylik, aka! – dedi O'rmon aka.

Biz yotoqqa qaytdik. Endi... yana burnim bitdi desam, sizniyam g'ashingiz keladi.

Mayli, bunday deyin: shu kecha besh-oltita yigit ham qattiq shamollagan ekan.

Soat ikkimidi-uchmidi, nafasim qaytib uyg'onib ketdim. Eshik qiya ochiq, g'uvillab shamol kirayotgan ekan. Tagidan tortdim, yana ochildi. Tob tashlaganmi, nima balo. Irg'ib turib tutqichdan ushlaganimni bilaman, birov eshikni naryoqqa tortdi. Men bu yoqqa. Qo'rqedim. Keyin lang ochib yubordim. Azimjon aka turgan ekan.

– E-e! Baqqa ke. Ustingga bir narsa il, – dedi u kishi.

Choponni yelkaga tashlab chiqsam, ustun yonida O'rmon aka, Mirzag'olib degan polvon yigit ham turishibdi.

Mirzag'olibning ham yoshi mendan ulug', "Rais" degan laqabi bor, o'zi ehtiyyotkor, "qirqoyoq kiradi", deb qulog'iga paxta tiqib yotadi.

Azimjon aka eshikni zichladi-da:

– Yur. Gap bor. Bo'lgan ish bo'ldi... Sen sho'rlik ham bir maza qil, – dedi. – Lekin guldur-gup, – dedi O'rmon aka.



Ularga ergashib yo'lga chiqdim. O'rmonjon aka oldinga tushdi. Yomg'ir tingan, ammo sovuq kurnlardan darak beradigan shamol esar, u ust kiyimlarimiz o'ngirlarini ochar, bag'rimizga o'zini urar edi. Endi itlarning tovushi ham o'chgan.

Biz yo'l yoqasidan orqaga – qishloqqa bizni olib kelgan tomonga ketar edik.

Ancha yo'l yurib qo'ydik. Dimog'im ham ochildi ancha. Bir-ikki marta:

– Qayoqqa boryapmiz, o'zi? – deb so'radim.

Ular aytishmadidi. Keyin bo'lsa... Xursand bo'lib ketdim... Ha, zimziyo tunda qandaydir sirli ish bilan qayooqqadir ildamlab ketishning ham zavqi bor-da!

He, qishloq orqada qolib ketdi... Boshda aytgandim – qiyoqlar bog'-bog' qilib yerga o'tqazib qo'yilganday ajriqzorga yetib keldik. Bu tomonda bir-ikkita it uchradi, qochib ketishdi.

Biz O'rmonjon akaning orqasidan boryapmiz. Ayrim joylardagi qamishlar yondirilgan ekan: namiqqan kulning hidi anqiydi.

Namchil yer g'ij-g'ij etadi.

Alqissa, qamishlar odam bo'yи o'sgan, changalga o'xshash yerga borib qoldik. Shunda bir qo'zichoqning ojiz ma'raganini eshitdim. Ammo hali gap nimadaligini, bu safardan murod neligini bilmasdim. Oqibat, qamishlarga oraladik va O'rmonjon aka qo'l fonarini yoqdi. Zumdan keyin biz oyoqlari kuliklab<sup>1</sup> bog'lab, yotqizib qo'yilgan qo-ragina, jiqla ho'l bo'lgan, ko'zlari yiltirab zo'rg'a ovoz chiqarayotgan qo'zichoq tepasida turardik. *Nima deb o'ylaysiz, "Qo'zi operatsiyasi" rejalashtirilganmi yoki tasodifiymi? Yigitlar qo'zichoqni oldinroq yashirib qo'ygan bo'lishi mumkin-ku?*

– Xayriyat, – dedi O'rmonjon aka. – Men daydi itlardan qo'rqqan edim... Ergashvoy, chorvani bilasan, it ham qo'zichoqlarni yeyishi mumkin-a?

– Shunday voqealar bo'ladi, – dedim. – Lekin bu kimning qo'zisi?

– Bizniki... Bizniki endi. Mirzag'olib, boshlang endi! Mana, mening pichog'im o'tkir, lekin suyakka urmang.

Juda jo'n ekanman deyman-da!

– Vey, shuni so'yasizlarmi? – derman.

– Bor. He, u yerdan yo'lga qarab tur!

– Yo'q, axir bu kimniki? Balki kolxozniki, balki... E? Botir akaning yo'qolgan qo'zisi emasmi?

– Obbo, senga nima deyapman! – dedi O'rmonjon aka, yelkam-dan ushlab orqaga burdi. – Bor-da endi. Kolxozning yonini oladi-ganni ko'rdik! Kolxo... Padariga la'nat! Bizni ochdan o'ldiradi! Botir ham bir qo'zisidan ayrilsa, ochdan o'ladigan kimsa emas! *Qadrli o'quvchi, shu o'rinda yigitlarni ayblash to'g'rimikan? Chunki sharoit shuni taqozo etardi-da?*

– Axir insoflaring...

Shu ish bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolarmidi? Yo'q! Men o'shanda faqat nafratlanar, nochorlikdan fig'on chekar edim.

To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin chama-si, kursdoshlар orasida yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitishdan ham qo'rqedim, shekilli.

---

<sup>1</sup> Kuliklamoq – jonivorlarning oyoqlarini matashtirib bog'lash.

Bundan tashqari, anglab olmagan esam-da, bu yigitlar to'qlikka sho'xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni oqlashga asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli, o'z-o'zini al-dash deysizmi – shularning biri edi.

Xullas, men o'sha qo'zining go'shtidan bir bo'lak yemagan ersam-da, baribir o'g'rilikka sherik edim.

O'rmonjon akayam, Azimjon akayam bir haftalargacha mendan xavfsirab yurishdi.

Men ular bilan gaplashmay qo'ygandin, xolos.

Nima dedingiz?

Ha, o'sha yerda so'yishdi. Mirzag'olib so'ydi. Hash-pash deguncha terisini shilib, kalla-pochasini otvorishdi. Keyin bir to'p qamishi ni yondirib, qo'riga jigarini pishirib yeyishdi.

Yemadim dedim-ku. O'zimni ishtahasi yo'qqa urdim-da... Juda bo'lmagandan keyin: "Hammalaringdan jirkanaman!" – deb chetga chiqdim. Keyin kutdim.

Be-e, cho'ponga borib siz ham aytmasdingiz. Keyin ketdim. Yotoqqa kirib yotdim...

Nuqlul yig'lagim keladi, ukkag'ar. Botir akaga, ayoliga achinardim. Keyin yigitlarimizga achindim... ha! Ular qachon kirib yotishganini bilmayman. Biroq uch-to'rt kun go'sht qovurib yeyishdi. Yo'q... qizlar yotog'ida yeyishdi. Endi, ular ham jannatda emas, edilar-da, qadrdon.

Siz yozuvchilar injiq odamsizlar. Yaxshi odam deganda, albat-ta, sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayotda yo'q: undaylar, menimcha, g'oya... xolos. Ha-ha-ha. Sizning gapingiz ham "Komministik jamiyat odamining axloq kodeksi"ga<sup>1</sup> o'xshab ketadi.

Kodeks chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi: risoladagidek bo'ladi, deb hisoblashadi ba'zilar. Bular – chipuxa<sup>2</sup> gaplar.

Kunlar o'tdi.

---

<sup>1</sup> Sho'rolar zamonida yaxshi odamning sifatlari belgilangan shunday hujjat bo'lardi.

<sup>2</sup> Chipuxa – ruscha "chepuxa" so'zining buzilgani. "Bo'lmag'ur", "arzimas" ma'nolarida.

Qor uchqunlay boshladi... Bizning, o'zingiz bilgan tog'larda bunday paytlar izg'ishlarimiz, sayr-u sayohatlar – endi ertak edi. Bizsov uqda tors-tors yorilgan ko'saklarning paxtasini suvgaga ivitib ol-gandek sug'urib olardik.

Ha, ikki kishi arqon bilan bir chetdan surib, g'o'zalarning qorini to'kishardi. Keyin dikillab egatga kirardik. "Oq oltin"ni terardik. Bu qurmag'ur "oq oltin" etakka tushgach, tugilib, mushtdek bo'lib qol-lardi. Jiqqa ho'l-da.

A? Qanday qilib quritib topshirishlarini bilmayman. Lekin bir-ikki xonada uyilib, sasib yotganini ko'rganman.

Keyin ko'sak terish boshlanadi.

Endi, bizning qadrdonlar: O'rmonjon aka, Azimjon aka, Mirzag'olib, tag'in ularning safdoshlari – bari sal sovuq o'tdi degun-cha, yo vaqtida bak qaynamasa, Botir cho'ponning kulbasiga kirib tiqilib olishardi. **Aziz kitobxon, mabodo xayolingizga yigitlarning o'g'rilik qilgan xonadoniga kirib, tuz-namak bo'lisdan uyal-madimikan degan fikr kelmadimi?**

Cho'pon bilan xotini esa... xursand!

Biz endi yakkamoxov bo'lib qolgandik. Yo'q, sira kirmadim. Qanday qilib kiraman!

Bu yog'iga qulq soling.

Qaytadigan bo'ldik. O'zingiz bilasiz, bunday kunni hech bir o'qituvchi, brigadir aytmaydi... Negaligimni hamon tushunmay-man. Balki terimdan sovib qoladi, deb o'ylashadimi?

Lekin kulgili joyi shundaki, bolalar baribir bilishadi. Botir cho'pon ham bilgan ekan. Erta jo'naydigan kunimiz o'zlari xotinlari bilan kelib qoldilar. Yotoqqa... Men qandaydir xavotirga tushgan bo'lsam kerak, harholda.

– Assalomu alaykum, kelinglar, mehmonlar! – deb yubordi O'rmon aka.

Azimjon akayam bolalarga to'shanchi solishni buyurdi. Botir cho'pon qulluq qilib, xuddi kirib o'tirmasa, biz u dunyo-bu dunyo yuz ko'rmas bo'ladigandek, ta'zimlar bilan yana uyga aytди.

– Shu, labz ekan, ukalar... Tilga olib qo'ygan edik. Bitta qon chiqaramiz deb... Shunga qadam ranjida qilsanglar. Mana, opalar-ing ham iltimos qilyapti, – dedi.

Men tamom bo'ldim.

– E, qandoq bo'larkin... – dedi O'rmonjon aka. – Qo'zingiz topilsa boshqa gap edi.

– Ha, o'sha kecha biz ham yaxshi izlamagan ko'rnamiz, – dedi Azimjon aka ham. – Andak xijolatdamiz.

– E, og'alarim-ey, – deb kului cho'pon. – Biz xijolatda edik. Ishonasizlarmi, biz?.. Endi, gapni ko'p chuvaltirmaylik, ukalar. Qo'zi topildi hisob. A, xotin? He, Shodito'qaydan topdik. Ul-bulni... O'zimiz tusmollagan edik... daydi itlarga yem bo'lgan-ov, deb... Endi bizni xursand qilamiz desanglar, ketar jafosiga bir mehmonimiz bo'lasizlar... **Bu oilaning hasharchilarga qayta-qayta rahmat aytishi, hadeb mehmonga taklif etaverishi, o'zlarini qarzdordek tutishlarini qanday izohlasa bo'ladi?**

Keyin o'zları ham endi terimga chiqmasliklarini, faqat g'o'zapoya yulishlari va uyda o'tirib, ko'sak chuvishlarini aytди.

– Qishlog'imizda ikkita grek bor, – dedi xotini keyin. – Bir chelak haligiday suvdan ham oldik.

Hayronmisiz, qadrdon?

Men hayronman!

Albatta!

Shu kechasi bir mahalgacha kulbada o'yin-kulgi qilib o'tirishdilar. Tashqarida ham davom etdi. Men o'zimni uxlaganga solib yotar edim. Yigitlar kelib, chiroqni yoqishgach, men to'g'rimda to'ng'illay-to'ng'illay o'tirishdi.

Ko'pchiligining kayfi bor edi. Kayfdagi odamning gapiga ishonish qiyin-u, lekin... ha-ha, o'sha, xuddi o'sha o'ylagan gapingiz bo'ldi: pushaymonlik... E, biri qo'yib, biri oldi, biri qo'yib, biri...

Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.

Azimjon akaning nidosi yodimda qoldi:

– Biz ablahmiz! – dedi ingrab. – Ko'ra-bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o'zbekmiz-a? Ana ularni o'zbek desa bo'ladi. Nima deding, O'rmonjon?

– Biz ancha buzulganmiz, – deb po'ng'illadi O'rmon aka. – Lekin hayotning o'ziyam majbur qiladi-da, kishini. **Ilojsizlik - har qanday qing'ir ishlarga yo'l qo'yish, degani ekan-da, unda?!**

- Ularni majbur qilmayapti-ku!
- Nimaga?
- Shu, endi... Balki pul yig'ib berarmiz-a?
- Bo'lsa! *Agar yigitlar o'z qilmishlaridan er-xotinni voqiv etishganida oradagi ishonch va samimiylikka putur yetarmidi yoki hech narsa o'zgarmas edimi?*

Keyin men haqimda gapirishdi. Bittasi, ovozidan bilolmadim, tik turgancha:

– Shu Ergashvoyning ichiga tepsang-da! – dedi. – Ko'zimga itdan battar yomon ko'rinyapti... Endi bir umr kulib yuradi bizdan, yaramas. Yovvoyi... *Bu so'zlar Ergashvoyga hasaddanmi yoki o'z aybiga iqrormi?*

– Parvo qilma, – dedi O'rmonjon aka. – Bunaqalar hayotda bo'ladi...

Men bu hikoyani o'zimni maqtash uchun aytmayapman. U yog'ini so'rasangiz, hozir ulardan ham besh battar bo'lganman: haqqimni yedirmayman. Har qanaqa avtoritetni<sup>1</sup> odam demayman... Shu-shu. Hozir hammamizning ko'zimiz ochilib qolgan. Ha, ertasi...laylakqor yog'ib turardi. Xuddi tog'larda yog'adigandek!

Ko'chada avtobuslar tizilib ketgan. Yigitlarning boshi osmonda. Nihoyat, universitet auditoriyalariga qaytishadi! Ayvonda turgan-dim. Xaltam yonimda. Shu Botir cho'pon bilan xotiniga bir yaxshi gap, minnatdorchilik bildirgim kelardi. Men ularni juda yaxshi ko'rib qolgandim-da!

Ha, kelib qolishdi.

– Xush ko'rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O'rmonjon! – dedi Botir cho'pon. – Azimjon, sizgayam... Hammalaringizga. Sizlarning qadringizga yetolmadik biz.

U kishi hamma bilan qo'l berib xayrlashdi-da, menga qolganda burilib ketdi. Shunda ayol ham xo'shlasha boshladi. Qadoq qo'llarinig uchini berib xo'shlasha-xo'shlasha menga yetganda uyam burilib ketdi.

---

<sup>1</sup> Avtoritet – obro'li odam, boshliq.

Men titrab-qaqshab ularning oldiga bordim. *Ergashvoydagi qaysi jihat uni shu turdag'i "jazo"ga mubtalo etdi?*

- Botir aka, opa... men sizlarni juda yaxshi ko'raman, – dedim.
- Xafa bo'lmanqizlar.
  - Yo'q, siz bizni yaxshi ko'rmaysiz, – dedi xotini. – Boshdan yomon ko'rib edingiz.
  - Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, – dedi shunda cho'pon ham. – Anavi yigitlar boshqacha...
  - Axir men sizlarni juda-juda hurmat qilaman.
  - Bekor gap, – dedi ayol.
  - Ha, – dedi eri. *Bu oilaning odamlarni farqlay bilmaganliklarini ayblab bo'ladimi?*

Abduqodir menga yotsirab qarab turardi.

Shunaqa. *Agar Ergashvoy kursdoshlарining qilmishlarini aytib berganida cho'pon oilasining yigitlarga munosabati o'zgararmidi?*

Xo'sh, bu yerda nimani ko'rding, nima xulosaga kelding, deb so'rarsiz? Men bu yerda oddiy-jaydari, sodda o'zbekning kengligi, to'porilagini ko'rdim.

Ishonasizmi, avtobusga o'tirganidan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: mana shu o'zbeklarning bag'ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lman, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi instinct<sup>1</sup> kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim.

Uzr, suhbatimiz "o'zbek xarakteri" haqida edi. Sizlar aytgan zo'r-zo'r hikoyalardayam haqiqat bor. Ammo mening bu jo'ngina, oddiygina hikoyam – ko'nglimdan o'tgan narsa edi, azizim. Shuning uchun buning menga ta'siri mutlaqo bo'lakcha<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Instinkt – odamning aqliga bog'liq bo'lman, uning tabiatida o'z-o'zidan mavjud bo'ladigan sifat.

<sup>2</sup> Xolmirzayev Sh. Saylanma: III jildlik, II jild: Hikoyalar. -T.: Sharq, 2005. – 116 - 134 b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. Tarix darslari orqali sobiq sho'rolar boshqaruving o'tgan asrning 80-yillarida xalqimiz boshiga solgan ko'rgiliklari haqida nimalarini bilib olgansiz?
2. Paxtadan vosita sifatida foydalanish orqali yozuvchi qanday maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?
3. Yozuvchining xalqimiz turmush tarzini shunchalar nochor tasvirlashi shartmidi? Axir bu to'kis hayotni atayin buzib ko'rsatish degani emasmi?
4. Ergashvoyning shamollab terimdan qolishi lavhalari tagzaminida yashiringan ma'noni aniqlang.
5. Cho'pon oilasi dunyoga kelib nima ko'rdi? Chala tug'ilgan go'dak fojiasi-chi?
6. Inson haq-huquqlari, qadr-qiymati poymol etilgan jamiyat taqdiri qanday kechadi?
7. Sujet chizig'ida o'n sakkiz yashar yigitning e'tiqodi, qat'iyati va irodasi qanday ko'lama takomillashib boradi?
8. Sizningcha, qaysi epizodni hikoya tuguni deb qabul qilish mumkin?
9. Asarda necha xil xarakter namoyon bo'lgan? Har bir qahramon tabiatidan kelib chiqib, ularni guruhlashtiring.
10. Hikoyadagi tragik holat aks etgan o'rirlarni aniqlab, munosabat bildiring.
11. Milliy tabiatimizdagi qusur va illatlarning tub ildizlarini aniqlashga harakat qiling.
12. Obrazlar mohiyatidan kelib chiqib, yozuvchi shaxsiyatiga baho bering.

## Mavzuga qo'shimcha material

### **MIXAIL GAR**

1956-yili tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Bir necha yillar O'zAda muxbir, Sankt-Peterburgdagi "AKKA" nashriyotida Bosh muharrir lavozimlarida ishlagan. Quyidagi yod-nomada uning tug'ilib o'sgan yurtiga sog'inch tuyg'usi, kamtar va oljanob o'zbek xalqiga cheksiz ehtiromi hikoya qilinadi.





## **MAHALLAMNING OLTIN TUPROQLARI**

Toshkent, Toshkent!..

Assalom, eski qadrdonim! O'n yetti yildan beri ko'rishmabmiz. Avvalo, meni taniganing uchun tashakkur! Seni ko'rib, juda ko'p voqealarni yodga oldim. Umuman olganda, xotira bu – odamga berilgan eng katta yaxshilik va xuddi shunday yomonlik ham. Chunki xotira – vijdon. Azizim, men faqat beg'ubor xotiralarinigina eslasam, maylimi?..

Men bundan ellik uch yil muqaddam Shayxontohurda, ulug'lar maqbarasidan yuz qadam narida joylashgan va ularning sharafli nomlari qo'yilgan mahallada dunyoga kelganman. O'shanda bizning egnimizda qora shalvargina bor edi, xolos, boshimiz tap-taqir qilib qirtishlangan, tanimiz quyoshda qoraygan, bitta kulol qo'lida pishib chiqqan ko'zalarday bir xil edik. Shu ahvolda tor va qing'ir-qiyishiq ko'chalarda o'ynab yurardik. ***Mahallaning oltin tuproqlari esa tovonlarimizni kuydirar edi...***

O'sha paytlar lanka – bolalarning eng sevimli o'yini bo'lgan. U bir tutam qo'y junidan kesilib, uzun yoki kalta, xullas, ta'bga qarab har xil bo'lardi. Lanka og'irroq bo'lishi uchun uning orqa tomonidan o'rtasiga qo'rg'oshin quymasi sim bilan qotirilardi. Lekin oyoq bilan tepaga yo'naltirilganda ko'tara olmaydigan darajada og'ir bo'lmasdi, albatta. Lankaning o'ziga xos o'nlab turi bor bo'lib, belgilangan tartib va mohirona uslubda bajarish taqozo etilardi. ***Xullas, mahalla biz – yalang'och bolakaylarni g'alaba sari intilishga o'rgatdi.***

Eslayman: miriqib o'ynab bo'lgach, tushlikka borardik. Yemishimiz ham oddiygina: suvi qo'l bilan chiqariladigan musluk

atrofida qotgan non burdalarini ivitib, ta'riflab bo'lmas ishtaha bilan poqqos tushirardik. *Nonni oiladagi o'n bir farzandning bri bo'lgan, mening mahalladosh do'stim - Hamidning onasi tandirda yopardi. Ular oddiygina hayot kechirardi. Lekin ularning hovlisiga kirgan har bir inson borki, xoh u bola bo'lsin, xoh katta yoshli odam, bir piyola choy bilan issiq nondan yemasdan ketmasdi.* Bizga esa qiyshiq jo'mrakli musluk oldida suvgaga botirilgan qattiq non yoqardi.

Xuddi kechagiday ko'z o'ngimda: mahallamizga to'ppa-to'g'ri boshlab boruvchi Gorkiy nomidagi asosiy ko'chada bir-biridan teppa-teng uzoqlikda joylashgan, temir qalpoqli sim yog'ochlar, xira chiroqlar bo'lardi. Uzangan simlarda osilgan varrak parchalari ham esimda. Ularning ba'zilari bu yerga yaqinda tushgan esa, boshqalari – urushdan oldin. Hamda har kuni qog'oz, qamish va un yelimidan yasalgan yangi-yangi "qushlar" ko'kka parvoz qilib qolardi. "Qush"ni biz uchirardik: boshimizni yuqori ko'targancha, qo'limizdagi moslama bilan varraklarni boshqarar, baland-baland-larga yo'naltirardik. O'shanda to'pig'imizgacha oltin tuproqqa botib chopardik va o'zimizning qog'oz qanotlarimiz o'sib chiqqanidan yuraklarimiz quvonchga to'lardi. Shunday qilib, ***mahalla bizlarni parvozga ham o'rgatdi...***

Men mahalla haqida karnay-surnay sadolari ostida uzoq-uzoq kuylagan bo'lardim. Lekin 1966-yilda qo'shiq bo'lininb qoldi. Zill-zila!.. U hammasini barbod qildi. Qal'aga o'xshash uy bir daqiqada vayronaga aylandi. Unga yetkazilgan jarohatni tuzatib bo'lmas edi. Biz ikki oy davomida oilamizning barcha a'zolari bilan birga ishkom tagida o'rnatilgan harbiy palatkada jon saqlardik. Uyga kirishga esa qo'rqardik, chunki yer osti silkinishlari hali-hamon davom etardi. Uy uch qadam narida, lekin endi yashab bo'lmas ahvolda so'ppayib turardi. Tor, brezent palatkamizda qarindosh-urug'larimiz yig'ilishardi. Meni xatna qilishganda, *mahallamizdagi deyarli hamma qo'shnilarimiz bu "ulug' hodisa"ni nishonlashgani shundoqqina yodimda: yuzlab shamchiroqlar yongan va odamlar parvona-kapalaklardek, yana savdoyilardek o'ynashgandi. Ha, zo'r bo'lgandi o'shanda...* Nihoyat, bazm o'z nihoyasiga yetgandi. Alvido, uy! Alvido, atirgulga kon, chorborg'li ulkan hovli! Alvido,

afsonaviy xazina qidirib, men “kovlab” tashlagan bolalik makon! Alvido, qayoqqa jo’nab ketayotgani noma’lum bo’lgan do’stlarim!..

Mahalla buzib tashlandi. Biz – beshovlon, bir-birlariga o’xshagan dahalardan biriga, ikkita kulba joylashgan, shifti past xonali kul-baga ko’chib keldik. Siqilishib qoldik. Oltin tuproqli tor ko’cha o’rnini endi kulrang asfaltli ko’cha egalladi va biz bu yerda butunlay boshqa qonun-qoidalar asosida yashay boshladik. Men yangi maktabga bordim va u yerda istarasi issiq biron ta kishini uchratmadim. “Kelgindi” laqabi menga birinchi kundanoq yopishtirildi. Har kuni o’z haq-huquqimni saqlab qolish uchun kurashishga to’g’ri kelardi. **Biz mahallada hech qachon mushtlashmasdik. Tortishardik, arazlashardik, lekin mushtlashmasdik.** Bu yerda – men uchun yangi va yovvoyi bo’lgan muhitda, zo’ravonlikka asoslangan “muno-sabat” odatiy hol edi. Eslasam – mushtni qattiq qisib urishni o’rgangunimcha, ancha-muncha kaltak yeb qo’yan ekanman.

Ikki yildan keyin biz nomarg’ub kulbani tashlab, **o’zimizning qadrdon uyimizga qaytib bordik.** Mahallamizning iliq bag’rida le ningradliklar tomonidan qurilgan ulkan turar-joy mavzasi qad rost-ladi...

...Qara, o’n yetti yil biz sen bilan ko’rishmabmiz, Toshkent! Bu yillar mobaynida sen sezilarli darajada o’zgargansan, yangilan-gansan! Mening esa soch-soqolim oqiga oq qo’shildi, yurak ham bezovta bo’lib turadi. Nima bo’lgandayam, o’zimni senga tengdosh-dek his qilayapman.

Uyga kela turib, birinchi ko ’rgan narsam – yorqin ranglardagi peshtaxta bo’ldi: **“Shayxontohur mahallasi”!** Bu bir juft so’z uchun har qanday poyandoz, orkestr va guldastadan ortiqroqdir! Albat-ta, menga poyandozu orkestr qayoqda deysan. Ammo ikkita so’z men uchun ham bor bu dunyoda – “Shayxontohur mahallasi”. Maz-kur nom shodumonlik nishonasi edi: axir men, nihoyat, uydaman! **Kelgan kunimning ertasiga qo’shnilarim palov, shirinligu issiq nonlar ko’tarib kirib kelishdi: Assalomu alaykum!..**

Keyin men singlim bilan ikki kun davomida qabristonni ziyorat qildik: o’ttiz yettita qabr! Bizning bir paytlardagi katta oilamiz. Nahotki, ularni shunday qoldirish, unutish mumkin bo’lsa?!

Mening o'g'lim – sening nabirang, Toshkent, hozir Rossiya armiyasida xizmat qilayapti. U bir necha oydan so'ng harbiy xizmat-dan qaytadi. Askar o'g'lim o'z xatida shunday yozibdi: "Armiyadan keyin menga poyezdga bitta chipta berildi. Toping-chi, ota, men qayerga boraman?.. Topdingiz – **Toshkentga!**"

Men esa sening bag'ringga boshlab qo'ygan romanimni tugatish uchun qaytdim. Top-chi, Toshkent, u nima haqida? Topding: ***sening bitta mahallang – meni o'z bag'rida katta qilgan mahallang haqida!*** Bir kuni qo'shni qizcha, olti yoshli qorako'z Jasmina, meni jiddiy ogohlantirdi:

- Siz maktab yonidagi futbol maydonidan yurmang!
- Nega?
- U yer tuproqli-da!

Yoqimtoygina Jasmina, men senga qulq solmadim va o'sha futbol maydoniga bordim, boshmoqlarimni yechdim va to'ppa-to'g'ri birinchi darvozadan ikkinchisiga qarab yo'l oldim. ***Shunda mahallaning oltin tuproqlari tovonlarimni yana kuydirdi. Baland osmonda esa varraklar parvoz qilardi.*** Demak, kichkintoylarning biridan "qanot'lar o'sib chiqibdi, qanot!.. Parvoz uchun qanot, eshit-yapsanmi, Toshkent, parvoz uchun!..<sup>1</sup>

*Rus tilidan S.Komilova va U.Hamdam tarjimasi*

## Topshiriq

*"O'zbek xarakteri" hikoyasi qahramonlari va "Mahallamning oltin tuproqlari" publististik asari muallifi tabiatidagi mushtarak jihatlarni aniqlang va taqqoslang.*

---

<sup>1</sup> Mixail Gar. Mahallamning oltin tuproqlari. // Sharq yulduzi. -T.: 2013, № 3. -5-7-b.



## **O'ZBEK XARAKTERI**

**OLIM TOSHBOYEV**

### **yoxud ruhoniy va nafsoniy munozara ichida yashayotgan inson obrazi**

... Odamzodning ijtimoiy maxluqligi g'olib kelgan kundan boshlab uning ma'naviy – ruhiy dunyosi tanazzulga yuz tutadi. Shu ma'noda, "O'zbek xarakteri"da tasvirlanmish qo'li egri hasharchilar osmondan tushgani yo'q. Ular bizning millatdosh – o'zbegimning bir shajarasи. Turfa xarakter, turli qiyofa, rang-barang dunyoqarash. Holbuki, o'zbek! Milliy tabiatimizdagi qusur va illatlar yorqin tasvirlangan ushbu hikoya, shak-shubhasiz, milliy adabiyotimiz yutug'idir. Gapning mavridi kelganda bir mulohaza: millat, xalq xarakteri, tashqi va ichki qiyofasi asrlar mahsuli ekanligi antropologiya, etnologiya, etnografiya va hokazo fanlar mutaxassislari tomonidan keng o'r ganilgan. *Ming yillar davomida qo'shilib ketgan qonlar – etnik xilma-xillik, madaniyatlar beiz ketmagan, xom-pishiq aralash meva bergen. Shunday ekan, xalqimizga xos fazilat va illatlar ildizi ham tariximiz kabi qadimiyyidir.* Nafaqat bugungi O'zbekiston, balki butun mintaqa va unga yaqin hududlarda yashab o'tgan xalqlar, sulolalar, imperiya va davlatlar, hukmron dinlar ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi<sup>1</sup>.



### **ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ЎЗБЕК ХАРАКТЕРИ**

Олим Тошбоев. "Ўзбек характери"

хикояси хакила

Шукур Холмирзаев. Сайланма. 2-жилд.

Хикоялар

[www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

<sup>1</sup> [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

## **NORMUROD NORQOBILOV IJODINI O'RGANISH**

*Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani.*  
**ASQAD MUXTOR**

**NORMUROD NORQOBILOV**  
(1953-yilda tug'ilgan)



### **TOG'-U TOSHLAR ICHRA HIKMAT AXTARIB ...**

O'ndan oshiq nasriy kitoblar muallifi Normurod Norqobilovning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri sayohatdir. Adibni yilning istagan paytida tog'u toshlarda, dala-dashtlarda, sir-sinoatga to'la qorong'i g'orlarda, qorli cho'qqilarda uchratish mumkin. U bo'sh vaqt topdi deguncha, safarga chiqadi, tabiatni kuzatadi, jonivorlar hayotini o'rganadi. Tabiatning o'zidek beg'ubor, ammo o'rni kelganda, qaysar va oriyatl polvonlaru chavondozlar hamda baxshilaru do'mbirakashlar bilan muloqotda bo'ladi. Shuning uchunmi, adib qalamga olgan mavzular teranligi va bo'yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini o'qir ekansiz, siz beixtiyor tabiat bag'riga singgasiz, jonivorlar hayotining bizga qorong'i jihatlari bilan tanishasiz, orkash kishilar bilan yuzma-yuz kelasiz. Adib asarları go'yo borliqni, tiriklikni to'laligicha qamrab olgandek, o'quvchiga bir olam taassurotlar in'om etadi" ("Ovul oralagan bo'ri" kitobidan).

O'zbekiston televidenyesida adibning ajdodlarimiz o'tmishini o'z bag'riga jo qilgan afsonaviy g'orlar, asriy tilsimli ko'hna korizlar, oqsoqol tog'larning mag'rur va

purviqor cho'qqilari haqidagi qiziqarli ko'rsatuvlari hamisha mux-lislar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan.

### **Mutolaaga tayyorlashga oid savol-topshiriqlar**

1. Aziz o'quvchi, sizning xonadoningizda ham qaysidir jonivor-lardan birontasi bo'lsa kerak. Hayvonlarning faqat o'zlarigagina xos dunyosi bo'lishi haqida nima deya olasiz?
2. Dala-dasht, o'rmon va tog-u toshlarda yashovchi hayvonlar-ning ham o'ziga tegishli hududi va u yerda qat'iy tartib bo'lishi haqida nimalarni eshitgansiz? Shu haqda so'zlab bering.
3. Begona jonzotlar o'zlarini bahaybat, kuchli va zo'r deb tasav-vur qilishlari uchun hayvonlar bo'yлari yetguncha daraxtlarning eng yuqori qismiga iz - maxsus belgi qoldirishi haqida o'qiganmisiz? Agar biror joyda o'shanday "ishora" larga ko'zingiz tushgan bo'lsa, ular haqida do'stlarining bilan suhbatlashing va mazmunini daf-taringizga yozib qo'yishni unutmang.
4. Hayvonlarga tegishli maxsus belgi, "shaxsiy mulk" haqidagi lavha va ma'lumotlar kimlarning asarlari yoki qaysi filmlarda uchraydi?
5. Biron marta bo'lsa-da, xayolingizdan hayvonlar ham o'z qon-doshlarini tanirmikan, degan fikr o'tganmi?
6. Hayvonlardagi o'zaro munosabatlar haqida nima deya ola-siz? Qaysi hayvonlarni bir-biriga yaqin "do'st" yoki "dushman" de-yish mumkin?
7. Oila a'zolarining uyda bo'lмаган payt yoki siz kechqurunlari uyquga ketganiningizda mushuk yoki kuchuklaringiz qayerlardadir daydib, o'z jinsidagilar bilan o'ynab yoki urishib, nimalarnidir ta-lashib-tortishib kelishi hech xayolingizga kelganmi?
8. Agar "Lobbo ismli bo'ri" yoki "Qizaloq va tulkicha" kabi filmlar ni tomosha qilgan bo'lsangiz qaysi birining sujeti N.Norqobilovning "Ovul oralagan bo'ri" qissasiga o'xshab ketadi? Hayvonlar haqidagi qaysi asarga film ishlanishini xohlar edingiz?
9. Asarni o'qish davomida Oqbo'yining harakatlari siz bilan sevimli jonivorlaringiz o'rtasida bo'lib o'tgan qaysidir voqealarni yodga solsa, shunga o'xshash lavhalarni belgilab, mutolaa kunda-ligiga qayd etib boring.

## OQBO'YIN

### Qissa



Oqbo'yin notanish hidni darrov ilg'adi.

Parvo qilmadi.

Tovuq patini o'ynashda davom etdi. Patni ertalab topgan, nima-ligiga aqli yetmay boshi garang edi. In yonidagi chirik xashaklar ustida cho'zilib yotgan ona it bezovta g'ingshiganidan so'nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o'girildi. Besh odimcha narida uy egasi – Sodiq aka bilan norg'ul bir odam – Karim podachi, egnida yag'iri chiqqan paxtalik, oyoqlarini kerib turardi. Undan go'ng, pi-chan, silos va yana allambalolarning hidi anqirdi.

Oqbo'yin bu xil tashriflarga ko'nikkan, har xil keldi-ketdidan so'ng og'a-inilaridan birortasi g'oyib bo'ladi, keyin onasi tuni bilan g'ingshib chiqadi. Boshda ular o'nta edi. Uchtasini, urg'ochi ekan, birinchi haftadayoq gumdon qilishdi. Bu gal navbat qaysi biriga ekan?

Karim podachi oyoqlari ostida o'ralashayotgan inisi – Oqto'shni qo'liga olib, obdan paypaslab ko'rdi, panjalarini diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto'sh nari ketishni xayoliga keltirmay, tag'in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og'rigan Oqto'sh angillagancha onasi tomon pildillab qochdi.

Inisi Oqbo'yinga yoqmaydi, o'lgudek yaldoq, ko'ringan qoraga suykaladi. Akasi Malla esa tamomila aksi – tajang, salga zardasi qay-nab darhol "yoqa bo'g'ishadi". Hozir ham u in to'riga biqinib olib, Karim podachiga adovatli tikilib turardi.

– Anovi turqisovnu ober-chi, – dedi podachi Mallani ko'rsatib.

Sodiq aka Mallani inidan tortib chiqardi-da, unga uzatdi. Karim podachi uni uzoq tutib turmay, darrov yerga qo'ydi.

– Bunisi qopag'on bo'ladi, – dedi Malla tishlagan barmog'iga puf-lab.

Podachining ezg'ilashlari Oqbo'yinga yoqmadi. Ammo boshqalar kabi to'polon qilmadi, temirdek qattiq barmoqlarga tish botirishdan o'zini tiyib, jimgina turib berdi.

Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi. Umri fermada o'tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi. Negaki, qish kezлari qir oshib keladigan bo'rillardan kuygan – jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, bo'rillarga yemish bo'lgan tomday-tomday novvoslari ko'z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po'pisa-yu qutqu bilan jondor zotini daf etmoq mumkin edi. Ammo uch yil burun Yoldor degan bir mahluq paydo bo'ldi-yu, podachidan halovat ketdi. Arloni bo'ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham oson-gina chap berardi. Tunlari bo'ri poylayverib, biqinini shamollatib qo'yanidan so'ng, Karim podachi qopqon qo'yib ko'rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshak-lardan biri tushdi. Etni dorilab yo'lga tashladi. Biroq Yoldor emas, iti zaharlanib o'ldi. Keyingi asragan iti esa g'oyatda yuraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg'ar-ilg'ammas eshik tirnab, g'ingshigancha ich-kariga intiladi, ba'zida qishloqqa qochib qolardi. Bu qish o'rtasi bu hol yana takrorlanagach, Karim podachi itni otib o'ldirdi. Chunki Yoldor to'dasi boshqa mol quriganday, uning tanasini bo'g'izlab ketgandi-da. Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi. Xuddi shunday it hozir uning qo'lida edi. Bu kuchuk arloni it naslidan. Bunaqasi mingdan bitta chiqadi. Nasib etsa, uzog'i bilan yana to'rt-besh oydan so'ng bu atrofda unga teng keladigani bo'lmaydi. Jondor zoti borki, ovozini eshitishi bilan qir boshida mixlanib qolaveradi. Karim podachi ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan quvonchini bazo'r yutib, uy egasiga yuzlandi.

Shunisini tanladik.

– Yo'q, bunisi o'zimizda qoladi, – dedi Sodiq aka qat'iy bosh chay-qab. – Qanqiqni yo'qotmoqchimiz...

– Bir qo'y... qo'zisi bilan.

Sodiq aka Oqbo'yinga qiziqish bilan tikilarkan, tog'asi haqligini anglatdi. Ichida uning topqirligidan qoyil qoldi. Tog'asi mehmon bo'lib kelgan kuni kuchukvachchalar endi oyoqlagan edi. Tog'a qanjiqni yo'qotib, arlon it asrashni maslahat berarkan, kuchukvachchalarini choponi bariga solib, tomorqa adog'iga oborib tashladi. Issiq joyidan qo'zg'atilgan kuchukvachchalar notanish joyda nima qilishlarini bilmay paypaslanib turishganida, Oqbo'yin to'dadan ajralib, sal narida bezovta g'ingshib turgan onasi tomon intildi. "Mana shunisini asra, – dedi tog'a. – Bundan zo'r it chiqadi. Qolganlari bir pulga qimmat". Sodiq aka uchun hamma it bir it edi. U bu borada hovli itsiz bo'lmasligi kerak, degan aqidaga bo'ysunib ish tutardi. Tog'aning gapidan so'ng Oqbo'yinga nisbatan qiziqishi ortganday bo'ldi. Bir tomoni mehmon hurmati uni asramoqni ko'ngliga tugdi. Podachining gapidan keyin Oqbo'yinga qiziqishi o'n chandon ortdi. Axir hech zamonda it savdolashilganmi? Qishda bir chaksa qorni birovga ravo ko'rmaydigan shunday odam bir qo'y va'da qilyaptimi, demak, bu kuchukda bir gap bor. Turishini qara, pinak buzmaydi-ya.

- Ana bor, ikkita qo'y.
- Aka, bilasiz, men bitta gapiroman.
- Obbo, qo'rang to'la molmidiki, it asraysan.
- Yaxshi it hammagayam kerak.
- Buni asrab naf ko'rmaysan. Rashkim yomon, birda bo'lmasa birda otib o'ldiraman.

-Yarashadigan gapni qiling, aka.

- Otmagan taqdirimdayam... baribir Xidir xira otib ketadi.
- Otib ko'rsin...

Savdosi pishmagan Karim podachi itni yerga qo'yarkan, zarda bilan biqiniga tepdi. Zarb kuchli bo'lmasa-da, bu xil muomala Oqbo'yinga yomon ta'sir qildi. Tahqirlanganini his etib, g'azabi kel-di. Irilladi. Irillash barobarida akilladi. U o'z qadr-qimmatini yaxshi bilardi. Bu jihatdan otasi Olaparga tortgan edi. Olapar qo'shni qishloqlik Abdurayim ovchining iti. Kuzda u bu tomonlarga qadam qo'yganda, uning haybatli, ko'rkam kelbatini ko'rib, butun qishloq lol qolgandi. Olapar hovliga boshqa itlar kabi devor oshib emas, to'g'ri darvozadan kirgan...

Hali hech kimdan bu xil muomalani ko'rmagan Oqbo'yin g'azab va alamdan beixtiyor akillab yuborgandi. Akillagan sari izzat-nafsi allanechuk orom topib, ovozi o'ziga xush yoqdi. *Hurmatli o'quvchi, shu yerda biroz tanaffus qilishingizga to'g'ri keladi. Ukasidagi "yaltoqlik, ko'ringanga suykalish" odatlari va odamlarning nojiz munosabati yoqmaganligidan ko'z oldingizda Oqbo'yin taliyatidagi qaysi jihatlar namoyon bo'ldi?* Karim podachi Mallani qo'yniga solib, eshik ortida ko'zdan yo'qolmaguncha u tinchimadi.

Shu kundan e'tiboran u hurishni o'rgandi.

Oqbo'yin dilxiralikni tez unutdi. Tag'in tovuq pati bilan andarmon bo'ldi. Ilgari bir nima bilan o'ynashganda irrillardi, endi bo'lарbo'lmasga akillashni odat qildi. Epkin tovuq patini havolatganda, akillagancha ortidan quvlaydi, sakraydi, tappa bosadi, panjalari bilan piypalaydi va oxir-oqibatda hafsalasi pir bo'lib, endigina boshqa narsaga alahsimoqchi bo'lganida, birdan tovuq patiga "jon" kiradi, shabadada "qanot qoqadi". Oqbo'yin tag'in unga tashlanadi, tutadi, piypalaydi, nimaligiga aqli yetmay garang bo'ladi.

Chor atrofi baland devor bilan o'rالgan tor joyida uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi. Shulardan biri burchakdagi teshikdan tez-tez mo'ralab turadigan kattakon kalamush edi. Oqbo'yin unga nisbatan yaxshi munosabatda edi, og'a-inilariga tegajoqlik qilgandek u bilan o'ynashgisi keladi. Ammo kalamush kuchuk yaqinlashishi bilan ura qochadi. Yana biri ahyon-ahyonda tom boshida paydo bo'ladigan targ'il mushuk edi. Mushuk olif-tanamo qadamlar bilan devor ustidan yurib keladi-da tomga sakrab, soatlab o'ziga oro beradi. Eng qizig'i, devor boshida o'qtin-o'qtin ko'rinish beradigan babaq xo'roz. U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yinga boshini u yon-bu yon burib anchayin qarab qo'yadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqancha, birdan qichqirib qoladiki, sho'rlik Oqto'sh qochaman deb o'mbaloq oshib tushadi. Oqto'sh jur'atsizligiga yarasha o'lgudek bo'shang - salga dodlaydi. Oqbo'yin xuddi mana shunisiga ishqiboz, uni yerga bosib ezb'ilashni yaxshi ko'radi. Onasining xotirjam boqishlarida o'z qilig'iga rag'bat sezgan sayin g'ayrati yanayam jo'shami, oqibatda onasi o'rtaga tushishga majbur bo'ladi. Qilg'ilikni Oqbo'yin qilib, gapni Oqto'sh eshitadi, bo'shashmay ket, lapashang.

Gohida shu ish ustiga uy egasining o'g'li Rasul kelib qoladi. Ana unda ko'ring tomoshani. Rasul ularni atay o'chakishtiradi, ya'ni Oqbo'yinni Oqto'shning tagiga bosib g'ashiga tegadi. Bundan Oqbo'yinning g'azabi shu qadar qo'ziyidiki, tutqundan bo'shashi bilan sakrab turib, hech bir gunohi yo'q inisini tishlab tortqilay keta-di. Natijada, Oqto'sh tashqariga chiqolmay soatlab biqinib o'tiradi. Onasi in og'zida cho'zilib, intiqom o'tida yonayotgan Oqbo'yinni ich-kariga yo'latmaydi – hovuridan tushishini kutadi. Oqbo'yin alami-dan Mallaga yopishadi. Ammo Malla bo'sh keladiganlar xilidan emas, "musht"ga "musht" bilan javob qaytaradi. Ayniqsa, kechagi janjal yomon bo'ldi. Rasulning qutqusi bilan u Mallani endi tagiga bosgan edi-ki, kutilmaganda o'ng oyog'i akasining jag'lari ora-siga tushib qoldi. Jag' emas, misoli qopqon, qani endi qo'yvorsa... Angillab yubordi. Rasul uni yerdan ko'tarib bag'rige bosdi. Lat ye-gan oyog'in si lab-siyapadi. Mallani esa tepib haydadi.

Rasul boshdanoq Oqbo'yinga ayricha mehr qo'yan. Oqbo'yin buni o'zicha his qilgani sayin tantiqligi ortadi. Aslida, eshikdan kirib keladiganlar orasida eng g'amxo'ri ham Rasul edi. Shu bois, bolaning kelishini Oqbo'yin ilhaq kutadi. Kelavermasa, eshik yoniga borib, tashqariga mo'ralaydi. Tirqishdan keng hovlining bir burchagi – o'choq boshi ko'rindi, xolos. U yerdan kunda uch mahal yaloq-qa to'kiladigan ovqat hidi keladi.

Tovuq pati joniga tekkach, Oqbo'yin eshik yoniga bordi. Tirqish-ga tumshug'ini suqib g'ingshidi. Tanish hiddan darak yo'q, qadam tovushlari ham eshitilmaydi.

Rasul kelmaguncha, y eshikdan nari ketmadi, goh g'ingshib, goh akillab uni yo'qlab turdi.

\*\*\*

Malla olib ketilgan kunning ertasi peshinga yaqin chaqin chaqib, jala quyib berdi.

Oqbo'yin hali bunaqasini ko'rmagan, qo'rquvdan yuragi yorilay dedi. Yomg'ir tinmaguncha, onasining pinjidan chiqmadi.

Oqbo'yin in og'zida paydo bo'lgan kattakon ko'lmakka ehtiyo-korlik bilan qadam qo'yanida, yomg'ir tingen, pag'a-pag'a bulutlar orasidan oftob mo'ralay boshlagandi. Panjası suvgä tegishi bilan

Oqbo'yin oyog'ini tortib oldi. Iskalandi. Chetlab o'tish lozimligini fahmladi. Shunday qildi ham. Namchil yerga chiqib, qattiq silkindi. Shunda ortidan Oqto'shning nolakor g'ingshigani eshitildi. O'girilib inisining in oldida paypaslanib turganini ko'rди. Kelaver, degan ma'noda sho'xchan akilladi. Ammo Oqto'sh ko'lmaidan o'tishning evini qilolmay battar g'ingshidi va turgan joyida to'satdan shalop etib suvga ag'darilib tushdi-da, ortidan onasining ulkan boshi ko'rindi. Onasi Oqto'shga qayrilib ham qaramadi, yengil sakrab Oqbo'yinning yoniga keldi. Silkindi. So'ng mehr bilan uning tumshug'ini yalab qo'ydi. Uddaburron kimga yoqmaydi deysiz. Maqtovdan taltayib ketgan Oqbo'yin lo'mbillagancha inisining ustiga bostirib bordi. Shusiz ham bo'lari bo'lib, diydirab turgan sho'rlikni to'shi bilan urib yiqitdi. ***Oqbo'ynning bu harakatlarini hayotda kuchlilarning kuchsizlarni oyoqosti qilishlariga qiyoslash mumkinmi?*** Ostiga bosib piypalamoqqa chog'landiyu tag'in rahmi keldi. Tumshug'i bilan turtkilab, uning turishiga ko'maklashgan bo'ldi. Keyin devor yoqalab tentib ketdi. Yomg'irdan so'ng yer betiga qalqib chiqqan chuvalchanglarni ko'rib, bir muddat shoshib qoldi. Nima bu? Diqqat bilan kuzatdi. Iskalandi. Boshqalariga nisbatan jadalroq harakatlanayotgan yo'g'on chuvalchangni og'ziga oldi. Tufi-iy, buncha bemaza! Chuvalchangdan yuz o'girib, devor yoqalab yurdi. Xashaklar orasidan yomg'irda ivigan bir chaqmoq qand topdi. Qandni kecha Rasul olib kelgandi. Zo'rlab og'ziga tiq-ishtirmoqchi bo'lganida, Oqbo'yin bosh tortgandi. Toshdek narsani yeb bo'larkanmi? Hozir esa... avval iskadi, keyin qiziqsinib yalab ko'rди. Mazasi og'ziga yoqib, tag'in yaladi. Birpasdan so'ng qanddan nom-nishon qolmadi.

Oqbo'yin qandning kayfini surib, tumshuq yalab turganida bir-dan tom boshida tapir-tupur bo'lib ketdi-da, allambalo jon holatda bag'illadi. U es-hushini yig'ib olmaguncha bo'lmay, g'azabdan tuklari hurpaygan, ko'zlari bejo, qora mushuk naq qarshisiga tap etib tushdi. Oqbo'yin uning vajohatidan cho'chimadi, dastlab hayron bo'ldi, keyin chilvirday ingichka dumini likillatdi, o'ynashgisi keldi. Ko'tarilgan o'ng oyog'i havoda muallaq qoldi. Mushuk tahdidli "pix-x"lab, jon halpida devorga sakradi, ivigan tuproq ko'chib, u yerga yiqilib tushdi. Kattakon suyakni oyoqlari ostiga olib g'aqiyotgan

ona it uni zir quva ketdi. Oqbo'yin onasining harakatidan bu joy yolg'iz o'zlariga daxldor ekanini, o'zga jonzot qadam qo'ymoqqa haqqi yo'qligini anglab yetdi. Shu vajdan tom boshida jarohatini yalab-yulqayotgan targ'il mushukka qarab akillamoqqa tushdi. Targ'il pinak buzmadi, loaqal qiyo boqishni o'ziga ep ko'rmadi: g'ashimga tegmagan sen qoluvding, ko'p akillamay toshingni tersang-chi!

Shu tarzda bu yorug' jahonda uning birinchi dushmani paydo bo'ldi. Ilk to'qnashuvdayoq bu olifta jonivorlardan yaxshilik chiqmasligini sezgan edi-da.

Oqbo'yin akillashdan charchab, yana timirskilana boshlaganida qiya eshikka ro'baro bo'ldi. Oraliqqa bosh suqib tashqariga mo'raladi. Hovli yuzidagi yurgan tovuqlar diqqatini tortdi. Bir chetda o'sha tanish babaq xo'roz g'o'ddayib turardi. Oqbo'yin qadrdonlarini uchratganday allanechuk shodlanib ular tomon oshiqdi. Ammo uning tashrifi tovuqlarga yoqmadi. Xo'roz esa ochiqdan-ochiq tahdid qilmoqqa o'tdi. O'ng qanoti bilan yer supurib, yaqinlashma, yomon qilaman, degan ma'noda joyida chir aylanarkan, ketiga tislani, tepmoqqa chog'landi. Oqbo'yin yarim yo'lida sarosimada turib qoldi, begona joyga qadam bosganini payqadi.

Baxtiga tovuqlar tezda uni unutishdi. Xo'roz atrofida uymalashib, u topgan non bo'lagini talashib tortqilay boshlashdi. Oqbo'yin ortiq chidab turolmadi, beozor akillagancha to'daga suqiladi. Tovuqlar to'zib, xo'roz chekindi. Oqbo'yin nonni iskadi, keyin chaynamay yutib yubordi.

U hovlida emin-erkin tentib yurarkan, daf'atan hushyor tortdi. Quloqlarini ding qildi. Uzoq kutmadi. Ma'rash ovozi yana takrorlandi. U tovush kelgan tomonni tusmollab chopdi. Qo'ra eshigiga bordi. Eshikni timdalab, ko'kragi bilan itarib ochdi. Dimog'iga go'ng va shiptir hidi urildi. Burchakdag'i temir oxur yonida bog'liq turgan govmushga ko'zi tushib, joyida qotdi. G'ingshish aralash irilladi. Siger qattiq pishqirdi, suzmoqchi bo'lib bosh silkidi. Bunga javoban Oqbo'yin akilladi. Akillay-akillay iziga burildi. Oshxonadan tumshuq yalab chiqib kelgan targ'il mushuk kuchukni ko'rib, erinibgina tomga sakradi. Oqbo'yin unga ortiq e'tibor bermadi. Nimaga deganda, o'zini tinmay ta'qib etayotgan son-sanoqsiz hidlar orasidan tuyqus bir hidni ilg'ab qolgandi. Hid uni to'g'ri uy eshigiga boshladи. Erkalanib uy

eshigini tirnadi, g'ingshidi, akilladi. Eshikda kattakon qulf osilgan edi.

Oqbo'yin birpas iskalanib turdi-da, keyin hovlini kesib o'tib, tomorqa eshigi tomon yo'naldi. Lang ociq eshikka yetarkan, ko'zi tushgan birinchi narsa chopilgan yer o'rtasida nimanidir zo'r ishta bilan chaynayotgan qora mushuk bo'lди. Uni ko'rishi bilan Oqbo'yin boyagi uchrashuvni esladi, g'azabi qo'zidi, akillagancha shudgor oralab mushuk sari yugurdi. Qora mushuk devor oshib qo'chib qoldi.

Oqbo'yining g'azabi – chin, hujumi – po'pisa edi. Mabodo, mu-shuk bir oz hayallaganida, olg'a borishga yuragi chopmagan, chor tarafi teraklar bilan o'ralgan bu yerni mushukka daxldor deb bilgan bo'lardi. Ammo mushuk ham xo'roz singari u bilan pachakilashib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. Natijada Oqbo'yin o'z-o'zidan hovli va tomorqaga "xo'jayin" chiqib qoldi. Bundan behad shodlanib, bor ovozda akillagancha onasi va inisini chaqirdi. Biroq ular qorasini ham ko'rsatishmadi.

Oqbo'yin tomorqa bo'ylab tentirarkan, ariq yoqasida chumoli karvoniga duch keldi. Oldin hech ko'rmagan, qiziqsinib kuzatdi. Is-kadi. Naq tumsug'iga yopishgan uch-to'rt chumolidan bazo'r qutilib tokzor oraladi. G'umay bargida o'rmalab borayotgan xonqizini tomosha qildi. Iskab ko'rishdan o'zini tiydi. Ammo ko'z oldingda tur-gan narsani iskamay yoki paypaslamay bo'larkanmi, u endi oyog'ini ko'targan ham ediki, barg uchida besaranjom tebranayotgan xonqizi uni hayratda qoldirib uchdi ketdi.

Tomorqanening allaqaysi burchida kukulagan musichanig ovozi dan o'ziga kelganda, shundoqqina tumshug'i tagida, qoqigul ustida bolari aylana boshladi. U hamon muallaq turgan oyog'ini yig'ib, boshini bir yon qiyshaytirib, uning harakatlarini zimdan kuzatdi. Bolari norozi vizillagancha havoga ko'tarildi. Oqbo'yin ortidan chopdi, kesakka qoqilib, chuqurchaga ag'darilib tushdi. Tushishi hamon jon holatda yuqoriga tirmashdi. Chuqur tubidagi baqlar ko'ziga allambalolar bo'lib ko'rindi. Tashqariga chiqib ham hiyla vaqt o'ziga kelolmay turdi. Keyin asta chuqur labiga kelib, bir mud-dat baqalarni tomosha qildi. Tuf-ey, buncha sovuq.

Keyin uchragan har bir narsaga alahsigancha tomorqa bo'ylab tentiradi. Biroq uning erkinligi uzoqqa cho'zilmadi. Hovlida

tovuqlarga tegajoqlik qilib yurganida, darvozadan kirib kelgan Kimsan xola qo'liga tushgan tayoq bilan uni quvladi. Buni qarangki, hovli odamzodga tegishli ekan. Shuningdek, Oqbo'yin o'zi bilgan, ko'rgan jonzotlar orasida yolg'iz odam bolasi bilangina hazillashib bo'lmasligini quymichiga tushgan kaltak zarbidan so'ng yana bir karra his etdi.

***Kuchukchaning tashqi dunyo bilan munosabatga kirishuvi undagi qaysi sezgilar yordamida amalga oshdi?***

\*\*\*

Qishloqqa bosib kelayotgan falokatni Oqbo'yin tongdayoq payqadi. Nimaligini fahmlamasa-da, qishloqda qiyomat qoyim qo'payotganini his etdi. Havoda o'zi ko'nikkan hidlardan bo'lak miltiqdori hidi anqiy boshlagandi. U javob istab onasiga termuldi. Ona esa beparvo, ovqatga to'ygancha xashak ustida cho'zilib yotardi.

Oqbo'yin bekorga bezovtalanmagandi. Qishloqqa it otuvchilar oralagan, hovlima-hovli yurib "indamas" miltiqlari bilan it zotiga qiron keltirishardi. Bu ishga Xidir xira mutasaddi edi. Ismi jismiga monand bu odam it egalaridan qancha ta'na-dashnom eshitmasin, hattoki necha bor kaltak yemasin odatini sira tark etmas, har ko'klamda o'zi aytganidek, yuqorining buyrug'ini bekamu ko'st ado etardi. Buyruqni kim bergen, nima uchun bergen, yolg'iz xudoga ayon. Qisqasi, mag'ribda biror it kasallangan bo'lsa, mashriqqacha bo'lgan jamiki itlarga qiron kelardi. O'qqa uchgan itlarni ko'rganda Xidir xira oshkora rohat qilar, og'zining tanobi qochib, yalpoq yuzi haddan ziyod xunuk tus olardi. Ammo u qanchalik harakat qilmasin, ikki-uch oydan so'ng qishloqda yana kuchuk ovozlari eshitilib qolar, sal o'tmay bu jimitday jonivorlar rostmana itga aylanardi. Xidir xira esa yanagi it otish mavsumini sabrsizlik bilan kutar va har safar bu kunni zo'r tantana bilan boshlardi.

U qishloq boshidagi Abray cho'loqning itini otgandayoq, Oqbo'yin xavfni sezgan edi. Sezgirlik unga otasi Olapardan o'tgan. Ana shu o'tkir qobiliyati tufayligina Olapar bu xunrezlikdan mana necha yildirki, omon qolib kelardi. Havoda porox hidini sezishi bilan u qirga qochar, haftalab o'sha yerda jon saqlardi. Lekin surriyodi qirilib ketardi. Endilikda Oqbo'yinning boshiga shu balo ko'lanka solmoqda edi.

Oqbo'yin bezovtalagan sayin havoda miltiqdori hidi kushaya bordi, hatto yaralangan itlarning ayanchli akillashlari ham elas-elas qulqoqqa chalina boshladi.

Nihoyat xavfni ona it ham payqadi. Mudroq ko'zlarini ohib, g'ingshidi. Xuddi shu payt eshikdan Rasul otolib kirdi. Darsdan qochib kelgandi u. Kela solib Oqbo'yinni bag'rige bosdi-da, somonxonaga o'zini urdi. Qishdan ortgan somon ustiga chiqib, shiftga qadar taxlangan beda bog'laridan birini sug'urib oldi. Oraliqqa Oqbo'yinni tiqishtirib, bedabog'ini joyiga qo'ydi.

- Jimgina yot! - dedi.

Oqbo'yin nima bo'lganini tushunmagan bo'lsa-da, nafas chiqarmay yotish lozimligini anglatdi. Qorong'ida g'imirlay-g'imirlay bir amallab joylashib oldi. Bu yer quruq va issiq edi. Beda orasidan al-lanimalarning shitirlashi, chiyillashi eshitilardi. Daqiqalar o'tgan sayin uning ko'ngli g'ussaga to'la bordi. Qiziq ilgari hech bunaqa bo'lmasdi.

*Qadrli o'quvchi, kuchukchaning ko'ngli g'ussaga to'lishidan siz ham nimadir sodir bo'lishini sezdingizmi? Bu qanday voqeа bo'lishi mumkin? Oqbo'yindagi bu holat bilan insonlarda ham qandaydir ko'ngilsizlikni oldindan sezish hislari mavjudligini solishtiring.*

Rasul hovliga chiqib, yengi boshini qoqar-qoqmas darvozada Xidir xira ko'rindi.

- Sizda qanjiq bor deb eshitdik, - dedi u peshvoz chiqqan Kimsan xolaning savolini javobsiz qoldirib.

- Bolalari bor, rahm qiling, - dedi Kimsan xola yalinib.

- It odammiki, rahm qilsang.

- Bolalarni otasi eshitsa, xafa bo'ladi-ya.

- Men yuqorining buyrug'ini bajaradigan odamman. Qo'limda qog'ozim bor.

Xidir xira ichkariga qo'yishni istamay turgan Kimsan xolaning yelkasi osha hovli yuziga birsira ko'z yogurtirdi-da, so'ng uni chetlab o'tib, tomorqa eshigiga yurdi. Bo'ynini cho'zib qaradi. Keyin qo'shni eshikni itardi.

- Ah-ha, mana qayerda ekan, - dedi u xunuk ishshayib.

U g'ingshib hura boshlagan ona itni mo'ljalga oldi. Qoq peshonasidan o'q yegan it "vang" degancha ohista quladi, bir-ikki oyoq silkib, jim qoldi. In yonida o'ralashib yurgan Oqto'sh hech narsani tushunmadi, jonsiz tanani aylanib o'tib, dumini qiy panglatgancha Xidir xira yaqiniga bordi. Xidir xira, ko'zi kuchukda, miltig'ini o'qlayotib, yonida serrayib turga sheri giga – yuziga husnbuzar toshgan yigitga imo qildi.

– Ot!

It otuvchilar eshik og'zida turganlari uchun tashqaridagilar ich-karidagi manzarani ko'rmas edilar.

Sherigi yelkasidan miltig'ini olib, Oqto'shga to'g'riladi. Oqto'sh battar qiyshanglab, miltiq milini iskadi. Bu yigitga qiziq tuyuldi shekilli, piqillab kuldi. Xidir xira bo'laqol degandan so'nggina teppkini bosdi. Oqto'sh chiyillagancha dumalab tushdi. O'q tekkan tug-machaday tumshug'ini yerga ishqab g'alati harakatlar qildi. Yigit xoholab yubordi. Xidir xira unga qo'shildi. Kulib turgan joyida naq yelkasiga tushgan zarbdan munkib ketdi. Bazo'r o'nglanib, ortiga o'girilar ekan, eshikda darg'azab turgan Karim podachini ko'rdi.

– Nega hingillaysan, tinchit! – dedi podachi.

Xidir xira undan cho'chirdi, shosha-pisha miltig'ini hamon jon talashib yotgan Oqto'shga to'g'riladi. Otdi. Oqto'sh bir silkinib jim qoldi.

Karim podachi o'lib yotgan itlarni hatlab o'tib in yoniga bordi. Egilib ichkariga qaradi.

– Yana biri qani? – deb so'radi hayron bo'lib.

– Yana bormidi? – Xidir xira jonlanib miltig'ini o'qladi. Atrofga jonsarak alangladi. – Qani? Qayerda?

Karim podachi Rasulga yuzlandi.

– Arslon qani?

– Qanaqa arslon? – bola yelka qisdi.

– Oqbo'yinni so'rayapman.

– Ha, umi... otam kecha oqshom bir odamga berib yubordi.

Berib yubordi?! – Karim podachining ko'zlari olayib ketdi. – Kimga berib yubordi?

– Qaydan bilay.

– Menga bermay... hi-i, otangni...

– Yashirib qo'ygan chiqar, – Xidir xira tevarakka sinchkov ko'z tashlab, bolaga yuzlandi. – Qayerga yashirding? Baribir topib olamiz.

– Yashirgan bo'lsang, ayt, – Karim podachi Rasulga yaqin kelib yelkasidan tutdi. – Qo'rhma, bir tukiga ham qo'lini tegizdirmayman.

Bola battar talmovsiradi.

- Aytdim-ku, berib yubordi deb.

Karim podachi so'kinib-so'kinib chiqib ketdi. Unga boshqalar ham ergashdi.

Oqbo'yin tashqarida nimadir yuz bergenini his etib, biror besh daqiqa jim yotdi. So'ng go'dakligiga bordi. Xavfni unutdi. Bosh sig'arli oraliqqa kallasini tiqib, tashqariga intildi. Intilgan sayin bedabog'ining qimirlay boshlaganini sezdi. Oyoqlariga kuch berdi. Bedabog' pastga ag'darildi. Oqbo'yin qulab tushishdan bazo'r o'zini tutib, quyiga boqdi. Keyin ketiga tisarildi. Bir muddat somonxona ichini ko'zdan kechirdi. Shunda nimqorong'i burchakda nimadir g'imirlayotganini payqadi. Boshini u yon-bu yon qiyshaytirib tikildi. Jimitdek sichqoncha. Sal narida yana bittasi yurardi. Qiziqishi ortib, Oqbo'yin beixtiyor oldinga talpindi va sirg'alib pastga dumalab tushdi.O'zini o'nglab, yon-veriga alanglarkan, sichqonlardan darak topmadи.

Oqbo'yin pildiragancha eshik yoniga bordi. Tirqishga panjasini suqib, eshikni tortqilay boshladi. Shu asnoda naq tumshug'i tagidan kirza etiklar gursillab o'tdi. Oqbo'yin teshikdan mo'ralab, bir gala yalangoqlarni ham ko'rди. Akillamoqchi edi, burchakda nimadir chiyillab diqqatini tortdi.

***Yosh kitobxonimiz, agarda kuchukcha sichqonlarga qiziqib ovoz chiqarib yuborganida voqealar qanday davom etishini xayolingizda bir jonlantirib ko'ring-a!***

Qadam tovushlari tinar-tinmas, eshik ohista ochilib, Rasul ko'rindi. Oqbo'yinga ko'zi tushib, hayron qoldi: "Zo'rsan-ku, – dedi goh kuchukka, goh tepaga qarab. – Qaytib tushding-a?"

Oqbo'yin dumini likillatib, uning oyoqlarini iskadi, g'ingshidi. Tashqariga chiqdi. Xidir xiraning go'riga g'isht qalagancha o'choq boshida kuymalanayotgan Kimsan xolaga hadiksirab boqdi. Ke-chagiday qo'liga tayoq olib quvlaydi deb o'yladi. Yo'q, Kimsan xola

unga qayrilib ham qaramadi, qozon-tovog'i bilan band bo'larkan, ichkariga qo'yma, hovlida yursin, dedi.

Oqbo'yin hovliga chiqishi hamon qon hidini tuydi. Yuragi g'ash tortdi. Onasi tomon oshiqdi. Ammo Rasul uni nari haydadi. Oqbo'yin sarkashlik qilib turmadni, pismiqlanib molxona tomon yurgan bo'ldi-yu, Rasul uyg'a kirishi bilan iziga burildi. Doimo yopiq turadigan eshik bu gal ochiq edi. Onasi odatdag'i joyida emas, sal berida yalang yerda cho'zilib yotardi. U bilan o'ynashgisi kelib yugurdi. Avvalo qonga belanib yotgan Oqto'shga duch keldi. Iskalandi. Keyin turtkilandi. Inisi miq etmadi. Sarg'ishtob ko'zlar osmonga tikilgancha qotib qolgan, chap ko'zi tevaragida kattakon pashsha aylanib yurardi. Bu sir-sinoatga aqli yetmagan Oqbo'yin onasi tomon talpindi. Uni ham shu ahvolda ko'rgach, hayron turib qoldi. Botinqiramay akilladi. Ammo onasi shu qadar tosh qotgan edi-ki, loaqal boshini ko'taray demadi. Oqbo'yin hali o'limni tushunmasdi. Tushunmagani uchun ham shumligi tutib, onasining pinjiga suqildi, qizg'ishtob emchaklardan biriga og'iz soldi. Biladi, bunday damlarda onasi tinch yotolmaydi, mehri jo'shib boshdan-oyoq yalab-yulqaydi.

Biroq Oqbo'yin muzlab borayotgan emchakni qanchalik tortmasin, onasi miq etmadi. Shunda u so'nggi chorani ishga soldi, etga tishlarini botirdi. Mayli, onasi og'riqqa chidayolmay, yelkasidan g'archcha tishlab, chetga uloqtirsin, faqat bu taxlit yotmasa bo'ldi.

Shu payt kichkina qo'lchalar uni beozor tutib emchakdan ayirdi. Rasul bo'g'ziga tiqilgan yig'ini bazo'r yutib, kuchukni hovliga olib chiqdi. Eshikni zichlab yopib, g'isht tirab qo'ydi.

Hovliga butunlay ko'chib o'tgandan so'ng, Oqbo'yin tezda hammasini unutdi. Hovlida o'zini to'la xo'jayin his etib, dastavval devor oshgan qo'shni xo'rozni quvib soldi. Keyin bir maydon tovuqlar bilan o'ynashdi, to babaq xo'rozdan boplab tepki yemaguncha, hovli bo'ylab ularni tirqiratib yurdi. Avvaliga izza bo'lib chekinmoqchi edi, qarasaki xo'roz yana hezlanmoqda. Shunda uning chinakamiga qahri qo'zidi, bu turqisov uqning yaxshilab ta'zirini bermoqchi bo'ldi. Akillagancha dadil hujumga o'tdi. Ammo xo'roz bo'sh kelmadi, chetga sakrab, naq boshiga ikkinchi zarbani berdi. Oqbo'yin og'riqdan vangillab yubordi. Lekin chekinishni xayoliga keltirmadi.

Irillagan ko'yi xo'roznинг har bir harakatini sergak kuzatarkan, birdan raqibining o'ng qanotiga chovut soldi, xo'roz o'zini o'ng-laguncha bo'lmay, to'lg'ab chetga uloqtirdi. Sho'rlik babaq uch-to'rt yumalab, zo'rg'a oyoqqa qalqdi-da, qaqag'lagancha ura qochdi. Oqbo'yin og'zi to'la pat, ortidan akillab qoldi. Bu uning birinchi jangi, birinchi g'alabasi edi.

U g'alaba nashidasini surib turganida, kattakon temir darvoza taraqa-turuq ochilib, bir qop un ortilgan eshakni oldiga solib, hovliga Sodiq aka kirib keldi. Oqbo'yinning ko'zi ko'chaga – notanish odamga tushdi. Eh, dunyo deganlari bunchalik keng! U shitob-la o'sha tomonga intildi. Yetay deganda darvoza sharaqlab yopildi.

\*\*\*

Oqbo'yin ko'chaga chiqqanda ko'klam o'tib, saratonning ayni qaynoq kunlari boshlangandi. Endi uning ovozi rasta tortib, rostmana itga aylangan, kelbatidan kishi cho'chigulik edi. Chap qulog'inining chala kesilganiyu bo'ynidagi oqini demasa, tusiyu turq-tarovati quyib qo'yganday Olaparning o'zi, fe'li ham mag'rur, sipo, huda-behuda akillayvermaydi. Yana bir fe'li – yemish tanlaydi, turib qolgan ovqatga og'iz urmaydi. Suyakni yaxshi ko'radi, qanddan esa huzur qiladi.

Shu kunlarda Oqbo'yin tutqunlikdan ham ko'ra issiqlidan behad azob tortardi. Tushga yaqin tom ko'lankasi chekinib, u oftob tig'ida qolar, to kun qaytib, bog'dagi teraklar soyasi hovli yuziga tushmaguncha joni ming azobda qiyinalardi. Gohida azbaroyi chidayol-maganidan tumshug'uni ko'kka ko'tarib mungli uvlab yuborardi. Ammo uning nolasini eshitadigan qulqoq yo'q. Bu paytda Kimsan xola uyini qorong'ilatib, shirin tushlar ko'rib yotgan bo'ladi. Joniga ora kirishi mumkin bo'lgan Rasul esa, mana o'n kundirki, lagerda. Oqbo'yin soya-salqin bog' eshigiga ilhaq termulgancha qoziq atrofida behol, bemajol aylanishdan o'zga chora topolmaydi.

Salqin tushishi bilan Oqbo'yin kunduzgi azobni unutadi. Darvozaga alahsiydi. Bir oycha burun, sokin tunlarning birida dashtdan allaqanday itning ma'yus uvullashini eshitgandan buyon u dunyoning kengligini, naqadar ulug'vorligini anglab yetgan,

devor ortidagi hayot sirli ko'rinish, darvozaga intilgani intilgan edi. Ayniqsa, darvoza ochilgan kezlarda o'zini qo'yarga joy tolmay qoladi: sakraydi, irg'ishlaydi, akillaydi, irillarydi, goho bo'ynini siqib turgan arqonni g'ajiydi – xalos bo'lishga jon-jahdi bilan urinadi. Darvoza yopilgach esa uzala tushadi-da, zilday boshini oyoqlari ustiga qo'yib, erkin bo'lishiga qaramay, hovlidan bir odim nari jilmaydigan tovuqlarni hayrat bilan kuzatadi, yemish topib, ko'pincha o'zi quruq qoladigan xo'rozning qilig'iga hayron bo'ladi. Xo'rozni jini yoqtirmaydi, yalog'iga yaqin kelsa, quvib soladi.

Aslida xo'roz tufayli tutqinlikka tushgandi u. O'sha kungi janjalni Kimsan xola kuzatib o'tirgan ekan, eri kelgach, vahima ko'tardi: "Er, – dedi itga barmog'ini bigiz qilib, – yo'qoting buni! Bugun xo'rozni yeb qo'yishiga bir bahya qoldi. Hay-haylamasam, yebam qo'yardi. Xudo bir asradi. Yo'qoting! Qorasini ko'rmayin!" Sodiq aka ishonmadi, xotin zoti shu, gapni xamirday ko'pchitmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Hirsday takani qochirgan dakanga maymoq nima bo'pti. Biroq sal o'tmay Oqbo'yin yana qovun tushirdi, hovli yuzida tinchingina donlab yurgan tovuqlarning o'takasini yorib, xo'rozni tirqiratib quvib ketdi. Boz ustiga, shu kech Karim podachi tag'in keldi. Rasulni odobsizga chiqarib, yana Oqbo'yinni so'radi. Bu gal uning zotini yashirmadi, bunday it mingdan bitta bo'lishini, qo'y emas, qo'zi emas, butun boshli tana berishini aytdi. Rad javobini eshitib, ko'zi qonga to'ldi. "Tirik ekanman, itingga kun yo'q", – dedi.

### *Sizningcha, Oqbo'yinga ulug'vorlik baxsh etgan asosiy xususiyat qaysi?*

Shundan beri Oqbo'yin bog'lovda. Boshda rosa to'polon ko'tardi. Keyin ko'nikkanday bo'ldi. Kunduzgi jon o'rtar issiqni demasa, yotar joyi soz – hovli burchagidan chor atrof ko'zga tashlanib turadi. Zerikkanda nimagadir alahsishi mumkin, ayniqsa, hovlida odam bo'lganida tutqunligi esidan ham chiqib ketadi.

Bugun oftob shu qadar qizdirdiki, ortiq bardosh berishga Oqbo'yin o'zida bo'lak kuch topmadi. G'ingshidi, angilladi, akilladi, uch-to'rt bor ko'kka boqib cho'zib-cho'zib nola qildi. Keyin kutilmaganda quturib, arqonga tashlanib qoldi... Bir ozdan so'ng hovuri pasayib, bunday qarasaki, arqon uzilay deb qopti. U bundan qutulmoqning imkonini ko'rди, yana arqonga og'iz soldi, go'yo

suyak chaynaganday jon-jahdi bilan chaynadi, tortqiladi, chaynadi – tortqiladi. Ilkis bir siltovdan arqon chirt uzildi. Yarim quloch arqonni sudrab, tomorqa eshigi tomon yo'naldi. Ichkarida, ajriq bosgan ariqchada, bag'rini zaxga berib qator tizilishib yotgan tovuqlar yonida g'o'dayib turgan xo'roz uni ko'rib tashvishga tushdi. Oqbo'yin unga e'tibor bermadi. Allaqanday xashaki jonivorlarga elakishadigan vaqtdan o'tgan, ko'zi tokning quyuq ko'lankasida, salqinda cho'zilib orom olish istagida edi. Ammo tomorqa eshigiga yetar-yetmas, birdan ko'ngli ko'chani tusab qoldi-da, iziga qayrildi. Darvoza o'rtasidagi mo'jazgina eshikni turtib ochib, tashqariga chiqdi.

Ko'chada jon asari ko'rinnmas, sukunatni ariqdan oqayotgan suvning shildirashigina buzardi. Oqbo'yin chanqovini qondirgach, tumshuq yalab ko'chaning har ikki tarafiga qiziqsinib nazar soldi. O'ng yondagi ko'cha adog'idan dala ko'zga tashlanadi. U o'sha to-monga yurdi. Ko'p o'tmay biydek dashtga chiqdi. Uzoqda qo'ng'ir qirlar yastangan, undan narida tog'lar... beriroqda fermaning tomi oqarib turar. O'sha tarafdan itning erinibgina hurgani eshitilardi.

Fermaxonani qora tortgan Oqbo'yin eng chetdagi hovli tomonidan o'qdek uchib kelayotgan qora itni keyin payqadi. Dastlab unga nisbatan dushmanlik sezmadni, hatto uni uchratganidan biroz quvongandek ham bo'ldi. Sokin tunlari qulog'iga chalingan it ovozini eslab, g'ingshidi. Biroq it yaqinlashgan sari uning vajohati bo'lakchalogini, qo'yib bersa, yeb-yutib qo'yishga chog'i borligini fahmladi. Nima qilarini bilmay, bir muddat sarosimada turdi-da, so'ng janjalga tobi yo'qligini bildirib, tahdidli irilladi. Irillagan ko'yi yo'lida davom etarkan, sudralib kelayotgan arqonni bosib, munkib ketdi. Bu orada juda yaqin kelib qolgan qora it uning chalg'iganidan foydalanim, ko'ksi bilan urib o'tdi. ***Bu kabi lavhalardan odamlar o'rtasidagi qanday munosabatlar bir zumga bo'lsa ham xotirangizda jonlanib ketdi? Qani bir eslashga harakat qiling-chi!*** Oqbo'yin ag'darilib tushdi. Oyoqlab ulgurmey qora it uning chotiga chang soldi. Joni og'rigan Oqbo'yin vangillab yubordi, ortiq sust-kashlik halokat bilan yakunlanishini idrok etdi. Qoni qizib, g'azabi qo'zidi. Bezbet bu maxluqning adabini bermoq niyatida sapchib o'rnidan turdi.

Zum o'tmay qarshisida junlari hurpaygan, vajohati g'oyat dahshatli bir yirtqichni ko'rgan qora it hayallamay chekinish lozimligini angladi. Ammo endi vaqt o'tgan edi. O'girilishga ham ulgurmay naq yag'riniga Oqbo'yinning o'tkir tishlari g'archcha botdi. Bir paytlar xo'rozni silkitganday, Oqbo'yon uni ikki-uch to'lg'ab tappa tagiga bosdi. Endi tomog'idan olay deganda, qo'lida uzun kaltak, hay-haylagancha yugurib kelayotgan kishini ko'rdi. Alahsidi. Qora itga xuddi shu narsa kerak edi, dahshatli jag' bo'ynidan uzilishi hamon jon halpida tura solib qochdi. Egasining qavatiga kirib, qayta hujumga o'tdi. Ammo Oqbo'yin ortiq pachakilashib turmadi, lo'killagancha yo'lida davom etdi. Yon-veriga tap-tup kelib tushayotgan toshu kesaklarga parvo qilmadi. Toshlardan biri quymichiga tekkandan keyingina qadamini tezlatdi. Shu ketishda yalanglikda to'ntarilgan do'ppidekkina bo'lib turgan yantoqzor do'nglikka yetib, biroz nafasni rostladi. Hadiksirab ortiga o'girilganda, qora it tom soyasida cho'zilib yotar, egasi ko'rinnmasdi. Soy tomondan bir to'p bola chug'urlashib kelardi. Qishloqdan yelib chiqqan yuk mashinasi ularni changga ko'mib o'tdi.

Ko'rib turgan narsalari Oqbo'yinga juda qiziq edi. Shu bois har bir qorani diqqat bilan kuzatar, otliq chol ortidan gjjinglab, irg'ishlab borayotgan qo'ng'irtob toychoq uning e'tiborini jalb etdi. U toychoqning harakatlariga mahliyo bo'lib turganida, oyog'i ortida nimadir shitirlaganday bo'ldi. Oqbo'yin cho'chib, naq bir gaz tepaga sapchidi. Sapchish mobaynida bilanglab qochayotgan kattakon sariq ilonga ko'zi tushdi. Yo, qudratingdan, bu nimasi bo'ldi? U qiziqsinib, ilonning izidan tushdi. Yetay deganda diqqatini sertikan jonivor tortdi. Ular to'rtta edi. Munchoqday qop-qora ko'zlarini jovidiratib, chor tarafga o'rmalab chopardilar. Oqbo'yin yengil sakrab birining oldini to'sib chiqди. Tipratikan uni battar lol qoldirib koptokday yumaloqlanib oldi. Tumshug'iga tikan sanchilib Oqbo'yin vangillab yubordi. Qayta iskalanmoqqa yuragi chopmay, alanglab ilonni qidirdi. Ammo u yerga singganday g'oyib bo'lgandi.

Tinch va sokin tuyulgan do'nglikda hayot shu qadar qaynab toshardiki, Oqbo'yin e'tibor qilgani sayin hayrati oshib borardi. Go'ngkoptok yumalatib borayotgan qo'ng'izga alahsiyman deganda, diqqatini badbashara kaltakesak bo'lar, uch-to'rt odim

tashlar-tashlamas, chumoli karvoniga duch kelar, sal o'tmay dala sichqoni chiyillab qolardi. Chigirtkalarning-ku son-sanog'i yo'q edi...

***Oqbo'yinning notanish parranda, darranda yoki hasharotlar hayotiga duch kelishini "uyushtirishi"dan yozuvchining niyati qanday edi?***

Oqbo'yin bu hayotga tez ko'nikdi. Ularga ortiq e'tibor bermay qo'ydi. Yantoolardan xoli joyga cho'nqayib, tevarak-atrofni kuzata boshladi. Fermaxona tomondan it hurdi. Ovozida tajanglik aks etardi. Qora it alamzada ohangda javob qaytardi. O'rtadagi muloqotga qulqoq tutib turgan Oqbo'yin fermaxonadagi itning yovqur tabiatini his etdi. Kelbatini tasavvur qilolmagan sayin unga nisbatan qiziqishi orta bordi. Uzoqdan bo'lsa-da, turqini bir ko'rib qo'ygisi keldi.

U fermaxona tomon yo'rtib ketdi.

Manzilga yarim chaqirimcha qolganda, fermaxonadan qora bir sharpa ajralib, g'azabli akillagancha o'qdek uchib kela boshladi. Karim podachi to'g'ri bashorat qilgan edi, Malla nihoyatda qopag'on itga aylangan, ferma atrofiga tirik jonni yo'latmasdi.

Tabiiy, tug'ishganlar bir-birini tanimaydi. Bu mumkin bo'lgan holat edi. Nimaga deganda, it zoti ham barcha boshqa jonivorlar singari ona bag'ridan uzilishi bilan qon-qarindoshlarini unutadi. Ona bag'rida kechgan damlar o'tmisq qaraqayta eslanmaydigan bir tarzda singib, yo'qlikka yuz tutadi. Vaqt o'z hukmini tez o'tkazadi. Mabodo, tanishganlari taqdirdayam hech narsa o'zgarmaydi. Mal-laning o'z o'yi, o'z olami bor – Karim podachi, ferma va uning atrofidagi yerlar... shundan boshqasi endi unga begona. O'z "mulk"ida tinchgina yashashdan o'zga narsani istamaydi. G'ashiga tegmasa, birov bilan ishi yo'q. Lekin tinchini buzganni ayamaydi. Axir "mulk" egasi bo'lguncha ozmuncha kurashdimi. Avvaliga o'rta ko'chadagi Bo'ynoq bilan qirpichoq bo'lishga to'g'ri keldi. Keyin boyaga Oqbo'yinga hamla qilgan qora it bilan talashdi. Oxirida qo'shni qo'ton itlari bilan beomon jang olib bordi. Hozir ular Mal-laning "mulk"iga daxl qilishmaydi. Shuncha jangu jadal bilan qo'lga kiritgan yerida allaqanday itning bemalol tentib yurishiga, albatta, u chidayolmaydi. Hozir borib shunday bir adabini bersinki, qaytib bu tomonlarga darimaydigan bo'lsin.

Odamlarni istisno qilmaganda, Malla har qanday “kelgindi”ni tezda tartibga solib qo'yadi. Faqat odamzodgina uning tartibiga bo'ysunmaydi. Aniqrog'i, itlarning hayot tarzini ular tushunmaydi.

Tushunmagani uchun ko'pincha itga talanib yuradi. Yer umu-miydek tuyulsa-da, aslida u jonivorlar tomonidan ko'z ilg'amas chegaralarga bo'lingan. Har bir “mulk”da qat'iy tartib hukm suradi. Tartibni kim yoki nimaiki buzsa, u o'sha “mulk” egasining qattiq qarshiligiga duch keladi. E'tibor bergen odam uy itining xuruji dar-vozadan o'n-o'n besh odim berida tiyilishini payqashi qiyin emas. Demak, hovliyu ko'cha yuzigacha bo'lgan ma'lum bir masofa o'sha itga tegishli. Qo'ton itlarining sarhadi birmuncha kengroq. Shu sabab ko'ringan qoraga ular bir chaqirimdan ot qo'yadi. Malla ham shular toifasidan edi.

Arloni itlarning yo'rig'i, esa butunlay bo'lak. Ular huda-behudaga yoqalashib yurmaydi. Lekin ularning sarhadi nihoyatda keng bo'lib, odamzodga daxl qilmagan holda o'z “mulk”idagi jamiki jonivorga zimdan hukmini o'tkazib keladi. Oqbo'yin aynan shunday itlar xilden edi. Ammo hozircha u faqat o'z hovlisi bilan chegaralangandi. Erksizlik Oqbo'yinning o'z imkon va qudratiga yarasha harakat qilishiga izn bermay kelardi.

Mallaning vajohatini ko'rishi bilan Oqbo'yin begona hududga qadam qo'yanini fahmladi. Haybatli bu maxluq bilan bellashmoq oson kechmasligini sezib, imi-jimida iziga qaytmoqchi ham bo'ldi. Lekin ichki nimadir bunga royish bermadi. Yer tirnab hurdi. Agar Malla hadaha ot qo'ymay, po'pisa qilganda, Oqbo'yin jo'nab qolishi mumkin edi. To'polonga tobi yo'q, shu tobda u tashqi dunyo ta'sirida edi. Ammo endi Mallaning xuruji izzat-nafsiga tekkan, ora ochiq qilmasdan turib iziga qaytishni xayoliga ham keltirmasdi.

Oraliq masofa qisqargan sayin Mallaning g'ayrati oshib borardi. Nimaga deganda, o'z tasarrufidagi bu yerkarta bilib-bilmay qadam qo'yan har qanday begona it uning qorasini ko'rishi bilan juftakni rostlardi. Bunisi esa qochish o'rniga g'o'dayib turibdi. Kelgindini qoniga belash qasdida yelib kelarkan, Malla o'ta xavfli raqibga ro'para kelganini juda keyin angladi. Ammo endi qaytib bo'lmas, hatto bu haqda o'ylashning o'zi dahshatli edi. Endi bu yog'i tavakkal edi. Chekingandan ko'ra o'lmoq afzal.

*Aziz o'quvchi, biror marta bo'lsa ham itlar "jang"i va ular hujumda qo'llagan "taktika"ni kuzatganmisiz? Siz guvohi bo'lgan o'sha jang bilan quyidagi lavhalarning o'xshash tomonlarini solishtiring:*

Oqbo'yin Malla ham qora it kabi zabit bilan urib o'tadi deb o'yladi. Ammo itlar bilan olishaverib pishib ketgan Malla yetti-sakkiz odim qolganda taqqa to'xtadi. G'azabdan qanchalik quturmasin, u bunday damlarda aqlini yo'qotmasdi. Payt poylab turib raqibining nozik joyiga chovut solardi. Boz ustiga, Oqbo'yin butun vujudini jangga hozir holda uning har bir harakatini o'ta sezgirlik bilan kuzatardi. Malla past ovozda irillagancha uning atrofini bir aylanib chiqdi. Oqbo'yin qilt etmadi. Malla ikkinchi qur aylanishida, kutilmaganda chap tomondan tashlanib qoldi va Oqbo'yin o'zini o'nglaguncha bo'lmay, qulog'i ostidan bir parcha etni uzib oldi. Oqbo'yin quturib uning tomog'iga chang soldi. Biroq Malla epchil edi. Oqbo'yin qay tomondan, qay taxlitda hujum qilmasin, uning o'tkir tishlariga duch kelaverdi. Daqiqa o'tmay Oqbo'yin uch-to'rt joyidan yaralandi. Raqibining esa bir tukiga ham ziyon yetmadi. Oxir-oqibat Oqbo'yin raqibini chalg'itmasdan turib bir ish qilolmasligini anglab yetdi. Ammo chalg'itish uchun qilgan barcha urinishlari zoye ketdi. Malla hiylagarlikda ham ustun edi. Oqbo'yinning har bir hamlasiga javoban uning badanida katta-kichik jarohat izlarini qoldirardi.

Oxiri Oqbo'yin bo'lak hiylani ishga soldi. Tikka hujumga tashlangan bo'lib, Malla o'zini chetga olishi bilan yashin tezligida quyiga sho'ng'idda, uning orqa oyog'iga chovut soldi. Baquvvat jag'lar orasida suyakning qarsillagini eshitildi. U jag'larini bo'shatmay ilkis sakragan edi, raqibi to'pillab ostiga kelib tushdi. Bo'g'ziga og'iz solgan joyida Malla ayanchli angillab yubordi. Itning angillagini – yengillgani. Oqbo'yin yengil tin olib chetlandi. Ortiq hujumni o'ziga ep ko'rmay, Mallaning uch oyoqlab qochishini kuzatib qoldi. Keyin g'olibona hurib, tevarakka mag'rur nazar tashladi. Dala-dasht endi uning tasarrufiga tushgan, yer egasi esa sharmandalarcha qochmoqda edi.

Karim podachi fermazona biqinidagi uychadan miltiq ko'tarib chiqqanida, Oqbo'yin bir-bir bosib qirga tomon borardi. U Oqbo'yinni tanidi, lekin otishga qo'li bormadi. Ensasini qashigancha itning izidan tikilib qoldi.

\*\*\*

Oqbo'yinning zanjirbandligi Rasul lagerdan qaytgunga qadar daom etdi. Zanjirga u Malla bilan talashib-tortishgan kuniyoq tushgan.

Rasul qaytgan kunning ertasi Sodiq aka anchadan beri azob berib kelayotgan oyog'ini davolatgani sihatgohga jo'nab ketdi. U darvozadan chiqar-chiqmas, Rasul itning qoshiga keldi. Qand umidida tumshuq yalab, dum silkitayotgan Oqbo'yin bo'ynidagi og'ir temir halqa bo'shashganini sezib, hushyor tortdi. Sal o'tmay temir halqa oyoqlari tagiga sharaqlab tushgach, butun vujudida yengilik tuydi. Xalos bo'lganiga ishonmadi shekilli, botinmayroq oldinga bir odim tashladi. Odatdag'i qarshilikni sezmagach, yana bir odim bosdi. To'xtab ortiga o'girildi, u yerda ilonday chuvalashib yotgan zanjirga qarab qo'yib, ulkan qomatini cho'zgancha huzur qilib kerishdi.

Sodiq akani kuzatib qaytgan Kimsan xola bu holni ko'rib ajablandi.

– Ibi, nima qilyapsan? Tovuqlarni bitta qo'ymay qirsin dedingmi?

– Tovuqlaringizga tegmaydi, ena, – deya Rasul unga yolvoruvchan tikildi. – Mana ko'rasiz, tirnog'ini ham tekkizmaydi.

– Otang ketib... sulaymon o'ldi, devlar qutuldi bo'pti-da, a? Qani ko'p shitramay, itni joyiga bog'la! Yo'g'asam, hozir tog'angga ayтиб, izini quritaman.

– Tovuqlaringizga tegar bo'lsa, o'zim izini quritaman, – dedi yalinib Rasul. – Bir gal qo'yib ko'raylik...

– Bas, ko'p gapirma!

– Xo'p deya qoling. Mana ko'rasiz, aytgan ishingizni hammasini qilaman.

O'rtadagi mojaro o'zi tufayli ekanini Oqbo'yin darrov fahmladi. Doimo nimadandir norozi, sira chakagi tinmaydigan bu ayolga adovatli tikildi. Bir xayoli vovullab qo'rqtimoqchi ham bo'ldi. Ammo uning qo'lidan yegan ovqatlari esiga tushib, o'zini bosdi.

*Aziz kitobxon, demak, hayvonlarda ham odamlarga nisbatan qarzdorlik tuyg'usi bor ekan-da? Yo buni boshqacha atash mumkinmi? Voqealar rivojidan itlar tabiatida ham odamlardagi kabi biror xususiyat borligini belgilab boring.*

Rasul dam-badam qand bilan siylasa, ayol erta-kech ovqatiga qaraydi, suvidan xabar oladi. Ba'zilarga o'xshab ta'biga yoqmagan narsalarni tiziqishtiravermaydi. Onda-sonda bo'lsa-da, yaxshi so'zini ayamaydi. Faqat bir aybi tovuqlarini yerusi ko'kka ishonmaydi. Farosatsiz bu maxluqlaring dastidan kunda hovlini ikki-uch qayta sumpursa-da, ularga mehri shu qadar baland-ki, o'la qolsa simto'rni ravo ko'rmaydi. Tutqunlikda tovuqning tuxumi bemaza, to'shi etsiz bo'larmish. Bu gap qanchalik haq, qanchalik nohaq – nomalum, lekin tovuqlar tufayli uyda bot-bot janjal chiqib turadi. Sodiq aka ba'zida to'satdan tutaqib, tovuqlarni hovli chetidagi simto'rga haydab qoladi. Kimsan xola hay-haylab o'rtaga tushadi. Bunga uy egasi battar bo'g'iladi: "Bularning dastidan hovli yuziga oyoq bosib bo'lmay qoldi-ku, – deydi tovuq tezagi yopishgan oyog'ini yerga ishqab. – Gap shu, yo simto'rda asraysan, yo hammasini bitta qo'y may qiram'an, so'yaman, tamom-vassalom". Kimsan xola: "Bozorda bir chaksa go'sht falon pul... kunimizga yarab turgan shular-ku", deya shartta og'ziga uradi. G'azabdan qizarib-bo'zarib turgan Sodiq aka birdan halimdek yumshab, lekin shu... hovlini rasvo qilgani yomon-da, deb qo'yadi. Janjalning intihosi ko'pincha bir tovuq bilan yakun topadi. Eti ularga, suyagi Oqbo'yinga. Tovuq ustixoni mo'rt, chaynab ulgurmay, og'zida erib ketadi. Oqbo'yin suyak chaynaganday bo'lmaydi, so'lak oqizgani qoladi, xolos. Shunga qaramay, tovuq zotiga bejo qarash yaxshilikka olib kelmasligini Oqbo'yin allaqachon anglab yetgan, shu sabab ularga tig'almaslikka tirishadi.

Hozir ham Rasulga ergashib, darvozaga yo'nalarkan, tovuqlardan uzoqroq yurishga intildi.

Ko'chaga chiqishi bilan vodoprovod yonida bir to'p qizlarni ko'rib sarosimada qoldi. Buncha odamni umrida birinchi bor ko'rishi edi. Daf'atan o'zini toshbo'ron qilgan kimsa esiga tushib, vovullamoqchi bo'ldi. Ammo ko'cha o'rtasiga yetgan Rasul chaqirib, diqqatini bo'ldi. Oqbo'yin qizlarning beziyonligini payqab, hiyla xotirjam tortdi, Rasul tomon yurdi.

Xiyol o'tmay ko'nglidagi hadik batamom aridi. Negaki, o'tkinchilar beozor edi. Hatto chog'roqqina eshik yonidagi o'rindiqda o'g'ilchasini tizzasiga olib o'tirgan bahaybat bir yigit uni erkalab chaqirdi, bolasiga ko'rsatib, allanimalar dedi. Bunga javoban

Oqbo'yin dumini likillatib qo'ydi.

Saldan so'ng qishloq biqinidagi tutzor oralab borib, biydek bedapoyaga chiqdilar. Orqaroqda qolgan Oqbo'yin suvi qurigan ariq-dan hatlashi barobar hayratdan dong qotdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida o'zga bir olam yastanib yotardi. Havoda xushbo'y pi-chan hidi anqir, tog' bo'yi pichan ortilgan olisdagi mashina atrofida odamlar uymalashar, chap tarafadagi paxta paykalidan ayollarning shovqini eshitilardi. Yo'lda loyga tikilib qolgan traktor yonida bir yigit qo'l sermab, kimmnidir ko'makka chaqirardi...

Rasul bedapoya chetidagi yakkam-dukkam yo'ng'ichqalarni shatur-shutur o'ra boshlagach, Oqbo'yin manzilga yetganini anglatdi. Tut soyasiga borib cho'zildi. Bolaning nimadandir qattiq xavotirda ekanini payqab, sergak tortdi. Ammo birozdan so'ng og'ir yuk ostida bazo'r o'rmalayotgan mashinaga alahsidi. Yangi olamning bu g'alati mo'jizasi unga juda qiziq tuyuldi. Uning bir zaylda guvillashi qulog'iga yoqmay, pishqirib qo'ydi. Bir payt mashina og'ir chayqalib, ular tomon burildi. Oqbo'yin irg'ib o'rnidan turdi. Tishlarini irjaytirib irilladi. Haytovur mashina o'ngga qayrildi. Dala chetidagi yo'lga tushib oldi-da, ortidan quyuq chang ko'tarib, pastga enib ketdi. Oqbo'yin uning nimaligiga aqli yetmay qolaverdi.

Oqbo'yin tutzordan chiqib kelgan otliqni kech ilg'adi. Boshda e'tibor bermadi, so'ng qarasaki, otliqning kelishi bejo. Buning ustiga, Rasul rang-quти quv o'chgan ko'yi o'tini yig'moqda edi.

Shitob bilan kelgan qorovul tutaqib so'kingancha Rasulga qamchi o'qtaldi. Keyin ot ustidan egilib, uzun pichog'i bilan arqonni kesib yubordi. Bog'lam o't ot oyog'i ostida toptalib, har tomonga sochilib ketdi. Shundan keyingina Oqbo'yin hali Rasulning nimadan xavotirlanganini fahmladi. Yotgan joyidan o'qdek otilib chiqdi. Ot hurkib, qorovul egardan uchib tushay dedi. U o'zini bazo'r tutib qolarkan, g'azabdan afti burishib, yugan qayishini keskin tortdi-da, itning ustiga ot soldi. Oqbo'yin yer tirnab naq ot bo'yi sakradi. Ot pishqirib yubordi. Ikkinchchi hamladan so'ng shataloq otib qochdi. Egasining barcha urinishlari besamar ketdi.

Oqbo'yin uni dala chetigacha quylab bordi.

Shu soatdan e'tiboran Oqbo'yin bolaning yaqin himoyachisiga aylandi. Undagi bu xususiyat tabiiy mayl tufayli yuzaga kelgandi.

Nimaga deganda, jonivorlar, ayniqsa, it zoti kimgadir mehr qo'ymasdan yasholmaydi. U atrofdagilardan birini tanlarkan, umr bo'yi mehru sadoqatini yolg'iz o'sha odamga bag'ishlaydi. Albatta, buning uchun avvalo itning muhabbatini qozonmoq lozim.

Itning bolaga mehri qand tufayli emasdi. Agar gap yegulikda bo'lsa, erta-kech tomog'iga qaraydigan birdan-bir odam Kimsan xola edi. Ammo hamma gap shundaki, ayolning butun xatti-harakatida minnat, eng yomoni zaruriyat sezilib turardi. Sodiq akaning munosabati ham shunga yaqin. Faqat Rasulgina bolalarcha mehr bilan sevadi uni. Suykalishni jinidan yomon ko'rgani tufayli Oqbo'yin ba'zan o'z mehrini qay tarzda ifoda etishni bilmay qiynalardi. Bugun esa shunga imkoniyat tug'ildi va bundan butun vujudi behad yayradi. Ilk bor o'zining kimgadir kerakligini his etdi. **Demak, hayvonlarga ham mehr kerak ekan-da, aziz o'quvchi!**

Shu tariqa, Rasulga tird'alamagan kimsa Oqbo'yinning o'tli g'azabiga duch keladigan bo'ldi.

Oradan uch kun o'tib, o'zidan kichik bolalarga zug'um qilishni yaxshi ko'radigan Abduvali kachal buni o'z boshidan kechirdi.

Ulash boboning tomorqasi adog'idagi qurigan ariq bolalar to'planib turadgan joylardan biri edi. Ariq tubi mayin qum, sal kov-lasa, namlanadi. Nam qumdan har turli shakllar yasash mumkin. Rasul qumdan g'aroyib qasrlar yasashni yaxshi ko'radi. Bugun ham u o'rtoqlari bilan antiqa qasr yasab, tevaragini devor bilan o'radi. Navbat darvozaga kelganda, ariq labida Abduvali kachal paydo bo'ldi. Ancha narida bag'rini qumga berib yotgan Oqbo'yinni pay-qamadi, sovuq tirjaygancha to'g'ri qasr ustiga sakradi. Hozirgina bolalarning ko'zini yashnatib turgan qasr yer bilan yakson bo'ldi. Boshqalar yurak betlab bir nima deyisholmadi-yu, lekin Rasul chidab turolmadi, Abduvali kachalning biqiniga boplab musht tushirdi. Abduvali kachal vuy, enangni, deya uni qumga bosdi. Kutilmaganda ko'zi tepaga ketib, bo'kirib yubordi. Keyin dumbasni changallagan-cha qochib qoldi.

Tushdan so'ng Rasul itni cho'milishga olib bordi. Soy sohilida bolalar g'uig'on edi. Abduvali bolalardan hadik olib beriroqda qoldi. Cho'nqaygancha bolalarni hayratomuz kuzata boshladи. Bolalarga alahsib, Rasulni ko'zdan yo'qotdi. Xavotirli g'ingshigancha atrofga

alang-jalang qarandi. Ammo katak ko'ylakli bola hech qayerda ko'rinasdi. U bezovtalanib vovullab yubordi.

- Oqbo'yin, beri kel.

It tanish ovoz kelgan tomonga o'girildi. Buni qarangki, Rasul yarim yalang'och holda shundoqqina qarshisida turgan ekan. Oqbo'yin tinchlandi. Yana yo'qotib qo'yishdan cho'chib undan umidini uzmadi. Rasul chopib borib suvga kalla tashlaganda, u tag'in bezovtalandi. Hadeganda ko'rinvermagach, yugurib soy bo'yiga keldi. Bola o'n-o'n besh quloch narida bir ko'rinish berib, yana g'oyib bo'lganidan so'ng, o'zini suvga otdi. Oqbo'yin umrida suzib ko'rmagan, suv yuziga qalqib chiqqanida, dastlab nima qilarini bilmadi. Keyin oyoqlarini beixiyor harakatlantirib, tumshug'ini oldingga cho'zgancha jon-jahdi bilan suza ketdi. Shiddatli oqim uni quyiga surib borardi. Ko'p o'tmay soy yoyilib oqqan joyda tizzasigacha suvga botib turgan Rasulni ko'rди. Saldan keyin oyoqlari yerga tegib, u engil nafas oldi. Bolaga ergashib sohilga chiqdi.

Oqbo'yinning bu qilig'i hammaning e'tiborini tortgan edi, bir zumda atrofini bolalar o'rab olishdi. Yuraklirog'i botinib-botinmay silab-siypalashga ham ulgurdi.

Tezda u bolalar bilan ilakishib ketdi. Shu zaylda uning kunlari bir xilda, lekin nash'ali kecha boshladи. Peshingacha o't yulishga borishadi. Keyin boshqa mayda-chuyda yumushlar. Ayni tushda cho'milishga jo'nashadi. Ba'zan u yerda kechgacha qolib ketishadi. Kundalik sayr va sovuq suvdan Oqbo'yinning muskullari toblanib, baquvvatlasha bordi. Ko'r kam kelbatini ko'gan odam undan ko'z uzolmay qolardi.

So'nggi paytlarda Oqbo'yin o'ziga nisbatan g'arazli qarashlarni ham ilg'ay boshladи. Biri qorovul, ikkinchisi - Karim podachi. Karim podachi qorovul kabi ochiqdan ochiq adovat bilan tikilmasa-da, boqishlarida pinhona g'azab va hasad yashirin edi. Avvaliga podachi itni o'ziga iydirib olishga urinib ko'rdu-yu, harakatlari bekor ketgach, qo'yniga tosh soldi, har ko'rganda, hap senimi, deya ichichidan yonadigan bo'ldi. Oqbo'yin esa mutlaqo beparvo, kunlarini mag'rur va masrur o'tkazardi. Bora-bora qishloqdagi jamiki itlarni o'ziga bo'ysindirib oldi. U bor joyda har qanday it dumini qisardi.

Shunga qaramay, Oqbo'yinning g'ashiga tegadigan narsalar ham yo'q emasdi. Kunduzlari-ku unchalik bilinmasdi, lekin kech tushishi bilan Mallaning akillashi baralla eshitilardi. Ovozida dag'dag'a, dag'dag'adan ham ko'ra tahdid ohangi kuchli edi. Bu narsa Oqbo'yinning jig'iga yomon tegardi. Borib ovozini o'chirmoqqa harchand urinmasin, bolani yolg'iz tashlab ketolmasdi. Nazarida, hovlidan bir odim nari jilishi bilan bolaga biror kor-hol bo'ladigandek tuyulardi. Undagi bu jonsaraklik Rasulning tayin-batayin qiliqlari tufayli yuzaga kelgandi. Iti qavatiga kirganidan beri bola tengqurlarinigina emas, o'zidan bir necha yosh katta bolalar ni ham mensimay qo'ygandi. Yonida har lahza shay iti turganidan keyin kim ham yurak betlab bir nima deya olardi. Ammo shunga qaramay, gohida uning ham adabini berib turishardi...

***Rasulning bu ishini qanday baholaysiz? Bolalarcha sho'xlikmi yoki ...?***

Ayniqsa, o'tgan haftadagisi yomon bo'lди. Abduvali kachal anchadan beri Rasulga kek saqlab yurardi, kutilmaganda maktabning yonida yo'lini to'sib chiqdi. Albatta, bet bo'lishdan avval o'ngu so'liga qarab, Oqbo'yinning bor-yo'qligini aniqladi. Bu paytda Oqbo'yin tuyulishdagi darvozaxonadan yugurib chiqqan, momiq paxtadek oppoq, jimitdek kuchukchaning jur'atidan, aniqrog'i, bezbetligidan hayrati oshganicha ko'cha bo'yidagi somon g'arami ortida turardi. Bir turtkilik xoli bor jonivorning chiranishlarini kuzatarkan, tuyqusdan uzoqdan Rasulning bo'g'iq qichqirig'ini eshitdi. Jon halpida o'sha tomonga yugurdi. Naq tumshug'i tagida o'ralashayotgan kuchukcha uning epkinidan o'mbaloq oshib ketdi.

Abduvali kachal qorovulxonaga bekinib, bazo'r qutulib qoldi.

\*\*\*

Nihoyat, bu kech uning sabr kosasi to'lib toshdi. Ortiq bardosh berishga o'zida bo'lak kuch topmadi. Supada uqlab yotgan bolani ko'zi qiyib-qiymay, devor oshib ko'chaga chiqdi. Ko'chadan dalaga. Katta ariq bo'yiga yetib bir zum to'xtadi. Ariqdan nariyog'i Mallaning tasarrufudagi yerlar. Xuddi shuni ta'kidlagandek fermaxona tomonda Malla hurdi. Ovozida yakka hokimlikka da'vat qorishiq. Aynan shu narsa Oqbo'yinni fermaxona tomonga tortardi.

Tun oydin.

Malla qishloqdan uzilgan qorani uzoqdan payqadi. Ovoziga hayrat indi. Qiziq uning yeriga qadam qo'ymoqqa jur'at etgan kim bo'ldi ekan? Azbaroyi tutaqdan bo'g'ilib qolayozdi. Quturib olg'a intilar-kan, yarim yo'lga yetmay, beixtiyor to'xtadi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, qarshisidan hov birda oyog'ini sindirgan bayhat maxluq kelardi. Malla talvasada turib qoldi. Jon shirin, lekin jondan ham... Yo'q, o'z yerida begona itning emin-erkin yurishini ko'rgandan ko'ra... Zora qaytib ketsa, degan umidda Malla yer tirnab jon-jahdi bilan hurdi. Bi-roq raqibi pinak buzmadi, loaqal irillashni o'ziga ep ko'rmadi.

Malla nima qilarini bilmay tahlika og'ushida turarkan, shu payt fermaxona tomondan eshikning g'ijirlab ochilib-yopilgani eshitildi. Shunda u birdan yengil tortdi. Raqibi ko'ziga ortiq dahshatli ko'rinxay qoldi. Nima qilishini endi yaxshi biladi. Oqbo'yinni chal-g'itib, fermaxona biqinidagi uycha yaqiniga olib borsa bo'ldi, qolganini Karim podachi eplaydi. Hafta burun qo'shni qishloqdan uloqib kelib qolgan kattakon sariq itning kuni ham shu tariqa bitgan edi.

Malla kalta-kalta hurish bilan podachini voqeadan ogoh etgani-cha sekin-asta chekina bordi.

Oqbo'yin – sodda, firibni sezmadi. Intiqom tuyg'usi vujudini shu qadar zabit etgan ediki, pastak eshikning qiya ochilganini ko'rsa-da, e'tibor bermadi. Mallani devorga siqib borarkan, hamla oldidan bir zum to'xtadi. Shu dam eshik og'zida o't chaqnab, o'q ovozi qarsil-ladi. Yag'riniga o'sha tanish miltiqdori hidi urilishi bilan dahshatga tushib, sakrab turdi. Og'riqdan ham ko'ra kutilmagan bu hodisadan qo'rqib ketgan Oqbo'yin raqibining ayovsiz talovlari ostida shar-mandalarcha qochdi.

\*\*\*

Badanidagi tish izlari tez bitib ketdi-yu, lekin o'q teshgan jarohatiga qurt tushib, behad azob cheka boshladi. Ovqatga ham qaramay qo'ydi. O'n kun ichida avvalgi kelbatidan asar ham qolmadi.

Ota hali qaytmagan, onaning it bilan ishi yo'q, yolg'iz Rasulgina uning dardiga sherik, o'zi bilganicha, qo'lidan kelganicha muolaja qilardi. Oldiniga kul sepib yurdi, kul ham foyda beravermagach, allaqayerdan bir shisha quyuq qoramtil, qo'lansa dori topib keldi.

Ammo doriniyam yordami tegmadi. Itning ahvoli kundan-kunga yomonlasha bordi. Oxir-oqibat Rasulning mol do'xtiri – Salom pa-kanaga borib yalinishdan o'zga chorasi qolmadi.

Salom do'xtirni tomorqasidan topdi. U ikki ishyoqmas o'g'lini pi-yoz o'toqqa qo'yib, o'zi kartoshka chopayotgan ekan. Otaning kayfi buzuq, bolalarining qovoqlari qizargan, kattarog'ining yalang'och sonida chiviq izlari shundoqqina ko'zga tashlanib turardi.

Rasul yaqinroq borishga yuragi betlamay turganida, Salom do'xtir uni ko'rib qoldi.

– Nima kerak?

Rasul qimtinibgina unga yaqinlashdi.

– Kuchugimiz o'layapti, – dedi tomog'iga yig'i tiqilib.

– Nima qilay shunga? – Salom do'xtir hayron bo'ldi.

– Tuzating... tuzatib bering.

– A! – hayratdan Salom do'xtirning qoshlari kerildi. Bu bolanning esi joyidami o'zi, degan ma'noda unga boshdan-oyoq tikildi. Shu damgacha unga hech kim itim kasal deb kelmagan. Allaqanday o'laksa uloqchasi og'riganda uning eshigiga tanda qo'yadigan odamlar iti dardga chalinganda parvo qilishmas, nari borsa, joni qiynalmasin, deya biror jar-parga chiqarib otib tashlashardi.

– Agar xo'p desangiz, evaziga piyozingizni o'tab beraman, – dedi Rasul yalinchoqlik bilan.

Salom do'xtir endi unga ayricha qiziqish bilan tikilarkan, dimog'ida hi-im, deb qo'ydi.

– Tuzating... har kuni daladan sigiringizga o't yulib kelaman.

Salom do'xtir ish desa tom oshib qochadigan o'g'illaridan kuygan emasmi, bolaning bu gapi favqulodda mehrini qo'zg'atib yubordi.

– Anovilarga qarashib yubor-chi, keyin bir gap bo'lar, – dedi kumsirab.

Rasul hash-pash deguncha ikki pol piyozni o'tab tashladi.

– Ana ko'rdilaringmi, qanaqa ishslash kerak, – dedi Salom do'xtir xo'mrayib. So'ng Rasulning yelkasiga yengilgina shapatiladi:  
– Barakalla! Qani ketdik.

Rasul itni bog'lagach, salom do'xtir Kimsan xolaga chilvir olib chiqishni buyurdi. Kimsan xola hayron: "Tovba, it molmidiki, do'xtir ko'rsa. Shu Salomniyam yosh bola fe'li bor-a".

Rasul do'xtir aytganday qilib itning oyoqlarini kullakladi. Oqbo'yin qarshilik ko'rsatmadni, zero, bunga holi ham yo'q edi. Taqdirga tan bergandek, bir alpozda g'ingshib yotaverdi.

Salom do'xtir itning tumshug'ini tasma bilan sirib bog'lagach, kattakon qora sumkasini ochdi. Boshda jarohatni obdan ko'zdan kechirdi, so'ngra qo'lidagi yaltiroq tig'ni shartta yaraga botirdi. Oqbo'yin bor vujudi bilan titrab ketdi. Ulkan boshini ko'tarib turmoqqa intildi.

- Lallaymay, boshidan tut! – deya buyurdi Salom do'xtir. – Ustiga minib ol!

U imillagancha yaradagi qurt va socma o'qlarni bittalab terarkan, Oqbo'yin ustidan Rasulni itqitib yubormoqqa intilar, to'lg'anar, ingrar, g'ingshir, Salom do'xtirga yeb-yutib qo'ygudek tikilardi. Ni-hoyat Salom do'xtir jarohatni bog'lab, o'rnidan qo'zg'aldi. Peshona terlarini bilagi bilan sidirarkan, chog'roqqina shishadagi qoramtilorini bolaga tutqazdi.

- Kunda uch mahal surasan. Aytgancha vaqtiga vaqt bilan bilan yarasiga siyib tursang ham bo'ladi. Ha, nimaga ishshayasan? Voybo'y, uyalib ketdilarmi? Seni qarayu, buning nimasi uyat. Agar bilsang, siyidik eng yaxshi malham, tez qotiradi. Jarohatiga tili yetganimda sen bilan menga kuni tushib turmasdi, yalab-yulqab o'zi tuzatib olardi.

Hafta o'tib, jarohati hiyla bitgan Oqbo'yin oz-ozdan ovqat yeydigan bo'ldi.

Quvvatga kirgan sari o'sha mash'um kecha xotirida tobora ravshanroq jonlana borib, Mallaga nisbatan adovati behad kuchaydi. Boz ustiga, keyingi vaqtarda Malla battar haddidan oshgan, gohida uning ovozi shundoqqina qishloq yonidan, ko'chalardan eshitilib qolardi. Shunisi qiziqli, uning sasi chiqishi bilan qishloq itlarining ovozi mayin tortar yoki butunlay o'char, hatto yaldoqli akillashlarini ham eshitish mumkin edi.

Mallaga nisbatan zimdan kuch to'play boshlagan Oqbo'yin endigi uchrashuv so'nggisi bo'lisini ich-ichidan sezar va shu kunning kelishini betoqat kutardi. U zoriqib kutgan vaqt yetib kelganida, barglar sarg'ayib, havo hiyla salqin tortgandi. Endi Rasul hovlida emas, uyda uxlardi. Shunga qaramay, Oqbo'yin tunlarini deraza or-

tida o'tkazardi. Eski odatini hanuz tark etmagandi u. It bir nimaga odatlandimi, uni hech kanda qilmaydi.

Bugun u derazada shu'la so'nishi bilan devor oshib ko'chaga chiqdi. G'o'zapoya g'arami yonida qo'shni it – To'rtko'zga ro'para keldi. To'rtko'z g'ajib turgan suyagini tishlab, dumini likillatgancha uni do'stona qarshiladi. Yaltoqlanib iskalandi. Oqbo'yin uni yoqtirmasdi, ortidan ergashgandi, irillab berdi: yo'qol ko'zimdan! To'rtko'z g'ingshib qoldi. Oqbo'yin ariq bo'yiga yetib cho'nqaydi. Muzdek yelga yuz tutib, hid oldi. Mallaning makkorligi esida. To'g'ri bosib borishga yuragi chopmadi. Tadbir qidirdi. Nima qilarini bilmay alamidan uvlab yubordi. Uzoqdan Malla hurdi. Shundan so'ng Oqbo'yin tavakkaliga olg'a yurdi. Saldan keyin o'zi tomon shig'ab kelayotgan Mallani ilg'adi. Vujudi g'azabga to'lib, qadamini tezlatdi. Biroq Malla yugurib kelayotgan joyida taqa-taq to'xtadi. Oqbo'yin il-damroq harakat qilgandi, u shartta iziga burildi-da, qocha boshladi. Oqbo'yin xatosini tezda fahmlay qolmadi. Qachonki, Malla o'tgan galgidek kalta-kalta hurganicha kimnidir ko'makka chaqirayotgani ni anglagachgina, yana firib ishlatayotganini payqadi. To'xtadi. Malla esa yer tirnab hurgancha jig'iga tegishda davom etdi. Oqbo'yin ilgari borishga yuragi betlamay birpas hardamxayol turarkan, noiloj iziga qayrildi. Shunda Malla to'satdan tashlanib qoldi. Oqbo'yin o'girilishi bilan yana ura qochdi. Quvib yetolmasligiga ko'zi yetgach, Oqbo'yin qishloq tomon yurdi. Malla ketidan qolmay, chotidan olgudek bir vajohatda ergashib kelaverdi. Shunda Oqbo'yinning ko'ngliga shumlik oraladi. Avvaliga lo'killadi, so'ng chinakamiga qochgan bo'lidi. Ariqqa yuz qadamcha qolganda, Oqbo'yin shartta iziga burildi-da, yashin tezligida unga tashlandi. Malla o'zini o'nglaguncha bo'lmay, Oqbo'yinning o'tkir tishlari bo'g'ziga qadaldi. Qaynoq qon hididan quturib ketgan Oqbo'yin zumda uni g'ajib tashladi. Keyin sal chetlanib, raqibining jon talvasasida to'lg'anishlarini g'olibona kuzatib turdi. Mallaning so'nggi nolasi qanchalik ayanchli bo'lmasin, ko'nglida unga nisbatan tariqcha shafqat sezmadni. Qaytanga g'alabadan sarmast holda jasad atrofini uch qur aylanib chiqdi. So'ngra qishloqni boshiga ko'tarayotgan ariq bo'yidagi itlar to'dasiga e'tibor bermay, bir-bir bosgancha tepalik sari yurdi. Zafar zavqidan to'la bahramand bo'lishga nimadir xalaqit berardi. Nima-

galigini bilmagani sayin xunobi oshib, oxir-oqibat uylab yubordi. Uvlash barobarida fermaxonaga ko'zi tusharkan, shundagina nimadan dilgirligini anglab yetdi.

Fermaxonada shunday bir kuch yashirin ediki, Oqbo'yin shakl-shamoyilini to'la tasavvur etolmasa-da, qarsillagan ovozi, ko'z ol-guvchi shu'lasi, yoqimsiz hidi, kuydiruvchi zarbidan g'oyat darajada dahshatli narsa ekanligini fahmladi. Uning nimaligini ko'rmasdan, bilmasdan turib, bundan keyin biron daqiqa ham xotirjam yurolmasligini his etgan sayin tashvishi ortib, ko'ngli g'ussaga to'lib borardi. Qiziq, nima ekan u?

Oqbo'yin tabiatan qanchalik jasur va dovyurak bo'lmasin, uzoq ikkilanishdan keyingina bir qarorga keldi. Tepalikdan tushib har bir qadamini o'ta ehtiyotkorlik bilan bosgancha fermaxona tomon yurdi. Fermaxonaga yaqinlashgach, cho'zilib yotganicha tevarak-atrofni uzoq ko'zdan kechirdi. Qator darchali oppoq devor ortidagi mollarning shovurini ilg'agach, yer bag'irlab borib, darchalardan biriga yaqinlashdi. Ochiq deraza raxiga panjalarini qo'yib, ichkari-ga mo'raladi. Dimog'iga o'tkir shiptir hidi urildi. U bu yerda uzoq qolmadi. Devor yoqalab uycha tomon bordi. Yarim yo'lga yetmay yanada sergak tortdi. Tumshug'ini cho'zib havoni iskadi. O'sha tanish miltiqdori hidi uycha tarafdan kelmoqda edi. Shu kech Karim podachi o'q yasay turib, bir chimdim dorini yoqib ko'rgandi. Tek-shirmasa bo'lmaydi, namiqqan dori pand berib qo'yishi mumkin... Oqbo'yin hidga ergashib eshikkacha keldi. Bu yerda dori hidi boshqa hidlarga qorisib ketgandi. Ichkaridan eshitilayotgan xurraq ovozini tinglagan sayin o'sha sirli va dahshatli kuch butun borlig'i bilan ko'z oldida gavdalana boshladi. Sirli kuch hech kutilmaganda odam bolasi bo'lib chiqqanidan Oqbo'yin o'zida yo'q quvonib ketdi. Odam bolasi bilan tenglashib bo'lmasligini u allaqachon anglab ulgurgan. Dunyoda insongina istagan ishini qila oladi – xohlasa, bo'yniga zanjir soladi, xohlasa, oyoqlarini kullaklab, etini burdalaydi, xohlasa... Xullas, eng yaxshisi, ular bilan pachakilashmagani ma'qul. Tegma-sang, tegmaydi.

Oqbo'yin yo'lni to'g'ri Sariqtepaga soldi. Osmon to'la yulduzlarga boqqanicha o'zga ohangda uvillab yubordi. Pastda qorayib turgan qishloqdagi itlarning uni o'chdi. Loaql birortasi po'pisaga hurma-

di. To'rtinchi yo beshinchi ulishidan so'nggina To'rtko'z yaldoqlanib javob qaytardi. Keyin unga boshqa itlar qo'shildi. Go'yo ular yangi "hukmdor"ni olqishlashar edi.

\*\*\*

Karim podachi bilan yuzma-yuz to'qnashuv oradan hafta o'tib, Eldor tufayli sodir bo'ldi.

Otasidan Mallaning fojiasini eshitgan Eldor Oqbo'yinga behad kek saqlab kelardi. Tabiiy, itga bet bo'lishga jur'ati yo'q. Bor bo'lган taqdirdayam nima qila olardi deng? Hirsday itga kaltak o'qtalib bo'lmasa, tosh otsang, tappa bosib talasa. Miltiq haqida esa hatto gap bo'lishi mumkin emas, yarog' bilan o'ynashgan bolani Karim podachi yomon ko'radi, hadaha qamchi ostiga oladi. Shu tarzda boshi qotib yurarkan, bugun tasodifan ularni ko'chada uchratib qoldi. U ko'p o'ylab turmay, qochib kirish oson bo'lsin deya, darvozani qiya ochib qo'ydi-da, qo'yni-qo'njini toshga to'lg'azib, ko'cha bo'yiga chiqdi. Tepkilab xazonbarg to'lg'azilgan og'ir qop ostida burni yerga tekkudek munkayib kelayotgan Rasulni o'tkazib yuborib, sal ortda borayotgan Oqbo'yinni toshbo'ron qilishga tushdi. Toshi tegar-tegmas Oqbo'yin tishlarini dahshatli ravishda irjaytirgancha unga tashlandi. Eldor darvoza tomon qochdi. Yarim yo'lда qoqilib o'mbaloq oshib tushdi. Qo'rqqanidan chinqirib yubordi. Chinqirganga it tegmaydi. Oqbo'yin iziga qaytdi.

Karim podachi miltiq ko'tarib hovliga kirib kelganida Rasul bo'lган voqeani endigina otasiga gapirib bo'lgandi. Podachining vajohatini ko'rib, Sodiq aka irg'ib o'rnidan turdi. Ammo Karim podachi unga e'tibor bermay, ini yonida cho'zilib yotgan Oqbo'yin to-monga yurish qildi.

– Hoy, musulmon! – dedi Sodiq aka yo'lini kesib chiqdi. – Bu uyda odam bormi, yo'qmi demay, tikkalay bostirib kelishingiz nimasi, a?

– Qoch! – dedi Karim podachi og'zidan tupuk sachratib. – Ota-man! O'ldiraman! Urug'ini quritaman!

– Nimani otasiz?! Nimani o'ldirasiz?! Nima, bu joy enangizning mahriga tushganmi? Buncha kekirdak cho'zasiz! Qani, hovlidan chiqing! Indamagan sayin... Chiqing!

– Indab nima qilarding?! – Karim podachi endi unga xezlandi.

– Qani, bir qip ko'r! Ko'raylikchi, nima qilarkinsan! Tag'in it-piting bilan... Nari tur! Oldin itingni qonini ichaman, keyin seni! Qoch deyapman!

– It sizga nima yomonlik qildi?

– Bilmaysan?

– Bilmayman.

– Butun qishloq bilgan narsani sen bilmay qoldingmi?

– Ko'z bilan ko'rmagansiz, tuhmat qilmang. Nima, qishloqda faqat bizning it bormi?

– Ko'r emasman! Bu ish faqat mana shuning qo'lidan keladi.

Qo'yvor miltiqni! Miltiqni qo'yvor deyapman!

– O'zingizni bosing!

– Itimni bo'g'izladi, mayli dedim, zo'rdan-zo'r chiqibdi, qandini ursin dedim. Ammo endi. Bolamni o'ldirib qo'yishga sal qoptiyu, tag'in qanaqasiga o'zimni bosay! Qonini ichmasdan ketish yo'q! Sen, yaxshisi, supada bosib o'tir. Xalaqit berma menga. Qo'rqlama, o'ligini tashlab ketmayman.

– Menga qarang, aka! Erkak odamsiz, keling, erkakchasiga gaplashaylik. Ammo-lekin gapdan qaytish yo'q, xudoga shukur, belda belbog'imiz bor. Agar itim o'g'lingizning biror yerini tirnagan yoki tishlagan bo'lsa, marhamat, it sizniki, xohlang, pishirib yeng, xohlang, kuydirib. Kelishdikmi? Iya, nega nafasingiz ichingizga tushib ketdi, gapiring! Odam degan bundoq bo'lmaydi, bostirib kelishingiz yetmagandek, dag'dag'angiz ortiqcha. Indamasa, ko'krakka chiqib tepishdan ham toymaysiz. Itingizning dastidan-ku bola-chaqa dashtga tezakka chiqolmasdi. Hurmartingizni qilib bir nima demaganmiz. Sizga esa... Yo shu itni bersam qutulamanmi sizdan?

Karim podachi birdan hushyor tortdi. Shuning barobarida darrov shashtidan tushib, unga umidvor tikildi.

– Ana gap qayoqda ekan, – deya achitib oldi Sodiq aka. – Odam degan buncha mayda bo'lmaydi, aka. Ko'ngildi keng qiling, ko'ngildi!

Karim podachi tag'in quturdi.

Bo'layotgan voqeani jimgina kuzatib yotgan Oqbo'yin ortiq sabr qilib turolmadi. Ular miltiq talashayotganda, sapchib turdi-da, vovullagancha podachiga tashlandi. Sodiq aka itni oyog'i bilan tepib haydarkan, ilkis bir harakat bilan miltiqni tortib oldi-da, o'qlarini chiqarib, tomorqaga uloqtirdi.

– Izzatingiz borida jo'nab qoling! – dedi miltiqni egasiga qaytarib. – Yo'qsa, chatoq qilaman! Keting tezroq! Agar yana bir bor yaroq ko'tarib kelsangiz, o'zingizdan o'pkalang! Keting!

Karim podachi darvozaga yetmay to'xtadi. Ortiga o'girildi. Ko'zlarida qahru g'azabdan tashqari, hasad, havas va yana allani-malarning ifodasi qorishiq edi.

– Sodiq, ke, senam bi-ir odam bo'l, ber shuni menga, – dedi al-lanechuk yozg'irgan ohangda. – Yaxshi narsa... uvol bo'lmasin. Fe'limni bilasan, baribir birda bo'lmasa birda otib qo'yaman... Yo'q dema.

– Keting, aka! Izzatingiz borida jo'nab qoling!

Sodiq aka Karim podachini irillagan ko'yi kuzatib qolgan Oqbo'yinni tinchlantirishga harakat qilarkan, itga qattiq ichi achi-di. Negaki, podachining fe'li unga besh qo'lday ma'lum – tikilgan narsasini olmay qo'ymaydigan kimsau. Avvalo tikilmasin, tikilidmi – tamom, yo o'ziniki qiladi, yo butunlay yo'q qiladi. Shu fe'li atvori tufayli yigitligida qamoqxona tuprog'ini yalab kelgan. Ming tavallo qilishiga qaramay, unga boqishni lozim ko'rmagan qo'shni qizni to'y kechasi pichoqlab qo'yan. Qiz o'ljadi. Hozir sakkiz bolaning onasi, gumbazday semirib, avvalgi husni jamolidan asar ham qolmagan. Ammo yoshlikda bergen ko'ngil bedavo bo'larkanmi, hanuz uni ko'rди deguncha Karim podachining ko'kragi osti kuyishib, miyasiga qon tepadi. Mayda-chuyda bahonalar bilan ayloning erini tutib urgan vaqtłari ko'p bo'lgan. Endi buni muhabbatga yo'yib, podachini oqlamoq mumkindir. Biroq uning kurakda turmaydigan qiliqlari shu qadar serobki... ikki yilcha burun podachining havasi Qodir traktorchining sigiriga tushdi. O'ziyam sigirmisan sigir edida. Yem tanlamas, erta-kech chelak-chelak sut berardi. Suti seryog', cho'p suqsa tippa-tik turadi. Podachi shu sigirga xaridor bo'ldi. Turgan gapki, Qodir traktorchi ko'nmadi. Barcha urinishlari besamar ketgach, Karim podachi sigirni dalada zaharlab o'ldirdi. Mol achchig'i – jon achchig'i, Qodir traktorchi uni ko'chada tutib olib, tuproqqa belab urdi... Bukrini go'r tuzatar degandek, mana endi u Oqbo'yinga ko'z tikib yuribdi. Maqsadiga yetsa yetdi, yetmasa, erta bo'lmasa, indiniga shartta otib tashlashi tayin. U bu ishni panapastqamdan turib emas, oshkora ado etadi. Da'vo qilar bo'lsang,

o'larman ho'kizday boshini tutib keladi: "Urasanmi?! Mana, ur! Qo'lingdan kelsa, etimni til, boshimni yanch, yashirmayman, otdim! Otib o'liddim! Xudo shundaychigin fe'lni bergan bo'lsa, men nima qilay?! Qo'y deymanu o'zimni tutolmayman. Ichimdan allambalo xuruj qilib qo'ymaydi. Lekin men senga yalindim, katta boshimni kichik qip yolvordim, o'zing bermading. Berganingda, bechora xudo bergen umrini yashab yurgan bo'lardi. Ha, nimaga turib qolding?! Qo'ling qichib keldimi, hayallatmay uraver, mana yelkam seniki, kalla kerak bo'lsa, boshim seniki. Ammo-lekin tavba qilish yo'q! Fe'lrim o'zimga ma'lum... bugun og'zimga so'z olib qo'yib, erta bir kun subutsiz degan nom orttiraymi! Tavba deyish yo'q!" Haqiqatan, Karim podachini uzr so'ratish qiyin. Bu ish hatto Keldiyor lo'lining qo'lidan kelmagan.

*Karim podachining bu fe'lini oqlash o'rinnimi? Agar kishi birovning narsasiga nohaq ko'z olaytirsa, maqsadiga yetmagach, ularga ziyon yetkazsa, insoniylit, jamiyatda o'rnatilgan odobaxloq me'yorlarining ahamiyati qayerda qoladi? Yigit kishining va'dasida turishi bilan podachining qasami o'rtasidagi farq nimada?*

Uzoq yili Karim podachi qirda tulki ovlab yurgan Keldiyor lo'lining tozi itlaridan biriga oshiq bo'ladi. Tozimisan tozi edi-da o'ziyam, har qanday epchil tulkini bir zabtda olardi. Karim podachi o'shangan og'iz soladi. Keldiyor lo'li otda, u piyoda, uzoq tortishadilar. Tortisha-tortisha Sariqtepa yonidagi ayri yo'lga kelishadi. Keldiyor lo'li umrida bu qadar yopishqoq kimsani ko'rmagan ekan. Oxiri toqati tugab, podachini chap yag'riniga achchiq qamchi tortadi. Qamchi bahona Karim podachi tozi itning manglayidan otib tashlaydi. Lo'lilar ko'pchilik edi, unu o'rttaga olishadi. Voqeani ko'rgan bolalar qishloqqa yuguradi. Yaxshimi, yomonmi podachi – qishloq odami, begona ursa, qishloq ahlining ori kelishi tayin. O'n chog'li yigit Sariqtepaga ot qo'yadi. Mamarajab juvozkash tasodifan kelib qolmaganida, bu janjalning oqibati xunuk bo'lardi. Haytovur, chol vaqtida ulgurdi. U kelganda og'zi-burni qora qonga belangan podachi bir chetda lo'lilarni yoppasiga changitib so'kar, yigitlar esa qo'llari musht bo'lib tugilgan, qiya tutilgan miltiqlar qarshisida noiloj, shuningdek, har lahzada tashlanishga shay holda chegirayib

turishardi. Mamarajab juvozkash yurt kayvonilaridan biri sifatida ozmi-ko'pmi obro'si bor, yeng shimarib oraga tushdi. Yigitlarni ter-gab-sergab chetlatdi. Lo'lilarga bir mezbon sifatida muomala qildi. So'ng Keldiyor lo'lini o'rtaga chorlab so'roqqa tutdi. Savol-javobdan Karim podachining gunohi ayon bo'lgach, chol unga yuzlandi, beti yo'q, deb so'kdi, qishloqni sharmanda qilding, deya koyidi, oxiri Keldiyor lo'lining talabini inobatga olib, tavba-tazarru qilasan, deya shart qo'ydi. Karim podachi boshidagi telpagini yerga urib, yoqa yirtib oldinga chiqdi.

- Yoq, - deya hayqirdi u. - Kelib-kelib allaqanday bir lo'lidan tazarru so'raymanmi?! Bu-ku bandasi, kerak bo'lsa xudosidan ham so'ramayman! So'rayolmayman! Fe'lism o'zimga ma'lum, bugun og'zimga so'z olib... erta yana... yo'q, so'rayolmayman!

Keldiyor lo'li hayratdan yoqa tutdi:

- Yo tovba! Shunchalik nuqtangni uzganmisan?!
- Uzganman!
- Gunohing bo'yningda qolsa, oqibati yomon bo'ladi.
- Nimaga shama qilyapsan?! - Karim podachi yomon so'kindi.  
-Iting qolib, o'zingni otib tashlamaganimga shukr qilsangchi. G'ashimga tegaversang, hozir ham ... peshonangdan darcha ochib qo'yishim mumkin.
- Hozircha miltiq menda...
- Hechqisi yo'q, xudoning kuni ko'p...
- Qasdlanma, tentak! - chol Keldiyor lo'liga xezlanib borayotgan podachining ko'kragidan itarib tashladi. -Tentakligingni biz ko'taramiz. Ichdan chiqqan balosan, nima ham derdik, chidaymiz, lekin bular bilan qasdlashma. Bola-chaqangni o'ylasanchi, nodon. Hali itiga ham tovon to'laysan. Gapini eshitding, uch qo'yni puliga olganman, deyapti...

- Tovon?! - Karim podachi istehzoli iljaygancha lo'liga yuzlandida, o'ng bilagini xunuk silkillatdi. - Mana senga tovon! Ko'rningmi!

- Qo'ying, boboy, - Keldiyor lo'li tishini-tishiga bosib, qo'lidagi miltiqni cholga uzatdi. - Oling miltig'ini. Sadqai gapingiz ketsin. Odammaskan bu o'zi. Tovbasini so'ramang. Kechdim gunohidan. Endi bizga ruxsat bering, tirikchiligidan qolmaylik.

– Yo'q, so'raydi, – dedi Mamarajab juvozkash gapi yerda qolgani-dan ranjib. – So'ramay ko'rsin!..

– So'ramayman, – dedi podachi ichki bir qoniqish bilan. – Hali bularning yana kelari bor. O'shanda boshqacha gaplashamiz bu bilan...

O'sha kuni Karim podachi uzr so'ramadi. Keldiyor lo'li qaytib bu tomonlarga darimadi. *Qadrdonimiz, yana diqqatingizni bo'lishimizga to'g'ri keladi. Sizning qishlog'ingizda ham Karim podachi toifasidagi odamlar bormi? Xalq undaylar bilan qanday murosa qiladi?*

Mana shunday bir qaysar odamga Sodiq aka nimayam deya olardi. Mabodo podachi dabdurustdan dov to'kib kelmay, yelimday yopishib holi-joniga qo'yaganida, Sodiq aka itdan voz kechishi mumkin edi. Ammo endi berib bo'lmasdi. Podachining qilig'i uning hamiyatiga qattiq tekkandi. Mayli, qasd qilibdimi, ko'cha-ko'yda otib tashlay qolsin. Bir kami harom it uchun yoqalashib yurishi qoluvdi. Hozircha qo'lidan keladigan birdan-bir chora itni zanjirda saqlash edi. Oradan uch kun o'tib Sodiq aka itni zanjirdan bo'shatishga majbur bo'ldi, nimaga deganda, Oqbo'yin angillayverib, g'ingshiyverib tinchlik bermadi. Aslida itning notinchligi tutqunlikdan emas, xavotirdan edi. Rasul uydaligidida sokin yotgan it u hovlidan chiqib ketishi hamon qoziq aylanib chopar, to bola uyga qaytmaguncha o'zini qo'yarga joy topolmay qolardi.

Bo'shovdan so'ng Oqbo'yin avvalgiday yashay boshladi. Tushgacha maktab yonidagi terakzorda Rasulning darsdan chiqishini poylab yotadi. Keyin birga uyga qaytishadi. Rasul apil-tapil choyini ichadi-da, paxtaga jo'naydi. Oqbo'yin paykal chetida qolib, uni shomgacha kutadi. Tunda esa derazadan shu'la so'nishi bilan devor oshib ko'chaga chiqadi-da, boshi oqqan tomonga tentib ketadi. Bu yog'i qirgacha izg'iydi. Fermaxonadan doimo chetlab o'tadi. U yerda g'animi borligini biladi. O'sha kungi janjaldan so'ng podachi Oqbo'yinni ikki bor otishga urinib ko'rdi, ikkinchisida o'q ko'kragini yalab o'tdi. Jarohati yengil edi, Oqbo'yin yalab tuzatdi. Karim podachi bu bilan qanoatlanib qolmay, Xidir xirani ham ovlashga urinib ko'rdi. "Buyruq yo'q, jo'ra, – dedi Xidir xira ko'nmay. – Bir enlik qog'oz bo'lsa, sen aytmasang-da, urug'ini quritaman". "Qog'oz-pog'oz deb

o'tirasamni. Paqqa ot qo'y-da!" "Qog'ozsiz mumkin emas. Egasi yo-qamdan olsa, seni ko'ndalang qilamanmi? Qo'lingda miltig'ing bor, o'zing otaver. Bir qishloq odamisizlar, egasi qozilashib yurmas, axir. Endi bizdi yo'rig'imiz bo'lak, begonaligimiz bor. Agar judayam evini topolmasang, sabr qil, qish o'tib ko'klam kelsin..."

Oqbo'yin Karim podachining zimdan tish qayrashlariga ko'pda e'tibor bermas, tunlari dala-dashtda bearmon tentirdi.

\*\*\*

Uzoq cho'zilgan qora sovuqdan so'ng yerga birinchi qor tushdi.

Oqbo'yin yomg'ir nimaligini biladi, tumanni ko'rgan, lekin buni-siga aqli yetmadi. Iskab ko'rdi, yalab ko'rdi... keyin ko'nikdi. Ilk qor quvonchidan u bebahra qolmadi. Hovlida Rasul bilan rosa to'palon qildi.

Biroq kechga borib o'z-o'zidan bezovta bo'la boshladi. O'yin ko'ngliga sig'may, bo'yniga osilgan Rasulni siltab tashladi, ko'p tirg'almay nari tur, shusiz ham ko'nglim siyoh. Rasul qorda cho'zilib yotarkan, unga hayratomuz tikildi. Itni birinchi marta o'ta bezovta va jonsarak holda ko'rayotgan edi. Oqbo'yin oshirib yuborganini sezdi shekilli, qo'lini og'ritmay tishladi, yuz-ko'zini yaladi. Yarashuv-dan so'ng bola uni chanaga qo'shdi. Avval hovli yuzida uchishdi, keyin ko'chaga chiqishdi. Boshda bu yumush Oqbo'yinga g'alati tuyul-gan bo'lsa-da, so'ng juda qiziqib qoldi. Rasulning mayliga bo'ysunib, bolalarning ko'zini o'ynatib, qishloq ko'chalarini bir aylanib chiqdi. Evaziga bir changal qand bilan siylandi.

Kechki ovqatdan keyin Oqbo'yin odatdag'i joyiga – deraza tagiga uzala tushdi. Qor yumshoq, havo iliq edi. Oqbo'yin ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha ichkaridan eshitilayotgan shovurga quloq tutib yotarkan, birdan sergak tortdi. Nafasini ichiga yutib, quloqlarini ding qildi. Ko'p o'tmay cho'ziq ulish ovozi yana takrorlandi. Oqbo'yin o'xshab-o'xshamay ketadigan bu nido zamirida yurakka vahima soluvchi nimadir borligini ilg'ar-ilg'amas, qishloq itlari jazavaga tushib qolishdi. Oqbo'yin boshini bir yon qiyshaytirib, itlar ovoziga diqqat qilarkan, ularning ovozida bezotalik sezdi. Bunga sari goh aniq, goh elas-elash eshitilayotgan ovoz egasi tasavvurida g'aroyib va dahshatli maxluqqa aylanib bordi. Qo'rquv bilmas yuragiga qiziqish oraladi. Shu qiziqish halpida devor oshdi. Ko'cha va daladan o'qdek

uchib o'tib, tepalikka intildi. Chor atrofga alanglab, havoni iskadi. Qor hididan bo'lak hidni tuymay, norozi g'ingshidi. Shu dam hazin ulish qaytarildi. Oqbo'yin uning qaysi tarafdan kelayotganini anglab ulgurmay, kun botish tomondan yana biri qulooqqa chalindi. Dasht oppoq qor, Oqbo'yin ikki qishloq oralig'idagi do'ngda qorayib tur-gan sharpani bazo'r ilg'adi.

U o'sha tomonga yugurmoqchi bo'lgan joyida beixtiyor to'xtadi. Qorani Olapar deb o'yladi, shuningdek, dov to'kib borishga o'zini haqsiz sezdi. Nimaga deganda, do'nglikdan naryog'i Olaparga daxldor. Bu haqda o'tgan gal o'ta jiddiy bir tarzda ogohlantir-gandiki, uning o'sha paytdagi holati hanuz Oqbo'yinning ko'z o'ngida, eslasa, eti junjikadi.

Ikki haftacha burun sutdek oydin tunlarning birida Oqbo'yin o'z tasarrufidagi yerlarini aylanib yurib, tasodifan otasiga duch kelib qoldi. Olapar do'ngda qir tarafga tikilgancha cho'nqayib o'tirgan ekan. Oqbo'yin avvaliga e'tibor bermadi. Qurigan oqquraylar oralab do'nglikka ko'tarilar ekan, to'satdan mixlangandek qotib qoldi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida o'zi o'ylaganchalik jo'nggina it emas, bahaybat maxluq savlat to'kib turardi. Jismi go'yo po'latdan quyilganday, har mo'yidan kuch yog'iladi. Ko'zlarida esa na g'azab, na adovat – jiddiy osoyishtalikdan o'zga narsa aks etmasdi. O'z kuchiga behad ishongan jonivorgina mana shu tarzda xotirjam boqa oladi... Oqbo'yin olg'a borishniyam, chekinishniyam bilmay turganida notanish itning jiddiy nigohlarida, kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, degan ma'noni uqdi. Bu xil sokin va bosiq muomala kamdan-kam itning qo'lidan keladi. Bunday damlarda aksariyat itlar darhol po'pisaga o'tadi, kuchi yetsa-yetmasa hamla qilmoqqa tirishadi.

Oqbo'yin tabiatan og'ir emasmi, jizzakilik qilmadi, kalta akillash bilan javob qaytardi. Notanish itning kalomi unikidan ham qisqa bo'ladi: "Vov!" Bu tarzdagi muloqot odamlarga bir xil tuyulsa-da, ammo ovozning baland-pastligi turli ma'noni anglatadi. Deylik, agar it boshini xiyol egib, vov desa, qani, jo'nab qol, degan ifodani bildiradi. Yoxud, ko'kka tumshuq cho'zib, shu xilda hursa, qani, yaqinroq kel, turqingni bir ko'rib qo'yay, degani bo'ladi. Shundan so'ng, bir-biriga yaqin kelib, obdan iskalanishadi. Bu vaziyat o'ta

xavfli, biron tomon jindek qo'polikka yo'l qo'ysa, tamom – o'rtada naq qirg'inbarot yuz beradi.

Haytovur, ular o'rtasidagi bu holat tinch va osoyishta o'tdi. Tabiiy, tomonlar qon-qarindoshligini bilishmadi, ammo kuch-quvvatda bir-biridan aslo qolishmasligini anglashdi. Suning uchun ham Olapar hissiyotga erk bermay, do'ngdan nariga o'tish yaxshilikka olib kelmasligini bosiqlik bilan bildirdi. Bu bilan ham qanoatlanib qolmay, yer tirnab belgi yasarkan, tuprog'ini bu tomonga sochdi. Oqbo'yin ham rizolik alomatida tirlagan yerga panja botirib, u tarafga tuproq to'zg'itdi.

Shundan keyin ular tinchgina ayrilishdi. Do'ngning uchdan ikki qismi Olaparning chekiga o'tdi.

Hozir Olapar do'nglikning o'ziga tegishli tomonida turardi. Hovliqishu jazavaga tushishga asosi qolmagan Oqbo'yin noiloj yerga cho'karkan, birdan sergak tortdi. Endi ko'lanka ikkitaga aylangan va ular do'ngning berigi betida g'imirlashardi. Buni ko'rgach Oqbo'yin ular tomon o'qdek uchdi, yarim yo'lga yetmay hali o'zi uchun butunlay notanish bo'lgan bo'ri hidini tuydi. Ajabsinib to'xtadi. Havoni qayta-qayta iskadi. Yo'q, bu Olaparning hidi emas. Unda ni-maniki bo'ldi ekan? Oqbo'yin yugurishda davom etarkan, azbaroyi g'azablanganidan, jiddiy xatoga yo'l qo'ydi, ya'ni odatiga xilof ravishda hurdi. Turgan gap, bo'ri zoti itning qanaqaligini ovoziga qarab biladi. Kuch jihatdan ustun bo'lgan itga hech qachon ro'baro' kelishmaydi. Ularning makkorligiyam shunda. Yovuzligi tufayli hujum qilsa, makkorligi tufayli jon saqlaydi.

Oqbo'yin soyga enib, yalanglikka ko'tarilganda, do'ngda jon asari ko'rinsassi. U chopib borayotgan joyida baland-baland sakrab, tevarakka alanglagancha raqiblarini qidirdi va qir tomon yo'rtib ketayotgan ikki qorani ko'rди. Yo'lni o'sha tarafga soldi. Yetolmadi. Bo'rilar qir oshib, ko'zdan yo'qoldilar.

Shu kundan boshlab, Oqbo'yining notinch va behalovat tunlari boshlandi. Bo'rilar kunda bo'lmasa-da kunaro qishloq tomon enishar, bir kechasi esa ikki birday iti bor qo'tondan uch-to'rt qo'yni bo'g'izlab ketishdi. Oqbo'yin o'zi sezmagan holda dashtning haqiqiy qo'riqchisiga aylandi. Har kech derazadan shu'la so'nar-so'nmas, dashtga chiqib ketar va tong azonda bir ahvolda qaytar edi. Hov-

liga kirishi bilan deraza tagiga kelar, nafasini ichiga yutib, ichkariga qulqoq tutar va Rasulning bir maromda pishillashini eshitgandan so'nggina ko'ngli xotirjam tortib, pinakka ketar edi.

Oqbo'yin bo'rilar bilan quvlashaverib, ularning yo'lboschchisini yaxshi tanib oldi. U Karim podachini qon qaqshatgan o'sha Yoldor bo'ri edi. Makkorlikda uning oldiga tushadigani yo'q edi. Raqibini chalg'itish uchun u shunday hiylalar o'ylab topardiki, oqibatda Oqbo'yin laqillab qolaverar edi. Masalan, bo'rilar qo'ton oralagan kecha Yoldor eng epchil sheriklaridan birini Oqbo'yinga ro'baro' qilib qo'ydi-da, qolganlari bilan suvsiz soy o'zanidan pisib kelib, bir necha sovliqni tinchitib ketdi. Bu paytda Oqbo'yin qirdagi bo'ri bilan andarmon edi...

Oqbo'yinning bo'rirlarga nisbatan g'azabi boshda shunchaki o'chakish tufayli edi. Qachonki, jar tubida eshak jasadiga duch kelgandan keyingina unda nafrat uyg'ondi. Kuni kecha fermaxona tevaragida o'rmalashib, mollarning nishxo'rdiga qanoat qilib yur-gan bu beozor, beziyon jonivorni xomtalash ko'rib, dastlab g'oyat hayratga tushdi. Negaki, umri bino bo'lib hali biron tirik jonne bu ahvolda ko'rmagan edi. Boshiyu qovurg'alarini demasa, sho'rlikdan hech vaqo qolmabdi.

Oqbo'yin jasadga yaqin kelmay, uning atrofini aylanarkan, bo'ri hidini ilg'ab, battar taajjublandi. Ishongisi kelmay g'ingshidi. Shu choqqacha bo'rirlarni qishloq itlari kabi ojiz va qo'rroq sanab keldardi. Ko'rdiki... u o'zga his istab, harchand iskalanmasin, bo'ri hididan bo'lak hid ololmadi. Qorasini ko'rishi bilan shataloq otib qochadigan raqiblarining yirtqichligiga to'la amin bo'lgach, u alam bilan uvlab yubordi. Tumshug'ini ko'kka cho'zib-cho'zib uvlarkan, tuyqusdan nigohi qo'rquv va dahshat ifodasi qotib qolgan jasad ko'ziga tushib, beixtiyor eti seskandi. Esida, bunday nigohlarga ko'p bor duch kelgan, lekin Mallani hisobga olmaganda, birortasiga ziyor yetkazmagan, po'pisa bilan cheklangan, xolos.

Tirik jonne Oqbo'yin ikki toifaga ajratadi: biri beziyon jonivorlar, odam bolasi ham shunga kiradi, ular hatto tishlashga arzimaydi. Ikkinchisi – Mallaga o'xshash badxulq maxluqlar, ularni yo mahv etmoq lozim, yo bo'ysundirmoq. Aks-behuda jig'ingga tegaverib, tinchingni buzadi.

Eshak, tabiiy, birinchisiga kiradi. Oqbo'yin uni saratondan beri biladi. Yoz bo'yi qilgan beminnat mehnati evaziga egasi uni qish oldi ko'chaga haydab yuborgandi. ***Odamlarning bunday qilmishini qanday baholash mumkin?***

Oqbo'yin xumday boshini oyoqlari ustiga qo'yanicha jasadga tikilib yotarkan, agar ojiz bo'lgan taqdirida o'zining ham qismati mana shu tarzda yakun topishini to'la his qildi. Uyga qaytgisi kelmay, bo'rilar izidan tushdi. Qir bag'ridagi tepalikda izlar shu darajada chalkashib ketgan ediki, u qay tarafga yurarini bilmay, garang turib qoldi. Cho'nqaygan ko'yi atrofni kuzatarkan, tong g'ira-shirasi-da Qorovultepadan pastga enib borayotgan Olaparni ko'rdi. Bo'rilar kelib, uning ham tinchi buzilgan edi...

Yoldor har qancha ustamonalik qilmasin, baribir Oqbo'yin ularning yo'naliishini aniqlashga muyassar bo'ldi. Bo'rilar qirdan jar ichi bilan enib kelishardi-da, tepalikda to'xtashardi. Hiyla taradduddan so'nggina biron manzilni qora tortishardi. Ularning yurishi Olapardan ko'ra Oqbo'yinning chekiga ko'proq to'g'ri kelardi. Tunlari uzluksiz davom etayogan bu jang-u jadaldan odamlar mutlaqo bexabar, itlar esa ogoh, ammo ko'makka chiqishga birortasi ham jur'at etmasdi. Xashaki it xashaki-da. Bu yetmagandek, Karim podachi hanuz ahididan qaytmagan, Oqbo'yinni yo'q qilish payida tunlari miltig'iga to'ng'iz o'qi joylab qo'yishni kanda qilmasdi.

\*\*\*

Tunlari besamar izg'ishlar joniga tegib, Oqbo'yin yo'l poylamoqqa ahd qildi. Tabiiy, u qurbanlar uchun emas, raqiblarining behad surligidan, boz ustiga, qanchalik yelib-yugurishiga qaramay, oson-gina laqillatib ketishlaridan alamda edi. Oqbo'yinda tabiiy kuch, jasorat bisyorlikka bisyor edi-yu, lekin hiyla kam, Yoldorning xilma-xil nayranglari oldida dovdirab qolardi. Ana shunday kezlarda u butun quvvatini ovoziga beradi, ya'ni biror tepalikka chiqadi-da, cho'nqaygancha osmonga qarab uliydi. Yoldorni nomarddan olib, nomardga solgancha, uni ochiq jangga chorlaydi. Turgan gap, Yoldor uning nodonligidan bo'rilarcha kuladi. Gohida esa bu xil vaziyatdan ustalik bilan foydalanadi.

O'tgan kuni shunday bo'ldi. Qishloq yaqinidagi tepalikda tumshug'ini ko'kka cho'zib obidiyda qilayotgan Oqbo'yin tuyqusdan javob chorlovini eshitib qoldi. Avvaliga quloqlariga ishonmadni. So'ng nafasini ichiga yutib, vujudi quloqqa aylandi. Sal o'may nido yana takrorlandi. Ovoz kelayogan tomonni hadeganda aniqlayvermagach, Oqbo'yin shamolga yuz o'girib, havoni iskadi. Dimog'iga oqshomda bolalar jar ichida yoqqan gulkandan qolgan kuyindi hidi egalladi. Tepa etagidan o'tgan yo'lidan silos to'la qop orttilgan eshagini niqtab borayotgan ko'lankaga nazar solarkan, Oqbo'yin norozi g'ingshidi. Qishloq tomondan jur'atsizgina hurayotgan itni tiriklayin yeb-yutib qo'ygudek edi.

Nihoyat navbatdagi chorlovdan so'ng, ovoz egasi Qorovultepadaligini fahmladi. Tepagacha bo'lgan masofada chuqur jarlik, past-baland do'ngliklardan iborat keng dasht yastanib yotardi.

Azbaroyi hovliqqanidan Oqbo'yin so'qmoqni adashtirib qo'yib, tik jarlikdan quyiga tushishga bir banya qoldi. Jar labida bazo'r to'xtarkan, qop-qora bo'shliqqa ko'zi tushib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Ortiqcha shoshqaloqlik yaxshilikka olib kelmasligini anglatdi. Qolgan masofani ko'pda o'pkasini qo'ltiqlamay, hiyla xotirjam bosib o'tdi. Oshiqib nima qiladi, axir raqibi qochayotgani yo'q, aksincha jangga chorlamoqda-ku. Ammo uning ahvolini ham tushunmoq kerak, negaki, chorlov hech kutilmaganda yuz berdi-da. U bunday bo'lishini kutmagan, kutmagani uchun ham intiqom zavqidan yuragi toshib borardi.

Ammo manzilga yetib kelarkan, birdan hafsalasi pir bo'ldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, tepalikda uni Yoldor emas, suyaklari buzuq, ulkan kallasi gavdasiga nomunosib, yirik bir maxluq kutib turardi. Butun g'azabi Yoldorga qaratilgani tufayli Oqbo'yin to'dadagi boshqa bo'rilariga nisbatan aytarli darajada adovat sezmasdi. Tunlari dashtda qora quyunday izg'ib yuradigan to'da orasidan faqat Yoldorgina ko'zi ko'rар, shuningdek, to'dani harakatga keltiruvchi asosiy kuch Yoldor ekanini, agar u mahv etilsa, qolganlari qaytib bu tomonlarga darimasligini his etardi.

Bo'rilar ko'pchilik bo'lishiga qaramay, unga yuzma-yuz kelishdan mudom qochishardi. Aslida bunga ularning jur'atsizligi emas, Yoldorning tadbirkorligi ham sabab edi. Zo'r oldida dum qisishdek it-

larga xos zaiflik bo‘rilarga ham yet emas. Keksa makkor bo‘ri har qanday to‘qnashuv o‘zining halokati bilan yakunlanishini, Oqbo‘yinning o‘tkir tishlari bo‘g‘ziga qadalishi bilan sheriklari tumtaraqay bo‘lishini yaxshi biladi. Boz ustiga, Oqbo‘yin tabiat saxiylik bilan in‘om etgan kuch-qudratga ega. Bunday itlar yuzdan, hatto mingdan bitta bo‘ladi. Odamlar ularni alohida e‘zoz va hurmat bilan “arslon” yoki “sirtlon” deb ataydilar. Bo‘ri zoti ulardan iloji boricha uzoqroq yurishga harakat qiladi. Yoldorning surbetligiga kelsak, gap shundaki, Oqbo‘yin hali xom, hayotiy tajribasi kam, agar oyoq ildam bo‘lsa, hozircha uni istagancha laqillatish mumkin. Ammo keyinchalik bu tomonlarga, yaxshisi, yaqinlashmagani ma‘qul. Negaki, vaqt o‘tgan sayin uning sodda aqli, temirdek mustahkam paylari singari tobora pishib yetilib boradi. Ana unda har qanday ayyorlik zig‘ircha ish bermay qoladi. Oqbo‘yin otasidek kamhafsala emas. Yoldor Olaparning ana shu kamchiligidan foydalanib, gohi-gohida uning yerlariga ham bosh suqib turadi... Yaxshiyamki, bo‘rilarning baxtiga ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi. Qaynasa bormi?

Quvg‘inga uchragan kezлari Yoldor tabiatning bu qadar tentakligidan xafa bo‘lib ketadi. Mislsiz kuch-qudratni Oqbo‘yinga berguncha o‘ziga bermaydimi. ***Qarangki, g‘ayirlik, ichiqoralik tuyg‘usi hatto hayvonlarda ham mavjud ekan-da?! Siz bunga nima deysiz?*** Bu ne holki, besh birday jondor allaqanday bir itdan qochib yursa. Aslida Yoldor tabiatning bu ishidan nolimasa ham bo‘ladi. Tabiat kuch-quvvat bobida Oqbo‘yinga qanchalik himmat qilgan bo‘lsa, makkorligu tadbirkorlik, ziyrakligu hushyorlik borasida Yoldordan ham o‘z saxovatini ayamagan edi. Yoldor shu xususiyatlari tufayligina o‘z rizqu ro‘zini terib yurardi. Masalan, u qopqon degan narsani yuz odimdan sezadi. Temir iskanja qanchalik ustalik bilan qo‘yilmasin, unda o‘tirib qolgan turli hid yuzada qolaveradi-da. Ovchi masalasiga kelsak, Yoldor qadam olishidanoq uning qanday odam ekanini bilib oladi. Xashaki itlarni pisand qilmaganidek, havasmand ovchilardan ham sira cho‘chimaydi. Yomon ko‘rgani – sirtlon it. Agar oyoqlari epchil bo‘lmasa, bu balodan qutulmoq mushkul. Shuning uchun uchrab qolsa, ularni kuchukvachchaligidayoq gumdon qilishga harakat qiladi. Bu damgacha to‘rttasini quritdi. So‘nggisini o‘tgan ko‘klam boshida daf etdi.

O'sha kezлari Yoldor to'dasi bilan tog'da izg'ib yurardi. Tunlarдан birida tog' etagidagi qishloqqa enayotib, itlar shovqini orasidan ingichka, o'ktam ovozni ilg'ab qoldi. Sezdi. Shu yaqin orada bo'lg'usi kushandasи voyaga yetmoqda. Agar hozir harakatini qilmasa, keyinchalik bu yerlardan qadamini uzishga to'g'ri keladi. To'xtab, ovozga quloq solarkan, qorin g'амини unutdi. Sheriklarini archazor-da qoldirib, yolg'iz o'zi qishloqqa endi. Itlarning diqqati archazorga qaratilganidan foydalanib, tor ko'chaga sho'ng'idi. Qishloq mast uyquda. Kelayotgan balodan butunlay bexabar, ovoziga zo'rberib akillayotgan qop-qora kuchukvachchani u osongina topdi. Avvaliga pastak devor osha hovlini obdan ko'zdan kechirdi. Keyin yengil sakrab, toshsupa ustiga tushdi. Kuchukvacha akillagancha uy to-mon tislandi. Yoldor shoshilmay oldinga yurdi. Bunday paytda os-hiqishni yomon ko'radi. Intiqom daqiqalarini iloji boricha uzoqroq cho'zishga harakat qiladi. Axir vaqtı kelib, tengsiz qudratga ega bo'ladijan jimitdek vujudning qaynoq qonini hovliqmay, oshiq-may ichmoqqa nima yetsin. Ammo uch-to'rt odim o'tmay, ko'ngli andak xatar sezgandek bo'lди. Qadamini tezlatdi. Kuchukvachcha uydan oshxona tomon tislandi. Yoldor ikki sakrashda unga yetdi-da, yag'rini aralash bo'ynidan xippa tishladi. Tishlari orasida nozik suyaklar qisirlab, kuchukvachcha angillab yubordi. Xuddi shu payt uy eshigi sharaqlab ochildi-da, ostonada yarim yalang'och, miltiq tutgan odam paydo bo'lди. Yoldor o'ljasini og'zidan qo'y may, yashin tezligida hovlini kesib o'tib, devorga sakradi. Ulgurmadi. Miltiq varanglab, quymichiga urilgan kuchli zarbdan ko'cha yuziga ag'darilib tushdi. Hartugul oyoqqa qalqishga kuch topdi. Qishloq itlari es-hushini yig'ib olguncha bo'lmay, archazorga yetib olishga ulgurdi.

Oqbo'yining qishlog'i tog'dan ancha berida. Ko'klam keldi deguncha bo'ri zoti bu tomonlardan oyog'ini uzadi. Aks holda u ham Yoldorning nazaridan chetda qolmagan bo'lardi.

Oqbo'yin raqibiga yetmay, taajjub og'ushida hiyla berida to'xtadi. Jangga chorlagan shumi yo boshqasimi, degan xayolda tevarak-atrofга ko'z yogurtirdi. Og'ir tun pardasi ostida mudrayotgan dasht-da begona qorani ilg'amagach, fursatni qo'ldan boy bergisi kelmay, darhol hujumga shaylandi. Biroq raqibi allaqachon tepadan enggan, ortiga qaray-qaray dasht bo'y lab yo'rtib borardi. Ularni kam de-

ganda yuz ellik odim masofa ajratib turardi. Oqbo'yin oyog'iga zo'r berdi. Shu tobda u yirtqichlik mayliga berilgan, azbaroyi intiqom o'tida yonganidan ko'ziga jondordan o'zga narsa ko'rinas, tezroq raqibiga yetishu tomog'idan xippa bo'g'ib, jon talvasasida tipirchilashini tomosha qilishdan boshqasini o'ylamasdi. Ammo qanchalik harakat qilmasin, oraliq masofa qisqaray demasdi.

Bo'ri yo'lni o'ngga solib, qir tomon qochdi.

Ular shu tarzda quvlashib, birinchi, ikkinchi, nihoyat uchinchi qirni ham bosib o'tdilar, lekin oraliq deyarli o'zgarmadi. Oqbo'yin jon olish qasdida harchand urinmasin, raqibi ham jonini asrash g'amida undan jadalroq harakat qildi.

Uchinchi qirdan narisi Oqbo'yinga notanish joylar. Oqbo'yin u tomonlarda biror marta bo'lмаган. Shuning uchun qadamini sekilatib, xarsangtoshga yetganda to'xtadi. Bir oz nafas rostlab iziga qaytdi. Ikkinchi qirga yetmay raqibi ortidan qolmay kelayotganini payqadi. Qayrlila solib yana quvladi. Bu safar to'rtinchi qir etagiga-cha quvlab bordi. Keyin bu hol yana bir bor takrorlangach, Oqbo'yin hiylaga yo'liqqanini angladi. Yuragi hadik olib, qishloq tomon shamoldek yeldi. Ammo u kechikkan, Yoldor sheriklari bilan tovuqbo-qarning echkisini allaqachon tinchitib bo'lgandi. *Ushbu savolga kuzatishlaringiz asosida javob berishingizga to'g'ri keladi: biror ish qilishdan avval kelishib, reja asosida ish ko'rish hayvonlar orasida faqat bo'rillargagina xosmi yoki boshqa jonzotlarda ham bu kabi odatlar kuzatilganmi?* Oqbo'yin ularga jarda duch keldi. Qorni to'q raqiblari, odatdagidek, u bilan pachakilashib turmay, jar yoqalab qochib qolishdi. Oqbo'yin birinchi qirda qolib, alamidan sahargacha uvlab chiqdi.

Tongga yaqin qishloqqa enarkan, fermaxona yonidan o'tayotib, Oqbo'yin birdan hushyor tortdi. Eshikda timirskilanib yurgan Karim podachi uni ko'rib uychadan miltiq ko'tarib chiqqandi. Egasidan pishang olgan kattakon ola it (Mallaning o'limidan so'ng podachi uni qo'shni otardan olib kelgandi) vovullagancha unga tomon yugurib kelardi. Oqbo'yin itga e'tibor bermay, so'lga burildi-da, o'q yetmaydigan joygacha yo'rtib borib, so'ng bamaylixotir yo'lida davom etdi. Og'zidan o't purkovchi qora kaltak uzoqdan xavfsiz ekanini u allaqachon fahmlab yetgandi.

Karim podachi itning yo'liga astoydil ko'z tikmayotgan bo'lsa-da, jonini olmoqdan voz kechmagan edi. Ko'r emas, Oqbo'yinning xatti-harakatlarini ko'rib, bilib turardi. Bilgani uchun ham ichidan zil ketar, shunday bir it o'ziniki bo'limganidan yuragi kuygani kuygan edi. Hozir ham Oqbo'yinning ortidan havas bilan qarab qolarkan, akillay-akillay iziga qaytib, oyog'i ostida o'ralasha boshlagan itining biqiniga jahl va zarda bilan tepib yubordi. It vangillagancha fermaxona ortiga qochdi. Podachi qolgan alamini yog'och oxurni suzib sindirgan buqadan oldi - kurak ikki bo'lak bo'lguncha savaladi.

Oqbo'yin xavfli joydan uzoqlashar ekan, daf'atan xayoliga kelgan o'ydan sergak tortdi. Yoldorning izidan bekordan-bekorga izg'iyvermay, biror pana-pastqamda poylab qo'lga tushirsa-chi?! Ana Karim podachi uni qanchalik yomon ko'rmasin, biror marta ortidan quvlaganini eslayolmaydi, doim mushukday poylagani poylagan.

Oqbo'yin aynan shunday fikr yuritmagan bo'lsa-da, podachining harakatlari sabab, raqibini quvlab yurmay, poylab qo'lga tushirmoq lozimligini anglab yetdi. Ayniqsa, tom boshida targ'il mushukning qilig'inи kuzatgandan so'ng, fikri yana qat'iylashdi.

Mushukka u tasodifan alahsidi. O'sha kuni qornini to'ydirib, oftobro'yada cho'zilib yotgandi. Somonxona yonida chumchuq poylayotgan targ'ilga ko'zi tushib qolib, qiziqsingancha uning harakatlarini kuzata boshladi. Tomning nishobi hovliga qaragani uchun undagi narsalar yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Og'ilxona tomidagi pichan g'arami yonida donlab yurgan chumchuqlar mushukni sezmay qolishdi. Targ'il o'qdek otilib, ulardan birini tutib oldi. Ikki soat ichida bu hol yana takrorlandi.

Ertasi u chiroq o'chishini kutmay dashtga chiqdi-da, hech qayoqqa alahsimay, yo'lni katta jarga soldi. Uzun jarlik bu yerda ikkiga bo'linib, bir uchi qirga borib taqalardi. Yoldor to'dasini xuddi shu jar ichi bilan boshlab kelardi-da, shu atrofdagi tepaliklardan biriga ko'tarilib, bir muddatlik kengashdan so'ng biron manzilni qora tor-tardi.

Oqbo'yin jar tubidagi qalin yulg'unzorga yaqinlasharkan, ko'z ostiga olib qo'yan yerida Olaparni ko'rib hangu mang turib qoldi. Keyin norozi g'ingshib, tajovuzkorona irilladi. Olapar kalta akillash bilan maqsadini anglatgach, unga nisbatan jindek mehri iyib, ikkin-

chi bor g'ingshidi. Bu safargi g'ingshishi ham erkalanish, ham zorlanish ohangiga yo'g'rilgan bo'lib, u Yoldordan shikoyat qilgan edi. Olapar ham xuddi shu tarzda javob qaytargach, ikkisi bir muddat iskashdilar. So'ng Oqbo'yin uning yoniga cho'zildi. Ortiq bir-birlari bilan ishi bo'lmay, tor so'qmoqqa tikilib qolishdi.

Shu tariqa ular do'stlashdi. Ularning totuvligi vaqtincha edi. Ne-ga-ki, Olapar aqlli it, bunday paytda ishonzhli sherik ziyon qilmasligini yaxshi bilgani uchun noiloj ro'yxushlik bergandi. Boshqa vaqt uni yaqiniga yo'latmagan bo'lardi. Vujudidan kuch yog'ilib turgan bu navqiron it unga sira yoqmasdi. Nimaga deganda, u boshqa itlar kabi yaldoqlanmas, joyi kelsa, haqini talab qilishdan ham qaytmasdi. Kim biladi, erta-indin... bu tentakdan har narsani kutish mumkin.

Olapar ko'z qirida shergini kuzatarkan, ichida unga nisbatan hasadga o'xshash nimadir tuydi. Qulog'idan g'archcha tishlab olishdan bazo'r o'zini tiyib, tag'in yo'lga ko'z tikdi.

Tun yarmidan oqqanda Olapar to'satdan bezovtalaniq qoldi. Oqbo'yin uning nima xavotirdaligini boshda tushunmadi. Tevarakka alang-jalang boqib, nima gap, degan ma'noda sekin g'ingshidi. Olapar qulog'ini ding qilgancha yulg'un novdalarining tebranishini kuzatar va tinmay havoni iskardi. Shundagina Oqbo'yin qarshi tomon dan esayotgan shamol yo'lini o'zgartirganini payqadi. Mabodo Yoldor ularning hidini olsa, o'laqolsa bu tomonlarga yo'lamasligini Olaparning xatti-harakatlariga qarab anglatdi. Olaparning bezovtaligi mana shundan edi.

Nihoyat beboshamol tag'in yo'naliшини o'zgartirib, qarshisidan esa boshladi. Olapar tinchlandi, hatto Oqbo'yinni beozorgina tishlab qo'ydi. Pistirmada yotganda shamol asosiy rol o'ynashini Oqbo'yin shundagina bildi. Olaparning tishlashini ko'pda yoqtirmay, ko'ngilga og'ir botmaydigan tarzda irillab, sal nari surilib yotdi.

Oradan ikki soatlar chamasi vaqt o'tgach, shamol jondor hidini olib keldi. Hidni ilg'ashlari bilan har ikkisi ham singib ketgudek yerga qapishdilar. Pahmoq junlari hurpayib, dahshatlari tusga kirishdi.

Ko'p o'tmay muyulishda Yoldor ko'rindi. Ortidan bo'y-bastiga qarab yana to'rt sheriqi qator kelishardi. Aftidan qorinlari hiyla to'q shekilli, qadam olishlari lanjroq, hatto uzoq-yaqindan eshitilayotgan ham jinslarining uvlashlariga ham ko'pda e'tibor berishmasdi.

Saf oxirida kelayotgan jussasi kichikroq bo'rining nimadandir betoqatlanishini hisobga olmaganda, to'da tinch va sokin vaziyatda edi.

Ammo pistirmaga yetmish-sakson odim qolganda Yoldor kutilmaganda sergak tortdi. To'xtadi. Cho'nqaydi. Tumshig'ini ko'kka cho'zib, iskalandi. O'tgan kuni Oqbo'yinni ahmoq qilgan suyagi buzuq bo'ri unga baqamti kelgach, ikkisi nima haqdadir uzoq ken-gashdilar. *Ular nima haqida fikrlashganini fahmladingizmi? Voqealarni sabr bilan kuzatishda davom etamiz.* So'ngra shamolda vahimali shovullayotgan yulg'unzorga tikilgancha turib qolishdi. Ularning nimadandir hadik oglani aniq edi.

Yirtqichlar tabiatan juda bardoshli bo'lishadi. Ana shu xususiyatlari tufayligina ular ko'pincha hayotlarini xavf-xatardan asrab qolishadi. Ozgina shoshqaloqlik yoki ehtiyoitsizlik hamisha o'lim bilan tugaydi. Yoldor ko'ngil bezovtaligini aniq idrok etolmagani uchun ham sabr qilishga qaror qilgandi. Bu yerda aql-idrokdan ham ko'ra sabr-toqat ko'proq ish beradi. Yulg'unzorda mabodo ovchi bekin-gan bo'lsa, baribir o'zini bildirib qo'yadi. Yoldor buni ko'p sinagan. Agar it bo'lsa, gar shunga jur'ati yetsa, hademay irillagancha yugurib chiqadi. Qo'pol bu jonivorlar kutishdan ko'ra qutqu solishni afzal bilishadi. Ammo Yoldor bu gal adashgandi. Adashgani shundaki, u Olaparni xayolidan chiqargandi. Yulg'unzor Olaparga emas, Oqbo'yinga yaqinligi tufayli hatto hurishga erinadigan Olaparning bu yerga kelishini tasavvuriga ham sig'dirolmasdi.

To'g'ri, u bekorga vaqt yo'qotmay, yulg'unzorni aylanib o'tishi ham mumkin edi. Unda ko'ngliga shubha solgan xatar jumboqligicha qolib, keyin yuragi g'ash tortib yuradi. Bundan tashqari, yana o'tib-qaytishi bor. Agar xavfni bugun aniqlamas ekan, ertaga bu yerga larga qadam bosmoqni o'ylamasda ham bo'ladi. *Jamoani boshqarish mahorat va mas'uliyat talab qilishiga yana bir bor ishonch hosil qilidizingiz, shundaymi, aziz o'quvchi?* Chunki bir xavflangan joydan ikkinchi bor o'tishda, hadik va qo'rquvdan bo'ri zoti hiyla et tashlaydi. Baxtga qarshi shamol ham uning zarariga ishlamoqda edi.

Shu dam jussasi kichikroq yosh bo'ri betoqatlanib oldinga o'tgandi, Yoldor yumma talab berdi. Sherigi esa bebosuning yelkasidan g'archcha tishlab chetga uloqtirdi. Odobsizligi uchun boplab ta'zirini yegan sho'rli g'ingshiy-g'ingshiy joyiga borib turdi.

Yoshlik g'o'rlik, deb beziz aytilmagan. Ayni paytda Oqbo'yin ham o'zini zo'r-bazo'r tiyib turardi. Agar qavatida Olapar yotmaganida, u allaqachon hujumga o'tgan va har galgidek besamar quvlashlar bilan tong ottirgan bo'lardi. Nihoyat Yoldor joyidan qo'zg'aldi. Yulg'unzorda xavf yo'qligiga imoni komil holda oldinga yurdi. Yosh bo'ri uning ortiqcha ehtiyotkorligidan kulganday uvlab qo'ydi.

Tepalikka olib chiqadigan so'qmoq shundoqqina itlar yashiringan joydan o'tardi. Mushaklari tarang tortilgan Oqbo'yin sheri-giga qararkan, uning oshiqmayotganini ko'rib, hayron bo'lди. Agar bu hol yana bir daqqa cho'zilsa, u ortiq bardosh berolmasligini sezdi. Haytovur Olaparning qaddi yerdan bir enlik uzildi. Azbaroyi zo'riqqanidan paylari bo'rtib, yelkasiga tegib turgan yulg'un novdasi titrab ketdi. Bu orada Yoldor juda yaqin kelib qolgan edi.

Oqbo'yin sakramoqqa endi chog'langan ham ediki, oldinroq harakat qilgan Olapar uni turtib o'tib, Yoldorga o'qdek tashlandi. Oqbo'yin sal narida sarosimada turib qolgan bo'rilarning biriga hamla qildi. Bu o'sha – suyagi buzuq ulkan bo'ri edi. Raqibi harchand chap berishga harakat qilmasin, bo'g'zini Oqbo'yinning o'tkir tishlari asrab qololmadi. It zumda uning bo'g'zini yorib tashladi. Oqbo'yin yerda cho'zilib qolgan bo'rige qayrilib boqmay, ikkinchisiga tashlandi.

Ota-bola yulg'unzorda uch bo'ri jasadini qoldirib, ikki bo'rini qirgacha quvlab borishdi. ***Hurmatli kitobxon, mana endi, itlarning bu galgi muvaffaqiyati sabablarini ko'rsatsangiz ham bo'ladi!***



\*\*\*

Uchinchi qordan so'ng havo hiyla yumshab, hafta o'tmay tizza bo'yи qordan asar qolmadi. Qish o'rtasi bo'lishiga qaramay, kutilmaganda kunbotishdan esgan iliq shabadadan yer selgib, dala-dasht nimyashil tus oldi. Havoda ko'klam hidi anqiy boshladi. Ammo bu holdan bolalarni demasa, kattalar mutlaqo quvonishmadi. Negaki, havo shu tarzda yana uch-to'rt kun turib bersa, dov-daraxtlar yoppasiga gulga kiradi-yu, navbatdagi qordan so'ng hammasi yer bilan bitta bo'ladi. Ko'pchilikning tirikchiligi bog'dagi meva-cheva bilan. Ammo havoning keskin ilishi odamlarga ta'sir qilmay qolmadi: do'kon oldi yosh-yalanglar bilan gavjumlashdi, chollar juvozxona qoshidagi odatdagi joyini egalladilar, kampirlar urchug'iyu po'stagini sudrab uydan supaga ko'chdilar. Bolalar ni-ku, qo'yavering, shumtakalar daladan beri kelmay qo'lishdi. Oqbo'yindan bo'lak jamiki tirik jon iliq oftob nuridan bahra olmoqda edi. Shu kunlarda Oqbo'yin mo'jazgina yog'och uychasida, qalin poxol ustida dard azobini tortib yotardi. Yulg'unzordagi zafari evaziga u Karim podachi tomonidan to'ng'iz o'qi bilan siylangandi. Yirik pitra o'ng yelkasini titib yuborgandi.

Yulg'unzor voqeasidan keyin Oqbo'yinning shuhrati kutilmagenta oshib ketdi. Hammasiga Mamarajab juvozkash sababchi. U hafta, o'n kunda Toshlisoyga qatnab turardi. Toshlisoyliklar boshqa ekinlar qatori zig'ir, kunjut ham yetishtirishadi. Tutingan jo'ralari juvozkashni yil-o'n ikki oy zig'ir bilan ta'minlab kelishadi. Albatta, tekinga emas, ammo bozor bahosidan ancha past, buning ustiga mag'zi to'q, siqsang, g'archa yog' chiqadi. Xullas, qishda nima ko'p, to'y ko'p. To'y oshi zig'ir yog'isiz bo'lmaydi. Mamarajab juvozkash zig'ir umidida tong saharlab yo'lga chiqqandi. Katta yo'ldan aylanib yurishga erinib, ot boshini so'qmoqqa burdi. Aslida doimo qatnaydigan yo'li shu edi-yu, lekin qish kezlari jar oralab, dasht oralab yurishdan o'zini tiyib kelardi. Bu safar nima falokat bosib, shu yo'ldan yurmoq istab qolganiga hanuz aqli yetmaydi. Jarga yetmay tong bo'zaradi, oydin kunda dashtda jondor nima qiladi, degan o'yda yulg'unzorga qadam qo'yarkan, shu atrofda o'ralashib yurgan Oqbo'yinga ko'zi tushib, yanada dadil tortdi. Ammo yulg'unzorga kirar-kirmas birdan oti taysallab qolsa bo'ladimi. Indamasa, iziga burilib qochadigan. Agar

juvozkash itni ko'rmaganida, otning ra'yiga qaragan bo'lardi. Hozir esa qahri qo'zib ketdi. Kelib-kelib itdan hurkasanmi, harom qotgur, deya otni qattiq qamchi ostiga oldi. Tayoq jonidan o'tgan sho'rlik jonivor pishqira-pishqira noiloj oldinga yurdi. Otning qilig'idan jahli chiqqan juvozkash uni maqtab sotgan Abdujalil qovchunni ham, uning gaplariga laqqa tushgan o'zini ham changitib so'kib borarkan, daf'atan ko'zi tushgan manzaradan esi og'ib qolayozdi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida bir emas, uch bo'ri cho'zilib yotardi. Al-batta, juvozkash ularni tirik gumon qildi. Shu sabab, beixtiyor ishtonini ho'llab qo'ydi. Uzoq yili dashtda bo'rilarga yem bo'lgan qaynisining fojiasi xayolidan chaqmoq yanglig' o'tarkan, ko'ziga kenja nevarasi ko'rrib ketdi. Uni qaytib ko'rolmasligini o'ylab, bo'g'ziga yig'i tiqildi. Kalimaga tili kelmay, valdir-vildir qilarkan, yirtqichlarning harakatsiz yotganini sezib hushyor tortdi. Ko'z o'ngini bosgan ko'kish tuman tarqab, u qor ustidagi qon izlarini, bo'rilar tanasidagi jarohatlarni ko'rdi. Shunda ham yaqinroq borishga yuragi betlamay, ot boshini ortga burdi. Hozirgina, juvoz haydamay men o'lay, zig'ir moy yemay odamlar o'lsin, deb turgan odam, endi rasvo bo'lgan ishtonidan boshqasini o'yamasdi. Bo'rilarni o'lik ko'rganidan xudoga ming karra shukrlar qilardi.

Mamarajab juvozkash yo'l-yo'lakay Qahhor ovchi eshigini qoqmasdan o'tolmadi. Axir ko'rgani hazilakam voqeа emas, buni birovga aytmasdan bo'larkanmi! Gap orasida, yuribsanda, ovchiman deb, surishtirib kelsa bir itchalik chog'ing yo'q, deya Qahhor ovchini chaqib olishdan ham qaytmadi. Uyiga yetguncha yana besh-olti kishidan "suyunchi" oldi. Qahhor ovchi itga mengzalishidan xafa bo'lib turmadı. Boshqa paytda-ku bu gapi uchun cholning yoqasini yirtgan bo'lardiya, lekin hozir bunaqa gaplarga e'tibor berib o'tirishning vaqt emasdi. Cholning qorasi o'chishi bilan yulg'unzorga jo'nadi. Yo'lda bo'ri terisidan tushadigan foydani xomcho't qilib, dimog'i chog' bo'ldi.

Bu yorus' olamda ovchi xalqidek hangomatalab odam kam topiladi. Qahhor ovchi terilarni ortmoqlab qishloqqa qaytarkan, ko'ringanga Oqbo'yinni ta'rifu tavsif etib borardi. Oqshom Erkin puchuqning maslahat oshida ham jag'i tinmadi. Mamarajab juvozkash uni ma'qullab turdi. Gurungda it egasining qanchalik bahridili ochilgan bo'lsa, Karim podachiniki shunchalik xufton bo'ldi.

Oxiri bo'lmadi, qarasaki, Qahhor ovchi hali-veri tinadigan emas, podachi burchakdagi pechka qavatida issiq va maqtovdan terga botib o'tirgan it egasiga shum qarash qilib, ovchiga yuzlandi.

– Qahhorvoy, ishqilib, teri yaxshi pul bo'ldimi?

– Bir navi. Nima edi?

– Hammasini cho'ntakka urgan chiqarsan?

– Nima ko'chaga tashlab qo'yishim kerakmidi?

Karim podachi javobga shoshilmadi. Bolishini biqiniga tortib yonboshlarkan, qanshari ostidan unga kinoyaomuz tikildi.

– Ko'chaga tashlama, uvol bo'ladi. Lekin teri puli it egasiga tegishli ekanini unutganing chatoq bo'pti. Hech bo'lmasa, unga ulush berishing kerak.

Davruga sukunat cho'kdi.

– Mayli, biz rozi.

O'rtada o't chiqarish payida turgan podachi it egasining bu gapini eshitib, afti tirishdi. Nordonroq gap aytmoqchi bo'lib so'zqidirarkan, oraga Mamarajab juvozkash suquldi.

– Unda teri pulida mening ham haqim bordir-a, Karimboy? Axir ularni birinchi bo'lib men ko'rdim-ku!

– Bo'imasam-chi, – dedi podachi qutquli ohangda.

– Hay, unda biz ham kechdik, olgan puli halol bo'lsin, – juvozkash shunday deya Karim podachi tomon o'girildi. –Siz, Karimboy inim, buytib yo'q yerdagi gapni kovlamang, uyat bo'ladi. Go'ng titmoq tovuqqa yarashadi. Yurak yutib boribdimi, qaddini ursin. Mana, biz yaqinigayam yo'lolmadik-ku...

– Endi siz... ayolmijoz odamsiz-da, boboy, – dedi podachi kulib. – Hech zamonda erkak kishiyam o'lgan jondordan qo'rqedim!

– Til qurg'ur besuyak, og'izga kelganini aljimang, inim, – dedi juvozkash og'rinib. –Shu-u, sizga qarab turib fikr qilsam, Sodiqboyni iti sizdan esliroqmi, deyman...

– Mengzamang, boboy!

– Unda siz ham og'izga ega bo'ling! Tengquringiz emasman! Ko'p oldida buytib behurmat qilmang.

– Aqlini-ku bilmadim-a, – deya gapga aralashdi Sodiq aka, – lekin sodiqlikka sodiqlik. Rasul degan ulimizga ko'p qattiq mehr qo'ygan, jonivor. Yotar joyini bo'lak demasak, ikkisi doim birga. Qachon qara-

ma, yetaklashib yuradi. Tunov kuni nega moldi tagini tozalamading, deb uldi ozgina burovga oluvdim, irillab tarafini olib qolsa bo'ladimi. Bolaga qo'l ko'tarsam, oladigan shashti bor. Qo'rqdim urishga.

– Unaqa itni bahridan keching, Sodiqvoy, – dedi Erkin puchuq.  
– Har mo'yi tillaga teng bo'lsayam, keching bahridan. Ko'ngil bo'shlilik qilmang, oxiri yomon bo'lishi mumkin. Hozir men sizga bir voqeani aytb berayinu xulosasini o'zingiz chiqaring. Shaharda bir no'g'ay oshnam bor. Hov birda, katta uldi to'yida ichib olib, ajab bir qiliqlar qilgan norg'ul yigit-chi. Ana o'sha. Jo'ram itga juda ishqivoz edi. Bir nemis ovcharkasi bo'lgichi edi. Odadamday esli, kelvati naq eshakday kelardi. Shu deng, bir kuni oshnam uyiga ko'proq otib boribди. O'ziyam ko'p ichardi, dayus. Ichib olib nuqul ashula aytardi. O'sha kuni xotini sho'rlikning kayfi buzuqroq ekanmi, oshnamni bir-ikki silkibdi. Turtkilab-surtkilab uyga olib kirmoqch bo'libdi. Jo'ram ko'nmabdi, xotini qistab qo'ymabdi. Orada yelkasiga bir-ikki marta musht tushiribdi. Naryoqda kuchugi yotgan ekan, xotin eriga qo'l ko'targan hamon sakrab turib, shappa tomog'idan opti. Egang o'lgur it kishiga avvalo mehr qo'ymasin, mehr qo'ydimi, qattiq qo'yadi.

- Xotindan gapir. Xotin nima bo'ldi?
- Nima bo'lardi balnisaga yetmay uzildi. Oshnam itni chavaqlab tashladi. Mana shunaqa gaplar.
- Itni do'st deymiz-u, lekin ming qilsayam, hayvon hayvon-da.
- Bunaqa ekan, it asrab nima kerak?
- Iye, hamma it bir xil deb o'ylaysanmi? Mana, o'zimizning ko'ppaklar, biror gap bo'lsa, dumini qisib qochishdan boshqasiga yaramaydi.
- Lekin Sodiqniki sara it...
- Sodiqvoy, haligi gapingiz chin bo'lsa, bu itni tezda yo'qoting. O'rniga yuvoshroq ko'ppak asrang. Aytib bo'ladimi, tag'in...
- Haq gap...
- Yo'qotib nima qiladi, – dedi Karim podachi gapga suqilib. – Undan ko'ra menga bera qolsin.
- Tushingizni suvg'a ayting, – dedi it egasi tumshayib.
- Bekorga harom qotmasin, deyman-da, uka.
- Kim ekan o'sha harom qotiradigan?
- Xidir xira qo'zg'oladigan vaqt yaqinlashyapti.

- Tegib ko'rsin!
  - Chiranma. Qo'lida qog'ozi bor uning. Bet bo'laman deb tag'in melisaga tushib yurma.
  - Qog'ozini og'ziga urib, ketiga tepib haydarman.
  - Ko'ramiz.
  - Menga qarang, – it egasi podachiga qattiq tikildi. – Qog'ozi bor o'sha nomard nega sizning itingizga tegmaydi, a? Yo itingizdi shoxi bormi? Balki oyi bordir? Yo har safar tomog'ini moylab yuborasizmi?
  - Mening itim kolxoz mulkini qo'riydi, nodon.
  - Nima, meniki ammamning chorborg'ini qo'riyaptimi?! Kechalari dashtdan beri kelmaydi. Gir aylanib qishloqni qo'riydi. Uch birday jondor buning isboti. Qog'ozi bor o'sha ukag'arga bu gaplarni ayt-sak, tushunar axir. Kallasi bordir, ho'l-quruqqa o't qo'ymas. Gapning sirasini aystsam, hadigim sizdan. Bilaman, anchadan buyon tish qayrab yuribsiz. Tag'in uyalmay-netmay menga ber deganingizga o'laymi!
  - Sen bola, ko'-o'p achchivumni qo'zitma! – g'azabdan podaching rangi bo'zarib ketdi. – Surishtirib kelsak, o'sha axta bo'lqir kuchugingni bo'ynida itimning xuni bor. Otish kam, etini nimtala-sam, arziydi. Xudo nasib etsa, bu ishni qilaman ham.
  - Sodiq aka boshmaldog'ini barmoqlari orasidan chiqarib, qo'lini podachi tomon cho'zdi.
  - Mana qilasiz!
  - Karim podachi qo'lidagi piyolani shaxd bilan otdi. Piyola tokcha qirrasiga tegib, sindi. Sodiq aka dasturxonadagi chinni kosalardan birini qo'liga oldi. Podachi irg'ib o'rnidan turdi.
  - Qoch, yo'limni to'sma! – dedi oraga tushganlardan birini ita-rib. – Ketaman! Qolsam yomon bo'ladi! Manovini tikkalay so'yib qo'yishim mumkin. Qo'yvor qo'limni! Qo'limni qo'yvor, deyapman!
  - Sodiq, seniyam yosh bola fe'ling bor-a, – dedi Qodir traktorchi uning qo'lidan kosani tortib olarkan, biqiniga turtib. – Axir it sigir emas-ku, buncha iching kuymasa, berib yubor. Bermasang, baribir boshini yeysi.
- Kinoyani payqab, kimdir kului, unga boshqalar qo'shildi.  
 Bu paytda Karim podachi ayvonda to'ng'llab, etigini qidirardi.

U to'g'ri fermaxonaga keldi-da, oldindan tayyorlab qo'yilgan bir juft cho'chqa o'qni miltiqqa joylab, Oqbo'yin tunlari chiqib ulib o'tirishni xush ko'radian tepalik sari yurdi. Tepalikning qulayroq joyiga pistirma qo'ydi. Bolalar kovlab tashlagan chuqurlardan biri unga juda qo'l keldi. Boshqa vaqt allaqanday itni deb zax yerda dumalab yotmagan bo'lardi. Lekin janjal tufayli anchadan buyon dilida tugib yurgan niyatini bugun qanday bo'lmasin amalga oshirmoqqa qat'iy jazm qildi. Buni qarangki, Oqbo'yin ham ko'p kuttirmadi. Itning ko'rkan kelbati tepalik ustida, yulduzli osmon qo'ynida paydo bo'lganida, Karim podachi endigina ikkinchi yonboshiga ag'darilgan edi.

Aytish kerak, u darhol miltiqqa yopishmadidi. Sovuqdan uvishgan barmoqlarini og'ziga olib borib, nafasi bilan isitarkan, itga mahliyo termulib qoldi. Oqbo'yin haqiqatan ham mahobatli edi. Podachi umri bino bo'lib hali bunaqasini ko'rmagandi. Shu damgacha zehn solmaganini qarang. Adovatli nigoh go'zallikni sezmaydi. Podachi ham shu damgacha itdag'i ko'rknii payqamagan, uni bemisl qudrat timsoli sifatidagina bilar, aynan shu xususiyatiga oshiq edi. Ayni paytda podachi ruhida qarama-qarshi hislar tug'yon ura boshladi. Otay desa, shunday it uvol. Bunaqasi onda-sonda bir dunyoga keladi. Otmay desa, ichi kuyib o'ladigan. U g'ayrishuuriy holatda mitiqni changallab, tepkini bosdi.

*Hayvonlarga haqiqiy ishqiboz, ixlosmand kishi shunday yovuzlikka qo'l uradimi?*

Oqbo'yin kutilmagan kuchli zarbdan dumalab ketdi. Intiqom lahzasidan quturib ketgan Karim podachi hayallamay ikkinchi tepkini ham bosdi. Navbatdagi o'q shundoqqina boshi ustidan vizillab o'tishi bilan Oqbo'yin jon achchig'ida qocha boshladi. Hovliga yetib kelganida badanidagi o'q hali sovib ulgurmagan, og'riqdan ham ko'ra tashnalikdan ko'proq azob tortmoqda edi. U ariq chetiga oyoq qo'yib, yupqa muzni panjasib bilan urib sindirdi-da, yutaqib suv icha boshladi. So'ng suvga qonib, kemtik tagiga kelarkan, sillasi qurib borayotganini his etdi. Devor oshishga qurbi yetmay, g'ingshigancha darvoza tomon sudraldi.

Sodiq aka itni ertalab darvoza tagidan topdi. Oqbo'yin chala o'lik holda yotardi. Agar u yulg'unzorda shuhrat qozonmaganida, Sodiq aka ikki dunyoda ham Salom do'xtirga bosh urib bormagan, o'z navbatida Salom do'xtir ham uni sidqidildan muolaja qilmagan bo'lardi. Suyagiga ziyon yetmagan ekan, jarohati tez bita boshladи.

Sodiq aka bu bedodlikka befarq qaramadi. O'sha kuniyoq so'yil ko'tarib fermaxonaga bordi. Ammo podachi uni yozgi qo'radian beriga o'tqazmadi.

– Yana bir qadam bossang, otaman! – dedi miltiq o'qtalib. – Bu senga oz! Shoshmay tur hali senga shimildiriq ko'rsatish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman!

\*\*\*

Jarohati bitgan sayin Oqbo'yinning favqulodda ishtahasi ochila bordi. Avvallari ovqatga qiyo boqmaydigan jonivor endi go'yo o'sha damlarning hissasini chqarmoqchiday, yalog'iga to'kilganni ko'rdim demasdi. Keyinchalik uyda beriladigan ovqatdan nafsi qonavermagach, u dala-dashtga chiqib o'laksa qidiradigan bo'ldi. Yoldorning o'limidan so'ng bo'rilar bu tomonlarga darimasligi sababli dashtdan o'laksa deyarli arimasdi. Faqat qishloq itlari ahyon-ahyonda... Ammo Oqbo'yin tezda ularni tartibga solib qo'ydi. Qarg'a-quzg'unlarni demasa, uning nasibasiga sherik bo'lishga jur'at etadigan jonivor yo'q edi. Boshda Oqbo'yin qarg'a-quzg'unlar bilan ham obdan talashib ko'rdi. Eplayolmadi. Bu qanotli maxluqlarni bir tomonдан haydasa, ikkinchi tomonдан yopirilardi.

Shu tariqa, Oqbo'yin bo'rilarcha yashay boshladи. Bu xil hayot yoqib qolganidan, endi ilgarigidek muttasil Rasulning ortidan ergashib yurmas, ertalablari bolani maktabgacha kuzatib borardida, keyin to'g'ri dashtga chiqib ketardi. Dashtdan gohida juda kech qaytadi. Ammo Rasuldan ko'ngli andak bezovtalansa, hayallamay qishloqqa yugurardi.

Rasul koptok talashib urishgan kuni ham shunga o'xshash voqeа yuz berdi. Bu paytda Oqbo'yin jarda sang'ib yurardi. Ko'ngli o'z-o'zidan bezovtalananavergach, qishloq tomon chopdi. U tepalik ustida paydo bo'lganida, Rasul bolalardan biri bilan yoqa bo'g'ishardi. Oqbo'yin!-dedi birov baqirib. Bolalar quyundek yelib kelayotgan itni ko'rishlari bilan tumtaraqay bo'lib ketishdi. Maydonda it bilan Rasul qoldi.

Bugun ham u bolani maktabgacha kuzatib bordi-da, muyulishda mashina kutib turgan odamlar yonidan mag'rur yurib o'tib, dashtga chiqib ketdi. Ikki kundan buyon kamardagi harom o'lgan sigir bilan band edi. Go'sht hidini uzoqdan sezib, tamshangancha qadamini tezlatarkan, uch-to'rt it o'laksani bamaylixotir xomtalash qilayotganini ko'rdi. Oqbo'yin g'azabdan quturgan ko'yi olg'a intildi. Changaliga tushgan itni tilka-tilka qilmoq qasdida yelib borarkan, baribir nafs degan balo ustunlik qildi, qochmoqqa tushgan itlarning izidan quvlab yurmay, xo'rakka tashlandi. Nafsi biroz orom olgandan so'nggina oltmis-yetmis qadam narida qiyshanglab turgan boyagi itlardan biri – Qoplonga ko'zi tushdi. Keldiyor maxsum uni erkalab "qoplon" deb atasa-da, unda qoplonlik siyohi yo'q – oriq, nimjingga it edi. Oqbo'yin qarashi bilan go'yo uning e'tiborsizligidan arazlaganday, u nozli bir qiyofada g'ingshidi.

Shu choqqacha Oqbo'yin uchun hamma it bir it edi. Arlonmi, urg'ochimi – g'ashiga tekkanini ayab o'tirmasdi. Hozir ham u itga napisand nazar tashlarkan, uning ko'zlarida odatdag'i yaldoqlikdan tashqari, o'pka, gina, g'amza va yana allanarsalarni payqaganday bo'ldi. Qiziqsinib u tomon yurdi. Qoplonning nimasidir unga yoqib qolgandi.

Qoplon ham qiyshanglab peshvoz yurarkan, yetib kelgach boshqa itlar kabi iskashmadi, kutilmaganda oyoqlarini ko'targancha yotib oldi-da, shunday bir qiliqlar qildiki, Oqbo'yin dabdurustdan shoshib qoldi. Bexos tishlab ozor yetkazib qo'yishdan cho'chiganday yerga uzala tushdi-da, Qoplonning barcha xatti-harakatlarini diqqat va qiziqish bilan kuzata boshladi. Qoplon uni tamomila asir etdim, deb o'yladi shekilli, botinib-botinmay lab-lunjini yalab-yulqashga tushdi. Boshda uning bu qilib'didan Oqbo'yinning g'ashi kelib, irillab ber-moqchi bo'ldi-yu, lekin itning quvnoq ko'zlarida to'la mehrni ko'rib o'zini bosdi. Uni o'z holiga qo'yib berdi. Bora-bora bu unga xush yoqib, ko'zlar o'z-o'zidan yumilib ketaverdi. Qoplon uni boshdan-oyoq yalab-yulqimaguncha tinchimadi. Oqbo'yin o'sha kuni dunyoda qorin g'amidan bo'lak, anglash va anglatish qiyin bo'lgan yana nimadir borligini his etdi. Keyinchalik Qoplonga nisbatan boshqa itlarning e'tiborini sezgach, ko'nglida rashkka o'xshash nimadir qo'zg'alib, itga mehri yanada ortdi. Qoplonni o'zidan bir odim nari jildirmay qo'ydi.

Bu voqeа itlarning ayni iliqish davriga to'g'ri kelganidan Qoplonning "xushtor"lari nihoyatda ko'p edi. Biroq unga shunday bir bahodir ega chiqqan ediki, boshqa itlar Qoplonga yaqinlashishni hatto tasavvur ham qilomasdilar.

Qoplon bilan bo'lib, Oqbo'yin hovliniyam, Rasulniyam unutdi. Ora-sira o'tishini aytmasa, Qoplonga ipsiz bog'lanib qoldi. Keldiyor maxsum ularni hovlisidan haydamoqqa bir-ikki urinib ko'rди-yu, keyin qo'l siltab qo'ya qoldi. Hay, o'ynashging kepti, o'ynashaver, erta-indin hovuringdan tusharsan. Hozir senga tegib bo'ladimi, ko'zing qonga to'lib turibdi...

Ammo bu hol Karim podachining nazaridan chetda qolmadi. U fermaxonadagi itini hovlisiga olib borib bog'ladi-da, peshinga yaqin Keldiyor maxsumning uyiga jo'nadi.

\*\*\*

Keldiyor maxsum podachining taklifini eshitib, hayratdan dong qotdi.

– Qo'yingiz nimasi? – dedi nihoyat o'ziga kelib. – Ana, olib ketavering. Tovba birovga aytsang, ishonmaydi, hech zamonda it ham savdo bo'lganmi?!

Karim podachi ishning oson ko'chganidan quvonib, Qoplonni fermaxonaga olib borib bog'ladi. Oldiga qotgan-qutgan non bo'laklarini tashlab, uychasiga kirdi-da, miltiqni o'qlab, eshik yoniga suyab qo'ydi.

Oqbo'yin bu vaqtda hovlida edi. Yaloqdagi ovqatni paqqos tushirib bo'lgach, oftobro'yada birpas cho'zilib yotdi. So'ng endi Qoplonning oldiga jo'nay deb turganida, darvozadan Rasul kirib keldi. Itni ko'rgan bolaning ko'zлari shodlikdan chaqnab ketdi. Kelasolib Oqbo'yinning bo'ynidan quchdi. Erkaladi. Keyin qulog'idan tortqilab o'pka-gina qildi.

– Ha, daydi! Qayerlarda sanqib yuribsan? Qorangni ko'rsatmay qo'yding? Hozir bir adabingni beraymi-a?!

Oqbo'yin bolani sog'ingan, yumalab, sakrab, bir zum o'ynashgan bo'ldi. Keyin darvozga yo'naldi.

– Ha-a, hali yana qochmoqchimisan? Qochib bo'psan, daydi!

Rasul itning qulog'idan tutib, uychasi tomon sudradi. Oqbo'yin buni odatdagи hazil deb bilib, unga itoat etdi. Qachonki ko'zi yerda chuvalanib yotgan zanjirga ko'zi tushgachgina bolanig maqsadini anglatdi. Boshini keskin silkib, qulog'ini bo'shatdi-da, ortiga qayrildi. Rasul uning bo'ynidan mahkam quchib, tutib qolmoqchi bo'ldi. Kuchi yetmadi. Oqbo'yin bolani hech bir qiyinchiliksiz darvozaga sudrab bordi.

Ostonaga qoqilib tushgan bolaning alami qo'zib, yerdan kattakon tosh oldi, lekin urishga qo'li bormadi. Toshni mahkam siqqa-nicha Keldiyor maxsumning hovlisi tomon yo'rtib ketayotgan Oqbo'yinnng ortidan qarab qolarkan, ko'ziga yosh quyildi. So'ng daf'atan otasining, iliqish davrida it zoti hamma narsani unutadi, ammo bu vaqtincha, keyin es-hushi joyiga keladi, degan gapi esiga tushib, xiyol yengil tortdi. Ichida Keldiyor maxsumning itini boplab so'kdi.

Oqbo'yin Keldiyor maxsumning tomorqasiga o'tib, Qopltonni jodian topmadni. Erkalab chaqirishlari ham javobsiz qolgach, u hid olib izidan tushdi. Iz uni to'g'ri fermaxonaga boshlab bordi. Yozgi qo'ra chetida cho'nqayib turgan Qopltonni u uzoqdan ko'rди. Yuragi hapqirib, qadamini tezlatarkan, fermaxonan ortidan panshaxa ko'tarib chiqqan Karim podachiga ko'zi tushib, sarosimada turib qoldi.

Oqbo'yinning bu qadar tez paydo bo'lismi kutmagan podachi avvaliga shoshib qoldi. So'ng qo'lidagi pashxani go'ngtепa che-tiga sanchib, uycha tomon oshiqdi. Ichkariga kirib miltiqni qo'liga oldi. Tepkisini ko'tarib, ortiga o'girilgan joyida shoshqaloqligi o'ziga erish tuyulib, miyig'ida iljaydi. Tepkini tushirib, miltiqni devorga suyadi. Timirskilanib yurib, bir burchakda yotgan eshakto'qimini qidirib topdi. To'qimni tagiga qo'yib, eshik yoniga joylashib o'tirdi. Eshikni qiya ochib, miltiqni tizzasiga oldi. Oraliqdan yozgi qo'ra bemalol ko'zga tashlanib turardi. Karim podachi bu ishlarni oshiqmay bajararkan, Oqbo'yinning hali-veri itga yaqin kelmasligini bilardi. Ko'ngliga hadik oralagan itning joyidan jilishi qiyin, shuningdek, ming po'pisa qilganing bilan uzoqlashib ham ketmaydi. Fursat poylab atrofida aylanishib yuraveradi. Ayniqsa, miltiq o'qini tabib ko'rgan itlar bu borada juda omilkor bo'lismadi. Ammo shunga qaramay, manaman degan itning ham sabr-bardoshi bir-ikki so-

atdan ortig'iga yetmaydi. Iliqish ta'siri ostida ular bora-bora xavf-xatarni unutib qo'yadi. Podachining umidi mana shundan edi. Ikki soat emas, ikki kun poylashga ham rozi edi u. Yaqin keltirmasdan turib, Oqbo'yinni bir yoqlik qilish juda qiyindek tuyulardi. Otib o'ldiradi-yu, jasadini fermazona ortidagi xandaqqa tashlab, ustidan tuproq tortib yuboradi. Qani, egasi da'vo qilib ko'rsin-chi!

Oqbo'yin uychadagi taraddudni sezganday hamon joyida qotib turarkan, Qoplonning nolakor g'ingshishidan so'ng, sekin-asta olg'a siljiy boshladi. Manzilga yuz odimcha qolganda, podachining o't so-chuvchi kaltagini eslab, tag'in to'xtadi. Alamli g'ingshidi.

Oradan yarim soatlar chamasi vaqt o'tgach, podachi zerika boshladi. Boz ustiga, hali mollarning yarmiga yemish tashlanmagan edi. Bir xayoli, bu ahmoqona ishga qo'l siltab, yumushiga unnamoqchi bo'ldi-yu, lekin keyin yuragi kuyib yurishini o'ylab, fikridan qaytdi. Tirqishdan mo'ralab, masofani chandaladi. Oraliq hiyla olis, o'q yetishi qiyin edi. U tili tagiga nos tashlab, gardanini qirt-qirt qashirkan, to'satdan ko'zi fermazona devoriga suyog'lik turgan zarang podatayoqqa tushib, o'zida yo'q quvonib ketdi. Avvalroq shu narsa xayoliga kelmaganidan o'zini boplab so'mdi. Axir, Oqbo'yin sherigining azobiga chidash berolmaydigan yovqur tabiatli itlar toifasidan-ku. Bunday paytda u o'lsa o'ladiki, lekin hech balodan qaytmaydi.

Karim podachi tashqariga chiqdi. Borib tayoqni oldi. Yo'l-yo'lakay ustidagi paxtaligini yechib tashlab, Qoplonning yoniga bordi. Miltiqni simto'r devorga suyab qo'yib, itni kaltaklashga kirishdi. Qoplon yuvosh va nozik it - zarb kuchli bo'lmasada, dunyoni boshiga ko'tarib, vangillay boshladi. O'zini chor tomonga otib, qutulmoqqa urindi. Biroq tizimcha kalta, kaltak esa uzun edi.

Qoplonning kaltak ostida qolganini ko'rib, g'azabdan Oqbo'yinning esi og'ib qolayozdi. Ammo miltiqdan qattiq yurak oldirgan, ko'nglidagi qo'rquv hissini yengishga qurbi yetmadi. G'ingshidi. G'ingshigancha yer bag'irlab beixtiyor oldinga siljidi.

Podachi o'zini har yonga urib, tayoqdan qochishga urinayotgan Qoplonni kaltaklashda davom etarkan, ora-sira Oqbo'yinga ko'z qirini tashlab qo'yardi. Oqbo'yinning chumhuq poylagan musuk singari yer bag'irlab g'alati alpozda harakatlanayotganini ko'rib kuldi, uni tez quturtirmaq niyatida Qoplonni battarroq tayoqlay boshladi.

Ammo shu payt kutilmagan hodisa yuz berdi: kaltak jonidan o'tgan Qoplon tuyqusdan podachiga tashlanib, o'ng bilagidan g'archcha tishlab oldi. Karim podachi ixrab yubordi-da, o'zini bir odim ortga oldi. Tirqirab qon oqayotgan bilagiga razm solib turib, tutaqib so'kindi. Keyin tayoqni ikki qo'llab tutib, sho'rlikni chinakamiga kaltaklashga tushdi. G'azabdan quturib ketgan podachi Oqbo'yinni juda kech payqadi. Na'raga o'xshab ketadigan ovozni eshitgandan so'nggina yoniga o'girildi. O'girildiyu, shu daqiqani kutgan bo'lshiga qaramy, o'qdek uchib kelayotgan Oqbo'yinning vajohatini ko'rib, dabdurustdan vahimaga tushib qoldi. Tayoq bilan himoyalanmoqchi bo'lgan joyida miltiq esiga tushib, qurolga yopishdi. Shoshganidan miltiq tepkisi qolib, qo'ndoqni paypaslay boshladi. Nihoyat, tepkini ko'tarib, miltiqni Oqbo'yinga tog'riladi. Juda yaqin kelib qolgan Oqbo'yin ayni shu damda naq odam bo'yil sakrab, yashin tezligidaunga tashlandi.

O'qi xato ketdi.

U yelkalariga tig' yanglig' botgan tirnoqlar zarbidan dodlab yubordi. So'ng jon achchig'ida pichog'iga yopisharkan, qaynoq nafas aralash ko'z o'ngida bir lahzaga yalt etgan oppoq o'tkir tishlar tomog'iga sanchilganini his etdi. Ko'z oldi tumanlashib, hushini yo'qotdi...

Oqbo'yin raqibini mag'lub etganiga ishonch hosil qilgach, mur-dadan chetlandi. Tuproqqa yotib turganday ilkis silkindi. So'ngra betininim g'ingshiyotgan Qoplonning yoniga borib, arqonni qon yuqqan tishlari orasiga oldi.

Fermaxonaga yem olib kelgan To'qli shofyor Karim podachining hali sovub ulgurmagan jasadini uchratganida, itlar dala tomon ketib borishardi. To'qli shofyor murda yuziga belbog'ini yopib, mashinasini qishloqqa burdi.

Ertasi Xidir xira boshliq to'rt otliq itlarni kamardan topishdi. Oqbo'yin qochmadi. Orqa oyog'ini sudrab bazo'r odimlayotgan Qoplonning girdini aylanib, tahdidli irilladi.

Zum o'tmay kamarni miltiq ovozi tutdi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Norqobilov N. Tog'dagi yolg'iz odam – T.: O'zbekiston, 2011. 57-117-betlar.

\*\*\*

Muhtaram o'quvchimiz, mana mutolaani ham nihoya-siga yetkazdingiz. Albatta, sevimli qahramoningizga aylangan Oqbo'yining halokati sizni quvontirmadi. Karim podachining fo-jiasiga ham achingan bo'lsangiz kerak, shundaymi? Endi esa odamlar, sir-asrorlarga to'la hayvonot olamining qaysi jihatlarini kashf qilganingizni sinamoq uchun sizga ba'zi savollar bilan murojaat qilmoqchimiz.

### **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. Inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilgan yerda qanday illatlar qalqib chiqadi?
2. Siz hayotda Karim podachiga o'xhash biror kimsaga duch kelganmisiz? Agar shunday bo'lsa, ular qaysi jihatlari bilan o'xhashliklarini solishtiring. Ayrim farqlarini ham ko'rsating.
3. Juftga sodiqlikda ba'zi insonlar bo'ri, ayiq, sher kabi yirtqichlardan o'rnak olsalar arziydi, qabilidagi fikrlarga qo'shilasizmi?
4. Jon berayotganda Karim podachining xayolidan nimalar o'tgan bo'lishi mumkin? Qilgan yovuzliklaridan afsuslanishmi yoki buning aksimi?
5. Hayvonlardagi ziyraklik, hid bilish uquvi, mas'uliyat kabi sifatlar tasvirida yozuvchi qanday omillarga tayanadi?
6. Siz yashaydigan hududda shiptir hidi, hadaha qamchi, dov, oqquray kabi so'zlar qanday ma'noni anglatadi?
7. Qadrli kitobxon, sizningcha, asar boshqacha yakun topishi mumkin edimi?

---


### **Topshiriq**

Karim podachining mahobatli jonzotni o'ldirishga ko'zi qiymay fikridan qaytishi yoki kuchugining halok bolganini eshitgan Rasulning ahvolini tasvirlab hikoyani davom ettiring.

**YER – JONLI MAVJUDOT...**

**SUYUN QORAYEV**

(qisqartirib olindi)



...Tog'u toshlar, zil-yuklar bosib tursa ham, Yer o'z o'rnidida us-tuvor bag'rikenglikda, saxovatga ibratdir. Bu zamin – ilohiy amrga itoat etib insonlarga, jamiki maxluqotga maskan bo'lgan, barchani noz-ne'mat bilan bahramand etadigan xilqatdir. Xizmati xolis, unda na g'urur bor, na kibr.

Xo'sh, yer chindan ham jonsizmikin? Yerni jonsiz deb xor et-sak, xo'rlasak, ozorlasak, siynasiga dog' solsak, qon sachratsak bo'laverarmikan? Yer yuzasining turli joylarida ro'y berayotgan tabiyi ofatlar osiy bandalarining qilg'iliklariga Yerning javoblari emasmikin? Demak, Yer jonsiz emas ekan. Kerak bo'lsa u yurak-bag'rini xun qilgan voqealarni so'zlab berish uchun tilga ham kirar ekan. Hadisi sharifda aytilishicha, insonlar yer ustida va qa'rida qilgan nojo'ya amallarini Alloh taologa so'zlab berar ekanlar, bu esa yerning jonsiz emasligidan nishonadir.

Olimlar son-sanoqsiz yong'inlar, zilzila, toshqin va vulqonlar otishli ustida kuzatish olib borar ekanlar, falokatlar ro'y began joylarda shundan oldinroq aholining talay qismida salbiy hissiyotlar – axloqsizlik, buzuqlik, noinsoflik kayfiyatlarini qayd etdilar. Bularning hammasi gunohkor bandalarning tajovuzkorligiga qarshi Yerning xatti-harakatlari emasmikan?

...1960-yillarning boshlarida bir guruh olimlar Georgiy Kuznevsov rahbarligida ilmiy tadqiqot dasturi o'tkazdilar – biolokatsiya operatorlari orqali Yerga murojaat qildilar. *Oqibatda operatorlarning iltimoslariga ko'ra sayyoramizda atmosfera harorati muloyimlashdi, suv va havo harakatlari ham o'zgardi.* Bularning bari Yaratganning irodasi bilan bo'layotgani o'z-o'zidan ma'lum.

Dinshunos olim aytgani kabi, har bir qaltis qadamimiz uchun javob beradigan, qilmishlarimizning natijasini ko'radigan kun kelishini yoddan chiqarmasligimiz lozim".



## **Mustaqil mutolaaga yozuvchi ijodidan**

“Qish chillasida qorsiz dasht ko’zga juda xunuk ko’rinadi. Ayniqsa, yovvoyi jonivorlar yomon ko’radi bunaqa ob-havoni. Axir dashtda sanqiganingda, oyog’ing ostida qorning g’irchillashiga nima yetsin. Qorga cho’milishlarni-ku asti qo’yaverasiz. Hozir ayni qorga cho’miladigan havo edi. Biroq bu narsa Cho’ngkallaning yuragiga sig’mas, negaki, kutilmaganda u urg’ochi bo’ri Oqyolning izini yo’qotib, qonli xalqobga duch kelib turardi-da. Qon Oqyolniki, ammo jasadi ko’rinmasdi...”<sup>1</sup>



---

<sup>1</sup> Norqobilov N. Ovul oralagan bo’ri. Qissalar. –T.: Sharq, 2005. 3-b.

**8-sinf**

## **SHAVKAT RAHMON IJODINI O'RGANISH**

*Men, meni quvontirgan, qayg'uga solgan, qiyinadigan narsalarning hammasini obrazlarga aylantirishga, poeziya bag'riga joylashga ko'nikib qolganman. Mening hamma asarlarim bitta katta iqrornomaning bo'laklaridir.*

**ILOGANN VOLFGANG GYOTE**



**SHAVKAT RAHMON  
(1950 - 1996)**

*Yashamog'im zarur  
Har daqiqani  
G'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib.  
Dunyodagi barcha qora narsani  
Yorug'lahzalarda o'ldirib.  
Tokim  
Bosh ko'tarib qaray quyoshga,  
Tokim ko'zlarimda yonsin haqiqat,  
Tokim tosh misoli tegmasin boshga  
Men yashay olmagan  
Har bir daqiqa...*

### **SHE'RIGA KO'CHGAN SHAXSIYAT**

Shavkat Rahmon samimiyl kishi edi. Kamgap, bosiq, kamtar... Lekin bu kamgap, bosiq va kamtarligi yuragidagi jasorat va to'g'riso'zlikni to'smasdi, aksincha, bu maqtalgan xislatlar ichda yashnab yotgan go'zal xislatlarining tashdagi bir ifodasi edi. Ya'ni Shavkat aka ichi bilan tashi bir, ichi tashiga, tashi ichiga ters ish

qilmaydigan BUTUN ODAMlardan edi. Ko'zlaridagi, qarashlaridagi mungni, tovushidagi bir oz siniqlikni, e'tiqodga aylangan mahram tuyg'ularini o'z zamonida ochiq ayta olmaganidan, ichga yashirishga, pardalar bilan o'rashga majbur bo'lganidan deb bilaman...

O'zi fitratan o'ychan, bosiq bo'lgani uchun uning tuyg'ulari ichga qarab o'sgan. Hatto isyonini ham sokinlashtiradigan darajada ichichga qarab yuksalgan! Masalan, "Fikr" she'rida shoir o'zini tinch-oqar daryoga o'xshatadi:

*Daryoga aylandim  
o'ychan daryoga,  
ruhimda qadimgi osoyishtalik.  
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni,  
Ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari.*

...Yana bir she'rida "Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli" degan satrlarni o'qiyamiz. Shiddatini qa'riga yashirgan jimjit ko'chki... Uning shiddati jimjitligida. To'g'rirog'i, jimjitligining tub-tubida shiddat yashirin. Jimjitlik kosasiga so'nggi tomchi tomib, bir ko'chib bermasin bu jimjit ko'chki!

Bular hammasi Shavkat akadir, Shavkat Rahmonning ich kimligi va ko'ngil ko'zgusidir<sup>1</sup>.

***Nurulloh Muhammad Raufxon,  
Yozuvchi***

---

<sup>1</sup> Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. Nurulloh Muhammad Raufxon She'riga ko'chgan shaxsiyat. – T.: Movarounnahr, 2012. 12-13-b.

## **Mutolaaga tayyorlashga oid savol-topshiriqlar**

1. *Bolalikni beg'uborlik, yoshlikni orzular fasli, deyishadi. Siz uni qanday ranglarda ko'rasiz?*
2. *Aziz o'quvchi, bolaligingizdagi sho'xliklariningizni bir eslang-a! Bilib-bilmay qilgan "ayb"laringizni bo'yningizga olish oson kechganmi?*
3. *Siz iqror bo'lishni qanday tushunasiz? Bu qilingan nojo'ya ishning ko'pchilik oldida tan olinishmi yoki o'zgalarni e'tirof etishmi?*
4. *Har bir insonning tug'ilgan burjiga mos ramziy daraxti bo'lishi haqida eshitganmisiz? Bioror marta bo'lsa ham o'zingizni qaysidir daraxt qiyofasida tasavvur qilganmisiz?*
5. *Badiiy adabiyotda daraxt obrazi qanday ma'no anglatishidan xabaringiz bormi?*
6. *Quyidagi she'rda "yashil shajar" iborasining qo'l-lanilishiga alohida e'tibor qarating. Lug'atlardan "shajar" so'zining ma'nosini toping.*

## IQROR

Rubobiy she'r yozsam...

*Aziz o'quvchi, shu o'rinda sizni bir muddatga to'xtatishi-mizga to'g'ri keladi. Aytingchi, sizga "Rubobiy she'r" jumlesi tanishmi yoki bu haqda ilk bora eshityapsizmi? Sizningcha, rubobiy she'r o'zi nima? Undan taraladigan ohangni xayolan eshitishga harakat qilib ko'ring.*



Qaytsam bir nafas...

hamisha musaffo chashmani ko'rsam,  
qoraygan cho'qqilar qoriga qarab,  
bir nafas xayolchan o'smirga do'nsam.

*Banddag'i kayfiyat sizga ham yuq-dimi? Olis bolalikni qo'msaganidan shoir ruhiyatidagi qanday kechin-malarni tuyganday bo'ldingiz? Lah-zalik bo'lsa-da, o'tmishga qaytish istagidan ne naf?*

Voh, o'shal lahzalar...  
o'tdimi butkul  
gunafsha atirli tansiq tuyg'ular,

*Sizningcha, tuyg'uning ham bo'y-ifori bo'ladi mi? Gunafsha atirli tansiq tuyg'ular nimaning aksi?*

sahargi bog'larni uyg'otgan bulbul,  
oylarning nurlarin elagan suvlar.



*Oy nurlarining suvdagi mavjlanishi...  
Sokin kechalarda suv bo'yida o'tirib she'rdagi kabi manza-  
rani kuzatganmisiz?*

Yashil shajar edim...  
Qandoq sog'indim...  
ko'zimni yashnatsa rubobiy ranglar.  
Qaysi bir dunyoga buncha og'rindim,  
Dilimni qaritdi besamar janglar.

*Rubobiy ranglar tashbehini so'z bilan ta'riflay olasizmi  
So'nggi misralarda ta'kidlanganidek, bu qanday jang ediki,  
dil ozor topsa?*

Men jangchi emasdim,  
men shoir edim,  
nihoyat shoirdan ko'ra zabitman,  
har nafas musulmon millatim dedim,  
nafsigiga kuyganlar keldi oqibat.

***Jangchilikdan tonib, shoirlikni tan olish, so'ngra zobitlikni e'tirof etishni qanday tushunish mumkin? Bu o'rinda "nafsigan kuyganlar" deyilganda kimlar nazarda tutilmoxda?***

Haromni xush ko'rgan maslakfurushlar  
zig'irday himmatin qilganda minnat,  
yaproqday sarg'aydim buyuk urushda  
musulmon yo'q edi,  
yo'q edi millat.

***Bu qanday "buyuk urush"ki, unda tirik bir vujud go'yo yaproq kabi qiyofa kasb etsa?***

Bas, qushlar sayrog'i,  
Yaproqlari mo'l  
yashil shajar kabi turay mushakkal,  
ilhomim haqida so'ylasinalar xo'b,  
zaharli tilimdan to'kilsin shakkar.

***Hamisha "navqiron daraxt" kabi turish ishtiyoqi kimlarga xos?***

Rubobiy sabolar, ruhimdan esing,  
Qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon.  
Voh, yalang shoxlarim qilichday keskir;  
Bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on<sup>1</sup>.

***"Qilichday keskir yalang'och shoxlar" misralari mag'zini chaqishga urining. "Bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on" ifodasida mujassam ma'noga munosabat bildiring. Ruhdan esgan rubobiy sabolarni xayolan tasavvur qilib ko'ring.***

---

<sup>1</sup> Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. She'rlar. – T.: Mavarounnahr, 2012. – 366-367-b.

## Mutolaaga tayyorlashga oid savol-topshiriqlar

1. Aziz o'quvchi, mutolaa jarayonida "Rubobiy she'r" ohangini qaysi kuy yoki qo'shiqqa o'xshatdingiz?
2. Agar sizga rubobiy she'r, rubobiy ranglar, rubobiy sabolar suratini chizib bering deyishsa, ularni qanday shakl va ranglarda jonlantirar edingiz?
3. "Rubobiy she'r" yozish ishqil kitobxonni muallif tabiatining qaysi ihatlaridan ogoh etadi?
4. "Hamisha musaffo chashmani ko'rsam, qoraygan cho'qqilar qoriga qarab..." satrlaridagi tasviriy vosita vazifasiga to'xtaling.
5. "Voh, o'shal lahzalar..." deganda lirik qahramon o'z umrining qaysi damlarini entikib eslaydi? "Voh" so'zining takror qo'llanilishi kitobxonga qanday kayfiyatni yuqtiradi?
6. "Ilhomim haqida so'ylasinlar xo'b, Zaharli tilimdan to'kilsin shakkar" misralarining muallif tabiatini yoki ijodiga aloqasi bormi? Zaharli tildan qanday qilib shirinlik to'kilishi mumkin? Ijodkor bu yerda qanday san'atni qo'llagan?
7. "Rubobiy sabolar, ruhimdan esing, Qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon" murojaatida aks etgan tuyg'ular tiniqligi haqidagi fikr yuriting.
8. Lirik qahramon iqrornomasini qanday izohlaysiz?
9. She'rni yod oling.

## SHE'RLARINING BIRINCHI "SENZURACHISI" O'ZIM EDIM

(Shoirning rafiqasi Manzura Rahmonova bilan suhbat)

- *Shavkat Rahmon deganda ko'z o'ngimizga "jasorat so'zini tarjimon" keladi. Shoirning o'zi hayotda qanday inson edi?*

- Hayotda vafodor yor, mehribon ota, sadoqatli farzand, yurtingin tuprog'idan giyohigacha yaxshi ko'ruchchi inson bo'lganlar. O'zlari o'zini "jangchiman", derdi har doim. "Jangchiman" deb ko'ksiga qo'l uradiganlar emas, yurtini turli yovlardan himoya qila oladigan shaxsnigina haqiqiy qahramon derdilar. Yurt uchun, Ozodlik uchun jonini berishga tayyor edilar. Xalqini, Vatanini oilasidan, farzandlaridan ham ustun ko'rardi.

Mehmondo'st bo'lganlar, har kuni uyimiz mehmonga to'la bo'lardi, shoir-yozuvchilar tuni bilan adabiyot to'g'risida bahsmunozara olib borishardi. Ertasiga ertalab hammasi ish-ishiga jo'nashardi. Endi bo'lsa... o'zi ham, mehmoni ham yo'q, faqat she'rlari barhayot...

- *"Turkiylar" she'rining yozilish tarixi haqida bilmoqchi edik.*

- Bu o'zbeklarga, O'zbekistonga bag'ishlov, farzandlik iztirobindir. Yurtning mustaqil bo'lishini chin dildan istab, qiyinchilik bilan bir oydan ziyod vaqt davomida yozilgan. She'r tugagach, uyimizga shoir-yozuvchilar kelishgan, bayramga aylanib ketgan.

Bugun o'z qalbini, oilasini, Vatanini qo'riqlashga qodir yigitlarni ko'rsak, o'sha mashhur tashbeh yodimga tushadi: "Ilvasin yigitlar, bobir yigitlar..."

- *Shavkat Rahmon ijodida tuproq, tog', soy, ot, daryo obrazlari ko'p. Buni shunchaki tabiat kuychisi desak, shoirning haqi ketadi. O'zini hamisha tabiatning bir bo'lagi deb hisoblagan insonning katta ijodkor bo'lishi uchun shaharda yashab ijod qiliishi oson bo'limgan bo'lsa kerak?*

– U kishi beton uyda yashashdan ko'ra hovlida yashashni, rayhonlar ekib, gullar ko'kartirishni juda-juda xohlaganlar. Lekin she'rleridagi tabiat obrazlari bu so'z o'yini.

Tabiatni juda sevardilar. Har bahorda, albatta, sumalak, ko'ksomsa, chuchvara tayyorlatar edilar. Bolalar bahor taomilari dan to'yib yeyishsin, qishda kamroq shamollaydi derdilar. Bahorda, umuman har doim dam olish kunlari mashina yukxonasiga qozoni bilan ovqat solib "Tabiatga ketdik", – derdilar. Tog'da ko'p dam olardik, o'sha yerda ilhomlanib she'r yozardilar, birinchi "senzurachisi" o'zim edim. Shahar markazida yana bir kvartiramiz bo'lardi. Ijodga sho'ng'igan vaqtlarida o'sha kvartiraga ketardilar.

***- Sulaymon tog'i bilan bog'liq qanday xotiralar sizda saqlanib qolgan? U yerga hozir ham borib turasizlarmi?***

– Sulaymon tog'i bilan bog'liq yorqin xotiralarimdan biri – Bo-burning oq uyi tiklanishi jarayoni. Shu tarixiy uyning tiklanishi bo'ycha ko'pgina idoralar rahbarlari bilan telefonda kuyunib gaplashganlari hamon esimda. Keyin Xivadan ustalar kelishdi. Har kuni ustalar oldiga chiqib ish jarayonini kuzatar, nazorat ham qilardilar.

***- Lirik chekinish qilib, Shavkat Rahmonning ota sifatidagi o'ziga xos tarbiya usullari haqida so'rasak...***

– Bolalarga, o'ylab qarasam, tarbiya bermaganmiz. Qaysi ma'nodaki, "buni qilma, uni qil" kabi tanbehlar yo yo'l ko'rsatishlar bo'lмаган. Ularning o'zini tutishi, muomalasi, hamma-hamma-sidan farzandlarimizning o'zi ibrat olishgan bo'lsa kerak. Hozir ham bolalarim: "Dadam xafa bolmasmikanlar", "Dadam xursand bo'lardilar", – degan o'y bilan ish qilishadi. Har bir gapida dadasing nomi tilga olinadi. Menden ham ko'ra dadasi bolalarimga yaqin bo'lган. Shuning uchun ham ularga dadasini yo'qotish og'ir bo'ldi.

Tarbiya masalasida cheklashlar umuman yo'q edi. Bolalar ham bu erkinlik yo ishonchni suiiste'mol qilmasdi. Har doim darslariga qarashar, qiziqar edilar. Maktabdan kelganida "Necha baho olding, o'qishingda nima gaplar", – deb surishtirar edilar. To'rt farzandim ham dadasinga kundaligiga qo'l qo'ydirishga navbatga turar edi. Erkin o'sishini, manqurt bo'lmay o'z fikri va dunyoqarashiga ega bo'lishini xohlardilar. Shunga imkonli boricha intilardilar.

- *Shavkat Rahmon ta'kidlaganidek, "Birorta bahodir o'lganmas jangda, qo'rqoqlar o'dirgan bahodirlarni". Shoир hayotda xiyonatkor, nomard va qo'rqoq insonlarga qanday munosabatda bo'lgan?*

- Eng yaqin do'sti bo'lsa ham uning xiyonatini sezib qoldilarmi, undan voz kechganlar. Chunki o'zi hech qachon xiyonat qilmagan va xiyonat qilganlarni, kim bo'lishidan qat'i nazar, kechirmaganlar. Ota-onasining aybi bo'lsa ham ularga to'g'risini aytardi. Kimning nima aybi bo'lsa, yuziga aytaverib, ko'p dushman orttirgan.

Hayotda judayam sodda va to'g'riso'z edilar, shuning uchun ham har qanday mug'ombirlik, qing'irliliklarga jim qarab turolmasdilar. Farzandlariga ham doim to'g'rilikni singdirishga harakat qilar edilar. Balkim "Yovga ters qaragan musulmon emas" degan satrlari, aytganingizdek, xiyonatkor, nomard va qo'rqoq kimsalarga qaratilgan bo'lsa ajabmas. Shunday kimsalardan jirkanishini yuzlaridan sezardik:

Jonim – jigarimsan,  
Sen-da odamsan,  
loaqal ko'zingda bir yosh ko'rsaydim,  
loaqal qovushib qolgan qo'lingda  
yovlarga atalgan bir tosh ko'rsaydim.

- *"Minorai kalon" she'rining yozilish tarixi haqida gapirib bersangiz...*

- Ozod Sharafiddinov bilan Xivaga xizmat safariga borib qaytganlaridan keyin yozgan. Minora boshidan ko'p tarixiy jarayonlarni kechirganini eslab, minoraning "nuragan boshiga" laylaklar in qurishganini va "qarg'alar" endi minoraga qo'nmayotganini ko'p aytardilar.

- *"Oy sinig'i" she'rini, umuman, bir qancha she'rлarini o'qib, shoирning bezovtaligini payqash qiyin emas. Buning sababi bir necha adabiyotshunoslar tomonidan o'ziga xos sharhlangan. Bu holatni siz qanday izohlagan bo'lardingiz?*

– Hech qachon kuminni ko'rsam bo'ldi, oilam, bolam-chaqam tinch bo'lsa, menga yana nima kerak, deb yashamaganlar. Doim millatimizning dardi, xalqimizning turmushi yaxshilanishi haqida gapirardilar. Doim yangilikka o'ch edi. Esimda bor: qizim Shoira yoshligida sahar gazeta do'konida navbatga turar edi. "Literatur-naya gazeta", "Komsomolskaya pravda", "Izvestiya" kabi gazetalarni olib kelar, nonushta shu nashrlarning sharhi bilan boshlanardi.

***- Shoир asl insonni qanday tasavvur qilgan?***

– Asl inson – halol, pok, samimiy, beg'ubor, sadoqatli odamlar bo'lgan, menimcha. Chunki o'zлari xuddi shunday fazilatlarga ega edilar.

***- Dunyo she'riyatidan ispan shoiri Federiko Garsia Lorka she'rлaridan tashqari yana qaysi shoirlarning she'rлarini tarjima qilgan?***

– Turk, rus, polyak va eston shoirlarining she'rлarini tarjima qilganlar. Lekin shoir o'zini Lorkada topdilar, o'ziga uyg'un tuyg'ularni angladilar. Shavkat Rahmon she'riyati shakllanishiga bu tarjimalar katta o'rin tutgan. To'g'rirog'i, shoirning jahon adabiyotiga uyg'unlashuviga xizmat qilgan.

***- Shoirning e'lon qilinmay qolgan she'rлari ham bormi?***

– Deyarli hamma she'rлari e'lon qilingan. Faqtgina ikkiliklari nashr etilmagan. Kasalxonada nafas siqib, havo yetmay qolgan pal-lada yozgan "Nodirajon, Shoirajon"ga murojaat shaklida aytilgan. "Osmon to'la havolar, faqat menga yetmaydi" misralarini Nabijon Boqiy yozib olib, bosib chiqardi. Lekin uni biz alohida nashrdan chiqarmadik. Chunki shoir bir misra ustida qayta-qayta ishlaganlar. Shuning uchun ham bu she'rлarni bosishga bermadim. Agar shunday qilganimda ularning ruhlari chirqillardi, deb o'ylayman. Keyin qabrtoshiga "Dengizlarga yetib bormagan daryolarga qo'shilib ketdim" misrasini yozdirdim. Haqiqatan ham shoir daryolarga qo'shilib ketdi.

Keyinroq "Saylanma"si nashrdan chiqdi, bu kitobning birinchi nomi "Qora chechak" edi. Shoir mustaqillikdan avval "millatchi" atalib, ko'p joyda she'rлarini chop ettirolmaganlar. Har bitta yangi she'ri yangi tug'ilgan chaqaloqdek edi. Ko'pi asl holatida nashr qilinmagan.

Yana bir gap: “She’rlarim qo’shiq bo’lib yangraydigan she’rlar emas”, – desalar ham taniqli qo’shiqchilar katta va’dalar bilan olib ketishardi va odatda, “O’xshamadi”, – deyishardi.

Shavkat Rahmon qanday bo’lsa shundayligicha elga tanildi. Bunguni mustaqil, farovon kunlarni ko’rishni xohlagan, orzu qilgan edilar. Bugun hayotimiz to’kin, hamma narsa bor, lekin Shavkat Rahmon yo’q<sup>1</sup>.

***Suhbatdosh Uldona Abdurahmonova***

---

<sup>1</sup> Abdurahmonova U. She’rlarining bиринчи “senzurachisi” о’зим edim. // “Til va adabiyot ta’limi”. –T.: 2014, № 6. – B. 46-47.

## **Mustaqil mutolaaga shoir ijodidan**

AGAR

Tuhmatdan yiqlisa  
birorta do'stim,  
men-chi xilvatlarda berkinib yotsam,  
bu ham yetmaganday ancha vaqt o'tib,  
poklikdan so'ylasam,  
xotira sotsam –  
yo'q, bo'lmas,  
yashardim boshimni egib,  
kezardim umrbod, yurtma-yurt oshib.  
Odamzod ko'ziga qarolmasam tik,  
ko'ksimga osilgan bo'lardi boshim.  
Yo'q, yo'q, yo'q...  
Albatta birga bo'lardim  
tamug' malaylari ishga tushgan choq.  
Do'stim-la yonma-yon turib o'lardim,  
Ehtimol, o'lardim undan oldinroq<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. She'rlar. – T: Movarounnahr, 2012. – 293-6.

## FAXRIYOR IJODINI O'RGANISH

*She'r - tuyg'ular, hayotdan olingan  
taassurot va tafakkurlar mevasil..*

*... Tuyg'ular! She'r - tuyg'ular farzandi. Chuqr  
fikrlar, yoniq, samimiy hislар farzandi bo'ladi she'r...*

ZULFIYA



**FAXRIYOR**  
(1963-yilda tug'ilgan)

*Umr - sham demishlar. Mukammal qiyos -  
Bir boshdan yashaydi umrini odam.  
Faqat shoir umri, faqatgina u  
Ikkala tomonidan yonayotgan sham.*

### "SHE'R - NOMALUMLIKKA TANISH ISHORA..."

Men Faxriyorni ko'pdan beri tanirdim, she'rlarini o'qiganman, o'zi bilan gaplashganman, lekin "Ayolg'u" muallifi, baribir, menga notanish bo'lib chiqdi yangi shoir sifatida. Yana yangilikka kirib borayotgan shoir sifatida uning izlanish yo'lidagi o'zgacha surinish-toyishlarini ham sezgandek bo'ldim. Menga ayrim she'rlari, ba'zan so'z tanlashda oshiqishlari shunday tuyildi. Lekin u, baribir, she'rning shunday sakta joylarida ham o'zidan uzoqlashmaydi, so'z yasashlarida ham navqironlik bor - topganining u yog'ida yana nimalar borligini bilishga os-hiqadi va tabiiyki, ayniqsa ko'ngil go'zalligidan shoshgan odam buni go'zal aytmaydi, shunisi bilan ham samimiy. Yana she'r balki shudir...

... Harqalay, Faxriyording she'rlari ko'ngil xushi uchun rohat qilib o'qiydigan emas, arg'umoqning dag'al yoli tortilgan kamoncha bilan chalinadigan sozga mengzaydi, balki ayolg'usi shudir; ko'ngilni bezovta qiladi, tirnaydi, titadi, fikrni turtadi: tarix haqida, e'tiqod haqida, muhabbat haqida, tabiat haqida, umuman, Uyg'oqlik haqida odamni o'zi bilan o'zini bahs qilishga dalda beradi. Faxriyording yangi shoirligi ham balki shudir<sup>1</sup>.

**Ahmad A'zam  
Yozuvchi**



---

<sup>1</sup> Ahmad A'zam. She'r – noma'lumlikka tanish ishora. Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar va dostonlar. – T.: Sharq, 2000. – 6-b.


## Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar

1. Inson kayfiyati ma'lum ma'noda tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarga ham bog'liq, degan fikrlarni qay darajada to'g'ri deb hisoblaysiz?
2. Umrning yil fasllariga qiyoslanishida qanday mantiq bor?
3. Siz qaysi faslni intiqib kutasiz? Yoqtirgan faslingizning o'zingiz uchun kashf qilgan xususiyatlarini daftaringizga belgilab qo'ying.
4. Odamzodning tabiat qonunlariga qaysidir darajada ta'sir ko'rsata olishini biologiya, geografiya, fizika, kimyo kabi fanlar erishgan yutuqlar misolida ko'rsating.
5. Oqar daryoga mengzaluvchi daqiqalarini ortga qaytarishga qodir kuch bormi? Berilgan umrni faqat ezguliklarga bezash maqsadingizga aylansin!
6. She'rdagi ramziy ma'noni aniqlang va asosiy g'oyaga e'tibor qarating.

\*\*\*

Bahor kelar dalalarga to'rkonlab\*,  
Qushlar ham qaytadi olis-yaqindan.  
Qishki uyqusidan uyg'onar millat,  
zamburug'lar bola ko'rар chaqindan.

*Zamburug' tushunchasiga botanikadan olgan bilimlaringiz asosida ta'rif bering. Tasavvur qiling, u qanday qilib chaqindan bola ko'rishi mumkin? Misralardagi ma'no ko'chishini o'z so'zlaringiz bilan ifodalang. Shoir millatning qishki uyqudan ug'onishi tasviri orqali nima demoqchi? Chaqin nimaning ma'joziy ifodasi?*



Daralar gumburlar – qah-qah urar gul – bog'larni uyg'otar momoguldirak.  
Dalalar ko'k kiyar – ayoz qolar tul,  
quyoshni qitiqlab maysa kuldirar.

---

\* To'rkonlash-boshqa uysa tushgan kelinning ilk marta ota uyiga mehmon bo'lib borishi.



*Banddag'i tasviriy vositlarning vazifasini aniqlang. Gulning qah-qah urishi, dalalarning ko'k kiyishi, ayozning tul qolishi, maysa qitiqlagan quyosh kulgusi lavhalaridan tabiatdagi qaysi hodisa va jarayonlar badiiy gavdalantirilgan?*

Jilg'alar daryoga olib enadi  
bahor daragini – boychechak aytgan!  
Qish zahri toshlarga tegib sinadi.

*Boychechak tilagini ado etgan jilg'alar qiyofasi va toshlarga tegib singan qish zahrini ranglarda qanday tasvirlagan bo'lardingiz?*

Ko'ksingni yoradi g'am kurtaklari,  
Yonib yozging kelar jigarxun baytlar,  
Yurakni aldaydi ishq ertaklari<sup>1</sup>.

*Bandda ifodalangan fikrga asoslanib lirk qahramonning ruhiy holatiga munosabat bildiring.*

<sup>1</sup> Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar va dostonlar. -T.: Sharq, 2000.- 183-b.

## Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar

1. *Siz she'rni qanday nomlagan bo'lar edingiz?*
2. *She'rda faqat borliq, undagi yangilanishlar haqida so'z bor-ganmi?*
3. *She'r dan qanday ma'no ilg'adingiz? Tabiat go'zalliginimi yoki bu yerda boshqa g'oya ilgari surilganmi?*
4. *She'rni yod oling.*

## Mustaqil mutolaaga shoir ijodidan

\*\*\*

Bo'g'zimdan sirqirar tovush – qon,  
gul – mening eng so'nggi so'zimdir.  
Ibtido, intiho ovushgan,  
muhabbat sen bergen to'zimdir.

Men uni qadayman ko'ksimga,  
yuragim tovondir – yorilar.  
Sen meni sevmagin, o'ksima,  
toshbag'ir bo'ladi parilar.

Men seni gunohkor etmasman,  
suyarman, kuyarman, boshimga  
yetar ishq, men senga yetmasman.

Yuragim tovondir – to'layman,  
oyligim, boyligim – loshimni.  
Ko'zimni so'zimga ulayman .

---

<sup>1</sup> Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar va dostonlar. –T.: Sharq, 2000. – 169-6.

## EPLAB YOZISHDAN BOSHQA MEZON YO'Q

### **Shoir va tarjimon Faxriyor bilan Oydin Niso suhbati (qisqartirib olindi)**

*- Siz adabiyot olamiga yangi nafas bilan kirib keldingiz. Ko'plab she'r shaydolarining yuragidan joy oldingiz. Biroq oxirgi she'riy to'plamingiz "Geometrik bahor"ning chop etilganiga, adashmasam, o'n yil bo'lyapti. Adabiy nashrlarda ham faol emassiz. Shoir Faxriyorni sog'ingan, undan yangi she'rlar kutayotgan she'rxonlarga bu holatni qanday izohlaysiz?*

- To'g'ri aytasiz, bu o'zim uchun ham og'riqli masala. Tanaffus darsdan cho'zilib ketsa, vaqt qimmatini yo'qotadi. Faqat bir taskin bor – bekor o'tirganim yo'q, tinmay ishlayapman. Tarjima bilan shug'ullanayapman. Katta-katta loyihalarda qatnashyapman. Kim billadi deysiz, bugun xalqqa ularning nafi she'r dan ko'ra ko'proqdir.

*- Shoirning katta ruh bilan o'zini erkin qo'yib ijod qilishi uchun nima kerak, deb o'ylaysiz?*

- Buning uchun botiniy erkinlik zarur. Botiniy erkinlik va ruhiy xotirjamlik uchun esa ijodkor iqtisodiy jihatdan muhtoj bo'lmasligi kerak. Mashrab shusiz ham katta shoир bo'lgan-ku, degan gapni aytishlari mumkin. Lekin katta adabiyot yo'l-yo'lakay to'qilgan she'rler bilan emas, xotirjam holatda har jihatdan puxta o'ylangan asarlar yozish bilan yaratiladi.

Albatta, zamonga boqmay, u bilan hisoblashmay ijod qilgan va qilayotgan ijodkorlar ham ko'p. Lekin qani Navoiy darajasidagi shoirlar, Tolstoy darajasidagi yozuvchilar?

*- Ijodingiz ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Ayrim tanqidchilar sizni faqat shakliy eksperimentlar qilib yurgan ijodkor deb bilsa, boshqalari ijodingizga yuksak baho beradi. O'z ijodingiz haqida qanday fikr dasiz? Sizningcha, yaxshi she'r qanday talablarga javob berishi kerak?*

– Har doim takrorlab kelganman: men she’rni birovning qosh-qovog’iga qarab yozmayman, ko’nglimdagi gaplarni o’zimga ma’qul yo’sinda ifoda qilishga intilaman...

O’z-o’zimga baho berishga kelsak, men uchun bitta mezon bor – yozganing avvalo o’zingga yoqishi, undan zavq ola bilishing kerak.

Yaxshi she’r san’at namunasi bo’lishi uchun – eksperimental yoki an’anaviy bo’lishidan qat’i nazar – eplab yozilishi shart. Binobarin, har qanday ijod mahsuli chinakam san’at asari bo’lishi uchun badiiyat talablariga javob bera olishi kerak. Bor-yo’g’i shu. Yostiqday roman yozganing bilan u oddiy xronika yoki muxbirning maqolasi-dan farq qilmasa, undan yomoni yo’q.

– ***Badiiyatning yuksak talablarini har kim o’z qarichi bilan o’lchaydi. Sizning-cha, bu talablar nimalardan iborat?***

– Albatta ijod mohiyati va mezonini belgilaydigan yagona tabl va qoida o’ylab topilsa, ijod qilib o’tirishning hojati qolmas edi, chunki badiiy ijod hech bir qoliplarga bo’ysunmas erkinligi bilan ham qadrlidir. Lekin shu holicha ham badiiy ijodning o’ziga yarasha talablari, mezonlari mavjud. Men ularni nimalarda ko’raman?

Har bir asar avvalo men uchun yangilik bo’lishi, “sun’iy” (“san’at” so’zi bilan kelib chiqishi bir) ekaniga qaramay badiiy to’qimasi – obrazligiga ishontira olishi, unga yolg’on va g’araz aralashmasligi kerak...

– ***O’n yil oldingi Faxriyor bilan bilan bugungisi o’rtasida farq bormi?***

– Albatta, farq bor. Vaqt o’tgan sayin tajriba ortib, yoshlikda yo’l qo’ygan xatolarni anglaysan, hayotga boshqacha ko’z bilan qaray boshlaysan. Bu – tabiiy. Vaqt o’tishi bilan qo’limdan keladigan, eng muhimmi, istagan narsalarimni u yoki bu narsa bahona bo’lib, yoza olmayotganim uchun afsuslarim ortdi. O’n yil boshqa narsalarga yem bo’lib ketdi: kitoblarim yozilmay qoldi. Mana shunisi yomon...

– ***Bir paytlar adabiyotga jamiyatni albatta yaxshi tomonga o’zgartira oladigan kuch sifatida qaralar edi. Hozir-chi?***

– Milliy tafakkur taraqqiyotining muayyan bosqichlarida adabi-yotga qiziqish nihoyatda ortib ketganini, u qaysidir ma’noda ta’sirga ega moddiy kuch bo’lganini ko’rish mumkin. U san’atning boshqa

turlari qatori hamisha inson tafakkuriga, uning estetik qarashlari shakllanishiga ta'sir etib kelgan va shunday bo'lib qoladi, ammo uning jamiyatni o'zgartira oladigan darajadagi kuch ekani haqidagi gaplar, nazarimda, mubolag'adan boshqa narsa emas. Buyuk yozuvchi bizni, dunyoni go'zallik qutqaradi, deb qanchalik ishontirishga urinmasin, bu fikr juda ishongimiz kelgan orzuligicha qolmoqda...

***- Sizningcha, adabiyot nima uchun kerak? U insonga nimadir berishga majburmi?***

– Adabiyot voqelikni badiiy to'qima – obrazlilik orqali idrok qilishga assoslangan fikrlash tarzi, inson tafakkurini rivojlantiruvchi, yuksak ideallarni kuylovchi va targ'ib qiluvchi vosita sifatida har doim kerak. U insonning orzu-umidlarini, intilishlarini ifoda etuvchi san'at turi o'laroq, jamiyat taraqqiyotida har doim katalizator vazifasini o'taydi. Bugungi kunda hayotimizga kirib kelayotgan axborot-kommunikatsiya vositalarini olasizmi yoki kosmik kemalarning olis sayyoralarga parvoz qilishini olasizmi – barchasi bir zamonlar folklorda, mumtoz adabiyotda va fantastik yozuvchilarining asarlarida g'oya ko'rinishida paydo bo'lgan edi. Adabiyotshunoslar bugungi G'arb jamiyatining yuksak taraqqiyotga erishishida modern adabiyoti ta'siri katta bo'lganini ta'kidlamoqda.

Shu o'rinda bir narsani alohida qayd etmoqchiman: adabiyot mavjud jarayonlarga bevosita emas, bilvosita ta'sir ko'rsatadi, ya'ni u "oynayi jahon", "uchar gilamlar" haqida g'oya beradi, ularni televizor yoki uchoqqa aylantirish – boshqa aniq fanlar vakillarining ishi.

***- Rahmat<sup>1</sup>.***

---

<sup>1</sup> Eplab yozishdan boshqa mezon yo'q. -T.: Yoshlik, 2015, <sup>1</sup> 3. -B. 2-5.

## **Topshiriq**

Faxriyor she'rlari va suhbat mazmunidan ijodkorning o'ziga xos dunyoqarashi, uslubi va ohangini belgilang. Shoirning adabiyot to'g'risida bildirgan "jamiyatni o'zgartira oladigan darajadagi kuch ekani haqidagi gaplar, nazarimda, mubolag'adan boshqa narsa emas" degan fikrlarini oqlaysizmi yoki inkor etasizmi? Shu haqda mushohada yuriting.

## MUHAMMAD ALI IJODINI O'RGANISH

**MUHAMMAD ALI**  
(1942-yilda tug'ilgan)



Oh, dilda tug'ilar g'aroyib bir she'r,  
Oftob to'kis qizday jilmayib boqar.  
Arshi a'loden to rutubatlari  
Ilhomlar selida to'lg'onib oqar...

### "ULUG' SALTANAT"GA BAXSHIDA UMR...

O'zbek adabiyotida Amir Temur va Temuriylar davri haqida samarali ijod etgan adiblardan biri – Muhammad Alidir. Sohibqiron shaxsi, uning davlatni boshqarish, bu-nyodkorlik salohiyati, Turkiston o'lkasining vatanparvar o'g'loni, dunyo xalqlari tarixi va madaniyatiga qo'shgan hissasi yuzasidan bir necha yillik izlanishlari samarasini o'laroq yozuvchining "Gumbazdagi nur", "Sarbadorlar", "Ulug' saltanat", "Amir Temur chamani" kabi asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Ijodkorning bundan ko'zlagan maqsadi, albatta, o'zi ta'kidlaganidek, "millatning otasi haqida – uning ibratli insoniy fazilatlari, namuna bo'lgulik hayoti lavhalarini o'quvchiga yetkazish. Axir dunyoda sarkardalar, davlat arboblari kam o'tganmi, nega hauz Amrik Temur shaxsi barcha zamonlar va xalqlarni

hayratga solib keladi, dersiz. Bizning bobomiz jahongirligidan tashqari Buyuk Inson degan tushuncha-mezonga to'la javob bera olgan siyodir... Men asarimda sohibqiron bobomiz siymosini o'quvchiga yanada yaqinlashtirish yo'lidan bordim”<sup>1</sup>.

### Mutolaaga tayyorlashga oid savol-topshiriqlar

1. Qadrli o'quvchi, uzoq vaqt ko'rishmagan qarindoshlaringiz bilan diyordorlashuv onlarida yuragingizni qanday hislar chulg'ab oladi?
2. Yaqin insonlaringiz erishgan muvaffaqiyatlar sizni qanday ezgu ishlarga ruhlantirgan? Bu haqda batafsil hikoya qilib ber-ring.
3. Qo'lga kiritgan yutuqlaringiz qaddrdonlaringiz uchun qanchalik yoqimli va huzurbaxsh ekanligini kuzatganmisiz? Bu al-batta, kishini to'lqinlantirib, yangi-yangi izlanishlar sari undaydi, to'g'rimi?
4. Atrofdagilarning do'st-yor, aka-uka, opa-singillaringizga noo'rin munosabatiga duch kelganiningizda qanday yo'l tutgansiz?
5. Muhim bir oilaviy tadbirni o'tkazishda ota-onangiz kim-larning pand va nasihatlariga tayanishini kuzatgansiz? Ularning bunday yo'l tutishiga sabab nimada? Tajribasizlikmi yoki... Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
6. Yurtimizni bosqinchchi kuchlardan xolos etgan vatanparvar ajodolarimiz haqida nimalarni bilasiz?
7. Amir Temur va Temuriylar sulolasidan so'ng yurtimiz qanday ahvolga tushib qoldi?
8. Biz qachondan boshlab milliy davlatchiligidan tiklashga kirishdik va bunda kimning hissasini alohida e'tirof etish mumkin? Shu haqda fikr yuriting.

---

<sup>1</sup> Muhammad Ali. Amir Temur chamani. -T.: O'zbekiston, 2006. 158-b.

# SOHIBQIRON TASHRIFI

## Tarixiy hikoya

Podsholik martabasida ilk bor Samarqandga qadam qo'ygan Amir Temur egachisi Qutlug' Turkon oqaning keng va mo'l hovlisiga kelib tushdi, bu arkdan uncha uzoq emasdi. Bodomqovoq, xushro'y, onasidan ko'ra ko'proq otasiga tortgan, yumaloq yuzli Qutlug' Turkon oqa xursandchiligidan o'zini qo'ygani joy topa olmay qoldi. U, hali Sohibqiron Balxda ekan, shavkatli amirni qanday kutib olish g'amini yeya boshladi. Xudoga shukur, shunday kunlarga ham yetdi! Shavhari<sup>1</sup> Amir dovud dug'lat ham humoyun ug'ruq Shahrisabzda to'xtab turganidayoq, xuddi shu niyatda Sohibqirondan ijozat olib, bir necha kun avval Samarqandga jo'nab ketadi.

Nufuzli dug'lat amirining o'g'li Amir Dovut dug'lat Temurbek egachisiga uylangach, kelinning poyqadami yoqibmi, Samarqandning e'tiborli kishilaridan biriga aylandi. Hayhotday hovli hamisha mehmonlar bilan gavjum. Yigirma yillardiki, Amir Dovud dug'lat va Qutlug' Turkon oqa shu hovlida umrguzaronlik qilishadi, to'ylari ham shu yerda o'tgan. Alloh taolo ularni to'rt yil farzand yo'liga qaratdi. Birinchi farzandlari Sulaymonshoh tug'ilganda bu hovlida katta to'y bo'lib ketdi. O'shanda Amir Tarag'ay bilan Tekuna xotunlar nabiralarini ketma-ket tug'ilganlaridan shoshilishib qoldilar. Bitta gijinglagan toyni yetaklashib, bezatilgan oltin beshikni olishib, Samarqandga kelishib ulgurmay, orqalaridan Shahrisabzda Temurbek xonardonida parvardigorning inoyati bilan bir o'g'il tug'ilganligi,

<sup>1</sup> Shavhar – umr yo'ldoshi, yostiqdosh ma'nosida.

kelinlari Turmish oqa yukidan bo'shab olganligi haqida xabar yetdi. Sulaymonshoh Jahongir Mirzodan oyiga katta edi, xolos.

Avvalgi haraju maraj<sup>1</sup> zamonlarda Temurbek vaqt-bevaqt, ko'pincha kechasi, yashrinib bu hovliga kirib kelar, dunyo tor bo'lib qolganda shu yerdan panoh topardi. Samarqand deganda, Temurbek dastavval mehribon egachisining farishtali hovlisini ko'z oldiga keltirar, bundan ko'ngli suv ichar, vujudi yayrardi. Chorpaxildan kelgan, baquvvat, guldirab bosiq ohangda gapiradigan Amir Dovud dug'lat qachon, qay vaqtda yuz berishidan qat'i nazar Temurbekning tashrifidan, shijoatli amir bilan diydorlashganidan mislsiz quvonchlarga botardi. O'limdan tap tortmas dug'lat amirining o'ng yuzida bilinar-bilinmas qilich izi ko'rinish turardi. Temurbekning kelar kunlar haqidagi so'zlarini eshitganda uning qisiq ko'zlarimannunlikdan o'ynab ketardi. Egachi ham, pochcha ham hamisha shahrisabzlik amirga ko'mak qo'lini cho'zishga tayyor turardilar.

Oliy martabali mehmon qo'sh tabaqa darvozadan ichkariga kiriishi bilanoq, poyiga bir jonliq so'ydilar. Mehmonni hovli o'rtasidagi, atrofidagi qalin tollar ekilgan, zilol suvlari limmo-lim hovuz tomon boshladilar. Ushbu hovuz bo'yida oltirish Temurbekka azaldan xush yoqardi. Har kelganida tol tagidagi supada shoyi to'shakda parquvga yonboshlab, zilol suvgaga termilib, g'ir-g'ir esgan shabadada yayrab oltirishni yaxshi ko'rardi. Qutlug' tashrif saratonning sariq kunida yuz berishini, kun issiq bo'lishini nazarda tutib, egachi bilan pochcha, Sohibqiron biroz rohat qilib oltirsin, deya hovuz ustiga ataylab chiroyli panjaragulchin so'ri yasatdilar. To'rtta naqshin ustunga o'rnatilgan ko'shksimon niliyrang tom havoda muallaq turib qolgandek vaznsiz tuyulardi. Amir Temur, ko'shk uning hurmatiga maxsus bunyod etilganini bildi, egachisi bilan pochchasiga mehri qalbida ortiq jo'sh urdi...

Hovlining o'ng tomonidagi ochiq ayvon tagidan diltortar navolar taralardi. Yurtda nomlari mashhur naychi Sulton Ahmad, qonunchi Xojagin Ja'fariy, udni qiyvoradigan Sulton Muhammadlar qamish-dan bel bog'lab xizmatda edilar.

Amir Temur dastavval piri murshid Mir Sayyid Barakani so'riga taklif etdi: – Marhamat, ko'rguzsinlar, piyrim!

---

<sup>1</sup> Haraju maraj – anarxiya ma'nosida.

Mir Sayyid Baraka ehtiromlari uchun Sohibqironga shukronalar keltirib, so'riga birinchi bo'lib chiqishdan o'zini tiydi va qo'llarini ko'ksiga qo'yib: – Biz rizodurmiz! Biz rizodurmiz! O'zlari boshlab bersunlar, Amir sohibqiron! O'zlari!.. – deya mulozamat bidirdi.

Navbatma-navbat Suyurg'at mishxon, Amir Joku barlos, Amir Sayfiddin neko'z, Amir Muayyad arlot, Davlatshoh baxshi, Abbas bahodir va boshqa amirilaru bahodirlar ham so'ridan joy oldilar. Ahli saltanat jamuljam edi. Oz ne'matlaridan bezangan dasturxonga bir-biridan mazali taomlar tortildi. Jambilu rayhonlar hidi anqib turgan umoch oshdan so'ng, titrama kabob, ortidan kovatok bug'lama kel-di. Ora-chorada ravochdan tayyorlangan taom, kallapocha, yaxna jigarlardan ham tanovul aylab qo'yardilar.

Mamlakat poytaxti firdavsmonand Samarqandga qadam qo'ygandan keyin ham Amir Temurning kayfiyatida biron bir o'zgarish bilinmadi. U shahar, el, raoyo ahvolini ko'ribmi, har xil o'ylar og'ushida qolgandek edi. Katta bir cho'qqiga chiqib, ortga, pastda qolib ketgan o'tilgan yo'lga nazar tashlagan sayyohga o'xshardi Sohibqiron shu pallada!.. Sayyoh eng baland cho'qqiga chiqdim, maqsudimga yetdim, deya mag'rur bosh ko'tarib atrof olamga nazar tashlaydi, nazar tashlaydi-yu zabit etgan cho'qqisining kichikligini, yuksak cho'qqilarning esa oldinda savlat to'kib turganligini ko'radi... Qalbini yarim g'oliblik tuyg'usi, yarim o'kinch hissi chulg'ab oladi. Cho'qqilarga chiqmoq uchun hali ko'p ter to'kmoq kerakligini anglaydi.

Shu payt zarcho'va palov keltirildi.

– Ko'p taomlarni tanovul etsak-da, palovga hamisha joy topilur! – hazil aralash so'zlandi piri murshid. – Biz... boshladuk! Olsunlar, Amir sohibqiron!

Amir Temur fag'furiy laganga qo'l yubordi. Keyin o'zga amirlar ham ishtaha bilan xushbo'y hidi taralib turgan oltinrang palovni tanovul qilishga kirishdilar.

– Ey sohibi sharaf amirlarim! Bizlar Turon yerining bolalari-durmiz.

Farzandlariga mulk ulashg'onda Chingizzon hoqon yurtimizni o'g'li Chig'atoyxonga ravo ko'rmish... Ma'lumingizdurkim, Chig'atoy ulusi ushbu damlarda parokandadur...

Sohibqiron kuchli, o'ktam ovoz bilan gapirardi, shoshilmas, ovozida kishini o'ziga jalb qilguvchi qandaydir joziba, sehr mujassam edi.

– Ore, rost... – deb qo'ydi piri murshid.

Bu payt osh yeyilib, laganlar yig'ishtirib olingandi.



Oftob tikkaga kelgan bo'lsa-da, tollar orasidagi so'rida mo'tadil salqin havo hukm surardi. Shavkatli amirlaru bahodirlar hamon sukut saqlab kelayotgan Sohibqironning nogahon so'z boshlab yuborganidan hushyor tortdilar. Suyurg'at mishxon Amir Sayfiddin neko'zga qaradi, u odatdagidek tomoq qirib qo'ydi-da, ro'baro'da tiz cho'kkani Amir Joku barlosga ko'z tashladi. Amir Joku barlos Amir Muayyad arlotga. Amir Temur so'zlardi:

– Xorazm Tang'aday avlodni So'fiylar qo'lidadur, Jeta bo'lsa Qamariddin va Anqo To'ra kabi qaysar amirlarga tobe... Ular ulusning qo'llari yetgan bo'laklarini malolsiz o'z hukmi qarorlari qabzasiga kiritib, jahon yagonasimen, degan xayol etagidan tutmishlar. Alloh inoyati birlan ko'nglimizda ulug' maqsadlar, mulku millat tamoyillari ustuvordur, bas, qadim ulusni tiklamak shart, bor sa'y-harakat, shaxtu shijoat yuzini unga qaratmak lozimdur. Alloh taolo biz bandalarig'a qulay imkon ato etdi, bunday chog'da fursatni, kelib turg'on omadni ilikdan bermak – kechirilmas jinoyatduri!.. Alloh bergen omad – Turon yurtini tiklamakdur, fursat hozirdur, ushbu lahzalardur!..

Saltanat akobirlari sohibqiron so'zlarini mag'zini chaqishga urindilar. "Alloh bergen omad – Turon yurtini tiklamakdur!" – picchirladi ichida Amir Dug'lat. Amir Sayfiddin neko'z sohibqironning mantiqan kuchli mushohadalariga yana bir bor tan berdi va bir lahza o'zaro boshboshdoqliklar tingen, dorilamon Turon mamlakatini ko'z oldiga keltirdi.

– Maqsudni hamisha katta qilmak kerak... – piri murshid birdan hali sohibqiron so'zlash havosida ekanligini angladi-yu jim bo'ldi. Chindan ham Amir Temur so'zida davom etdi:

– Katta davlat mashaqqatlar evaziga keladur. Dastavval o'z uyimzni o'nglab olaylik. Jahon elini baxtiyor qilmakka bel bog'lagan sulton imorati mustahkamu sobit bo'lmos'i zarur. Davlatimiz tug'ining markaziga aylanajak Samarqand shuhrati-yu dovrug'i olamdag'i barcha makonu manzillarga yetib borsun! Shaharda oliy-maqom binolar, tillakori saroylar bunyod etilsun!



“Inshooloh”, “Bunyod etilsun!” degan so’zlar yangradi. Amir Temur poytaxt Samarqand, unda qurilajak imoratlar, xususan, Ko’ksaroy va Bo’stonsaroy qasrlari, shaharni kamar yanglig’ o’rab oladigan devor, o’qdek kesib o’tadigan ko’chalar, ko’chalar bo’yidagi marjondek tizilajak savdo rastalari, masjidu madrasalar haqida zavq-shavq bilan gapirdi. Ayniqsa, shahar atrofida barpo etiladigan ajib xushmanzara bog’larni shunday ta’rifladiki, o’ltirganlar o’zlarini bu dilrabo bog’larda kezib yurgandek, sarin havolardan nafas olgandek his qildilar. **Temur barpo ettirgan bog’lar keyinchalik tarixda qanday nomlar bilan tilga olinadi?**

– Saltanatning zafar darvozasi olislardan savlat to’kib tursun! – davom etdi hayajonda Amir Temur. Ushbu yumushlarimiz bag’oyat xayrli va ezgudir. Davlatu saltanat ko’shkini ezgu va xayrli ishlar poydevori ustiga bunyod etilsa, uning qadri va qudrati, inshooloh, falak kungiralari qadar sarbaland bo’lg’ay!

– Barhaq egam o’z marhamatidan darig’ tutmasun! – qo’lidagi sadaf tasbehni aylantirar ekan, Mir Sayyid Baraka tilak bildirdi. – Zero shahar qurmak, bunyod etmakdan o’zga xayrliroq, ezguroq yumush yo’qdur! Al-hamdu lillahir rabbil olamin!

– Rost so’zladilar! Rost so’zladilar! – piri murshidni qo’llab-quvvatladi Amir Sayfiddin neko’z.

Atrofdan ham ma’qullagan ovozlar eshitildi.

– Bas, firdavsmonand Samarqand ovozasi olamshumul Bag’dod shahrini lol aylasun, toki alamli ko’z yoshlari Dajla bo’lib oqsun! Misr rashku hasaddan o’zini daryoi Nilga otsun! Qo’sstansiya esa dardini Sho’rdaryoga aytib yig’lasun! **Nomlari tilga olingan shahar va daryolar hozir qaysi davlatlar hududida joylashgan? Yoki ular bugungi kunda yo’q bo’lib ketganmi?**

– Aytg’oningiz kelsun, iloyo, sohibqiron! – guldiradi Amir Dovud dug’latning ovozi. Amir Temurning so’zlari hammadan ham Samarqand dorug’asini quvontirib yubordi. O’ltirganlarning yuziga yo-qimli tabassum yoyildi.

Amir Temur ko’zlar bilan kimnidir qidira boshladi. Amirlaru bahodirlarning har birida, sohibqiron meni qidirmayotganmikinlar, degan taraddud sezildi. Piri murshid Mir Sayyid Baraka ham shunday holatga tushdi. Oliy nazar hammadan o’tib, quyiroqda tiz cho’kkdan amirlardan birida to’xtadi:

– Amir Oqbug'o!

Amir Oqbug'o nayman shitob o'rnidan qalqdi va qo'l qovushtir-guncha dedi: – Amringizga muntazirmen, Sohibqiron hazratlari!

Amir Oqbug'o nayman qirqlarga borgan baland bo'yli, tovoq yuzli, ketmonsoqol bir kishi edi.

– Monandi yo'q poytaxtimizni obodu farovon etish yumushlariiga bosh qo'shingiz! Barcha xarajatni xazinadan olursiz. Xarajatlar ustidan mutasaddi erursiz, amir janoblari!

– Boshim ustiga, sohibqiron hazratlari! Oliy himmatlari uchun qulluq!

Amir Temur mamlakatda uy qurayotgan fuqarolardan birinchi yil hech qanday hiroj olinmasligini Samaraqand dorug'asi Amir Dovud dug'latga uqtirdi. ***Sohibqironning bunday siyosat yuritishining boisi nimada edi?*** So'ngra ertaga tong sahar bo'lajak qurultoya mavjud tumanlaru hazoralardan amirlarning kelgan-kelmaganalarini surishtira boshladi.

\*\*\*

Hovlining ichkarisi ham tashqarisidan qolishmaydigan darajada gavjum edi. Har yoqdan xotin-xalajning qiy-chuvi eshitilardi. Boshiga gulgun takana tashlagan, moviyrang ipak ko'ylak ustidan olacha hoshiyali avra to'n kiyib olgan Qutlug' Turkon og'a char-chash nimaligini bilmas, hovlida charx urib yurardi. Mushtipar ega-chining ushbu voqeadan mamnunu masrur ekanligini muhtaram o'quvchilarimiz tasavvur etsalar kerak. Dunyoda yakka-yu yolg'iz inisining baland martabaga erishganidan, o'zini o'tga-cho'qqa urib tinmagan Temurbekning yurt boshiga kelganidan behad baxtiyor edi u. ***Biror orzuyingiz amalga oshgandagi holatingizni eslang. O'sha quvonchli daqiqalar bilan sohibqiron egachisining kayfiyatini solishtiring. Bu - g'urur va shukronalik tuyg'usidir, shunday emasmi?***

Qutlug' Turkon oqa Amir Temurning ahli ayolini ehtirom ila kutib olishga qattiq sa'y-harakat ko'rgizdi. Egachi, ayniqsa, inisining Saroymulkxonim bilan bir yostiqqa bosh qo'yganidan bag'oyat quvondi. U ilgarilari ham Saroymulkxonimni iqi suqib yurardi. Qozon Sultonxonning nomdor qizi, yurish-turishi, tutumi, odobi, husni-malohati bilan diqqatini tortardi. Ammo hech qachon uni bir

kun kelib inisi Temurbekka yostiqdosh bo'ladi, deb xayoliga ham keltirmagan edi. Taqdir ekan. Qudratli podsholarga gul yuzli malikalar kerak! Saroymulkxonim Temurbekka juda munosib malika. Temurbekning o'zi ham endi xon avlodiga kuyov bo'ldi, ha, Chingizxon avlodining kuyovi! Eh-he!.. Xon avlodidan emassan, deb ukasini hamisha kamsitib keladilar, har safar shunday gapni eshitganda, Qutlug' Turkon oqaning bag'ri uqalanganday bo'ladi. Endi gapirisha olmaydi g'arazgo'ylar, ichi qoralar! Temurbek xon avlodidan bo'lmasa ham, xon kuyovi! Kuyovni esa payg'ambarimizning o'zlar siylaganlar!.. *Mansab va lavozim nasl-nasabga qarab belgilanadimi? Inson qadrini uning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab baholaydiganlarni kim deb atash mumkin?*

Egachining esida, Shahrисабзда, ularning to'yida xursand-chilikdan ko'z yoshi ham qilib oldi. Yasanib bezangan, mushku anbarlarga ko'milgan kelinchakni chimildiq xonasiga kuzata yotib, peshonasidan o'pakan: "Iloyo, Temurbek bilan qo'sha qarib, munkillab-sunkillab yuringizlar!" dedi, dedi-yu ko'ngli bo'shashib ketdi, ammo ko'zlariga qalqqan yoshni birovga ko'rgizmadi. Mana hozir, kelinlik saodatidan chiroyi gul-gul ochilgan, to'pig'igacha oppoq ipakka burkangan, latofati barq urib turgan Saroymulkxonim bilan ko'rishar ekan, xayolidan: "Ha, qizga bergisiz juvon bor, toyga bergisiz g'unon!.." degan so'zlar kechdi. Yonida shukrchi<sup>1</sup> katta soyabon tutib soya qilib kelardi. Kelinning qirmizi oq yuzlari oftob-danmi yo hayajondan yana ham ol rang kasb etgan, jon ofati bejirim yoqut lablari qimtingan, chap yuzidagi kichkina qora xoli esa, nima bo'lyapti o'zi, deganday atrofga hayron boqardi. Saroymulkxonim darvozadan kirgani hamon:

– Assalomu alaykum, g'amguzorim, mehribonim egachim! – deya ta'zim bajo ayladi va o'zini Qutlug' Turkon oqaning quchog'iga otdi.

– Allohga shukur! Allohga shukur! – egachi ardoqli kelinini bag'riga bosgancha, uzoq vaqt qo'yib yubormadi...

Egachi-kelin ushmundoq diyordorlashib turganlarida, mashshoqlar endigina "Uzzol" kuyini boshlagan edilar. Sulaymonshoh

---

<sup>1</sup> Shukrchi – soyabon ko'tarib yuruvchi xos xizmatkor.

tengqurlari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo va Jahonshoh ibn Jokular bilan birga hovliga kirib keldilar.

O'n besh yosh atrofidagi o'smir yigitlar, kattalar o'z-o'zlari bilan bo'lib e'tibor qilmaganlaridan foydalanishib, bir oz Ark ko'chasida kezib yurishni ixtiyor etdilar.

– Valine'mat sohibqironga jahon taxti muborak bo'lsun! – dedi Jahongir Mirzo bilan Umarshayx Mirzolarni qutladi Sulaymonshoh.

– Muborak bo'lsun! – qo'shildi Jahonshoh ibn Joku.

Jahongir Mirzo "Qulluq!" deganday ta'zim qildi. Yigitlarning kat-talarnikiga o'xshamagan o'z zavq-shavqlari, tashvishi-yu muammo-lari yig'ilib qolgan turfa sirli gaplari bor edi, bir-birlari bilan tez-roq o'rtoqlashmoq istardilar. Hali uy qurmagan salt yigitlarning uchrashganda ilk gaplari ko'pincha muhabbatdan, yordan bo'ladi. Keyin boshqa gaplarga navbat. Jahongir Mirzo Sulaymonshoh bilan Jahonshohlarga ko'nglidagi tuyg'ularidan, Xorazm yoqlardan so'z ochmoqqa, ayni paytda do'stlarining fikrlarini bildirmoqqa shoshilardi. Ammo yonginasida ukasi Umarshayx Mirzo borligidan istihola qilib, sir aytishni boshqa vaqtga qoldirdi. Do'rildoq ovozli, yelkador Sulaymonshoh bilan burni suyridan kelgan, iyagi uchli, shartaki Jahonshohlar buni sezishib, bir-birlariga ma'noli qarab qo'yishdi. Avvallari ham ko'p bor og'alarining sirli gaplaridan benasib qolgan tabiatan biroz qo'rs Umarshayx Mirzo, yarim yosh bo'lsa ham, yosh-yosh ekan-da, deganday ichida g'ijinib qo'ydi. **Tengqur qarindoshlarining bilan tez-tez uchrashib turasizlarmi? Ular bilan suhbatingiz ko'proq nimalar haqida kechadi?**

Suyukli amirzoda ko'rnavermaganidan ko'nglining bir cheti xijil Qutlug' Turkon oqa darvoza tomonga nazar tashladi-yu suyunib ketdi. Temurbek sultanatining kelajagi bo'lgan amirzodalar kelishmoqdaydi. Jahongir Mirzo! Farzandi arjumand, sultanat tojining duri, podhsohlik ayvonining ustuni, iqbol bo'stonining guli! Toza ko'ngil Temurbek va mohichehra Turmish oqa – ikki g'aroyib pokiza tiynatning oshkoru tansiq mevasi! Qutlug' Turkon oqa Jahongir Mirzoning tiniq yuzlariga, yorqin ko'zlariga tikilarkan, bu ko'zlar tubida qandaydir ismsiz bir mung ko'rardi, sababini esa tushunolmasdi. Balki validai muhtaramasi Turmish oqaning vafot etganidandir? Turmish oqa – Jahongir Mirzo bilan Oqa Begi xonim-

larning onasi – dunyodan erta ketdi. Onasizlik iztirobi amirzodani tinch qo'ymayotganmikin?.. ***Sizning ham hatto ota-onangizga aytishdan iyamanadigan gaplaringizni oshkor qila oladigan biror yaqiningiz bormi?***

Amirzoda Qutlug' Turkon oqaga qattiq bog'lanib qolgan, sirlarini aytar darjada yaqin edi, tez-tez dilini yorib turardi. O'z navbatida sohibqiron egachisi ham amirzodani o'z farzandiday, balki undan ham ortiqroq avaylab ardoqlar, so'rab-surishtirishdan charchamasi. Balx muhorabasida amirzodaning oyog'iga o'q tekkanini eshitib, to aniq xabar olguncha yuragi taka-puka bo'lib yurdi. Shahrisabzda, Temurbek bilan Saroymulkxonim to'yiga borganda sog'lom va durkun amirzodani ko'rib Allohga shukurlar qildi. O'shanda qiziq bo'ldi. Yugurib kelgan Jahongir Mirzo enasi bilan salomlashib achiomlashgach, negadir odatdagidek nari ketmadi, erkalik qilibmi suykalib turaverdi, nur to'la javdiragan ko'zlariga qaraganda zarur gapi borga o'xshardi. Enasi hushyor tortdi.

– Amirzodam... sihhatingiz tuzukmi?.. – xavotirlanib so'radi u.

Jahongir Mirzo jilmaydi.

– Allohga shukur! Tuzuk-da! Sihhatim tuzuk... ena.

U xuddi onasiga suykangan qulunday yondoshdi-da, enasining qulog'iga yaqin kelib, hayajon ichida nimalarnidir shivirlay boshлади. Qutlug' Turkon oqa eshitar ekan, avvaliga tushunmay hayron bo'lib turdi, keyin chiroyli yumaloq yuzlariga tabassum yoyildi-yu og'zining tanobi qochdi:

– Voy!.. Voy o'zim gиргиттон! O'zim gиргиттон! Bo'yingizdan aylanayin-a, bo'yingizdan!.. Xorazmda-ya, Xorazmda... Xonzoda xоним... Esimda, esimda...

Yuzlari qizarib ketgan Jahongir Mirzoning yorqin ko'zlarida bিroz hijolat sharpasi sezilardi, bora-bora o'rnnini tabassum egalladi.

Qutlug' Turkon oqa tushundi: Jahongir Mirzo bu "yumush"ni, ya'ni Xorazm malikasigasovchi yuborishini nufuzi kuchli, so'zi tosh bosadigan enasining zimmasiga yuklamoqchi. Bu haqda padari buzrukvorimga aytingiz, demoqchi... Shu tomonlarini o'ylab qo'yingiz deya eslatmoqchi... ***Jahongir Mirzo yoqtirgan qiziga sovchi jo'natishni shundoq ham otasidan iltimos qilsa bo'lar edi. Shahzodaning bu harakatlarini qanday izohlaysiz?*** O'ylaydi

enasi, o'ylaydi. Nafsilambirini aytganda, enasi urinishni boshlab yubordiyam. Sohibqiron bilan kengashib ham ko'rdi. Amir Temur e'tiroz bildirmadi, faqat miyig'ida kulib qo'ydi. *Yengil tabassumi-dan ma'lumki, otasi o'g'lining tanloviga qarshi emas. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz? Javoblaringizni Amir Temur amal qilgan tuzuklarga bog'lab asoslang.*

Shularni xayoldan o'tkazar ekan, Qutlug' Turkon oqa tili marhaboga bezandi:

– Kelingizlar, kelingizlar!..

Durkun amirzodalarining rasida bo'ylariga qarab quvongan Qutlug' Turkon oqa Jahongir Mirzodan boshlab barchasi bilan ko'rishib chiqdi, har birining peshonasidan o'pib yelkasiga urib-urib qo'ydi.

– Sulaymonshoh! – o'g'liga buyurdi Qutlug' Turkon oqa. – Sizlar ga ana chekka xushmanzara ayvonda joy hozirlangan. Boringizlar! Chaq-chaqlashib o'tiringizlar!

Keng hovlida "Uzzol" ohanglari yangrardi.

Amir Temurning ikkinchi xotini ko'zlari qiyiq Ulus oqa, Amir Bayon sulduzning qizi, orqaroqda soyabon ostida xiyol egilgancha odob bilan Qutlug' Turkon oqaning xoli bo'lislmini kutardi. Sariq ipak matodan ko'ylak kiygan yigirma besh yoshlardagi Ulus oqanining bo'yi Saroymulkxonimga qaraganda pastroq edi. Besh qadam-chacha narida sohibqironning bashang kiyinishgan huriliqo kanizlari ko'rindi. Umarshayx Mirzoning onasi To'lin oqa, Mironshoh Mirzoning onasi Mengli bika va Tog'ay Turkon oqalar nim tabassum ilo muhtarama egachining katta xonim bilan ko'rishishayotganini kuzatib turardilar.

– Marhabo, xonadonimizga xush kelibsizlar! – uyga taklif etdi egachi quvonchi cheksiz, mehmonlar bilan ko'rishib bo'lgach.

Barcha ostonasiga oq poyondoz to'shalgan uyga qarab yurdi. Oldinda Saroymulkxonim, orqada Ulus oqa va kanizaklar ohista qadam tashlab kelishardi.

– Bismillohir rahmonir rahim! – Saroymulkxonim oppoq ipak ko'ylagi barini xiyol tortib nazokat bilan poyondozga qadam qo'ydi.

Xonodon sohibasi muhtarama mehmonlarni ichkariga chor-ladi. Devorlariga lov-lov yonib turgan gilamlar osilgan xona keng va chiroyli. Bejirim tokchalarda fag'furiy kosa va piyolalar, iroqiy

ko'zalar terib qo'yigan, u mehmonxonadan ko'ra yangi tushgan kelinchak xonasiga o'xshardi. Malikalar shohona bezatilgan das-turxon atrofiga tiz cho'kishdi. Duoi fotiha tortildi.

– Barchangizga podshohlik qutluq bo'lsun, ardoqli kelinlarim! – dedi Qutlug' Turkon oqa qo'llarini ko'ksiga qo'yib.

Kelinlar va kanizaklar o'rinalaridan turdilar-da, tavoze bilan egachiga bosh egdilar:

– O'zingizga ham qutlug' bo'lg'ay, ey bonuyi kubro<sup>1</sup> hazrati oli-yalari!

– Iloyo kam bo'l mangizlar! O'ltiringizlar!

Dasturxonidagi noz-ne'matlar nigohlari o'ziga sirli imlardi. Non sindirildi. Bir necha "Oling!", "Oling!" lardan keyin Saroymulkxonim qimitinibgina dasturxonga qo'l cho'zdi va xinoli ikki nozik barmog'i bilan qatlama nondan jinday ushatib, ohista og'ziga soldi. O'rtadagi katta barkashda meva-chevalar – olma-yu murut, o'rigu gilos, uzu-mu shaftoli – baridan bor edi. Mohicha degan xamiri mayda-mayda kesilgan suyuq ovqatdan keltirdilar. Barcha rohat qilib tanovvul ayladi. Sho'rtakkina bu mazali taom Ulus oqaga ayniqsa juda yoqdi, yana ichkisi bor edi-yu, so'rashga iymanib o'zini tiydi.

Malikalar o'zlarini hur va malolsiz his etsunlar, degan ma'noda sohibai xonodon Qutlug' Turkon oqa shunday dedi:

– Har bandaning manglayini Alloh yorug' qilsun! Bandasini o'zi siyasun! Temurbekdek bor sa'y-harakatini shariatu millatning ravnaq topishiga qaratgan, dinu davlatni o'ylagan inson olamda kamdur. Ana shunday bir insonga sirdosh bo'l mak, uning shabistoniga mahramlik vazifasini ado qilmak siz pariruxsoralarga bu-yurbdur. Bu Allohning buyuk iltifot... – Egachi biroz jim qoldi. – Nargizga boqingiz: bedorligi uchun ham oltin toj singari tillarang ko'rinadur. Ko'zga yaqindur! Hushyoru bedor turingiz, sohibqiro-ningizdan hamisha ogoh bo'lingiz!

– Qulluq, g'amgusor egachi! – minnatdorchilik bildirdi Saroymulkxonim. – Sohibqiron hazratlarining sarvarlik savdosi tushgan aziz boshlari, iloyo, toshdan bo'lsun!

---

<sup>1</sup> Bonuyi kubro – eng ulug' ayol ma'nosida.

– Allohning lutfi muhofazasi, bemisol karami soyasida basalomat yursunlar, iloyo, – qo'shildi qiyiq ko'zlar chaqnab Ulus oqa.

Kanizaklar ham xusravona shaxtu shijoatlar sohibi haqiga duo qilar edilar.

Xonaga jimlik cho'kdi. Hamma odob saqlab, yerga tikilgan, kimsa so'z demasdi. Hovlida ayvon tagidan taralayotgan diltortar navolar endi baralla eshitilar, kishida yoqimli tuyg'ular uyg'otardi. Shu payt mashshoqar "Dilxiroj" kuyini chala boshladilar. Mahdi ulyo<sup>1</sup> sayida Saroymulkxonim sekin boshini ko'tarib, nim tabassum bilan Ulus oqaga boqdi va yerga qarab harir ko'ylagining etagini o'ynab oltirgan Tog'ay Turkon oqaga isora ayladi. Ulus oqa ma'noli jilmaydi va ma'qul, deganday ohista bosh tebratdi. Qop-qora shaxlo ko'zlar yonib turadigan o'n to'qqiz yoshli Tog'ay Turkon oqa "Dilxiroj"ga juda yaxshi raqs tushardi. Kanizak xirom aylaganda har safar malikalar to'planib tomosha qilishar, zavqlarga botishar, munslug' ko'ngillarini yayratishar edi. Kanizakni qayta-qayta o'yinga tortishardi-da, raqs tugagach: "O'yinni ko'p qiyvorasiz, qayerda o'rgangansiz?.." deb so'rashar, hatto "Hazrat sohibqironni ham o'yiningiz bilan rom etib olganmisiz? Valine'mat hazratlariga shunday o'zin tushib berasizmi?.." qabilida tegajog'lik qilishdan ham tap tortishmasdi.

Ammo hozir hech kim hech narsa demadi. "Dilxiroj" esa butun hovli-yu xonani yoqimli sadolarga to'ldirib, dillarni qitiqlagancha jaranglashda davom etardi...<sup>2</sup> **Lavhadan Turkon oqa va Sohibqiron zavjalarining bir-birlariga munosabati qandayligini ilg'adingizmi?**

---

<sup>1</sup> Mahdi ulyo – lug'aviy ma'nosи: ulug' belanchak. Nufuzli malikalarga beriladigan unvon.

<sup>2</sup> Muhammad Ali. Amir Temur chamani. –T.: "O'zbekiston", 2006. 60-73 b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. *Sohibqiron barpo ettirgan qasrlar, madrasalar, karvonsa-roylar, bog'lar, bozorlar nima uchun aynan uning o'zi emas, balki yaqinlarining nomi bilan atalgan deb o'ylaysiz?*
2. *Adibni salkam yarim asr davomida Amir Temur mavzusida qalam tebratishga undagan ehtiyoj sabablari nimada?*
3. *Hikoyada asosan Amir Temur hayotidagi qaysi davrlar tilga olinadi? Yozuvchining bundan ko'zlagan niyatini aniqlang.*
4. *Amir Temur shaxsining o'ziga xosligi qaysi lavhalarda namoyon bo'ladi? Muallifning Sohibqiron xarakterini tasvirlashdagi mahoratini asardan misollar orqali ko'rsating.*
5. *Hikoyadagi zamon va makon ruhi qanday vositalar orqali ochib berilgan?*
6. *Qutlug' Turkon oqa, Saroymulkxonim, Ulus oqa kabi obrazlarda o'zbek ayollari tabiatiga xos qaysi fazilatlarni payqadингiz?*
7. *Asardan xalqimizning o'tmish hayoti, turmush tarzi, madaniyati, an'ana va udumlariga oid qanday ma'lumotlarni bilib olish mumkin?*

---

## **Mustaqil mutolaaga tavsiya qilinadigan asarlar**

---

1. B.Ahmedov. "Amir Temur" tarixiy romani.
2. O.Yoqubov. "Fotihu muzaffar yoxud bir parivash sirlari" dramasi.
3. Muhammad Ali. Amir Temur chamani. Esse.

## BILIB OLING:

*Buyuk Britaniya qirollik Shekspir teatri to'rt yuz yildan buyon o'z mavsumini Kristofor Marloning "Buyuk Amir Temur" (1587) tarixiy asari bilan boshlashi ingliz xalqining bobomiz shaxsiga ehtiromi namunasidir.*

## MAVZUGA OID QO'SHIMCHA MATERIAL

### **Sohibqiron siyosiga obraz sifatida yondashuv**

Amir Temur – murakkab tarixiy shaxs. Shuning uchun folklor asarlaridagina emas, balki yozma adabiyotda ham bu ulug' zot siyosiga turli jihatdan yondashilganini kuzatish mumkin. Shunisi e'tiborlikki, har bir ijodkor Amir Temur obraziga o'z tushunchasi, dunyoqarashi va qiziqishi nuqtayi nazaridan baho beradi. Xususan, B.Ahmedov "Amir Temur" (1994) asarida tarixiy faktlar orqali



buyuk sarkarda timsolini yaratishga jazm etgan bo'lsa, P.Qodirov ("Ona lochin vidosi". Qayta ishlangan nomi "Shohruh va Gavharshod" 1996), A.Oripov ("Sohibqiron". 1996), X.Davron ("Samarqand xayoli". 1991) lar ko'proq badiiy tarzda gavdalantirishga harakat qilganligi ko'rindi.

Nafaqat o'zbek, balki chet el ijodkorlaridan, jumladan, O'rta Osiyo tarixi yuzasidan uzoq yillar izlanishlar olib borgan angliyalik muallima Hilda Hukhemning "Yetti iqlim sultoni" qissasida sarkarda hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida ilmiy yoritilganini kuzatish mumkin.

Sir emaski, sarkarda hali hayotlik chog'idanoq uning shaxsi, harbiy yurishlari, davlatni boshqarish usullari dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan. Shu bois jahon va qardosh xalqlar adabiyotida ham Amir Temur obrazining munosib o'rni bor. Masalan, amerikalik Edgar Poning "Buyuk Temur" (1827) poemasi, olmon adibi logann Wolfgang Gyotening "Temurnoma" ("G'arbu Sharq devoni" asarining bitta fasli), Abdulloh Fotihiyning "Temurnoma", (forsiy tildagi "Xamsa" asarining beshinchi dostoni), ozarbayjon adiblari Mamad Said O'rduboyning "Temur va Yildirim Boyazid" (1916), Husayn Jovidning "Amir Temur" (1924) kabi dramalarida esa turkiy xalqlarni birlashtirishga harakat qilgan fotihligi badiiy talqin etiladi.

Sohibqiron obrazi hatto G'arb san'atshunoslari diqqat markazida bo'lganligini nemis kompozitor Georg Fridrix Gendelning 1724-yilda yaratgan "Amir Temur" operasi yoki bugungi kunda o'zbek musiqashunoslari tomonidan ilk bor o'rganilgan italyan bastakori Franchesko Gasparinining "Temur" ("Tamerlano". 1717) musiqiy asari ham dalolat beradi.

Xorijda Amir Temur shaxsini o'rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom etayotganligini fransuz olimi Lyus'en Kereningning 2006-yilda nashr ettirgan "Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat" tadqiqoti misolida ham guvohi bo'lish mumkin<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. -T.: Fan va texnologiya, 2016. 64-65-b.

## **Yozuvchi ijodidan**

“Sohibqironning nabirasi kelishgan, barno yigit Xalil Sulton qoralardan bo’lgan juvonga, aniqrog’i Amir Temurning yaqin sir-doshlaridan Amir Sayfiddin neko’zning Shodimulk degan ofatijon kanizagiga majnunsifat oshiq bo’lib qoladi. Bir-birlarini had-dan ziyod sevgan amirzoda Xalil Sulton bilan huriliqo Shodimulk hech kimga bildirmay pinhona nikohdan o’tadilar... Farzandlar va nabiralar hayoti, turmushi, to’y-hashamini hamisha diqqat nazari-da tutgan Amir Temur bu gapni eshitib bag’oyat darg’zab bo’ladi, chunki Xalil Sulton uning suyukli kelini, qizim emas, o’g’lim deb ardoqlaydigan, Jahongir Mirzo vafotidan keyin Mironshoh Mirzoga uzatilgan Xorazm malikasi Xonzoda xonim zurriyodi edi!

Iztirobga tushgan, ko’ngli lat yegan sohibqiron azbaroyi kelgan g’azabdan Shodimulkni, nabiramni boshini aylantirib yo’ldan urib-di, degan ma’noda o’limga buyuradi...”<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Muhammad Ali. Qutlug’ xonadonning ulug’ sohibi. Amir Temur chamani. – T.: O’zbekiston, 2006. 200-201-b.

## XAYRIDDIN SULTONOV IJODINI O'RGANISH



*Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar,  
fikrlashdan ham to'xtaydilar.*

DENI DIDRO  
Fransuz faylasufi

**XAYRIDDIN SULTONOV**  
(1956-yilda tug'ilgan)

### ULUG' AJDODLARIMIZNI YOD ETIB

Xayriddin Sultonov – ko'plab esse, ocherk, hikoya va qissalar muallifi, Bobur nomidagi Xalqaro ekspeditsiya a'zosi. Adib "Boburiynoma" asarini yaratish orqali o'zbek adabiyotida ma'rifiy roman janriga asos soldi. "Boburiynoma" – yozuvchining Bobur nomidagi Xalqaro ekspeditsiya a'zolari bilan safari chog'idagi taassurot-laridan hikoya qiluvchi ma'rifiy roman.

Uning tarixiy mavzudagi asarlarida Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Sharif Gulxaniy, Abdulla Qodiriy kabi mashhur shaxslar obrazlari mahorat bilan chiziladi. Dramaturgiya, kinodramaturgiya sohasida samarali qalam tebrat-gan ijodkor ssenariylari asosida "Changak", "Moziydan bir sado", "Tushlarimda ko'rib yig'layman", "Yozning yolg'iz yodgori" kabi video va badiiy filmlar suratga olin-gan.

## Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar

1. *Bobur nomidagi Xalqaro jamoat xayriya jamg'armasi faoliyat yuritishidan xabardormisiz?*
2. *Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish borasida mazkur jamg'arma tomonidan amalgalash oshirilgan qanday ishlar sizda qiziqish uyg'otgan?*
3. *Bobomiz nomi bilan ataluvchi Millliy bog', shoir ramziy maqbarasi hamda "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi qayerda buniyod etilgan?*
4. *Bobur haqida yaratilgan qanday filmlarni sevib tomosha qilasiz? Ularda kimlar bu ulug'zot simosini jonlantirgan?*
5. *Qissada tasvirlangan personajlarning real shaxslar yoki badiiy to'qima ekanligini tarixiy manbalar asosida aniqlashga urinib ko'ring.*



Zahiriddin Muhammad  
Bobur nomidagi Toshkent  
markaziy eko bog'i

Bobur va Jalon  
Madaniyat muzeyi.  
Andijon shahri



*Muhtaram kitobxon, ushbu sahifada sizni xayolan Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Ko'ykiy kabi ulug' ajdodlarimiz bilan moziy so'qmoqlarida birgalikda kezish va go'yibona dyidorlashuvga chorlab qolamiz.*

## **SAODAT SOHILI**

### **Qissa**

– Usta Binoql, qani turing, shom tushmay huv dovonga yetib olaylik! O'sha dovonga yetaylik, uyog'i – yo razzoq!

– Uh, taqsir, oyoq bosgulik holim qolmadi. Yurolmayman, taqsir, yurolmayman!

– Andak bardosh qiling, usta Binoql! Chekkan mashaqqatlarimiz, inshoolloh, besamar ketmas! Ajab emaski, dovon ortida biror qo'nalg'a bo'lsa... Shu manzilga yetib olsak bas, jarohatingizga ham bir davo toparmiz. Qani, qo'lingizni bering, usta Binoql!

– Eh-h, taqsir...

Uch kundan buyon ahvol shu: usta Binoql shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi, har qadamni ming azob bilan qo'yadi. Hofiz Ko'ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko'proq o'z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskintasalli beradi, sabr-bardosh sari da'vat etadi. Binoql ingraydi, og'riqqa chidayolmay yig'lagudek yolvoradi, Hofiz Ko'ykiy go'dakni aldagani kabi uni yupatmoqqa tirishadi, "ko'pi ketib, ozi qolgani ni aytib ishontirmoqchi, ishonmoqchi bo'ladi, lekin bundan na yo'l qisqaradi, na yo'l azobi kamayadi.

Ular o'n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog'lik bilan yo'l bosdilar. Taglarida o'ynoqlagan dulduldek otlar, xurjunlarning ko'ziga to'ldirilgan lazzatli ozuqalar belga quvvat, dilga mador bo'lib keldi. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo'l tanobini tortar, huvillagan, fayzsiz

cho'lning o'lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag'ishlagandek bo'lar edi.

O'n sakkizinchchi kuni sahar chog'i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi.

Ular olatasir to'palonda tog' unguri yoqalab qochishga muvaffaq bo'ldilar. Binoqlul qo'liga ilingan kichkina bir tugunchagini olishga ulgurdi, xolos.

-Taqsi-ir, - dedi Binoqlul yig'lamsirab, - hech vaqomiz qolmadi-ku, taqsir?!

- Binoqlul, - dedi Hofiz Ko'ykiy, - jon qoldi, jon!

U - dunyoning qariyb yarmini kezgan jahongashta odam edi, hayot qadrini, tiriklikning ulug' ne'mat ekanini teran angardi, kechagina safar-sayohat zavqi, sirli, noma'lum manzillar ishtiyogi bilan sarmast Binoqulning musichadek javdirab turganini ko'rib kulgisi qistadi, soddadil yigitning yuragiga mador bo'ladigan biror og'iz so'z aytgisi keldi. Hali oldinda jazirama issiq, ochlik, tashnalik, tushkunlik singari mislsiz azoblar kutayotgan, istiqbolda ajal sovuq quchog'ini ochib turgan bir paytda bu so'zning mahzun ko'ngilga naqadar ulkan quvонch va quvvat bag'ishlashini u yaxshi bilardi.

- Kuyunmang, Binoqlul, - dedi jilmayib, - padari buzrukворингиз Hind sori ayni shu yo'lidan o'tgan bo'lsa, ne ajab!

Binoqulning yuzi yorishdi. Hofiz Ko'ykiy yigitning dilida pinhon muqaddas sirdan voqif: Binoqlul hali go'dak ekan, Bobir Mirzo Farkatda bir muddat to'xtagan kezlar otasi cherikka kirgan, amirzoda Hindistonga otlanganda birga jo'nagan.

Binoqlul otasini enasining so'zlaridan tanib ulg'aydi. Dom-darak-siz ketgan otasining yo'liga ko'z tika-tika enasi bultur olamdan o'tdi.

Binoqlul - qaddi-qomati kelishgan, pishiq-puxta, chayir yigit, kulganda kuldirgichli yuzlارida ajib bir joziba paydo bo'ladi - chin dildan yayrab kuladi. U har ishga tirishqoq, havasmand, uzun qish kechalari kulbasida etik, mahsi tikadi, yozda ikki tanob yerida ter to'kadi, kitobga, ilmga cheksiz ixlos qo'yanidan ham mahallasi - Mozori Hoji masjidining imomi Hofiz Ko'ykiyni o'ziga ustoz deb biladi, uning kechmish voqealar, ayniqsa, jangnomayu jahongirlar tarixiga doir dilkash suhbatlarini saatlab jon qulog'i bilan tinglaydi. Hofiz Ko'ykiy safarga ketgan paytlarda Binoqlul uni intizor kutadi.

Ustozi so'qqabosh, vorasta<sup>1</sup> ko'ngil odam bo'lib, umri muttasil safarlarda o'tardi. U ba'zan ikki-uch yillab benomu nishon ketar, safardan qaytgach, masjid xonaqosiga tutash hujrasida muto-laadan bosh ko'tarmay, allanarsalar yozgani yozgan edi. Binoqlu bu bitiklarning nimaligini bilmas, so'ragani botinolmas, ammo ustozining yosh bo'lsa-da, ulug' odam ekanini sezardi: masjid eshi-giga Toshkand, Samarqand va boshqa shahru kentlardan otliqlar, hashamatli soyabon aravalar tez-tez kelib turar – zarbof to'n kiyib, simobiylarga o'rangan turli-tuman basavlat kishilar Hofiz Ko'ykiyni ziyorat qilib chiqar edilar.

Biroj muqaddam u ustozining Hindiston safariga hozirlanayot-ganini eshitib qoldi. Eshitdiyu yuragiga g'ulg'ula tushdi, oromidan ayrildi.

Otasi bundan yigirma yetti yil avval – yigirma yoshida xonadoni tark etgan ekan. O'shanda Binoqlu uch yashar go'dak bo'lgan. U otasining tirikligiga, qirg'inbarot janglardan omon chiqqaniga, yot ellarda sog'-salomat yurganiga so'nmas ishonch bilan inonar, nazarida, padari buzrukrori ona yurtda qolgan murg'ak zuryodining diydotini intiqlik bilan kutayotgandek tuyular edi. **Muhtaram kitobxon, umid va ishonch tuyg'usi kishini ruhlantiradi, hayotga qaytaradi, to'g'rimi?**

Binoqlu chidab turolmadi, ustozining oyog'iga bosh urib, birga olib ketishini so'radi.

Hofiz Ko'ykiy rozi bo'ldi.

Ular o'n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog'lik bilan yo'l yurdilar...

Karvonni qaroqchi bosgan o'sha mash'um juma oqshomida ular yana bir falokatga yo'liqdilar: toshdan toshga sakrab, tog' yonbag'ridan pisib borarkanlar, Binoqlu oyog'i toyib, yetti-sakkiz pastdag'i xandaqsimon ungurga – qirrador xarsang ustiga yiqilib tushdi. Beli shilinib momataloq bo'ldi, to'pig'i handalakdek shishib, qadam bosolmay qoldi. Hofiz Ko'ykiy yigitning belini, boldirini silab, chiqqan suyakni solgan bo'ldi, biroq ertasi og'riq battar zo'rayib, Binoqluning o'rnidan qo'zg'alishga ham majoli kelmadidi...

---

<sup>1</sup> Vorasta – ozod, erkin.

Hofiz Ko'ykiy Binoqulning umurtqasi qattiq shikast eganini pay-qadi, labini tishladi-yu, indamadi. U hamrohini goh opichib, goh suyab, shu kuni yarim yig'och ham yo'l yurolmadi. Ertasi kuni ochlik va og'riqdan sillasi qurigan Binoql ustozidan o'tinib iltijo qildi:

– Taqsir, endi menga ozor bermang! Sezib turibman, kunim bitgan ko'rinati. O'zingizni ham, meni ham qiynamang. Meni shunda qo'yib, yo'lingizdan qolmang, taqsir, uh-h...

– Unday demang, Binoqul, ayb emasmi? Qani, menga mahkam-roq suyaning, ha!

Tog' yo'li, soqov xarsanglar. Yalang'och tovonlarning qoni tomgan chag'ir toshlar. Ufq qadar cho'zilgan kimsasiz yo'l.

*Qadrdonimiz, tilsiz bo'lsa ham ko'hna tarixga guvoh asriy "soqov xarsanglar, chag'ir toshlar, kimsasiz yo'llar" tasviri sizni xayolan olis moziy sarhadlari tomon yetaklasa, ne ajab!*

– Uh, taqsir, endi madorim qolmadi... Oh, suv, bir qultumgina suv bering!

– Binoql... –Hofiz Ko'ykiy atrofga nochor alanglatdi. – Binoqul, bir oz sabr qiling, huv ko'kalamzorni ko'ryapsizmi? Shoyad o'sha yalanglikdan suv topilsa...

– Suv... Su-u-v... Taqsirjon, bir qultumgina suv, umrimni beray, taqsirjon, bu azobdan qutqaring!

– E Alloh! O'zingdan bo'lak madadkorim yo'q, shafqat qilgaysen!

Sel bosib kelmoqda, sel – olov seli! Ho'l-quruqqa barobar o't qo'yib quyosh yonayotir, quyosh!

– Oh... Meni yerga qo'ying, taqsir, oh-h! Taqsir, men o'laman Ey Allohi berahm, murodimga yetkazmading-a!

– Binoql, tavba deng, kufriga botmang!

– E, yaratgan egam, mayli bu ko'rsatgan kuningga ham shukur. Armonim ichimda qoldi, taqsir. Padarimning daragini bilsam edi. Bobur shohni bir ko'rsam...

– Binoql jim bo'lib qoldi, so'ng majolsiz barmoqlari bilan tugunchagini yecha boshladgi. –Taqsir, mana shu kitobni men unga ixlos bilan tortiq etmoqchi edim. O'zim kitobat qilib edim... Bilmaysiz, taqsir, o'zim ham bilmayman, lekin nechundir xudo mening meh-rimni unga tushirgan...

– Ko'ngilni buzmang, Binoqul... – Hofiz Ko'ykiy titrab ketdi.

- Hali tortig'ingizni, inshooloh, o'z qo'lingiz bilan topshirursiz. Faqat niyatni bardam qilmoq kerak.
- Yo'q, taqsir, hol-kunim ayon-ku... - Binoqlul unga qarab ma'yus bosh chayqadi. - So'nggi tilagim ham, vasiyatim ham shu: bu kitobni Bobur hazratlariga eltib, duoi salomimni yetkazgaysiz.
- Binoqlul, inim...
- Aytgaysizki: "G'arib dunyoda Allohnning Binoqlul degan g'arib quli bor edi, otasi navkaringiz edi, u ham sizga dildan ixlos qo'yib, xizmatingizga o'zini chog'lagan edi. Yetib kelolmadi - yo'lida tangri rahmatiga bordi", degaysiz.
- Qo'ying, Binoqlul... - Hofiz Ko'ykiy uning cho'g' kabi yonayotgan yuz-ko'zlarini, peshonasini siladi. - Ko'ngilni ezmoq nechun? Qo'ying...
- Mana, taqsir... Oh-h! - Binoqlul tugunchagidan kitobni olib uzatdi, mijjalarida yosh yiltiradi.
- "Nasoyim ul-muhabbat"?
- Ha, taqsir.
- Shoshmang, axir bu... Navoiy hazratlarining...
- O'zim kitobat qilib edim. Bu endi sizga qiyomatlig' qarz, taqsir.
- Inshooloh...
- Uh-! Taqsir, so'nggi o'tinchim: imkon topsangiz, otamning daragini so'roqlab ko'rarsiz. Yodingizda bo'lsin, taqsir, otamning ismi Boboqlul, otasining oti O'rinqul. Xotiringizdan chiqmas, taqsir?
- Binoqlul...
- Ha-ah! Taqsir, rozi... mendan rozi bo'ling...
- Mingdan ming roziman, inim, siz ham rozi bo'ling... Binoqlul! Binoqlul!.. E, Alloh, vo darig'!

\*\*\*

Uch kundan so'ng tog'dan o'tin terib qaytayotgan o'tinchilar behush yotgan Hofiz Ko'ykiyni dara etagidagi nuragan qoya etagidan topib oldilar...

\*\*\*

Agra bozorining etak tomonida joylashgan, odatda yo'lovchilar ko'nda bosh suqavermaydigan pasqam karvonsaroy bu oqshom har qachongidan ko'ra sershovqin: turli o'lkalardan kelgan ajnabiy savdogarlar, tuya, fillarga ortilgan yuklarni baqirib-chaqirib



tushirayotgan yarim yalang'och hammollar, tilanchilar, sayoq sozandalar.

Hofiz Ko'ykiy ikki kundan buyon shu karvonsaroyda muqim edi. Bu kun erta tongdan shaharni kezib, qosh qorayganda qo'nalg'asiga qaytarkan, darvoza oldida o'tirgan turq-tarovati g'alati bir kimsa tuyqusdan e'tiborini tortdi. *Paxmoq soch-soqoli patila-patila bo'lib yelkasiyu ko'ksini qoplagan, egnidagi juldur ridosiga son-sanoqsiz tumor-ko'zmunchoqlar taqilgan qariya charm tas-mali peshonabog'ini qo'lida tutamLAGANicha devor tagidagi tuyatoshda mudrab o'tirardi.* U ahyon-ahyon qisiq, chag'ir ko'zlarini yarim ochardi-da, telba bir hayqiriq bilan baqirib qo'yar edi:

Moli vofir-r<sup>1</sup>, eli kofir-r, yo'l yovuq...<sup>2</sup>

So'ng dunyoni unutgandek, yana ko'zlarini yumib pinakka ketardi. Hofiz Ko'ykiy uni bir dam kuzatib turdi, nihoyat qiziqishi g'olib chiqib, asta yaqin bordi. Cholning yalang'och, qoqsuyak o'ng yelkasida *allaqanday eski jarohat izi bo'lib, chap qoshi uzra badburush chandiq qorayib ko'rinar edi.* U shundoqqina oldida haykaldek qotib turgan odamga parvo ham qilmay:

<sup>1</sup> Vofir – ko'p, mo'l.

<sup>2</sup> Yovuq – yaqin.

– Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq! – deya og‘zidan tufuk sochib vishilladi-da, birdan jimb qoldi.

Olag‘ovur shovqin ichida tuyqusdan yangragan bu turkiy kalom Hofiz Ko‘ykiyning qulog‘iga issiq chalinib, darhol sergaklandi, ehti-yotkorlik bilan salom berdi. Choldan sado chiqmagach, bir oz tarad-dudlanib:

– Ma‘zur tutgaysiz, siz turk emasmi? – deb so‘radi.

Chol churq etmadi, go‘yo bo‘shliqqa tikilgan kabi ma‘nosiz ko‘z-larini baqraytirgancha chayqalib o‘tiraverdi. Xiyol o‘tgach, zerikdi shekilli, ridosining yoqasidan uchburchak tumorini uzib olib o‘ynay boshladi.

Hofiz Ko‘ykiy sekin iziga qaytdi. To‘rdagi supada chilim chekib o‘tirgan qizil yuzli, ulug‘sifat savdogar ohista so‘z qotdi:

– O‘ yak odami devona. Hamo o‘ro Baxshiturk menomidand.<sup>1</sup>

Hofiz Ko‘ykiy savdogardan forschalab so‘radi:

– Shu yerda istiqomat qiladimi?

– Yo‘q, uning makonini hech kimsa bilmaydi. Bu yerga ba‘zan boshi og‘ib kelib qoladi. O‘zi beozor, hech kimsaga ziyoni yo‘q. Faqat goh-goh jazavasi qo‘ziydi, xolos. Ana, ana, tag‘in boshlandi!

Baxshiturk uyqudan uyg‘ongandek, sapchib o‘rnidan turdi, qo‘llarini to‘rt tomonga to‘lg‘agancha tasavvuridagi g‘animga vah-shat bilan o‘shqira ketdi:

– Bari bir oxiri voy bo‘lur, ha! Bilib qo‘y, ha, oxiri voy! Umring o‘tib ketar, tongla mahsharda yuzing qaro, ha! Mana, bu oy juma-dul avval, so‘g‘in jumadul oxir, so‘g‘in rajab, so‘g‘in sha‘bon, undan so‘g‘in ramazon, undan so‘g‘in shavvol! Ha, bari bir oxiri voy! Val-lohu a‘lam bissavob; to‘qson to‘rt kundan so‘g‘in ramazon iydi, bir yuzu ellik to‘rt kundan so‘g‘in kichik iyd, ha! Yana oltmish uch kunda ro‘za kelur, ha! Zakot berdingmi? Zakot bermadingmi? Bari bir oxiri voy! Yana sakkiz haftadan so‘g‘in qish, yana o‘n uch haftadan so‘g‘in ko‘klam, yigirma yetti haftadan so‘g‘in tag‘in yoz! E g‘ofil banda, umring ham o‘tar,sov uq go‘rga kirarsan, ilon-chayonga yemish bo‘lib, tufroqqa qorishgaysan! Kulma, kulma, bir pul so‘g‘in! Bir pul, ha, bari bir oxiri voy!.. Yo‘qol, deyman, yo‘qol, nega zakot berding?!

---

<sup>1</sup> Bu bir devona odam. Hamma uni Baxshiturk deydi.

Chol baqira-baqira darvozadan uzoqlashdi. Xirqiroq ovozi endi olislardan eshitilar edi.

Hofiz Ko'ykiy devonaning poyintar-soyintar so'zlari zamiridagi oddiy, ammo shafqatsiz haqiqatan benihoya hayratga tushgan edi. Uning hisob-kitoblarini xayolan tekshirib ko'rarkan, bu qadar aniq-ligidan g'oyat taajjublandi.

"Devona emas, – deb o'yladi u. – Haqqa yetgan, xolos..."

Baxshiturk saroydan ancha uzoqlab ketdi. Ketdi-yu, ajabtovur so'zlari, g'alati baytining aks sadosi Hofiz Ko'ykiy qulog'ida qoldi:

Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq,  
Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq...

Devoni Buzurg ertalabdan gavjum edi. Yo'laklarda yasovul va choparlar, turli-tuman arzgo'ylar uymalashar, mulozimlar, mirzolar naycha qilib o'ralgan qog'ozlarni ko'targancha uyoqdan-buyoqqa savlat to'kib o'tishar edi.

Bog'i Nurafshonning yashil qo'ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg'on, Hind va Bangola o'lkalarining mutlaq hukmdori – keyinchalik yevropalik muarrixlarning "faromushxotirligi" tufayli tarix sahifalariga "Buyuk Mo'g'ul imperiyasi" degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan sultanat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o'tkazmoqda. U viloyatlardan kelgan turli nomalarni ko'zdan kechirib, ay'onlarga tegishli farmoyishlar berib bo'lgach, majlis ahlidan mamlakatning ichki ahvoliga taalluqli xabarlarni tinglamoqqa kirishdi, so'ng Kobildan kelgan choper bilan bir necha arzgo'yarni qabul qildi.

Mashvarat nihoyasiga yetay deb qolganda zarbof to'ni yoqasiga zarrin uqa tutilgan barvasta eshik og'asi kirib ta'zim qildi:

– Olampanoh, Sulton Muhammad Toshkandiy otlig' bir zot husni tavajjuhingizga muntazir!

Bobur sergak tortib, eshik og'asiga qaradi:

– Kim ul? Qaydin kelibdir?

– Toshkanddin, olampanoh. Siz zoti shariflarini ziyorat etmoq orzusida kelibdir!

"Toshkanddin?.."

Endi faqat tushlarida ko'radigan, olislarda armon bo'lib qolgan yurtidan Boburni ko'pdan buyon biror kimsa yo'qlab kelmagan edi. Ko'ngli allanechuk to'lib:

– Ayting, kirsin! – dedi. So'ng Ko'histon va hind javohirlari, asl afg'on yoqtulari bilan ziynatlangan taxtdan turib, o'z mavqelariga ko'ra tizilishib joy olgan arkoni davlatga bir-bir razm soldi. Yo'g'on gavdali, siyrak mo'y Abulvohid Forig'iya ko'zi tushgach:

– Mavlono Forig'i, – dedi ohista, – bu zot kim bo'lsa ekan? Sizning hech eshitganingiz bormi?

Abulvohid Forig'i damqisma kasaliga mubtalo edi, o'rnidan qo'zg'alib, hansiragancha so'z boshladi:

– Olampanoh, sizni yo'qlaguvchi bu zot Movarounnahrning mashhur allomalaridan bo'lur. "Ko'ykiy" taxallus qilibdur, deb eshitganim bor. Toshkandda ekanimda bir kitobatini mutolaa qilib edim. "Risola fi fani attafsir va-l usul va-l fur'u mantiq va-l kalom"<sup>1</sup> deb nom bermishlar ekan, shoyon tahsinga sazovor edi. Yana bir nima tasniflari ham bor, alalxusus, ilmi tarixda benazirdur.

– Siz Toshkandda suhbat quribmi edingiz?

– Yo'q, olampanoh, men bisyor orzumand bo'lib edim, lekin taas-sufki, hamsuhbatliq nasib etmagan edi. Sababki, ul zot, Toshkandin o'n yig'och narida, Farkat otlig' bir kentda istiqomat tutgan ekanlar, fursatim ziq edi, men u yerga borolmadim.

– Farkatda?

– Ha, olampanoh, tog'ning ostidagi kent u. Bu zot asli jannataso Ali Qushchining nabirasni Kamoliddinning o'g'li bo'lur, alar azaldan shu manzilda muqim bo'lib kelurlar.

Abduvohid Forig'i yana allanarsalarni gapirar, ammo Bobur endi eshitmas – teran xayolga cho'mgan edi. "Farkat" degan so'z unga sovuq yomg'ir savalab turgan izg'irinli kunlarni, kuzak osmonida favqulodda chaqnagan chaqmoqlarni eslatdi, umrining rutubatlari, hazing onlarini yodiga soldi. **Aziz o'quvchi, bu lavhalar orqali adibning Bobur hayotidagi qaysi voqealarga ishora qilmoqchi bo'lganini angladингiz?** Yo rabbiy, yigirma yetti yil! Qarchig'aydek bir yigit umri! O'shanda yonida hamrohu hamkor bo'lganlardan

---

<sup>1</sup> "Tafsir, din asoslari, fiqh, mantiq va din aqidalari ilmi haqida risola".

kimlar bor? U turli-tuman nomlarni eslashga urinarkan, ularning bari barmoq orasidan shuvillab to'kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir sirg'alib tushayotganini sezdi. No'yon ko'kaltosh, G'ulda Qosimbek, Xoldor, Mirshoh qavchin, Qo'chbek... Evoh, qayda ular? Qayerlarda? Bachasi endi "rahmatli"! Ba'zilari shiddatli janglarda boshidan ayrıldi, ba'zilari g'anim nayrangiga duchor bo'ldi, ayrimlarining umri qisqa ekan, ayrimlari esa... xiyonat qildi... Oqibat, o'sha kunlardan bu kun faqat achchiq, mahzun xotiralar yodgor, xolos. ***Boburning bu kabi o'y-xayollaridan yodingizga qaysi hikmatli fikr keldi?***

Bobur alamli o'ylardan egilgan boshini ohista ko'tardi. Abulvohid Forig'iy jimgina qo'l qovushtirib turardi.

Eshik og'asi ortidan adl, tik qomatli, odmi to'n kiygan, bodomqovoq, yuzlari qizargan, malla soqoli ko'hlik bir kishi ichkari kirib, ta'zim qildi:

– Yetti iqlimning shamsi anvari, zarofatliq podishohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga duoyu ehtiromlarimiz bo'lg'ay! Assalom alaykum, olampanoh!

– Vaalaykum assalom, xush kelibsiz, – dedi Bobur iltifot bilan mehmonga joy ko'rsatarkan. – Marhamat, olturing. Ziyoratiniz olloh dargohida qabul bo'lg'ay!

– Qulluq, olampanoh.

Boburning ilmi hikmat ustodi Shayx Zayn Sadr fotihaga qo'l ochdi:

– Illohi omin, olampanohimizning umrlari uzun, davlatlarini ziyyoda qilsin, jumlai mo'minning ko'ngillari shod, oxiratlari obod bo'lsin!

Mashvarat ahli "Omin!" deya gurillab fotihaga qo'shildi.

– Mening betakalluf tashrifim olampanohga g'alati tuyular, – deya so'z boshladi Hofiz Ko'ykiy. – Men bir Alloh quli, ishim yo'l yurmoq, dunyo kezmoq. Ko'p mamlakatlarda bo'ldim. Turk, Misr, Bag'dod, Lubnon, Damashq, Qashqar diyorlarini ko'rdim, undagi el-elat, yurt-ulusning turmush-yumushlari ila oshno o'ldim. Bu safar esa ona vataningizdan, ko'z ochib ko'rgan viloyatlaringizdan sizlarga ko'pdan-ko'p duoil salomlar keltirdim. Ota yurtimizning tabarruk yodi xotiralaridan ko'tarilmagan bo'lsa kerak...

– Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? – dedi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. – Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tufroq to'lmasmi?

Ahli majlis mutaassir bo'lib, o'rtaga hiyla vaqt sukut cho'kdi.

– Haq so'zni aytdingiz, olampanoh, – dedi Hofiz Ko'ykiy. – Komil inson kindik qoni to'kilmish yurtni hargiz unuta olmas. Xotiringiz jam bo'lsin, olampanoh, ul diyorlarda muborak nomingizni hanuz yod eturlar. Inchunin, sizga atalmish bir omonatni topshirmoq menga qiyomatlig' qarz edi. – U qo'ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobini olib, Boburga avaylab uzatdi.

Bobur andak taajjublanib o'rnidan turdi, kitobni olib, ilk sahifasini ochdi.

– “Nasoyim ul-muhabbat”! – Boburning ko'zlari chaqnab ketdi. – Mir Alisherbekning tabarruk bitiklari-ku!

– Ha, olampanoh.

– Ne chog' go'zal san'at! – Bobur kitobni zavq va ardoq bilan ko'zdan kechirardi. – O'zingiz kitobat etdingizmi, mavlono? Xatlari bu qadar ravshan, nafis...

– Yo'q, olampanoh. Men bilan birga Allohning g'arib bir quli ham diydoringizga orzumand bo'lib yo'lga otlanib edi. Ming bor taassuf-ki, yetib kelolmoqlik nasib etmadi – yo'lda shikast topib qazo qildi. Shul tortiqni sizga hadya etmoq umidida ixlos bilan kitobat qilgan ekan, yetkazmoqni mendan o'tinib so'radi.

– E, olloi karim! Kim ekan ul do'sti sodiq? – Bobur Mirzo olimning bu so'zlaridan g'oyat ta'sirlangan edi.

– Olampanoh, u yigitning nomi Binoql edi, diyonat va idrokli bir muslim edi. Asli kosiblik qilardi, kaminadan birmuncha xat-savod o'rganib edi. Balki xotiringizda bordir, otasi cherikingizga navkar bo'lib kirgan ekan?

Boburning qoshlari chimirildi:

– Qay vaqt? Qayda?

– Bir muddat Farkatda muqim turgan ekansiz, o'sha kezlari chamasi.

– Ha-a... Ul kentda ko'p mardona yigitlar cherikka qo'shilib edi. Ismi kim bo'lsa ekan?

– Olampanoh, hamrohim jon taslim qilayotib otasining ismini aytgan edi: Boboqlul otlig' bir odam ekan, otasini O'rinqul der ekanlar.

– Eh-ha, Boboqlum? – Bobur jonlanib bosh irg'adi. – Nechun xotirimda bo'lmasin? Jasorati mumtoz navkarlarimizdan edi. Hamrohingiz shuning zuryodi ekanmi?

– Ha, olampanoh.

– Tangri rahmat qilsin, padariga tortgan ekan-da, Boboqlul ulug' yurakli yigit edi.

– Olampanoh, u... qazo etganmi?

– Yo'q. – Bobur g'amgin bosh chayqadi. – Biz Hindni olganda Boboqlul ko'p mardliklar ko'rsatib edi. Uch-to'rt yil chamasi o'tgach, yurtiga qaytmoq bo'lib bizdan izn so'radi. Tilagini o'rinalatdik, biroq tonglasi Ponipatda Ibrohim Lo'diy yuz ming qo'shin bilan bosh ko'tardi. Bazingning navkar o'ng mingning nari-berisida edi. Bizni bundoq mushkul ahvolda qoldirgali ko'zi qiyomadi chog'i, Boboqlul qanotimizga kirib Ponipat sari yurdi. O'sha chopqinda boshidan zarb yeb, xayoli xiliy parishon bo'lib qoldi. Ne muolaja, dori-darmon bo'lsa, barini qildirdik, hech bir naf ko'rmadi. So'ng saroydan bir hujra berib, istiqomatidan xabardor bo'lib turadigan kishi tayin etdik. Yo'q, bunda turolmadi, bir oqshom eshitdimki, chiqib ketgan emish. Endilikda ko'cha-ko'ylerda hamdu sano aytib yuradir, deb qulog'imga chalinadir...

– Shu kunlar yana Ograda paydo bo'lgan emish, – deya so'z qo'shdi poygakda o'tirgan Boburning xos mulozimi Yusufiy. *Qadrli o'quvchi, gap kim haqida ketayotganini sezgandirsiz, albatta. Alloma diqqatini tortgan boyagi darvesh Binoqulning otasi emasmiikan, degan fikr keldimi xayolingizga?*

"Yaratgan egam yarlaqan ekan seni, boyoqish Binoqul!" deb nadomat bilan ko'ngidan o'tkazdi Hofiz Ko'ykiy.

– Xayr, mayli, ollohning irodasi... – dedi Bobur suhbatga yakun yasagandek. – Bizga ehtiromi shu qadar ustuvor ekan, endi bizdan-ku qaytmas, xalloqi olamdan qaytsin. Mavlono Abulbaqo!

– Labbay, olampanoh?

– Ertan juma namoziga fatvo beringkim, saltanatdagi barcha masjidlarda bandai mo'min Binoqulning haqiga xatm bag'ishlansin. Biz ham, inshooloh, g'oyibona sadoqati uchun arvohi pokiga besh vaqt namoz uzra tilovat qilurmiz.

– Bosh ustiga, olampanoh!

Ay'onlar kitobni navbatma-navbat hayrat va zavq bilan tomosha qilib bo'lgach, Abulvohid Forig'iy uni Boburga uzatdi.

– “Nasoyim ul-muhabbat”! – Bobur hamon kitobga termilib to'ymas edi, – Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadqa bo'lzin... ***Bobur kayfiyatida sodir bo'lgan ajib orziqishlar sabablarini izohlang.***

\*\*\*

Hofiz Ko'ykiyni Bog'i Nurafshonning kunchiqar tarafidagi xos hujralardan biriga joylashtirdilar. Jazirama issiq va qabul tashvishlari uni qattiq charchatgan edi, tushgacha dong qotib uxladi. Peshin namozidan so'ng, umrida ilk daf'a ko'rib turgani – notanish anvoyi gullar yal-yal yongan salqin xiybonda jannatoshiyon qushlarning hur navolarini zavq-shavqqa to'lib tinglagancha ohista kezib yurdi.

Oqshom tushib, osmonda ilk yulduzlar charaqlagan palla Yusufiy hujranga kelib, olampanoh uni yo'qlayotganini xabar qildi.

Hofiz Ko'ykiy yuz shamli muhtasham tilla qandillar yog'dusiga cho'mgan bo'm-bo'sh salomxonaga kirib borganda Bobur to'rdagi kumush lavh ortida barqut bolishlarga yonboshlagancha mutolaaga berilgan edi. U Hofiz Ko'ykiyni xush kayfiyat bilan qarshi oldi. Olim lavh ustidagi kitobga asta razm solarkan, o'zi topshirgan tortiqni tanidi. Bu favqulodda hadya tufayli Boburning dilidan qo'zg'algan o'sha botiniy hayajon, o'sha o'tli taassurot hanuz so'nmagan edi. U do'stona jilmayib, sassiz bir harakat bilan mehmonga joy ko'rsatdi, so'ng yana “Nasoyim ul-muhabbat”ning ochiq turgan sahifasiga tikildi. Zum o'tmay, jimjit salomxonada shohning o'ychan, tiniq ovozi yangradi.

– “Birov alardin savol qildikim, darvishlik sizga mavrusrusdir<sup>1</sup> yoki muktasab?<sup>2</sup> Alar dedilar: tangri hukmi bila bu saodatqa musharraf bo'lduk, – deya ko'ngliga behad marg'ub bo'lgan parchani hafti qiroatning inja tovlanishlari bilan ta'kidladi Bobur. – Derlarki, alarga hargiz qul va dodak<sup>3</sup> bo'lmas ermish.

---

<sup>1</sup> Mavrus – meros.

<sup>2</sup> Muktasab – kasb.

<sup>3</sup> Dodak – cho'ri.

Alardin bu ma'nida so'rabturlar. Alar debturlarki, qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!"

U kitobdan nigohini uzib, qad rostlab o'tirdi, kungirador qandilga, uning porloq yog'dusida zar chochib yongan naqshlarga ilk bor ko'rayotgandek hiyla termilib qoldi, nihoyat, tolg'in bir tovush bilan xayolchan takrorladi:

– "Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!"

Va o'z savoliga javob axtargan kabi, nigohi yana charog'on sahifalar uzra keza ketdi.

Hofiz Ko'ykiy hanuz muntazir qo'l qovushtirib o'tirarkan, ham-suhbatining ulug'vor chehrasida lahza sayin tajassum topayotgan turfa hislarning oniy jilvalarini, fikrning tutqich bermas shiddatini zo'r diqqat bilan kuzatar, ulardan o'zicha ma'no topmoqqa tirishar edi.

– Alisherbek benazir zot erdi, – dedi Bobur kitobdan bosh ko'tarib. Qiyiq ko'zlarida horg'in quvonch uchqunlari chaqnar edi.

– Har daf'a o'qib hayrat qilamenki, turkiy tilda hech kim ash'orni ul hazratdek ko'p va xo'b aytqon emas.

– Yaxshi kitob – kishi ruhining jon ozig'i, – dedi Hofiz Ko'ykiy uni quvvatlab.

– Har qanday kishining ham emas, – deya birdan e'tiroz bildirdi Bobur.

– Albatta, olampanoh. Lekin yaxshi kitobni o'qigan kishiga ham yaxshilik sharofati yuqmog'i shubhasizdir.

– O'qiganga yuqmaydir, mavlono! – Bobur Mirzoning qaysar qoshlari mardona chimirildi. – Uqqanga yuqadir.

– Haq so'z, olampanoh.

Oraga og'ir dam jimlik kirdi.

– Olampanoh... – Hofiz Ko'ykiy shohga qimtinibgina murojaat qildi. – Mening qutlug' huzuringizga kelmoqdan maqsadim, avvalo, siz zoti shariflarini ziyorat etmoq bo'lsa, so'ng shuhrati yetti iqlimga mashhur allomalarining bilan tanishmoq, kutubxonangiz-dagi noyob durdonalardan bahramand bo'lmoqlik umidi hamdir. Kamina qulingiz ne vaqtlardan buyon ilmi tarixga doir bir risola bitmak orzusida yuradirman. Kutubxonangizda tilloga topilmas mo'tabar kitoblar bisyor, deb eshitaman. Agar zoti muboraklari ijozat etsalar...

Boburning chehrasiga taajjub ifodasi qalqdi:

- Mavlono Abulvohid Forig'iy sizni ko'p ulug' alloma deb ta'riflab edi, taassuf...

Hofiz Ko'ykiy kutilmagan bu gapdan gangidi, kalovlanib boshini ko'tardi:

- Olampanoh...

- Niyatingiz xolis ekaniga shubha yo'q, mavlono, biroq... – Bobur suhbatdoshini ayagandek, bir zum taraddudlanib qoldi, – biroq ilm ko'yida o'zlarini bozordan olib bozorga solguvchi allomalarining al-lomaliklari menga har vaqt kulgili va qalbaki tuyulur! **Boburning bu so'zlarni aytishdan maqsadini angladizingizmi?**

Olim duv qizardi, o'rnidan og'ir qo'zg'alib qo'ydi: yer yorilmadi kirgudek holi bor edi, ammo yorilmadi!

U so'nggi jur'atini to'plab, hayajon ichra izohga og'iz chog'ladi:

- Olampanoh mening tilagimni yanglish angladilar chog'i...

- Sizni ranjitmoq maqsadim yo'q edi, – dedi Bobur kulimsirab.

- Faqat so'z o'rni uchun aytdim, xolos. Zero, umrim mobaynida qalbaki tangalardan ko'ra qalbaki allomalarini ko'proq uchratdim. Alarning haq va ma'rifat nomidan so'ylagan yolg'onlari meni muttasil g'azabga soldi, imkonim yetgan chog'larda unday betavfiqlarning barchasini og'ir jazolarga mustahiq etdim. Imonim komilki, bu qilmishim qodiri lamyazalga ham xush kelgay! – Bobur, tovushining allanechuk keskin pardalarda yangrab ketganini sezdi shekilli, xiyol tin olib, vazmin ohangda so'zlay boshladi. – Rahmatli padari buzrukvorim aytur edilar: jannatmakon imom Muhammad G'azzoliy hazratlari Bag'dod madrasasida tahsilni tugallab, karvon bilan o'z yurtlariga qaytar ekanlar. Yo'lda karvonni qaroqchi bosibdir. Qaroqchilar savdogarlarning mol-mulklarini tortib olibdilar. Hazrati imom qaroqchi boshiga ro'baro' bo'lib arz etibdilar: "Men bir tolibi ilmman, na oltin, na kumushim bor. Bor-shudim ikki sandiq kitob erdi, odamlaring tortib oldilar. Ey marhamatlig' sardor, amr etkim, kitoblarimni qaytarib bersinlar. Bari bir alarning senga ham, yigitlaringga hamnafi yo'qdir". Qaroqchiboshi qahrga minib so'roqqa tutubdir: "Xo'sh, alardin senga ne naf bor?" Imom hazratlari benihoya taajjubga qolib: "Nechun naf etmasin? – deb javob beribdilar. – Axir, bu mening o'n ikki yil musofirlikda riyozat chekib

orttirgan ilmlarim-ku!" "Sen o'zingni olim sanaysanmi?" – debdi qaroqchiboshi. "Allohning inoyati bilan..." – debdilar imom hazratlari. "Yo'q, sen olim emassan! – debdi qaroqchiboshi. – Chindan ham fozil bir kimsa bo'lsang erdi, kitoblarining butkul yo'qolsa-da, parvoyingga keltirmagan bo'lur eding. Chin olim kishining ilmi sandiqda emas, yuragida bo'lur, uqdingmi?" Qaroqchiboshi shunday deya imom hazratlariga marhamat ko'rsatib, sandiqlarini qaytarib berishni amr etibdir. Ul zoti sharifga vahshiy bir qaroqchining bu yanglig' malomat-minnatlari g'oyat og'ir botibdir. Yo'lning qoq o'rtasidan ortga – Bag'dodga qarab qaytibdilar. Qaytadan madrasaga kirib, o'shal ikki sandiq kitobni xatmi kutub qilib chiqibdilar va barcha egallagan ilmlarini yurak va ko'ngilning qatlariiga jo qilib olgunlari ga qadar madrasa ostonasini tark etmabdilar. Shundan so'ng imom hazratlari hargiz kitobga qaramabdilar: ilm ul zoti bobarakotning qalb chamanida yashnay boshlabdir.

Hofiz Ko'ykiy butun vujudi qulqoq bo'lib tinglardi.

– Oqibatda imom hazratlari ilmda shundog' ulug' martabaga yetib-dilarkim, kishilar: "Agar bu yorug' olamdan Qur'oni sharif yo'qolgudek bo'lsa, imom Muhammad G'azzoliy qayta tiklab beradir", deydigan bo'libdilar, – deya so'zini tugatdi Bobur va olimga sinovchan tikildi.

Olim ich-ichidan iztirob chekar, uning so'zлari haq ekanini chin dildan e'tirof etsa-da, o'zga bir fikr xayolidan ketmas edi: "Qilich siqqan qinga qalam sig'mas ekan-da..." **Olimning bu fikrlaridan qanday ma'noni uqdingiz?** Yuragining tubidan e'tiroz g'alayoni toshib kelsa hamki, boshini quyi solib, tasdiq alomati bilan cheklanmoqla tirishdi:

– Ko'p ibratomuz rivoyat ekan, olampanoh.

Bobur shahodat barmog'i bilan kumush lavhni chertgancha hamon savolomuz titkilib turardi:

– Xo'sh, mavlono?

– Olampanoh... – Hofiz Ko'ykiyning manglayidan chiziqlar yana-da chuqur tortdi, mulohaza yuki yelkalaridan xarsangtosh bo'lib bosdi, andisha tig'i tiliga ko'ndalang keldi – qiyaldidi, ammo bari bir... chidayolmadidi: – Shakkok qulingizni ma'zur tuting, olampanoh, biroq taassufki, sizni ham ko'p donishparvar zot, ilm-ma'rifikatning chin homisi, deb ta'riflab edilar!

Olimning ko'ksini to'ldirgan bezovta og'riq birdan tindi, so'ng o'rta cho'mgan qaltsi sukunat ichra, butun vujudini larzaga solib gursillayotgan yuragining dupuri yaqqol eshitila boshladi. **Nima sababdan Hofiz Ko'ykiy hukmdorga bu so'zlarni aytishdan istihola qilmadi?**

Va banogoh... darg'azab farmon o'rniqa momaqaldiroqdek qah-qaha yangradi. Hofiz Ko'ykiy qulqlariga ishonmay boshini bazo'r ko'tardi-yu, ko'zlariga ishonmay qoldi: shohning yuzida tabassum balqirdi!

– Borakallo, mavlono! – dedi Bobur ko'zlariga qalqqan yosh tom-chilarini artib. – Dov yurakli kimsa ekansiz! Asli bu istehzolarni sizni bir sinab ko'rmoq yo'liga aytib edik. E'tiqodingiz sha'ni uchun, aning pokligi uchun bizning na savlatimizni, na davlatimizni isti-hola etdingiz! Bilsangiz, shu choqqacha kamdan-kam odam bizning buy yo'sin da'volarimizga e'tiroz aytgan. Aksincha, bunday damlar aksariyat kishi yo'q gunohlariga ham iqror bo'lib, tavba-tazarruga zo'r beradur. Tasanno, jur'atingizga, mavlono! Zero, odamizod iy-monining barqarorligi avvalo uning ne chog' mard va haqgo'y ekani bilan o'lchanur. Bizni qora tortib shundog' joylardan zahmat chekib kelibsiz, nainki, muruvvatimizni darig' tutsak!

Hofiz Ko'ykiy bori-borlig'i hayajondan titrab, qulluq qildi.

– Bizning huzurimizga ne-ne muhtaram zotlar ganju davlat tilab, rutbayu unvon tilab qadam ranjida qildilar, – deya so'zida davom etdi Bobur. – Lekin shu vaqtgacha kitob izlab, ma'rifat istab kelgan bir kimsani ko'rganimiz yo'q edi. Shukur tangrigakim, alhol inoyat aylab, zoriqib ko'z tutgan kishimizning diydoriga yetishtirdi. Har qandog' noyob kitobimiz bo'lsa, sizdan aylansin... Darvoqe, riso-langiz nima xususida?

– Olampanoh, ne vaqtлarki Chingizzon va uning oli<sup>1</sup> haqidagi bir risola bitmak orzusi ko'nglimga orom bermay keladir. Ma'lumingizkim, bu ulug' saltanat edi, aning takomil va taraqqiyoti ham, tanazzulu inqirozi ham meni birdek hayajonga soladir. Alal-xusus, Chingizzon zuryodlarining taqdiri, joriy etgan va qonunlari, davlatni idora etmak usullari... Muqoyasa ibratiga sizning mam-

---

<sup>1</sup> Oli – avlodni.

lakatdorlik siyosatingizni ham bir sidra nazardan kechirmoq umidamen.

Bobur uning so'zlarini diqqat berib eshitdi.

– G'oyat mushkul yumushga qo'l uribsiz, mavlono, – dedi u. – Xayr, Alloh madad bersin, yo'lingiz oq, yo'ldoshingiz haq bo'lsin. Illo bu bebaqo dunyoda faqat haq so'z boqiy qolur. Qasrlar yemirilur, saltanatlar to'zar, as'asayu dabdabalar yitar... Yorug' jahonda qirq sakkiz yil umrguzaronlik qilib anglagan yagona haqiqatim shu, mavlono. Shunday mashaqqatli bir ishni uhdangizga olgan ekansiz, imkonimiz yetgan ko'makni bermoq biz uchun farzul vojibdur. Marhamat, xonadonimizning ham, kutubxonamizning ham to'ri sizniki. Fahmi ojizimcha, mutolaani Bahovaddin Muhammad Juvayniyning "Tarixi jahongushoy"<sup>1</sup> kitobidan boshlasangiz chakki bo'lmas. **Tarix o'qituvchingga ko'magida yoki internet manbalardan shunday asar bor yoki yo'qligini aniqlab, unda kimlar haqida so'z yuritilganini daftaringizga yozib qo'yishni xotirangizda saqlang.**

Hofiz Ko'ykiyning ko'zlarini chaqnab ketdi:

– Men ul muborak zotning bu tabarruk asarini ne vaqtlardan buyon izlayman, olampanoh!

– Xayr, neki izlaganingiz bo'lsa, topmoqqa biz balogardon, – deya kulimsiradi Bobur. – Valekin, bizning saltanat xususida biror nima demoqdan ojizman. Mavlono, bu siz havas qilg'udek barqaror saltanat bo'lmoshiga ko'zim yetmaydir. Bu zarurat tufaylidan parokanda elatlarining boshi qovushtirilgan bir viloyat, xolos. Umid qilamenki, so'zlarimni kamtarlikka yo'ymagaysiz. Zero, zukko muarrixsiz, bar-chaga ersa-da, sizga maxfiy emaskim, qon daryosi uzra qurilgan saltanatning zamini hamisha omonat bo'lur!.. **Boburshohning bu so'zlarini tagzaminidagi ma'no qanchalik hayotiyligini asoslang.**

Ulkan saroy suv quygandek jimjit edi.

– Sizni menga xudo yetkurdi, – dedi Bobur. – Men ham boshimdan kechmish voqealrni qog'ozga tushirib, tartib bermak orzusida edim. Ba'zi nihoyaga yetgan sahifalar bor, nasib etsa, o'qib, kengashurmiz.

– Bosh ustiga, olampanoh. Bu azimatingizni tangri taolo muborak qilsin!

---

<sup>1</sup> Jahongirlar tarixi.

- Inshooloh!
- Shu oljanob maqsadingiz ko'ngildagidek o'rirlansa, ko'p ulug'ish bo'lur edi. Qandoq nom bilan atamoqqa qaror berdingiz, olampanoh?
  - Nomi? - Bobur ikki-uch daqqa o'ylanib qoldi, so'ng uzil-kesil bir tarzda: - Nomi "Voqeoti Bobur" bo'lur, - dedi.
  - Ma'qul, olampanoh.
  - Siz yo'ldan horib kelgansiz, - dedi Bobur, toliqmadingizmi?
  - Yo'q, yo'q, olampanoh.
  - Ha-a... Toshkanddan qachon chiqib edingiz? El-ulus, raiyatning kayfiyati nechuk? - Bobur kutilmaganda suhbat mavzuuni o'zgartirdi. - Farkatda istiqomat qilurmi edingiz?
  - Ha, olampanoh.
  - Samarqanddan quvilib, Andijondan ayrilgan sargardon kunlarim ul manzilda bir muddat turib edim, - deya Bobur xayolchan so'zlarkan, tuyqusdan tovushi hayratmuz ohang kasb etdi.
  - Yodimda, bir oqshom bir yuzu o'n oltiga kirgan kampirning kulbasida yomg'irdan jon saqlab edim. Ko'p umr topqon tabarruk kampir edi. Bir og'asi sohibqiron Temurbek zamonasida cherikka qo'shilgan ekan, muttasil shuni aytib so'ylar edi. Og'asini "Hindistonda o'lgan", deb edi. Manglayimga bitmis g'aroyib savdoni ko'ringkim, bu kun o'shal ko'hna kampirning tilidan tushmagan yetti yot yurtda o'turib uni eslayotirman... Ha-a... Siz bunga qay yo'l bilan keldingiz? Xo'rmuzdanmi?
  - Yo'q, olampanoh. Oloy va Qorategindan oshib, Maschoh kentiga o'tdik, andin Obigarm yoqalab, Hisor vodiysiga tushdik.
- Bobur sergak tortdi:
  - Maschoh?! G'alat! Yo'qsa, Obiburdondon ham o'tgan chiqarsiz?
  - Ha, olampanoh.
  - Yo qudratingdan! - dey xitob qildi Bobur. - Axir, biz bir paytalar Kobil sari otlanganda xuddi shundog' yo'l tutmish edik! Siz esa, bukun go'yo bilgandek, ortimizdan izma-iz yurib kelibsiz. Vo ajab! Obiburdondon oshgan chog'imiz bir chashma labida to'xtab edik. Shu chashma yoqasidagi bir toshga bayt ham yozdirib edim. Bano-goh ko'zingiz tushgani yo'qmi?

Olim afsuslanib bosh chayqadi:  
– Hech, olampanoh... Ne bayt edi o'zi?  
– Hanuz xotirimdan o'chgan emas, – dedi Bobur. – Jonfizo baytlar  
edi:

Shunidam ki, Jamshidi farrux sirisht,  
Ba sarchashmae bar sange navisht:  
“Bar in chashma chun mo base zadand,  
Biraftand chun chashm barham zadand...”<sup>1</sup>

Bobur Mirzo qattiq hayratga tushgan edi. Ammo chinakam hayratangiz ishlar keyinchalik – oradan asrlar o'tgach sodir bo'lib, oradan asrlar o'tgach oshkor bo'lajagini u mutlaqo bilmas edi.

---

<sup>1</sup> Eshitdimki, qutlug' tabiatli Jamshid bir buloq boshida toshga shunday deb yozdiribdi: “Bu chashma qoshiga ko'plar biz kabi kelib oltirdilar, biz kabi ketdilar va yo'q bo'ldilar”.

## **"MOZIYGA BIR NAZAR"**

sahifasidagi xayoliy sayohatga xush kelibsiz!

### **Diqqat!**

*Aziz, o'quvchi, shu yerda biroz to'xtang. Mazkur sahifada sizga Bobur yurgan yo'llardan xayolan yurib ko'rish, qahramonning dardchil kechinmalarini his qilish imkonini yaratiladi. E'tiboringizga havola qilinayotgan "Bobur bitiktoshlari" xususidagi izlanishlar tafsilotlari bobomiz hayotining takrorlanmas onlarini tasavvuringizda jonlantirsa ajab emas.*

"2009-yilning sentabrida Xalqaro Bobur ekspeditsiyasi Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston bo'ylab Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar mirzo haqida ilmiy, amaliy, ashyoviy dalillar izlab yo'lga chiqdilar. Ular dastlabki topilmani Tojikistonning Ayniy va Mascho tumanlaridagi qishloqlarni kezganda duch kelishdi. Shamtuch qishlog'inining Durust qabristoni shundoqqina Zarafshon sohilida joylashgan. U yerdagi yirik qora xarsangtoshlarda ko'plab toshbitiklar saqlangan. Safardoshlar qabriston oralab har bir arab yozuvidagi toshbitiklar, forsiy matnlarni hijjalab o'qishdi.

Nihoyat Zahiriddin Muhammad Bobur qo'li bilan bitilgan va ushbu xat unga tegishli ekanini isbotlovchi yozuvga duch kelishdi:

"Kofiro, madumshikoro, yak zamon ohistatar,  
K-ohui bechoraro tobi tiri turkon nest.

**h. 907-y. Hararu Bobur, Katabai miram Boburxon".**

**Tarjimasi:**

“Ey kofir, odam ovchisi, bir lahza shoshma,  
Sho’rlik ohu turk o’qiga bardosh berolmaydi.

**1502-y. Men, Bobur yozdim. Amirim Boburxon bitiklari”.**

Ekspeditsiya a’zolari Obburdon tevarak-atrofidagi qishloqlardan mashhur Bobur toshbitigi – matni “Boburnoma”da keltirilgan qayroqtoshni so’rab-surishtirishdi. So’ng toshning 1953-yil poytaxtga olib ketilgani haqida ishonchli ma’lumotga ega bo’ldilar.

Ekspeditsiya a’zolari Dushanbe shahridagi Tojikiston xalqlari qadimiyat san’ati muzeyida o’sha toshni ko’rish, rasmga olish va o’rganishga muvaffaq bo’ldilar.

“Boburmoma”dan iqtibos: “Maschoning pastki kenti Obburondir. Bu Obburondan quyiroqda bir chashma bo’lib, bu chashma tepasida bir mozor turipti. Ushbu chashmadan yuqorisi Maschoga qarashli. Quyisi Palg’arga taalluqlidir. Ushbu chashma boshida uning yoqasidagi toshga bu uch baytni o’yib yozdim:

Shunidamki, Jamshedi farruxsirisht,  
Ba sarchashmaye bar sange navisht:

“Bar in chashm chun mo base dam zadand,  
Biraftand to chashm barham zadand.

**Bobur toshbitigi**

**Qayroqtosh**



Girfitem olam bo mardiyu zo'r,  
Va lekin naburdem bo xud ba go'r".

### **Mazmuni:**

Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor  
Bir buloq toshiga yozdirdi yodgor:  
"Bu buloq boshiga ko'plar yetdilar,  
Ko'z yumib ochguncha yitib ketdilar.

Mardligu zo'rlik-la olamni oldik,  
Lekin qabristonga quruq yo'l soldik".

Bu tog'li maskanda toshga o'yib bayt va narsalar bitish odatdir"<sup>1</sup>.

### **Mutolaada davom eting**

...Ming to'qqiz yuz ellik uchinchi yili arxeologik ekspeditsiya Obiburdon qishlog'idan Bobur yozdirgan o'sha xarsangtoshni topadi. "Boburnoma"da qayd etilgan tafsilot dalili shu yo'sin qo'lga kiritiladi. Lekin eng hayratlanarli nuqta shundaki, qissamiz qahramonidan uch asr muqaddam yashab o'tgan shoirlar shohi – Shayx Muslihiddin Sa'diyning jonbasta kalomidan vujudga kelgan va xushnavo xarsangga ham naqsh ettirib abadiyat bag'ishlashga intilgan bu baytlar, oradan uch asr o'tgach, yana bir buyuk otashnafas shoir – "rus she'riyatining quyoshi" Aleksandr Pushkinning ham yuragiga titrama soladi: "Boqchasaroy favvorasi"ga aynan shu baytlar epigraf qilib olinadi!

Bir-biriga g'oyibona talpingan buyuk qalblar ana shunday g'oyibona diydor ko'rishadilar. Bir-biridan asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha ayri yashagan uch daho shoirning so'nmas nafasi bu baytlarning mo'jizakor quadrati tufayli shu tariqa ulug'vor sir, tengsiz sehr kasb etadi. Vaqtning qattol, beshafqat yellari turfa

---

<sup>1</sup> Rahmonov V., Nishonov Sh. "Bobur yurgan yo'llardan...". // "Til va adabiyot ta'limi". -T.: 2017, № 2. - B.49-50. (Ushbu ma'lumotlar jurnalning ichki muqovasida berilgan).

zamonlar qa'rigasovurgan ularning jismu joni She'riyat diyorining boqiy bag'rida yagona vatan topadi...

Bu hayot chashmasi qoshiga biz kabi juda ko'p kishilar keldilar, tiriklik nash'asiga g'arq bo'lib, o'ltirdilar, so'ng bir-bir abadiy yo'qlik sari ketdilar.

Bukun chashma labida biz zavqu safoga to'lib o'ltiribmiz.

Bizdan avval o'tganlarning barchasi ketdi.

Bizdan keyin kelguvchilarning ham barchasi ketajak.

Bizning ham azaliy qismatimiz shu.

Hammamiz keturmiz – istisnosiz, istig'nosiz. Bu chashma qoshi-da na jismimiz, na ruhimiz sobit qolur. Faqat, qachondir, qaydadir o'rtangan tili bilan bir haq so'z ayta olgan bo'lsak, yolg'iz shu so'zgina zamonlar suroniga bo'y bermay, asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha haqqa tashna, o'rtangan bir yurakka bormog'i ehtimol...

Qayda u – o'sha O'lmas so'z?..

\*\*\*

Hofiz Ko'ykiy Boburning rag'batি tufayli zo'r havas va ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Olimning boshdan kechirmish uqubatlari shoh kutubxonasing ostonasidan ichkari hatlashi bilanoq butkul unut bo'ldi. U ko'hna qo'lyozmalarning sarg'aygan sahifalarini ko'z nuri va yurak qoni bilan munavvar etib, tarixning unutilgan, chalkash so'qmoqlari orasidan haqiqat vodiysi sari eltuvchi chag'ir toshli yagona yo'lni izlashga tushdi...

Bobur ilk uchrashuvdayoq musofir alloma siy whole ota yurtdan duoi salom keltirgan mehmonni emas, balki ulkan tafakkur sohibini ko'rdi, ahli donish bilan suhbatni har qanday vaqtichog'liqdan afzal bilgani sababli, uni har oqshom huzuriga chorlab, do'stona izzat-ik-rom va lutf-karamlar ko'rsata boshladи. Hofiz Ko'ykiy suhbat asnosи buyuk hukmdor qarshisida o'tirganini deyarli unutib qo'yardi: Bobur Mirzoning teran salohiyati, favqulodda tiniq hofizasi, fikridagi mantiq qudrati unga umrini yolg'iz ilmu fanga baxsh etgan, mubo-hazada benazir nuroniyl allomani eslatlar edi...

\*\*\*

Tun. Olam farog'at og'ushiga cho'mgan. Saroy etagidagi qator xos hujralardan birining darichasida miltillayotgan tanho chiroq shu'lasigina poyonsiz zulmat saltanatiga tahdid soladi.

Yelkasiga yengsiz jubba tashlagan Hofiz Ko'ykiy mutolaadan tolgan ko'zlarini bir zum qog'ozdan uzib, asta devorga suyandi. Manglayini siypagancha darichadan tashqariga tikildi. Osmonning kaftdek burchi oqarib ko'rinaridi.

Kecha oqshom suhbat boqe' bo'lgach, Bobur unga bir juz' qog'oz uzatib, sekin kulimsiradi.

- "Voqeot"mi, olampanoh?

- "Voqeot".

"Voqeot"ning qudratli sehri Hofiz Ko'ykiyning aqlu hushini tamoman maftun etgan edi. Boburning ulug'vor, shavkatli siymosi olimning ko'z o'ngidan satrma-satr yukasalib borardi.

Uning nigohi yana qog'oz betida kezishga tushdi.

"Farg'onaning janubi tarafidagi qasabalardan biri Andijon-durkim, vasatta voqe' bo'lubtur, – deb yozardi Bobur sog'inchdan o'rтаниб. – Andijon eli turktur. Shahr va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttir. Aning uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash'u namo topibdur, bu til biladur..."

Osuda, orombaxsh tun. Besar oy ko'kdan ma'yus termiladi. Bog'da mastona hidlar gurkiraydi. Yurak allaqanday ismsiz tuyg'ulardan ohista orziqadi. Olim mijjalarini yumgan ko'yi ana shu ismsiz tuyg'uga ism topmoqqa tirishadi: nima bu – sog'inchmi, anduhmi, hazratmi? Balki ushbu go'zal lahzalarning endi takror bo'lmasligini, daqiqalar hosilasi – umrning bebaqoligini yana bir karra anglagani tufayli ko'ngil pinhoniy iztirobda sirqiyotgandir?

Olim xo'rsinib qo'ydi, qalam oq qog'oz uzra shodon yugura boshladi:

"Ko'p vaqt hazratning fayziyob suhbatlaridan bahramand bo'lib, ushmundoq g'arib holni fahm etdimki, hazrat sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy va jannatmakon Mir Alisherga birdek ulug' e'timod bog'lag'on edilar. Hazrati Mir hayotligida diydor nasib etmaganini muttasil taasuf bila so'ylar edilar..."

U qalamni lavhning bir chetiga qo'yib, o'yga toldi. Suronli zamonalarning shiddatvor to'lqinlarida sarosar suringan, o'z diligaga behad yaqin bu ikki buyuk zot – Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o'ylab ketdi.

... Hayot ularning diydor ko'rishuvini xush ko'rmagan edi. Ular to tirik ekanlar, bir-birlari sari mislsiz ixlos va ishtiyoy bilan talpin-dilar. Ikkisining ham qalbida bir-biriga aytilishi shart va muqarrar bo'lgan juda ko'p gaplar pinhon qoldi. **Zamon va makon nuqtayi nazardan olganda bu ikki ulug' zot bir-birlari bilan uchrashtishining iloji bormidi?** Va faqat o'lim, shafqatsiz o'limgina ularni daf'atan yaqinlashtiradi – ular yagona bir zamin tuprog'ida, bir-birlaridan bor-yo'g'i yuz ellik chaqirim masofa narida, bir-birlaridan butkul bexabar mangu maskan va farog'at topadilar, ularning boqiy va mardona ruhi yulduzlarga to'lgan yagona osmon ostida beorom keza boshlaydi.

Yuz ellik chaqirim!.. Yovqur, o'ktam chavandoz bu masofani uchqur tulporida ikki kechayu kunduzda bosib o'tmog'i tayin. Ammo oradan asrlar o'tsa hamki, ular shu manzilga abadiyan mute' bo'lib qolaveradilar, bir-birlarining istiqbollariga hech vaqt pesh-voz chiqa olmaydilar va qalblaridagi bir-birlariga aytilishi shart va muqarrar bo'lgan juda ko'p gaplarni hech qachon ayta olmaydilar...

Biroq Hofiz Ko'ykiy – Mavarounnahrning zukko allomasi, qismatning bu turfa savdolaridan hali mutlaq bexabar edi. Nogahoniy, no-tanish bir g'alayon olimning ko'ksini tuyqusdan hayajonga to'ldirdi. Shu lahma Boburni ko'rgisi, dilidagi g'aroyib tuyg'ular haqida unga so'zlagisi keldi, qalbini chulg'agan va o'zi ham anglab yetmagan bu g'alati hislarni faqat shu zakiy zotgina tushuna olishiga chin yurak-dan ishondi.

Ammo bu ayni paytda ro'yobga chiqmog'i mushkul bir istak edi. Bu vaqtida Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ulkan sultanatning ulkan tashvishlari bilan mamlakatning janubiy viloyatlarida ikki kundirki, behalovat kezib yurardi.

Olim o'rnidan yengil qo'zg'alib tashqari chiqdi, ayvonning naqshinkor ustuniga suyangancha nimirat oqish tusga kira bosh-lagan mashriq tomon tikilgan ko'yi sas-sadosiz turib qoldi.

Tong yaqin edi. Hofiz Ko'ykiy Hindiston tuprog'ida bedor qarshi olayotgan o'n ikkinchi tong yorishib kelardi.

\*\*\*

Bog'i Nurafshon – yer yuzining jannati – sirli farog'at va shukuhga to'lib shovillaydi.

Hofiz Ko'ykiy bu dilkash maskanga birinchi kundanoq qizg'in mehr qo'ydi. U kun bo'yi goh kutubxonada, goh hujrasida muto-laadan bosh ko'tarmay o'tiradi, oqshom tushib, qosh qoraya bosh-lagach, adoqsiz bog' sahnida xayolkash kezib, horg'inlikni butunlay unutadi.

Shunday oqshomlarning birida u Bobur Mirzoga duch kelib qoldi.

Bog' etagida, azim shamshod va dafna daraxtlari orasida qad ko'targan muazzam toqi ravoqda Bobur yolg'iz o'tirar edi. Umri-ning so'nggi yillarda u saroydagi xushchaqchaq suron bilan to'la bazmu tomoshalardan sovigan, jon olguvchi hind raqqosalarining sitamkor ishvalari ham, bulbuligo'yo shoirlarning shon-shuhrat ko'yida o'rtanib aytguvchi dirlrabo baytlari ham endi ko'ngliga zavq bag'ishlamas edi. U ko'p vaqtini ko'zdan yiroq, xilvat shu toqi ravoq-da tanho o'tkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chog'lardagina Yusu-fiyini chaqirib, chog'ir buyurar edi. Bunday paytlarda Bog'i Nuraf-shonga teran sukunat cho'kar, olampanohning dardmand, miskin kayfiyatini sezgan saroy ahli, mulozimlar un chiqarmaslikka tiri-shar edilar.

Hofiz Ko'ykiy Boburni qattiq xayol og'ushida ko'rib, sekin iziga qaytmoqchi bo'ldi. U qizg'ish qum sepilgan yo'lakdan mo'jaz xiyo-bonga burilganida, ortidan Boburning:

- Mavlono, marhamat qilgaylar! – degan sarhush ovozi eshitildi.

Toqi ravoqda, qizil sandal og'ochidan ishlangan pastak xontaxta ustidagi oltin barkashda munaqqash ko'zachalar, nafis chinni pi-yolalar tizilib turar edi. Hofiz Ko'ykiy ohista ta'zim qilib, poygakka tiz cho'kdi.

– Istirohatmu? – Bobur ko'zlarini qisgancha kulimsirab unga qa-radi.

– Ha, olampanoh, bu kun oqshom g'oyat latif...

– Ha-ha... – Bobur bosh irg'adi. – Latif, latif...

Hiyla vaqt so'zsiz-sadosiz qoldilar. Quyosh bog' ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat, Bo-bur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzib:

– O'shning oqshomlari ham ko'p so'lim, tarovatli bo'lur, – dedi.

Hofiz Ko'ykiy bosh irg'ab qo'ydi.

– Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi, – deb davom etdi Bobur o'ychan ohangda. – ne-ne go'zal maskanlarni zabit etmadim! Lekin hech qayda O'shdek latofatlig' bir viloyatni ko'rmadim...

U xayolga cho'mgancha tag'in jim bo'lib qoldi. – U yerda bir ustuvor tog' bor, Baroqko'h derlar. Men O'shni olganimda – tarix to'qqiz yuz ikkida – tangri taolo inoyati bilan ushbu tog'ning tumshug'ida bir ayvonliq hujra soldim... tamom shahr va mahallot oyoq ostida edi. Hanuz o'sha hujra ko'z o'ngimdan ketmaydir. Ayniqsa, shu kunlar... Qani edi, inon-ixtiyorum o'zimda bo'lsayu besh kunlik gunohkor umrning qolganini o'sha hujrada o'tkarsam! – deya tuyqusdan shivirladi Bobur. *Kitobxon xayolidan Hind o'lkasidan butunlay ketmasdan, ona yurtini bir bora ziyorat qilishga Boburning imkoniyati yetarli edi-ku, degan o'y-fikr o'tganligini bilish biz uchun qiziqarlidir.*

Hofiz Ko'ykiy unga hayronalik bilan qaradi. Bobur go'yo suhbatdoshini unutgandek parishon o'ltirar edi.

– Ming taassufki, dard bor, darmon yo'q. – U og'ir tin oldi. – Saltanat shunday bir tilsim ekanki, maylono, uni qo'lda tutmoq uchun kishi avvalo qo'lidagi inon-ixtiyordan xalos bo'lmog'i lozim ekan...

Hofiz Ko'ykiy nima deyarini bilmay qoldi.

– Meni "sohibqiron", "yetti iqlimning shamsi anvori", "shahan-shohi olam", deb ko'klarga ko'taradilar, – deya hasratli tovush bilan so'zlardi Bobur. – Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog'och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman... Illo, har bir banda faqat Allohgagina qul emas.

Olim bir qizarindi. Axir, u ham Boburni necha daf'a takror va takror ayni o'sha so'zlar bilan madh etmaganmid? Lekin azal-abad shunday bo'lgach, unda ne ixtiyor? Chindan-da, mushkul muammo bu: axir hukmdorni inson insonni ataganidek, "birodar" yoxud "og'a", yoxud "ini" deb atab bo'lmasa!

Demak, bu so'zlarni u har safar botiniy istehzo va ijirg'anish bilan tinglar ekan-da...

Hofiz Ko'ykiy hindlar Boburga "qalandar shoh" deya nom ber-ganliklari bejiz emasligini daf'atan angladi.

– U yurtlar endi bizga harom... – Bobur qo'lidagi piyoladan paydar-pay boda sipqarardi. – Olmaning sarxilini qurt yermish. Yurt buzg'uvchi, badfe'l, boyqush shohlarga qoldi u viloyatlar... Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqari chiqmag'ay. Yo'qsa, birining etini biri yeb, yurtini g'animga berarmidi?

Olimning vujudiga simobdek titroq yugurdi. "Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqari chiqmag'ay..." Boburning sarmast, ammo ma'nodor bu so'zlari uning yuragida ilhom o'tini yoqdi – shu bir jumla ne vaqtidan buyon to'xtab yotgan asariga najotbaxsh ko'priq bo'lib tushuvi muqarrar edi...

U olampanohdan tezroq ijozat olib qo'zg'alish istagida o'rtana boshladи.

Yana sukunat cho'kdi. Hofiz Ko'ykiy nabu osoyishta, dilbar su-kunatni, na o'nya tolgan Boburning xayolini buzishga jur'at etardi.

Bobur botib borayotgan quyoshdan ko'zini uzmay o'tirarkan, bir payt allanarsa yodiga tushgan kabi eshitilar-eshitilmas shivirladi:

– Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq...

Hofiz Ko'ykiy birdan sergak tortib, Boburga yalt etib boqdi. – Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq, – deya bosh chayqadi Bobur va jimb qoldi.

Hofiz Ko'ykiy lol qotgan edi: karvonsaroy, Baxshiturk, chog'ir...

U fikrini yig'ib, nimadir deyishga og'iz chog'ladi-yu, botinolma-di: suhbatdoshining qiyofasidagi horg'in iztirobni ko'rib, hozir har qanday so'z ortiqcha ekanini payqadi.

– Maylono... – Bobur tuyqusdan unga o'girildi. – Siz ko'p mushkulotlarni kechirgan sohibi aqlsiz. Men sizdan yana bir so'roq so'rasam maylimi?

– Bosh ustiga... – Olimning birdan tili tutildi, so'ng jur'atsizgina: – Bosh ustiga, olampanoh, – dedi. – Mana, siz... Yo'q, Allohnning har bandasi goh hud, goh behud tushlar ko'rur. Tushda kishiga ko'p biliksiz narsalar ayon bo'lg'usidir. Shunday emasmi, maylono? Ammo mening... Ne vaqlarkim, men muttasil bir tush ko'rib mazmunini anglamoqdin ojizman. Tunlar ba'zan yakkash bir yo'sin manzara namoyon bo'lur, o'sha Farkatda ko'rganim – toshqin soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yotadi. Suv betini yupqa muz bosgan. Qo'limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib boraman. Har

qadam qo'yganimda oyog'im ostida muz qirs-qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib-qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, na yo'limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuraman. Sahar chog'i hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayronu parishon oltiraman. So'ng arkoni davlat, munajjimlardan ta'bir so'rayman. "Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshooloh, saodat sohili bo'lur", deydilar...

Mag'ribdan shamol turdi. Gullarning boshi egildi. Quyosning so'nggi jilvasi toqi ravoqning gulgun naqshlarini yallig'lantirdi.

- **Saodat sohili! - Bobur yoniq bir xo'rinish bilan xitob qildi.**
- **Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?**

Hofiz Ko'ykiy hanuz some' bo'lib o'tirarkan, lablari beixtiyor shivirladi: "Darhaqiqat, qayda u? Bu rub'i maskunda saodat istagan banda hech vaqt uning chin diydoriga erishurmikan? Dunyoni zir titratgan jahongirki unga yetmagan ekan..."

- **Ko'p allomalardan, ulamoi kiromlardan so'roqladim: "Qayda u?" Ko'ngil tingudek bir javob topmadim, - deya davom etdi Bobur. - Goh aytdilarki, u chog'ir dengizining qirg'og'ida, goh dedilarki, ma'rifat daryosining kanorasida... Goh esa uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida...**

Hofiz Ko'ykiy dilidagi gap tiliga qay yo'sin qalqib chiqqanini bilmay qoldi: - **Saodat sohili - vatanda, olampanoh...**

Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning sarhush ko'zlarida nogoh o'kinch ko'lankasi paydo bo'lganini ko'rib, Hofiz Ko'ykiy g'ayrishiuriy tarzda uning dilidagi bitmas jarohatga tig' tortganini payqadi-yu, hijolat chekib, yerga tikildi.

Ufq quyoshni o'z bag'riga dafn etdi. Bulutlarning ko'ksi qonga to'ldi. Olsidagi tog'lar unsiz faryod chekdi.

Yorug' olamda bu faryodni muazzam toqi ravoqda o'z xayollariga g'arq bo'lib o'tirgan ikki kishidan bo'lak biror kimsa eshitmadı.

\*\*\*

Ertasi oqshom Bobur uni odatdagidek yana huzuriga chorladi. Bu kun uning kayfi chog' ko'rinar, kechagi mahzun o'ylaridan asar ham sezilmas edi. U fihqning ba'zi bir masalalari yuzasidan olimdan fikr so'radi, so'ng "Voqeoti Bobur"ning yangi sahifalari xususida so'z ochdi.

Vaqt shomga yaqinlashganda, yirik lashkarboshilaridan biri – amir Sulton Muhammad Do'ldoy kirib bosh egdi:

- Olampanoh, shahnatun najaf Humoyun Mirzodin chopar keldi!
- Xo'sh? – Bobur o'tkir ko'zlarini amirga qadadi.

- Humoyun Mirzo kecha oqshom muborak huzuringiz sari otlangan ekan. Biroq tonglasi Junpurda boshi buzug' hindilar yana isyon ko'tarmishlar. Humoyun Mirzo zudlik bilan madad tilaydir.

Bobur bir zum o'ylanib qoldi:

– Ha... Xoja Kalon qayda? – Xoja Kalon hali Bangoladan qaytgani yo'q edi. Olampanoh ijozat etsalar, turkman navkarini olib, hoziroq yo'lga chiqur edim.

Bobur bosh irg'adi:

– Ma'qul. Otlaning. Faqat G'iyo'siddin qo'rchiga yetkazing: Kandahor yo'liga kishi chiqarsin. Hasan Alining bir to'p yigitlarini andin olib Lohurga yubormoq darkor.

– Lohurga?

– Junpur rojasi Lohur begining qaynisi bo'lur. Maqol borkim, o'zingga ehtiyot bo'l-u, qo'shningni o'g'ri tutma. Bas, ehtiyotkorlik hech kimsaga ziyon keltirgan emas.

– Boshim bilan, olampanoh!

– Alloh yor bo'lsin. – Bobur kaftlarini fotihaga ochdi. – Omin yo rabbil olamin!

Sulton Muhammad Do'ldoy yuziga fotiha tortdi-da, eshikka yo'naldi. U bo'sag'aga yetganda Bobur:

– Amir Sulton Muhammad! – deb chaqirdi yangroq tovush bilan.  
– Bir lahza sabr eting! Humoyun Mirzoga amrimizni yetkazingkim, toki faqat aql va tadbir bilan ish ko'rgay. Uqdingizmi? Sizdek sohib tajriba kishiga hech bir o'rgaturlik yeri yo'qtur.

Sulton Muhammad Do'ldoy taajjub bilan ostonada qotib qoldi.  
– Nechuk tag'ofillanasiz? Anglamadingizmu? Bu safar ham Balodardagidek qirg'in-qiyomat ko'paymasin, deyman!

Amirning silliq miyiqlari asabiy pirpiradi: – Amringiz vojib, olampanoh, ammo bu sodiq qulingizning fikri ojiziga ham qulog bersangiz: buzuqboshchlarning davosi – yolg'iz qilich!

Bobur keskin bosh chayqadi:

– G’alat so’ylaysiz, amir Do’ldoy! Mamlakatdorlikda har bir ishning o’z mavridi bordir. Siz bu yurtda bugun bir boshni uzsangiz, erta sizga qarshi ikkisi bosh ko’taradi. So’ng unutmangkim... – U bir lahma tin olib ta’kidladi: – “Muruvvat va mardi peshi xoliq va xaloyiq mahmud ast”<sup>1</sup>. Bu hikmatni kim lutf etgan bilurmisiz?

– Olampanoh...– Sohibqiron Amir Temur Ko’ragoni! – dedi Bobur o’ktam bir g’urur bilan va suhbatga yakun yasagandek, o’rnidan turdi. – Xo’p, ijozat, boring. So’zlarim qulog’ingizda bo’lsin!

\*\*\*

Oradan uch hafta o’tdi. Humoyun Junpurdan zafar qozonib qaytdi. Agra shavkatli bir ruhga chulg’andi.

Bir tong Hofiz Ko’ykiy dili g’ash bo’lib uyg’ondi. Bomdod namozidan so’ng ham ko’ngli yorishmadi. Tunda ko’rgan allaqanday aloq-chaloq tushini esladı, joynamoz ustida o’tirgan ko’yi ta’bir izladi.

Tushiga rahmatli Binoqul kiribdi: qo’llarini fotihaga ochib turgan emish.

“Arvohi chirqillab yuribdimikin? – deya ezildi Hofiz Ko’ykiy. – Balki haqiga duoi fotiha lozimdir... Umidvor-umsinganlar ozmidi, axir?”

Shu o’y barobari qalbida sog’inch tuydi, saldan keyin sog’inch tuyg’usi abydarlik hissi bilan almashdi.

Binoqulning bevaqt o’limiga u ham beixtiyor sababkor emasmi? Nega xudoning bir mo’min bandasini yo’ldan ozdirdi? Axir, o’shnada yigitni bu xatarli yo’ldan qaytarsa bo’lmasmidi? O’shanda bir muslimning padari bilan diydor topishuviga ko’maklashay, harna savob deb, o’ylagan edi. Endi batafsilroq mulohaza qilib qarasa, ota diydori Binoqulga bir bahona ekan, xolos. Axir u bedarak otasidan ko’ra ko’proq janggu jadallari tarixiyu muzaffar jahongirlik ta’rifini so’rab-surishtirmsmidt? Nega o’shanda manglayi qora bu g’ofil yigitni o’zining uqubatli yo’liga hamroh, chigal qismatiga hamdam etdi? Chin saodat olis tog’u toshlar ortidagi begona yurtda emas, balki ilgidagi ikki tanob yeriyu kosiblik do’konida ekanini u gumroh kimsaga uqtirmadi? Ne boiskim, Binoqul Boburshohga bu qadar ixlos qo’yan edi?.. **Hofiz Ko’ykiyning o’zini gunohkor sanashini**

---

<sup>1</sup> “Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug’laydi”. (fors)

*oqlaysizmi? Balki yigitning o'tinchini ado etmaganida u tirik qolishi mumkin bo'lardi, shundaymi?*

Nonushta chog'i ham shu andishalar xayolidan nari ketmadi. Uhujrasidan chiqib, asta kundalik mashg'ulotlariga otlanganida, mu-lozim kelib huzuri muborakka – shoh qabuliga taklif etdi.

Bobur uni shu paytgacha hali biror marta ertalabdan yo'qlamagan – oqshomlarigina suhbatga chorlar edi. Olim kutilmagan taklifdan taajjublanib, saroy sari yo'l oldi.

Devonda Bobur negadir yolg'iz, arkoni davlatdan hech bir kim-sa ko'rinas edi, Hofiz Ko'ykiy ta'zim ado qilib, ko'rsatilgan joyga o'ltirarkan, Bobur unga sinchkov nazar solib:

– Ustingizdan shikoyatlar bor, mavlono, – dedi.

Hofiz Ko'ykiy azbaroyi gangiganidan talay vaqt tili kalimaga kel-may qoldi.

“Yo rabbano! Quruq tuhmatdan o'zing asra!”

Nihoyat, yurak yutib, bo'g'iq ovoz chiqardi:

– G'ofil qulingizdan ne gunoh sodir bo'libdir, olampanoh?

– Gunoh shulkim, – dedi Bobur qat'iy ohangda, bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan aqalli bir luqma tanovvul etmas emishsiz. Shu gap chinmi, mavlono?

Hofiz Ko'ykiyning vujudi zirillab bo'shashdi.

“Hayriyat!”

– Ha, olampanoh, – dedi u bosh irg'ab.

– Sabab? – deb so'radi Bobur chimirilib.

– Sabab... Olampanoh, xotiringizga bad gumonlar kelmasin, bakovullaringizda ham, taomlarda ham hech bir ayb yo'qtur, – dedi olim ohista tin olib. – Alardin tanavvul etmasligimning boisi shundakim, men tutmish tariqat yo'li bunga imkon bermaydir. Ma'lumingizkim, maqomati naqshbandiyaga binoan, o'zganining minnatisiz, o'zganining mehnatisiz, o'z mehnati bilan topilgan narsagina kishiga halol sanalur...

Bobur birdan so'zsiz qoldi, sukunatga cho'mdi.

– Xo'p, bu uzringizni inobatga olaylik, – dedi u nihoyat, hamdrona bir yo'sinda. – Lekin sizning ko'cha-ko'ylerda suv tashib, yer supurib yurishingiz o'z sha'ningizga ham, bizning sha'nimizga ham yarashmas. Og'ziga kuchi yetmagan mardum aytmasmiki, musofir

mehmonini sig'dirmabdir, deb?

Hofiz Ko'ykiy xijolat chekib kulimsiradi:

- Ko'ngil to'g'ri bo'lgach, mardumning har ne gap-so'zi hech emasmi, olampanoh?

Bobur yana uzoq o'yga toldi.

- Xayr, mayli, biroq xizmatingizga berilgan mulozimlarni jo'natib yubormoq na hojat erdi?

- Olampanoh... - dedi olim qo'lini ko'ksiga qo'yib. - O'tinib so'raydirmen, bu harakatlarim zinhor noshukurlik deb baholanmasa... Nachora, bu notavon banda mulozim saqlamoqqa qodir emas. Men - bir Alloh quli, bas, o'zim qul bo'lganim holda, yana qay yo'sin qul saqlamoqqa haddim sig'sin?

- Nechuk xotirimdin faromush bo'lubtur? - deya bosh tebratdi Bobur. - Axir: "Qachon bu bandalig' hojalig' bila rost kelur?!" Shunday emasmi, mavlono?

- Haqqisi rost, olampanoh.

Gap-so'z tugagandek, har kim o'z fikr-o'ylariga g'arq bo'lgandek edi. Bir payt Hofiz Ko'ykiyning qulog'iga allaqanday hasratli, shikvavor shivir chalindi: - Unda bizning ahvolimiz ne kechur, mavlono?

Olim boshini ko'tarib, Boburning mubham iztirob cho'kkan ko'zlarini ko'rdi, ko'rdi-yu, botinib qarayolmadи.

- Labbay, olampanoh?

- Bizning ahvolimiz ne kechur? - Shohning sezilar-sezilmas taassuf ohangi zohir ovozi asta titrab ketdi.

Hofiz Ko'ykiy shoshib:

- Sizning yo'rig'ingiz bo'lak, olampanoh, - dedi.

- Nechuk, mavlono? Yoinkim, tangriga bandalikni bizga ravo ko'rmaysizmi?!

Yana ezgin jimlik, yana bezovta sukut...

- Gohi damlar ozodavash darvish bo'lgim keladi, - deya nogoh tilga kirdi Bobur. - Barchasiga etak silkib, "Hayyo huyt!" deb oyoq yetguncha ketsam, deyman... Mundin ikki yil muqaddam Chanda ra otlig' bir viloyatda bo'lg'on qattiq chopqindan so'ng shu xayol xotirimg'a bot-bot keladigan bo'lib qoldi. Ul qattol bir jang edikim, to'kilgan qon daryo bo'lib, murdalar esa o'shal daryoda xas-cho'p bo'lib oqqan edilar. Tangri bizga yana bir inoyat qilib, qo'limiz

baland kelgan edi. Chopqindan so'ng barcha beklar bazmga yig'ilib, zafar nash'asidan to'lib-toshib so'yladilar: kim fillar podasini taloto'p etgan, kim zarbzan palaqmonlarni g'animing o'ziga qarab o'q otmoqqa majbur qilgan... men esa bir so'z demay o'ltirardim, parishon, aftodahol. Ko'z o'ngimda sodir bo'l mish qo'r qinch bir jasorat aqlu hushdan tamom ayirgan edi: juvong'or qurshovida qolgan qal'a devori ostida hindi askarlarini navkarlarimiz zarbidan bir-bir qirilib bitdilar, axiri, o'n besh nafar yov askarlarini muqarrar bandilik xavfida qoldi. Shu chog' alardin biri ag'darilib yotgan aroba uzra chiqib, qilich yalang'ochladi, boshqa to'rt nafari bir-bir kelib qilich tig'iga boshini tutib berdilar... Nihoyat, qilich tutqon navkar qo'yndidan dudama xanjar chiqarib, o'z ko'ksiga sanchdi... Alarning jasoratiga sidqildildan tong qoldim. Va so'ngroq gunohkor dilimga sitam kirdi.

Hofiz Ko'ykiy, qarshisida ko'ngil yorib istig'for keltirayotgan muztarib bu kimsaga ich-ichida Allohdan shafqat va muruvvat tilar edi.

*- Angladimki, bu o'lkada alarning yolg'iz jismlarini bo'y-sundira olur ekanman, ruhlarini itoat ettirmakka hargiz qudratim yetmas ekan... Va yana angladimki, alar o'z yurtlaridan tiriklayin judo bo'lmoqdin ko'ra o'limni afzal ko'rdilar. Men esa, ne yuz qarolig'kim, o'zga yurtni o'z yurtimdan afzal bildim...*

Boburning miskin kayfiyati olimga ham yuqdi. To'satdan olis tog' etagidagi qishlog'ini, kitoblarga to'la hujrasini benhoya sog'inganini his etdi, hoziroq yo'lga otlangisi keldi.

– Qaytgim keladir, mavlono! – dedi Bobur to'liqib. – Ammo imkon qayda?.. Siz bilan ko'rishganidan buyon g'arib bir xayol tunu kun tinim bermaydir: ul viloyatlarni endi zo'ru zarb bilan ola bilmasmen. Xayr, olayin ham. Lekin dastimdan shuncha sitam ko'rgan ona yurtimga yana sitam o'tkazamanmi?.. Yo'q, balki o'zga chora izlab ko'rmoq darkordir. **Rozimen, kindik qonim to'kilmish yurtga shohlik minnatidan xalos bo'lib, qalandar libosida qaytay...**

Yana dilgir sukunat hukm surdi. Bobur tuyqusdan quyi egilib, sirli tovush bilan shivirladi:

– Mavlono... Yo'lga birga otlansak, ne deysiz?

Hofiz Ko'ykiy Boburdan har ne so'z kutsa kutgan, biroq uning bunday nogahoniy kengash tilashini hargiz xayoliga keltirmagan edi – es-hushidan ayrilgandek angrayib qoldi.

– Nechun jimsiz, mavlono? – dedi Bobur o'tanib. – So'ylang, bir so'z deng

– Olampanoh... – Olim nochor tin oldi. – Saltanat ne bo'lur?

Bobur parishon qo'l siltadi: – Eh, saltanat... Ne bo'lsa – Allohdan! Shu saltanat minnati umr bo'yi oyog'imga kishan bo'ldi, murodimg'a – g'ov. Lekin... – U kuchlanib, o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi.

– Lekin endi bir zo'r jahd qilurmene bu kishanni tilka-tilka eturmen! ***Hofiz Ko'ykiy Boburning bu qarorini qo'llab-quvvatlaganida voqealar qanday davom etgan bo'lardi? Garchi qanchalik haqiqatan yiroq bo'lsa ham muallif asarda qahramon orzusuni amalga oshirish imkonim mavjud-ku?***

Shu payt xosxonaga nafis shohi ko'ylik ustidan yoqutrang zarbof kamzul kiygan yetti-sakkiz yoshlar chomalig' durkun qizaloq – Gulbadanbegim yugurgancha kirib keldi. Otasi huzurida begona kishi borligini ko'rib, poygakda bir dam to'xtadi, so'ng boshidagi nimpushti harir ro'molini tuzatib, ta'zim bilan salom berdi.

– Vaalaykum assalom, ona qizim, – dedi Bobur chehrasi yorishib.

– Keling? – Begimlar kanizlar bilan bayt aytayotirlar, padari muborak, – dedi Gulbadanbegim tuyg'un ko'zlari chaqnab. – Soz chalib o'yin qilayotirlar. Men tinglab o'tirib edim, nogoh bir ruboiyni yod oldim.

– Borakallo zehningizga, ona qizim! – dedi Bobur jilmayib va Hofiz Ko'ykiya qarab qo'ydi. – Qani, yo'qsa eshitaylik, ne ruboiyni yod oldingiz ekan? – Siz bitmish ruboiyni, padari muborak.

– Qani?

Gulbadanbegim biyron til bilan burro-burro o'qiy ketdi:

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Sirrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor,  
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Bobur, ko'ngli erib, qizini bag'rige bosdi, manglayidan, yuzko'zlaridan suyib o'pdi.

– Ilohim, tangri o'z panohida asrasin sizni, – dedi. – Hofizangiz durust, ona qizim. Faqat juz'iy bir sahv qildingiz, mayli, hech boqisi yo'qtur.

Gulbadanbegim loladek qizarib, otasiga hayron boqdi:

– Qay nuqtada, padari muborak?

– “Sirrashtai aysh”, deb o'qidingiz. Bu ma'ni forsiyda asli “sar-rishtai aysh” bo'lur, ya'nikim, “kalavaning uchi” demakdir, – dedi Bobur kulimsirab.

– Begimlar ham, nozimalar ham hali men aytgandek o'qib edilar, – dedi Gulbadanbegim xiyol taraddudlanib. – Begimlar ham, nozimalar ham shundog' o'qigan bo'salar, – deb kului Bobur, – u holda, kalavaning uchi xo'b chuvalgan ekan!

Hofiz Ko'ykiy beixtiyor kulgiga qo'shildi. Gulbadanbegim ham qo'ng'iroqdek tovush bilan kulib yubordi.

– Yo'q, men borib aytay, kalavaning uchini topib olsinlar, – dedi u va yugurgancha chiqib ketdi.

Bobur uning ortidan termilib qolarkan, lahza o'tmay, ko'zlaridagi mehr o'rnnini anduh egalladi.

– Mana, mavlono, – deya xo'rsindi u olimga yuzlanib, – hol-kunimni ko'rib turibsiz. Darvish bo'lib vatanga qaytmoq orzusini qilurmen-u, biroq... bu donadek farzandlarimdan qandoq ko'ngil uzarmen? Yo'q, mavlono, mening, imkonim yetmas mushkul savdo ko'rinaradir bu... **Darvish shoh bo'lmos'i mumkindir, ammo shoh-nning darvish bo'lmos'i...**

Ostona ortida betoqat qadam sharpasi, ivir-shivir tovushlar eshitildi. Bobur sergak tortib, eshik tomon qaradi. Rang-quti qum o'chgan, favqulodda besar-bezovta saroy muhrdori Kichik Xoja eshik og'asining ortidan shoshib ichkari kirdi. – Ne gap? – Bobur uning bejo avzoyini ko'rib, ilkis o'rnidan qo'zg'aldi.

– Noxush xabar, olampanoh! – dedi muhrdor nafasi tiqilib. – Afg'on amirlari Biban va Boyazid Qanujdan qochib, Shamsiobod qal'asini ishg'ol etmishlar, Abul Muhammad nayzador ojiz qolib-dur. Fitnakorlar Gangdan o'tib, Sarvar sari jadal bosib kelmoqda emishlar. Fotihxon Sarboniy ham alarning himoyatiga tayanib, qayta bosh ko'tarmish. Banorasdan ham chopar keldi: Sherxon Surxonning cherigi shaharni tamom qurshov tutmishdir. Bangola hukmdori Nusratshoh ham alar bilan ittifoq tuzgan emish!..

Kichik Xoja, keltirgan bu xabarlari uchun yolg'iz o'zi aybdordek, boshini quyி solgan ko'yи tosh qotdi.

Boburning mahkam qimtilgan yupqa lablari sezilar-sezilmas pirlab ucha boshladи, bodom qovoqlari ostidagi qiyiq ko'zlarida Ho-fiz Ko'ykiyga begona bir shiddat va qahr alangasi yondi.

- Uh, mal'unlar! - dedi u tishlarini qisib. Qasamxo'r qilgur murtadlar! Necha daf'a alarning sulh va itoat bobida bergen puch va'dalarig'a inondim, biroq har safar ham mana shundan g'ofil qoldim. Bu xayoli buzug'lar saltanatni egasiz deb, Bobur Mirzoni o'lgan deb gumon qiladilar, chamasи. Xayr, mayli, o'zlaridan o'tdi - o'zlaridan ko'rsinlar! **Lafzni unutqonlarg'a shafqatni unutmoq kerak!**

U keskin yurib eshik oldiga bordi, hanuz muztar turgan Kichik Xojaga shijoatli nigohini tikdi:

- Xo'sh, Kichik Xo'ja?

- Labbay, olampanoh? - Kichik Xo'ja ko'zlarini javdirab unga yuzlandi.

- Rang-ro'yingiz bir holat?

- Olampanoh...

- Nechuk davdiraysiz? Bundog' qaro kunlarni hech ko'rmab-midingiz? Sizdek suyangan tog'imizki shumxabar shabadasiga tebransa, xo'b bo'lг'on ekan! Tag'in o'zgalardan negina qilaylik!

- Olampanoh... - Kichik Xoja bemajol titrab, tilga kirdi: - kamina qilingizning sadoqati ham, jasorati ham zoti muboraklariga kundek ravshandur. Davlatingiz soyasida ko'p marhamatlar ko'rdim, shavkatli kunlaringiz saodatiga sherik bo'ldim, endi jahannam komiga yo'llasangiz ham bosh tortmay bormoq men uchun farzdu. Faqat, ko'nglingizga kelmasin, parishonlig'im boisi bo'lak; mundin yarim soat burun Shamsiobod qal'asidan farzandi arjumandim Malik Xojaning o'ligini keltirdilar...

Tosh qotmoq navbatи endi Bobur Mirzoga yetgan edi. U bir so'z deya olmay, joyida turib qoldi.

Barlos beklaridek alpkelbat, mutaassir chehrali Malik Xojaga uch hafta muqaddam o'z qo'li bilan isfahoniyl qilich tortiq etgan, mo'ylabi endigina sabza ura boshlagan bu bahodir yigitni yuzboshilik martabasi bilan qutlab, lutfu karamlar ko'rsatgan edi.

Mana, bukun endi u yo'q. Uning o'sha lutfu karamlarini deb shahid bo'libdi!

“Yo rab! Qandoq navqiron edi!”

– Olloh sabr bersin, habibim, – dedi u ko'ksi xo'rsiniqqa to'lib va muhrdorning g'am bukib qo'ygan jussasini bag'rige bosdi. – Boshingizga shundog' musibat tushibdi-yu, siz nechun bunda yuribsiz?

– Olampanohdan ijozat...

– Ijozati ne! – dedi Bobur koyinib. – Boring, ma'raka tadorigini ko'ring. To'xtang! Rahmatlining yoshi o'n sakkizmidi, o'n to'qqiz?

– Hamal kelsa, o'n to'qqizga chiqur erdi, – dedi Kichik Xoja o'zini bazo'r tutib.

– Vo darig' Juvonmarg ketibdi... – Bobur so'z topolmay qoldi, hozir har ne taskin-tasalli aytmasin, jabrdiyda otaning miskin ko'ngligini ko'tarmoqqa harchand tirishmasin, barcha harakatlari zoye, barcha asrorligi soxta bo'lib chiqadigandek tuyuldi – ezildi, o'rtandi...

Xufton namozi o'qilgach, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo boshchiligidagi guras-guras chiqib, Agra sari mo'r-malahday bostirib kelayotgan dushman qarshisiga – hayot-mamot jangiga jo'nadi.

... Malik Xojaning janozasida Bobur Hofiz Ko'ykiyga tasodi-fan ko'zi tushib: “Hali uchrashurmiz, mavlono”, degan edi, ammo oqshom olim u bilan xayrlasha olmadi.

Shu bo'yi ular olti oydan so'ng – Bobur Shimoliy Hindistonda tinchlik va osoyishtalik o'rnatib qaytgandan keyingina ko'rishdilar.

\*\*\*

Hofiz Ko'ykiy ertalabdan buyon kutubxonada mutolaa bilan mashg'ul edi. U ne vaqtлarki bir kitobni izlab yurar, uni Tehronda ham, Istanbulda ham, Qohirada ham axtarib topolmagan edi. Boburning kutubxonasidagi dunyoning jamiki tafakkur xazinalaridan keltirilgan qimmatbaho qo'lyozmalar orasida bu nodir asarning nafis nast'a'liq xat bilan ko'chirilgan nusxasini ko'rib, shohlik tekkan gadodek quvonib ketdi. Bu – Muhammad ibn In'omning “Tarixi Turkiston” asari edi. Olim kitobni zo'r ishtiyoq bilan mutolaa qildi, son-sanoqsiz istilo va bosqinlar, mislsiz kulfatlarda toptalib, vay-

rona kultepalar uzra Qaqnus singari qayta mag'rur qad tiklagan, asrlar bo'yi kimsaga bo'yin egmagan ona xalqi, ona yurtining shonli tarixi qalbiga larza soldi, shu ajoyib asar yuragida qo'zg'agan hayrat va hayajon to'lqinlari tinmasdan turib, uni ona tiliga o'girmoqqa kirishdi. Shu tariqa bor olamni unutib o'tirarkan, kitobdor kelib yelkasiga ohista kaftini qo'ydi:

– Ma'zur tutgaysiz, mavlono, sizni yo'qlab kelmishlar.

Hofiz Ko'ykiy ostonada xomush qiyofada turgan Yusufiyni ko'rib, shosha-pisha o'rnidan qo'zg'aldi:

– Ne gap?

– Olampanoh sizni ko'rmoq tilaydilar, – dedi Yusufiy g'amgin tovush bilan.

– Tinchlikmu?

– Hofiz Ko'ykiyning ko'nglida bezovta bir hadik paydo bo'ldi.

– Ne gap?

Yusufiy yerdan ko'z uzmay jimgina borar edi. Qorong'ilik qo'ynida hayhotdek bo'lib turgan Bog'i Nurafshonga burilib, saroyning oq marmar zinalaridan ko'tarilayotganda parishon ohangda shivirladi:

– Olampanoh betob... Og'ir yotibdilar...

To'rdagi xosxonada besh-o'n chog'li odam to'plangan, hamma tashvishmand qiyofada, shivirlashib so'zlashadilar.

Hofiz Ko'ykiy yuragi uvishib ichkariga qadam qo'yarkan, ostonada ko'zlarini qizargan, chehrasi parishon Humoyunga duch keldi. Chetlanib yo'l berarkan, yengil ta'zim bilan so'radi:

– Qiblagohingizning sihatlari nechuk?

Humoyun g'amli ko'zlarini yerga tikdi.

– Shukur, – dedi bo'g'iq ovoz bilan. Keyin ipak sallasining pechi bilan ko'zlarini artarkan: – Kiring, – dedi.

O'rtadagi baland o'rinda Bobur Mirzo yotardi. Ranglari siniqqan, kirtaygan ko'zlarida intihosiz bir anduh...

– Salomatmisiz, olampanoh?

Bemor sezilar-sezilmas bosh irg'adi, ko'zlarini shiftdan uzib, olimga qaradi. Mavlono Abulbaqo uning yostig'ini to'g'rilab qo'yida, Hofiz Ko'ykiyning poyqadamiga fotiha o'qidi:

– Omin, dard bergen tangrim o'zi shifo bersin!

Hobgoh jimjit bo'lib qoldi. Hofiz Ko'ykiy ikki kun muqaddam Boburning huzurida Toshkandga qaytish uchun ijozat so'raganini esladi.

"Bemavrid bo'lган екан", deya ko'nglidan o'tkazdi afsuslanib.

Bobur boshini bolishdan kuch bilan uzib, unga yuzlandi-da:

- Ahvolingiz nechuk, mavlono? – deb so'radi.

- Allohga ming qatla shukur, olampanoh.

- Safaringiz qaribdi-da?

Olim qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

- Zoti shariflari ijozat etsalar...

- Ijozat eturmiz! – dedi Bobur ichki bir zo'riqish bilan, so'ng mushkul bir vaziyatda qolgandek, boshini yostiqqa tashladi. – Mavlono, mening sizni bunga chorlamoqdin maqsadim... – Uni birdan yo'tal tutib, so'zi bo'lindi. – Maqsadim shulki, bitmak orzusida yurgan tasniflarining rivoj tilamakdir, xolos. Bizdan ne ko'mak lozim bo'lsa, zinhor tortinmangiz.

- Qulluq, olampanoh.

- Xotiringizdan faromush bo'lmog'on ersa, ilk bor suhbat qur-ganimizda qalbaki allomalar xususida so'zlab, sizga nohaq ranj yetkurgan edim, – dedi Bobur. ***Azbaroyi o'shal ko'zi ochiq, qalbi basirlarga qahrim tufaylidan... Alarning kitob kemirguvchi sichqonlardan ne farqi bor?*** Ma'rifikat xazinasining chin qadriga yolg'iz sizdek ahli fazllargina yeta olur. Bizni ham o'zingizga teng ko'rib, ko'p mutaassir etib edingiz, bilmam, ne yo'sin tashakkur ay-turmiz... Kitobdorga farmoyish berilur: ko'nglingiz tilagan ismiki kitobni o'zingiz bilan olmog'ingiz mumkin.

Borlig'i hayajondan titragan Hofiz Ko'ykiy qayta-qayta qulluq qildi.

– Biror "sichqon"ga yemish bo'lgandan ko'ra, sizdek zarshunos qo'liga tushsa, odamizotga ko'proq nafi tegur...

Og'ir jimlik cho'kdi. Muhtasham tilla qandillardagi shamlar-ning lipillab yonishigina sukunatga raxna solardi. Anchagacha hech kimdan sado chiqmadi. Bu o'ng'aysizlikdan yana Boburning o'zi qutqazdi.

– Kecha oqshom g'arib xayolimga bir nimarsalar kelib, qog'oz qoralab edim, – deya zaif jilmaydi u.

Barchada allanechuk bir jonlanish sodir bo'ldi:

- Olampanoh marhamat etsalar...

- Tabarruk bitiklari nomuborak quloqlarimizga sazovor ko'rilsa, boshimiz ko'kka yeturdi...

Bobur bir zum o'ylanib qoldi, so'ng horg'in ko'zlarini yonidagi lavhga tikdi. Yusufiy o'rnidan ildam turdi-da, lavh ustidagi saxtiyon muqovali kitobni Boburga uzatdi. Bobur kitob qatidan buklangan yupqa qog'oz olib, tizzasiga qo'ydi, bemajol lablariga nimpushti qizillik yugurgandek bo'ldi:

Yo qahru g'azab birla meni tufroq qil,

Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil.

Yo rab, sengadur yuzim, qaro, xoh, oq qil...

Boburni tag'in quruq, qattiq yo'tal tutdi, nafasi bo'g'ilib, so'nggi misrani kuch bilan bazo'r shivirladi:

Har nav sening rizong erur, andooq qil...

Ruboiyning ajib ohangiga sehrlangandek, hamma bir lahza tek qoldi. Nihoyat, birin-ketin a'yonlarning olqishlari eshitila boshladi:

- Xo'p ayтиbdursiz, olampanoh, bisyor go'zal!

- Haq so'z, g'oyat xushtakallum baytlar...

- Oshiqona go'zal lutf bo'libdir, olampanoh...

Bobur Mirzo ohista bosh chayqadi, hazing jilmaygandek bo'ldi. Siniqqan chehrasida bir lahza alamnok taassuf ifodasi ko'rindi...

Bu dardli misralarning "oshiqona go'zal lutf" emas, balki suronli umri so'nggi manzil sari borayotgan ulkan muztarib qalbning kelgusi nasllar oldida berajak izardirobli hisobi, davron hukmi qarshisidagi ma'yus o'tinchi ekanini yolg'iz Hofiz Ko'ykiyagina o'z zavqi tabiysi bilan anglatdi.

Bobur buni sezdi, minnatdor ko'zlari olimga javdirab boqdi.

*Olamning qariyb yarmini qilich bilan, qariyb yarmini qalam bilan zabit etgan, bir og'iz kalomiga ming-minglab odamlarni muntazir itoatda tutgan, hamisha sha'nu shavkat og'ushida muzaffar yashagan bu ulug' zakovat sohibini bunday mahzun*

*va g'arib holda ko'rmoqlik g'oyat og'ir edi – Hofiz Ko'ykiy mutaassir bo'lib, beixtiyor nigohini olib qochdi...*

Ertalab bemorning ahvol-ruhiyasi hiyla yengillashdi, ammo hamon darmonsiz edi. Hofiz Ko'ykiy bomdod namozidan so'ng u bilan xayrashib, barcha yaxshiliklari uchun qayta-qayta tashakkur aytdi, ollohdan shifo tiladi. Xobgohda talay odam bor edi, biroq Bobur mijjalarida yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi.

– Sizga nechog'li havasim kelishini bilsangiz edi! ***Buyuk hukmdorning oddiy odamlarga havasining boisi nimada?***

Uning Hofiz Ko'ykiyga aytgan so'nggi so'zlari shu bo'ldi...

Karvon endigina Hindiston sarhadidan chiqqanida ko'pirib ketgan chavkar otta Kobil sari yelib borayotgan chopar orqadan quvib yetdi: "saodatmand" shoh – Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo olamdan o'tgan edi...

\*\*\*

Hofiz Ko'ykiy bir haftagacha Bog'i Nurafshonda motamadorlar bilan birga bo'ldi. Nogahoni bu musibatdan dil-dildan iztirob chekar-kan, butun qalbi, borlig'i Bobur Mirzo yodi bilan bog'lanib qolganini yana bir bor teran his etdi, o'zini benihoya g'arib, mehrga zor sezdi. Olimning nazarida, butkul dunyo huvillab qolgandek... faqat Bog'i Nurafshongina hamon avvalgidek shukuhga to'lib shovillar edi.

Marhumga yetti ushatilgach, Hofiz Ko'ykiy Kobilga jo'naydigan biror karvonni daraklab topmoq maqsadida shaharga chiqди. Muddaosi bitib, dilgir saroyga qaytarkan, ko'ngli nechundir o'zi ilk bor bosh qo'yan karvonsaroy yonidan o'tishni istadi. Darvoza oldida bexos Baxshiturkka ko'zi tushib qoldi. U g'ayriinsoniy jazavada, og'zidan tufuk sochgancha o'tkinchilarga qo'llarini to'lg'ay-to'lg'ay xirqiroq tovush bilan qichqirar edi. Olim unga yaqinlasharkan, o'sha tanish bayt qulog'iga uzuq-yuluq chalingandek bo'ldi:

– ... sori gar yiroqtur, ul yovuq...

Baxshiturk birdan unga qaradiyu xuddi ne vaqtlardan buy-on izlab yurgan odamini ko'rib qolgandek, hayqira ketdi: – Buni

qalandar shoh bitgan, ha! Chog'ir ichgan paytlarida aytar edi, ha! Ha-ha, chog'ir ichdingmi? Bo'zlama, bo'zlama! Nega chog'ir ichasan? Bari bir oxiri voy, ha! Bu kun odina, tonglasi shanba, indini dushanba, undan so'ng seshanba, chahorshanba, undan so'g'in panjshanbai murodbaxsh! So'g'in yana odina, e bari bir oxiri voy, ha! Vallohu a'lam, oxiri voy!

Hofiz Ko'ykiy turgan joyida hang-mang bo'lib qotib qoldi. Yo ol-loh! Bu nolakor baytni Bobur Mirzo bitgan ekan-da!

Yuragi qalqib ketdi.

"Ko'nglim sezgan edi, – deb pichirladi u, – sezgan edi..."

Qarshisida Baxshiturk hamon jununi jo'shib vaysardi.

Hofiz Ko'ykiy boshini ko'tarib uning yuziga tikildi. Va birdan ses-kanib ketdi: ro'parasida o'ttiz yoshlар chamasi qarigan Binoqlу tu-rardi!..

\*\*\*

Ertasi kuni murch, dolchin, zaytun moyi ortilgan kichik bir kar-  
von tong saharda shahar darvozasidan chiqib, Sharq sari yo'l oldi.  
Karvon so'nggida ko'rimsizgina ot mingan Hofiz Ko'ykiy xomush  
borar edi.

... Bepoyon sahro. Quyosh olov seli purkaydi. Ufq qadar yastan-  
gan sarhadsiz qumlikda qilt etgan tirik jon ko'rinxaydi. Ahyon-  
ayhon ko'hna sardobalar uchraydi. Karvon qo'ng'irog'idan atrofga  
sarob halqalari singari hazin sadolar tarladi:

Moli vofir, eli kofir, yo'l youvuq...

Bu mungli sadolar og'ushida horg'in ko'zlarini yumgancha tebra-  
nib borayotgan Hofiz Ko'ykiy mahzun shodumonlik bilan ohista  
shivirlaydi:

Sharq sori gar yiroqtur...<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Sultonov X. Boburning tushlari.- T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.73-109-b.

## Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar

1. Agarda sizga armon va sog'inch suratini chizib bering deyishganida, uni qanday tasvirlagan bo'lar edingiz?
2. Sizningcha, Bobur shohlikdan voz kechib, oddiy odamlar kabi hayot kechirganida uning nomi bilan bog'liq xayrli amallar bugungi kunga qadar yetib kelarmidi?
3. Nima deb o'ylaysiz, Bobur ruhi saodat sohilidan mangu qo'nim topganmikan?
4. Asar sujetining tarkibiy qismlarini belgilang.
5. Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Bobur yurganyo'llar va borgan joylari xaritasini tuzishga urinib ko'ring.

## Mustaqil o'qish uchun

### 1. Boburning tushlari

Hijriy to'qqiz yuz oltinchi yil, kech kuzak. Qorong'i, uzun kechallardan biri. Xazonlar hazin shitirlagan shu sokin tunda Bobur Mirzo sirli bir tush ko'rdi...

Bu sirli tushi ijobati tarixiga qiziqsangiz, "Boburning tushlari" asarini o'qishni tavsiya etamiz.

### 2. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi./Tahrir hay'ati A.Qayumov va boshq. – T.: Sharq, 2014. – 744 b.

### 3. Qamchibek Kenja. Buyuklar izidan: (Safarnoma – 3). – T.: Sharq, 2006.


**Buyuklar izidan** – taniqli ijodkor Qamchibek Kenjaning Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya a'zolari bilan Afg'oniston bo'ylab qilgan sayohatlari mazmuni o'z aksini topgan asar.

Qiziquvchan o'quvchimiz, agar ekspeditsiyadan ko'zda tutilgan maqsad, bu ko'hna zamin qa'ridan mangu qo'nim topgan Abu Rayhon Beruniy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi ulug' ajdodlarimiz nomlari bilan bog'liq joylarni izlab topish, e'tiborsiz qolgan, vayronaga aylangan qabr va maqbaralarni obodonlashtirishga oid xayrli amallar tafsitolariga qiziqsangiz, albatta, ushbu kitobni mutolaa qilasiz, degan umiddamiz.



Alisher Navoiy  
maqbarasi

Hirot. Gozurgoh.  
Alisher Navoiy  
ishlagan, ijod  
qilgan go'sha.



Kobul.  
Bobur Mirzo  
maqbarasi

## **9-sinf**

### **RAUF PARFI IJODINI O'RGANISH**



*Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiat, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqqa sharoitining o'zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi.*

**ISLOM KARIMOV**

#### **RAUF PARFI (1943-2005)**

O, ilhom, axtardim seni dunyoda,  
Qismat yelkasida yugurdim, yeldim,  
Goho shavq qanotida, goho piyoda  
Yukunib men senga sig'inib keldim.

#### **MEN SUVMAN, HALI HECH KIM ICHMAGAN...**

"Undan she'riyat qoldi. Bir she'riyatki... uning yurt qayg'usida yongan, yaqin salaflari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosiriylaridan meros olgan go'zal iztiroblari, bosqinchilarga o'chi. Faqat bu tiniq tuyg'ular izlanishlar bois yillar o'tgan sari tobora ochildi, tashbehlari quyuqlashdi, fikri o'ziga xos yangicha va baland avj, betakror shakl oldi. Yuksak ruhda maromiga yetdi. Asr boshida Cho'lponlar boshlagan yangicha tajribalar asr oxirida Rauf Parfi kashfiyotlari

bilan takomil topdi. Bu XX asr dunyo she'riyatining o'rganishli voqeasi. Uning yangiliklari (fikr tarzi, quyuq metaforalarida, sonet gul-dastalari shakli va ma'nosida) e'tirofga molikdir. Avvalo bu izlanishlar shaklda ham, ma'noda ham o'zbek she'riyatiga yangi qon, yangi jilo berdi. Uning ijtimoiy mavzudagi she'rlari ham shaxsiy dard, kechinmadek qalbga yaqin va ta'sirchan. Turkiston fojiasi va iqboliga bag'ishlangan she'rlar esa millat ziyolilarini turtib uyg'otgan ruhi rangin, naqshin-nigorli otashin qo'shiqlardir.

Uning she'riyatidagi ohorli So'z, yangicha va har xil ohang, ramziylik va ishoralar, turlicha topilgan ritmika-sur'at, fikr va his-larning qatlam-qatlamligi, eng achchiq va katta haqiqatlarni ochiq va timsoliy shamoyili favquloddadir. Shu ma'noda boshqa ma'ni va ishoralari, ong osti qochirmalari bo'lishidan qat'i nazar "men yolg'izman, ovozim yolg'iz" satri, avvalo, o'zi haqida o'zining bahosi hamdir"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Vafo Fayzulloh. Men suvman, hali hech kim ichmagan. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. -T.: Sharq, 2013. 15-16-b.

## **Quyidagi atamalar ma'nosini bilib oling**

**Abut-turk -**

turklar otasi. Nuh payg'ambarning kenja o'g'li Yofasning laqabi<sup>1</sup>.

**Oltoy -**

(turkiy va mongol tillarida altan – oltin) – Osiyodagi tog' sistemasi, Rossiya Federatsiyasi, Mongoliya va Xitoy hududida<sup>2</sup>.

**Hunlar (xunnular) -**

qadimda markaziy Osiyoda shakllangan ko'chmanchi xalq. Hunn hoqonligi, Ulug' hun hoqonligi, Hunlar davlati – Markaziy Mo'g'uliston, Baykalorti, Xesi yo'lagi, Shimaliy Xitoyda mavjud bo'lgan davlat (mil. av. 240 – mil. 216)<sup>3</sup>.

**G'irot (G'irko'k) -**

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagi afsonaviy ot obrazi<sup>4</sup>.

**Onasoy (Enisey) -**

Osiyodagi daryo. Biy-Xem (Katta Onasiy) va Ka-Xem (Kichik Onasiy) daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lgan<sup>5</sup>.

**Turon -**

(forscha "turon" – turkiylar degan ma'noni anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama.

<sup>1</sup> Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumta'lim mакtablarining 7-sinfi uchun darslik. –Toshkent: "Sharq", 2005. – 106 b.

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 530 b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 394 b.

<sup>4</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 233 b.

<sup>5</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. 3 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 422 b.

Turonni jug'rofiy-tarixiy ta'riflaganda, uning hududlari Tinch okeanidan O'rtayer dengizidagi Egey-Adreatikagacha, shimoliy Muz okeanidan Tibet, Himolay tog'larigacha, shimoliy Hindistondan Onado'lgacha, ya'ni hozirgi Turkiyagacha bo'lgan hududlarni, ularda yashovchi turkiy xalqlar Vatanini bildiradi.

Turon atalmish ulkan hududning markaziy qismi jug'rofiy jihatdan "Turon pasttekisligi" deb ataladi va asosan O'rta Osiyoning shimoli-g'arbiy hamda Qozog'istonning janubi-g'arbini ishg'ol qiladi, g'arbdagi Kaspiy dengizi, shimolda O'rol tog'i oldigacha, Sharqda Tyanshan etaklarigacha, janubda Pomir va Kopetdog'gacha yetib boradi<sup>1</sup>.



### Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar

1. *Mamlakatimiz hududida qadimda qanday davlatlar bo'lgan?*
2. *O'zbek millati va o'zbek xalqi tarkibi qanday etik qatlamlardan tashkil topgan?*
3. *Chor Rossiyasining yurtimizdagi madaniy boyliklar, milliy qadriyat va an'analarni yo'q qilishdan ko'zlagan asosiy maqsadi nima edi?*
4. *Qanday "ayb"lari uchun Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi jadid bobolarimiz qatag'onga uchradi?*
5. *Toshkent shahridagi "Qatag'on qurbanlari" muzeyi haqida nimalarni bilasiz? U yerda qanday hujjatlar saqlanadi?*
6. *O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixiy adolatni tiklash borasida qanday ishlarni amalga oshirgan?*
7. *Millat va xalqning shakllanishida qanday tuyg'u asosiy omil hisoblanadi?*

<sup>1</sup> Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. -T.: Sharq, 2000. 213-b.

## **ABDULHAMID SULAYMON CHO'LPOН**

---

*Shu ojiz holimda shoirmanmi men?  
Cho'lpon*

**1.** Ona tilim, sen ruhimning qanoti,  
Abut-turk nafasi, Oltoy chechagi.  
Xun davridan omon kelgan G'iroting,  
Qutlug' Enasoyning ezgu ertagi.

Urxun bo'ylarida toshga aylanding,  
Ko'klarga sanchilding, Turon bo'lding Sen.  
Mangulik safarga qachon shaylanding,  
Qachon bu alamga – kuchga to'lding Sen.

Porloq osmoningda quzg'unlar uchdi,  
Evoх, yog'iylaring soldi yag'moni.  
Yog'iylaring jigar – qoningni ichdi.

*Quzg'unlar deyilganda kimlar nazarda tutilmoqda? O'tgan  
asrlarda o'zbek millati, uning erksevar, fidoyi va ma'rifatparvar  
farzandlari boshidan qanday ko'rgiliklarni kechirdi?*

Jigar – qon jaranggi tutdi jahonni,  
Onasen. Kechirding. Qonidan kechding.  
Biroq kechirmading aslo yolg'онни.

*"Jigar – qon jaranggi tutdi jahonni" deyilganda nimalar  
ko'z oldingizga keldi? Yolg'ondan boshqasini kechira olgan  
Ona timsolida kimni ko'rdingiz?*

**2.** Dunyo oq emasdир, yo'q, qorabardosh,  
Kuyib yodimizдан kechganlar aytsin.

So'zlarida zahar, ko'zlarida tosh,  
Elidan, tilidan kechganlar aytsin.

***"Kuyib yodimizdan kechganlar", "Elidan, tilidan kechganlar" tasvirlaridagi ma'noni uqdingizmi? Bu yerda nima haqidagi gap boryapti?***

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,  
Kunlar gizli tug'yon, bosib kelar she'r.  
Nechuk qismat erur shoir qismati,  
Tushlarimni buzar hazrat Alisher.

***Navoiy hazratlarining lirk qahramonni tushlarida ham tinch qo'ymay, bezovta bo'layotgani sabablarini aniqlashga harakat qiling.***

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,  
Muzlarga ko'chirdi o'tluq yozimni.  
Axtardim muhitda xas kabi qalqib –

Men o'z Yulduzimni, o'z Quyoshimni.  
Yulduz sen. Quyosh sen. Sen ona xalqim,  
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni.

***Aslida sinmas sozni qanday qilib sindirish mumkin? Misralar qatidagi tag ma'noni aniqlang.***

3. Oh shoir qismati yarqiroq, gulgun,  
Zavqlarga to'lar u, Bir So'zni izlar,  
Dunyoda hech bir zot bilmas, ne uchun,  
Ayricha kular u, ayricha bo'zlar.

***She'rdagi har bir So'zdan uning ohangi va ruhi borligi seziladimi? Umrbod So'zni yengib, So'zga yengilib yashash shoirlilik qismatimi?***

Yo'l sizlik yo'ldoshi, tolei negun,  
Hech qachon to'yarmi axir yovuzlar.  
Bu – xalq dushmani, deb tutsalar bir kun,  
Baribir, u xalqning nomidan so'zlar.

Boshida qora qish, oppoq bahorlar,  
Yuragi yarimu butun iyemoni,  
Talotum olamni shivirlab chorlar.

### ***Qora qish, oppoq bahor kabi ifodalar qanday vazifani bajar-gan?***

Tani omonatdir, naqd erur joni,  
Ko'krak qafasida lovullab porlar  
Buyuk muhabbatning qonli nishoni<sup>1</sup>.

### **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. *Erksevar shoir nomi bilan ataluvchi mazkur she'rda nima sababdan ona tilining tarixi haqida so'z yuritilgan deb o'ylaysiz?*
2. *Cho'lpon hayoti va o'zbek tili taraqqiyoti o'rtasida qanday o'xshashlik bor?*
3. *Lirik qahramonning ona tiliga bo'lgan muhabbati qaysi satrlarda bo'y ko'rsatadi?*
4. *She'rda ritorik murojaat qanday maqsadga xizmat qilgan?*
5. *Asardan yaxlit obrazga aylangan so'zlarni aniqlang.*
6. *Rauf Parfi she'rriyatining boshqa shoirlar ijodidan farq-lanuvchi qaysi jihatlarini ilg'adingiz?*

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. -T.: Sharq, 2013. 163-164-b.

---

## **Mushohada uchun mavzu:**

---

XIX asrdagi Farg'ona general gubernatori M.D.Skobelevning "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san'ati, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi adoyi tamom bo'ladi..." degan fikri haqida tengdoshlaringiz bilan bahs-munozara yuriting.

---

## **Mavzuga qo'shimcha material**

---

### **ANTIQA UCHRASHUV**

**SHODMON OTABEK**

---

Shoir Muhammad G'affor Rauf Parfining sevimli muxlisi edi. U yoz kunlarining birida Toshkentga kelib, O'rdada pivo ichib o'tirardi. Nogoh yonidagi stolda qirov qo'ngan soch-soqoli o'sibroq ketgan bir o'ris cholga ko'zi tushadi. Ikkovlon beixtiyor gaplashib qolishadi. O'ris o'zbekchani binoyidek bilarkan. U "Nima ish qilasan?" deb so'raganida Muhammad "Shoirmal!" deydi ko'kragini balandroq ko'tarib. Haligi chol "Qani bo'lmasa o'zlaridan bitta eshitaylik!" deganda Rauf Parfining zo'r bir she'ridan o'qib, "Bilasanmi, bu she'rni kim yozgan? O'zbekning zo'r shoiri Rauf Parfi yozgan!" deydi.

"Ha, rostdan ham zo'rga o'xshaydi, yana bitta o'qi-chi!" deydi chol. Shoir ishtiyoq bilan ustozning she'ridan o'qiydi. Ikkovlon bir lahma jimib qolishadi. O'ris "Ustozingni tanisganmi? O'zini ko'rghanmisan?" deb so'raydi. Muhammad "Afsuski, hali ko'rmaganman" deydi xo'rsinib. Shunda o'ris "Men Rauf Parfini taniyaman, u bilan ulfatman, istasang hoziroq uyiga oboraman" deydi.

Bir umr ustoz bilan uchrashish, tanishishni orzu qilib yurgan Muhammad hovliqib ketadi. Ikkovlon yo'lga tushishadi. Yo'l-yo'lakay ustozning hurmati uchun mayda-chuyda xarid qilishadi. Nihoyat, chol bir kulbagaga boshlab keladi. Eshikni taqillatishganda hech qanday javob bo'lmaydi. Shunda o'ris "Hozir chiqaman" deya ichkariga kirib ketadi.

Birozdan keyin u oppoq yaktak kiyib chiqib, hamrohiga kulimsi-rab ta'zim qiladi. Muhammadning "Qani Rauf Parfi?" degan savoliga yana bir karra ta'zim qilib, "Kamina Rauf Parfi bo'ladilar!" deya javob qiladi. "E-e, boshimni qotirma!" deydi muxlis ajablanib. Shunda Rauf Parfi o'zining she'rlar to'plamidagi suratini ko'rsatadi. Shogird goh suratga, goh o'risga o'xshabroq ketadigan haligi cholga qayta-qayta tikilib qaraydi-yu, ko'pdan buyon qidirib yurgan qimmatli kishisini topgandek beixtiyor suyunib, ustozini mahkam quchoqlab oladi..."<sup>1</sup>

---

### Mustaqil mutolaaga shoир ijodidan

---

## ADASHGAN RUH

---

1. Quyoshning yog'dusi qoradir,  
Yulduzlar muzlardir to'kilgan.  
Bu daryo uzangan yaradir,  
Daraxtlar egilgan, bukilgan.

Yulduzlar muzlardir to'kilgan,  
Toshlardek qotmishdir tumonlar.  
Yerlarga tikanlar ekilgan,  
Ekilgan yolg'onlar, gumonlar.

Bu daryo uzangan yaradir,  
Hasratdir tinmagan hech qachon.  
Jimirlab qaylarga boradir,  
Boradir bezabon, bemakon.

Daraxtlar ekilgan, bukilgan,  
Yer tishlab yotibdir yaproqlar.  
Toshlarga mixlangan, chekilgan,  
Lochinlar, kaptarlar, chorloqlar.

---

<sup>1</sup> Shodmon Otabek. Antiqa uchrashuv. Muhabbat Ato. So'nmas yulduzlar. – T.: Tafakkur Qanoti, 2010. 117-118-b.

Quyoshning yog'dusi qoradir,  
Quyoshning sochini o'rgayman.  
Nahotki, eng so'nggi choradir,  
Adashgan ruhni men ko'rgayman.

2. Toshlardek qotmishlar tumonlar,  
Bulutlar falakning ohlari.  
Kechmakda eronlar, turonlar,  
Tubanda qorong'u chohlari.

Bulutlar falakning ohlari,  
Ingrog'i, singrog'i uchadir.  
Tubanda musibat tog'lari,  
Qora qonichindan kechadir.

Kechmoqda eronlar, turonlar,  
Sudralib, paypaslab, itarib.  
Kechmakda bo'ronlar, suronlar,  
Eng go'zal, eng bag'al, eng g'arib.

Tubanda qorong'u chohlari,  
Qa'rige chaqirar, yaltirar.  
Itlari, otlari, zog'lari,  
Xarsangga aylanar, qaltirar.

Toshlardek qotmishlar tumonlar,  
Bilgisiz ochunning asari.  
Tubanda gunohlar, imonlar,  
Adashgan ruh kezar sarsari.

3. Yerlarga tikanlar ekilgan,  
Toshlarga, xarsangga sanchilar.  
Turkiston tug'lari tikilgan,  
Betlashgan jonibor yanchilar.

Toshlarga, xarsangga sanchilar –  
Cheki yo'q yo'qlikning nolasi.  
Diydalar tomchilar, qamchilar,  
Sabrning – Odamning bolasi.

Turkiston tug'lari tikilgan,  
Vatansiz kaslarning yo'li berk.  
Zorlangan, zo'rangan, to'kilgan,  
Erkidan ayrilgan Qutlug' Erk.

Betlashgan jonibor yanchilar,  
Tuyoqlar ostida bo'zlaydir.  
Jangchilar, pulchilar, tankchilar.  
Yog'iylar yolg'onni so'zlaydir.

Yerlarga tikanlar ekilgan,  
Dov uchun, ov uchun, g'ov uchun.  
Turkiston tug'lari tikilgan,  
Yov uchun, yov uchun, yov uchun.

4. Ekilgan yolg'onlar, gumonlar,  
Tarixning temirdan devori.  
Aqqadlar, sumarlar, yunonlar,  
Bilingiz, bu Turon diyori.

Tarixning temirdan devori,  
Yilt etgan bir ziyo ko'rinas.  
Moziyning ko'milgan mozori.  
Atrofda tirik jon urinmas.

Aqqadlar, sumarlar, yunonlar,  
Turkiylar, nahotki kechmishdir.  
Ketmishdir, yitmishdir jahonlar,  
Yo'qlikning zahrini ichmishdir.

Bilingiz, bu Turon diyori,  
Qonlari ko'klarga sochilgan.  
Yo'q erki, yo'q do'sti, Haq yori,  
Boblari kenglikka sochilgan.

Ekilgan, yolg'onlar, gumonlar  
Bergaydir, chorasisz mevasin.  
Bu tunlar, bu kunlar, bu tonglar,  
Men va Sen, Men va Sen, Men va Sen.

5. Hasratdir tinmagan hech qachon,  
Manglayga yozilmish bu oyat.  
Muhaqqah yozmishdan kim qochg'on,  
Kim ko'rgan? Kim bilgan nihoyat.

Manglayga yozilmish bu oyat,  
Hukmdir, muhrdir, o'chmasdir.  
Zulmatda yo'q erur hidoyat,  
Zimiston ranglari ko'chmasdir.

Muhaqqah yozmishdan kim qochg'on,  
Borini amriga olajak.  
Tiriklik tilsimin kim ochg'on?!

Qulfiga kim kalit solajak?

Kim ko'rgan? Kim bilgan nihoyat?  
Qorayib yaltirar lojuvard.  
Shoirda bormidir rioyer,  
Ko'zida, so'zida achchiq dard.

Hasratlar tinmagan hech qachon,  
Yilt etgan ziyodan yo'q asar.  
Ul mavjud, nomavjud, jon-bejon,  
Adashgan Ruh kezar sarbasar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. –T.: Sharq, 2013. – 223-226-b.

## **NAZAR ESHONQUL IJODINI O'RGANISH**

---



*... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonivor va ko'katlarga ozuqa bergenidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qanchalik tajribali bo'lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo'ladi, uning ijodini, umuman, Adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi.*

**ABDULLA QAHHOR**

**NAZAR ESHONQUL**  
**(1962-yilda tug'ilgan)**

### **"YARATUVCHILIK BUYUK KUCH VA BUYUK ZAVQ ...."**

Bolaligimning asosiy qismi uch-to'rtta sigir izidan kitob o'qib o'tgan. Darsdan kelib sigirni olib chiqardik. Jazirama, yomg'ir, chang, o't-o'lan, osmon bulutlar va kitob. Yozgi ta'tilda ertadan-kechgacha ahvol shu edi. O'shanda biz kitobxo'r bolalarning kutubxonada o'qimagan kitobimiz qolmagan. Bugungi kun nuqtayi nazari bilan qaralsa, bu xil bolalik juda ibtidoiy, zerikarliga o'xshaydi. Ammo shamol, yomg'ir, o't-o'lan, sigirlar, it bilan bolalar tilida gaplashib, kitob qahramoni bilan xayolan ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan sarguzashtlar qilishning huzurini bugungi bolalar bilishmaydi. Tasavvur ham qilisholmaydi. Biz seriallar, kinolar va kompyuter o'yinlarini xayolimizda o'zimiz yaratardik. Sarguzasht

qahramonlari “super qahramonlar” emas, o’zimiz edik. Biz kitob bilan birga, tabiat bilan birga, yeru osmonning, bani borliqning, hatto xayol kengliklarining egalari edik. O’zimiz sibizg’a yasab, o’zimiz kuy yaratardik. O’shanda yaratuvchilik buyuk kuch va buyuk zavq ekanini his etganimiz. Bugungi kompyuter bolalari bunday rohatdan uzoq. Shunday paytlarda Mark Tvenga o’xshab badbinroq fikrlar kelib qoladi miyamga: “Kompyuter va televizorlarni kashf qilishgani yaxshi, ammo ularni kashf qilishmasa, yana ham yaxshi bo’lardi!<sup>1</sup>



<sup>1</sup> Nazar Eshonqul . Menden “men” gacha. – T.: Akademnashr, 2014.217-218-b.

## **Mutolaaga tayyorlashga oid savol va topshiriqlar**

1. *Boshiga musibat tushgan kishilarni kuzatganmisiz? Ular dilidagi g'am-g'ussa, kayfiyatidagi tushkunlikni aritish osonmi?*
2. *Yaqinidan ayrilgan insonga atrofidagilarning tasallи va o'tinchlari qay darajada kor qiladi? Aslida judoliklar o'rnini bosishga arzigulik biror malham bormi dunyoda?*
3. *Marhumlar xotirasiga sodiqlikni qanday tushunasiz?*
4. *Shamolni tutib bo'lmaslik nimaga ishora? Sizning tasavvuringizda shamol nimaning ramzi?*
5. *Hikoya qahramoni qiyofasida qadrli insonlaringizni ko'risha harakat qiling. O'shanda momoni o'rtagan azoblar, qalbining tub-tubida tinmay isyon ko'targan g'alayonlarni his qilishingiz qiyin kechmaydi.*
6. *Mamlakatimiz hududida Tersota qishlog'i va shu nomdagи soy borligini eshitganmisiz yoki yozuvchi ularni shunchaki o'ylab topganmikan? Agar shunday joylar bo'lsa, ularning qaysi viloyat hududida ekanligini aniqlang.*
7. *Quyidagi so'zlar mazmunini "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan aniqlang:*  
*Lash-lush, sarkas, chipqon, mustag'riq, shappatgayi, ramaqijon, muztar, kalapo'shi, zebigardon.*



## **SHAMOLNI TUTIB BO'L MAYDI**

---

### **Hikoya**

Yuz yildan beri tersotaliklarning g'ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdag'i chipqondek qishloqqa ko'rimsizlik va keksalik bag'ishlab turgan, noma'lum va mudhish sinoatlarga to'la qadim qo'rg'onnei eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo'shib, o'zlarining ham nimalarinidir buzib, vayron qilishayotgandeck, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o'yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg'iz va izsiz o'tish azobini ko'tarib kelgan, hayoti o'zlariga hamon tushuniqsiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko'zlariga yosh olib, bolalarini bag'irlariga bosgancha, olis va g'amgin xotiralarga berilib, mung'aygan alfovza o'tirardilar.

Bayna momo tirikligida, garchi bu ayollarni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari yotgan, polvonning o'limidan so'ng hech qachon chiroq yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong'u musibat to'la uyi ichkarisiga kiritmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabini sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat va ehtirom bilan eslashardi. Bu uy Tersotada qurilgan birinchi uylardan edi va Rayim polvonning otasi Shukur oq-soqol bundan bir asr muqaddam tug'ilajak farzandlariga keng uy va yildan-yilga ko'payib borayotgan yilqilarga otxona solish maqsadida Tersota soyining oftobro'yasiga qishloqning birinchi poy-devorini qurgandi. Rayim polvon esa otasining ishini davom ettirdi: uyning orqasida bog' barpo etdi va otxona yonida qirga tutash-tirib, yozning jaziramasida go'sht va yog'larni, qimiz va ayronlarni asrash uchun keng yerto'la, uying oldiga toshdan baland supacha, ot kirib chiqadigan uzun, ustundor ayvon qurdi. Bayna momo ellik yilga yaqin yolg'izlik davrini ana shu ayvondagi ustunlarga suyanib o'tkazdi: u eri va o'g'lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig'lardi. Keyinchalik ko'z yoshlari ham tugab qolgach, hayotida go'yo suyanchig'i va orqasidan yig'lab qoladigani yo'qligini odamlardan yashirish uchun yoki endi yillar silsilasiga dosh berolmay puturdan ketayotgan uyni butkul vayron bo'lishdan asrab qolmoqchiday, yelkasini ustunga suyagan holatda xotirasining siniq parchalariga tikilib, ko'zlarni yumgancha g'amginu mustag'riq o'tirardi.

Rayim polvonning o'limidan keyin tug'ilgan va u haqda keyinchalik butkul eslaridan chiqib ketgan cho'pchaklarini eshitib ulg'aygan avlod uylarini ravoqli va pishiqlig'i ishtadan qura boshlagach, bir paytlar Tersotaning ko'rki va g'ururi bo'lib turgan bu uy birdan ko'rimsiz qiyofaga kirdi va endi Bayna momo kabi uy ham qishloqdagi uylar oldida yolg'izlanib qolgandi: faqat bir-birini bosib-turtib kirib keelayotgan shoshqaloq yillar bu avlodning sarkash qalbiga qandaydir olis xotirani yoqib qo'yish uchun behuda urinib, uy devorlariga mahzun bitiklar yozar, bekasi bilan birga bu makon ham allaqachon o'zining oldingi qudrati va viqorini yo'qotib bo'lgan, unut va tashlandiq maskanga aylangandi. Tersotaliklar endi aeroplana haqida gaplashishardi. Ular zamonning alg'ov-dalg'ovlariga g'arq bo'lgan,

hayotlarida yuz berayotgan yangiliklarni hazm qilib ulgurmadsi. Yillar bilan birga hamma narsa o'zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go'yo uning uchun vaqt o'sha holigacha qotib qolganday, uni hamon o'sha ellik yil oldingi – eri va o'g'lining o'liginini askarlar tepkilab o'tishgan ustun oldidan topish mumkin edi. Mirshab va askarlar uyning har burchagidan yopirilib kelishganda Bayna momo erining murdasi ustida turardi. Rayim polvonni qo'lga tushirolmay yurgan Zamon otboqar uni uyidan chiqayotganda otib o'ldirgan, endi polvon rostdan ham o'lganmi, yo'qmi mirshablar bilan pusib-poylab, ayvonga yaqinlashib kelardi. Biroq shu payt yana o'q ovozi jarangladi va Rayim polvondan ko'z uzmay kelayotgan askar oyog'ini quchoqlagancha baqirib yiqildi. Bayna momo mehmonxona eshididan chiqaverishda otasini otib tashlashganini ko'rgach, uyga yugurib kirib ketgan, qo'liga otasining miltig'ini tutib turgan o'g'lini ko'rди – o'g'lining ko'zlarida ham eriniki kabi g'azab, telbalik yonardi. Bayna momo o'g'lini ogohlantirishga ulgurmadi. Birdaniga bir necha o'q o'vozi uning qulog'ini bitirib qo'ydi va o'g'li otasining ustiga yuztuban yiqildi – yiqilar kan, endi sabza urgan mo'ylovi titrab ketdi, onasiga bir zum qo'rquv va xijolat aralash tikildi. Zamon otboqar yugurib kelib, uning boshiga tepdi va miltiqni bir chetga uloqtirdi. Qishloqda askarlardan boshqa hech kim ko'rinas, odamlar go'yo suvga cho'kkanday g'oyib bo'lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jinoyatga loqayd va befarq boqib turardi. Bayna momo tersotaliklarni kechira olmadi – ko'kragi ilma-teshik bo'lgan o'g'liga qarata Zamon otboqar yana bir necha bor o'q uzarkan, u madad izlab, uylarning tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir ko'z tikdi, biroq u yerda sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko'rinas, zulmatga cho'kkani tuynuklar bu misli ko'rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi. Mirshablar Rayim polvon va o'g'lining o'lganiga ishonch hosil qilishgach, otlariga minib jo'narkan, Zamon otboqar eri va o'g'li ustida cho'kka tushgan Bayna momoning yelkasi osha qamchi tushirdi.

– Endi xoru zorlikda o'lib ketasan, – xirilladi u. Molingni topshir, deganda ering qo'liga miltiq ushlab biz bilan sichqon-mushuk o'ynadi. Mana endi unga hech narsaning keragi yo'q.

Mirshablar Rayim polvonning qo'radagi podasi-yu otlarini haydab ketishdi. Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo'la otasi qasosini olishi mumkin bo'lgan o'g'lini ham otib tashlaganidan xursand edi *Hurmatli kitobxon, keling, shu yerda mutolaadan bিroz chetlashaylik. Begunoh bir o'spirinning dahshatli fojiasiga sababchi bo'la turib, bundan zavqlanish hissini tuygan otboqar-ni inson deb atash mumkinmi?* – y shu ketishi bilan qishloqning ko'p narsasini haydab ketdi – endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g'arib va notavon ko'rindi. O'n besh yillardan so'ng Zamon otboqar qishloqqa qaytib kelganda qishloqdan fayz ketib, odamlar yana ham ojiz va hurkak bo'lib qolgandilar. U Rayim polvondan so'ng tashlandiq holatga kelib qolgan soy bo'yidagi bog'ga keng qilib uy qurdi: u bog'da uy qurish uchun hech kimdan ruxsat so'rab o'tirmadi. Endi u o'zi qishloqqa olib kelgan zamon havosidan yayrayotgan qishloqdoshlari ko'rish uchun otda izidan bir to'da ov itlarini ergashtirib aylanib yurarkan, qoya ostida yelkasiga o'tin ko'tarib kelayotgan Bayna momoga duch keldi. Bayna momo qarib qolgan, ammo hali ham ko'zlar ni xuddi o'n besh yil avvalgidek qahrli va nafrat to'la edi.

– Sen menga bunday qarama, – dedi Zamon otboqar qamchisini havoda silkitar ekan. – Ering bu yerda bo'lmasa boshqa yerda o'lgan bo'lardi. Sen esa xavotir olma, o'lsang itlarim ko'madi. – Shunday deb u bo'ribosarlarini ko'rsatdi. Ammo Bayna momoni u bu safar urmadi. Bayna momo ham unga bir og'iz gapirmadi. Umuman eri va o'g'lining o'limidan so'ng kamgap va odamovi bo'lib qolgandi. U Shukur oqsoqol o'z fe'lliga yarasha keng-keng qilib qurgan xonalar-da xuddi bir narsasini yo'qotgan kabi maqsadsiz kezib yurardi: u endi bu alg'ov dunyoda yolg'iz va qarovsiz qolgandi: lekin o'zining ojizligini hech qachon bildirmas, o'zidan ko'ngil so'raganlarni yomon ko'rар, go'yo hayoti hech kimga qiyo boqa olmaydigan daxlsiz sultanatdek u yoqqa biron kishini hatto so'zi bilan ham, kirishga yo'l qo'ymasdi. *Erta bahordan to kech kuzgacha saharmardon-dan oldiga besh-olti qo'y-qo'zi, echki-uloq haydagancha daryo bo'yidagi yulg'unzorga tushib ketar, u yerdan qurigan shox-shabba terib, qorong'u tushganda uyiga qaytar, bir yilda ikki-uch marta tegirmonga bug'doy ko'tarib borardi.* Uning bug'doy

ko'tarib yurishidan ori kelgan Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni insofga chaqirdi:

– Siz bunday ovora bo'lib yurmang, – dedi u. – Biron erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o'zim uyingizga olib borib tashlayman.

– Bu qishloqda erkak yo'q, – dedi Bayna momo zarda bilan, so'ng yelkasidagi bug'doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi. Gapirayotganda ovozi titrab ketdi. Tegirmonchi tilini tishlab qoldi. Bayna momo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog'li xalqning orini ko'targan, nomini chiqargan Rayim polvonni qulqoq deya ta'qib qiliqlilariga, so'ng itday xor qilib otib tashlashlariga yo'l qo'ygani va o'g'li bilan erini zamonning egasi Zamon otboqar ixtiyoriga berib qo'ygani uchun qishloqdoshlarini kechirolmas, ularga bo'lgan nafrati susayish o'rniiga, yillar o'tib, ota-bola o'ldirilgan oqshomdan uzoqlashgan sayin ko'proq o'rni va qadri bilinayotgan, o'zini hayotning barcha quvonchidan bir yo'la mahrum etgan, yolg'izlikning ko'r musibati aro tobora avjlanib, Bayna momoning keksaligi bilan birga injiq va yo'riqsiz bo'lib borardi. U ba'zida qishloqdoshlarini ochiq masxara qilardi: "E, senmisan, Salom chavandoz, xotining ishtonini kiyib yuribsanmi deyman", "Hakim otchoparmisan, buncha urg'ochi baytalga o'xshab qiyshanglaysan...", "Bu qishloqning ayollari endi faqat xezalak tug'adi". Bu masxara va nafrat yillar o'tishi bilan Bayna momoni qishloqdan butunlay ajratib qo'ydi. *Endi u yolg'iz va kimsasiz qoldi. Uni oylab birov yo'qlamas, faqat ertalab echkilarini yulg'unzorga haydab borayotganidan, kech-qurunlari qishloqni tutgan qaynayotgan sut hididan uning tirik ekanligini bilishardi. Bayna momo o'z yolg'izligi va musibatini hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan yetaklab o'tdi.* Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko'chib chiqishar va yer shudgorlar, har kim o'z tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolg'izlik dashtini shudgorlar, u yerga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o'g'lini otib tashlagan oqshomni ekar va so'ng yolg'iz o'zi hosilini ham yig'ib olardi. Bayna momo har kecha ko'z yoshlari bilan to'lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o'g'lining ilma-teshik bo'lgan murdasni va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli halqob bilan

to'lgan ayvonga suzib borar, ertalablari ho'l bo'lib ketgan yostig'ini xuddi qadim ajdodlarning unut yaloviday uyining oldidagi – oradan yillar o'tgach, uyini buzayotganlar qo'porib tashlashga kuchlari yetmagach, kovlab olishga majbur bo'lgan – baland tolga osib, oftobda quritardi. Qish paytlari g'amlab qo'ygan o'tini yetmagan kunlari u ko'rpgaga oyog'ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi. Rajab chavandoz qarindoshligi qo'zib, bir necha yil oldin g'amlab bergen o'tini omborxona ortida taxlangan joyda taxi buzilmay turardi – uni Bayna momo qazo qilganda ma'rakaga yaratishdi va barcha tersotaliklar Rayim polvon tirikligida hammaning maslahatgo'yi bo'lgan, uyi hamisha mehmonlar va polvonvachchalar bilan to'lib-toshadigan bu ayolning bunchalik nafrati va tavqi la'natiga sazovor nima gunoh qilishganini bir umr bilolmay o'tishdi. Bayna momo qishloqdoshlariiga ko'z-ko'z qilmoqchiday, bu uyning erkagi va oriyati o'limgan deya ta'kidlayotganday har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko'ziga tashlanib turadigan uyining shappatgayiga osib qo'yardi: yaktaklar ham bora-bora yillar hovuriga hamda har oyda qayta yuvadigan nafrat to'la changallarga dosh berolmadi: Zamon qassob o'limidan bir kun oldin yaktaklar torda uvada-uvada bo'lib osilib turar, ular endi kiyimdan ko'ra ko'proq qabrlar ustiga ilib qo'yadigan laxtakka o'xshab qolgandi.

Zamon otboqarning o'limi ham Bayna momoning qalbini yumshata olmadi: uning o'limi to'g'risidagi xabarni keltirishganda Bayna momo o'z hujrasida kelink sandig'i oldida cho'kka tushgancha musibatu g'amga ko'milib o'tirardi: ***uning shu turishi azob-uqubatning bir to'plam uyumiga o'xshardi***. Hujraga bosh suqqan Roziya momo unga Zamon otboqarning o'limi haqidagi xabarni yetkazdi. Barcha ayollar hozir quvonchdan hammani bir-bir quchib chiqadi deb o'ylashgandi. Ammo Bayna momo xabarni oqsuyaklardek xotirjam qabul qildi: u bu xabardan ajablanmadni ham, o'tirgan joyidan ostonadagi ayollarga burilib ham qaramadi – haykalday, go'yo toshday qotib o'tiraverdi. Faqt uning barmoqlari qaltirab turar, xonaga qon hididay noxush hid o'tirib qolgandi. ***Nima uchun bir umrlik baxtsizligiga sababchi kimsaning o'limi haqidagi xabar momoga quvonch bag'ishlamadi deb o'ylaysiz?*** ***Kampirning karaxt qiyofasiga zimdan kirishga harakat qiling.***

***Haykalday tosh qotib o'tirish, barmoqlari qaltirashi, xonadagi noxush hid zamirida qandaydir sir bordek tuyulmayaptimi sizga?*** Ayollar undan javob kutib uzoq o'tirishdi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Bayna momo ularga o'girilib ham qaramay, go'yo ularni ko'rishdan ijirg'anganday va jirkangandek alfovza "Boringlar, o'liklaringga yig'langlar" dedi. Uning qahr to'la tovushi ko'pdan buyon odam qadami yetmagan hujralar ichiga singib ketdi: u yer dan yigirma uch yillik changu g'ubor go'yo zardali ovozdan qaltirab ketgandek joylaridan bir qimirlab qo'ydi, so'ng yana hujralarga bu xonodon boshiga tushgan g'am-anduhday abadiy cho'kdi. Shunday deya Bayna momo musibat va g'am ado qilgan bu ayolning yildan yilga kichrayib, qarib borayotganidan va yuzlarini tilim qilib tashlagan ajinlaridan uyalganday faslma-fasl rangi o'zgarib, xuddi bekasi kabi tussiz, rangsiz ko'rinishga kelib qolgan va hech qachon yelkasidan tushmagan jelagi bilan yuzini ayollardan to'sib oldi; shu bilan u tersotaliklar va odamlar bilan o'rnatilajak barcha muloqotlar eshigini taqataq yopdi. Va faqat o'zigagina ma'lum, boshqa hech kim anglay olmaydigan, boshqa hech kim anglashga qodir bo'limgan o'z dunyosiga kirib ketdi. ***Shu yerda bir zumga to'xtang! Nazaringizda bu qanday dunyo?***

Bayna momo so'nggi nafasigacha o'z nafratiga sodiq qoldi. ***Sizningcha, inson butun hayoti davomida nafrat tuyg'usi bilan yashashi osonmi? Bu tuyg'uning inson ruhiyatiga qanday ta'siri bor?*** Zamon otboqarning o'limidan so'ng ham qishloqdoshlari bilan ilakishib ketolmadi. Umrining oxirida bu o'jar kampir baribir o'zlarinikiga ko'chib bormasligini sezgach, singlisi bilan kuyovining o'zları ko'chib kelishdi: ammo bu paytda Bayna momo butunlay oyoqdan qolgan, faqat kun uzog'i ko'zini shiftga tikkancha cho'zilib yotishga yarardi.

Bayna momoni eri va o'g'lining yoniga qo'yishdi: ellik yil avvalgi qabrni osongina topishdi; qabr deyarli har hafta tozalab turilganidan boshqa qabrlardan yaqqol ajralib turar va undan miskin bir anduh anqirdi. Uning Rayim polvondan so'ng deyarli yangilangan, hatto ularga ham musibat va yolg'izlik hidi o'tirib qolgan ko'yaklarini xalq laparlarini yig'ish uchun kelib, qurib ketishgan va o'sha talaba qizlardan so'ng biron marta foydalanilmagan dorga

uzoq janglardan so'ng mag'lub bo'lgan qo'shining o'zlariga o'lja qolgan tug'larini osib qo'yishgandek va qishloqdoshlaridan ellik yil nafrat qilgan ayol ustidan nihoyat g'alaba qilishgandek bir-bir osib chiqishdi. Talaba qizlar o'shanda Zamon otboqarnikiga yig'ilgach, pishiriq-mishiriqlarni boshlashgan ayollar qiy-chuv qilishayotgan oqshomda kelishgandi. Ularning kelishi bilan Zamon otboqarnikida boshlangan to'y tashvishlari qo'shilib ketdi. Biroq qizlar qishloq irimlarini nazarga ham ilishmadi. Bayna momonikiga kela-solib, kir yuvishga tushdilar – ular ichko'y lak, ro'mol, yana Bayna momoga g'alati ko'ringan shimlarini shundoq hammaga ko'z-ko'z bo'ladigan joyga bemalol osib qo'yishdi – ular Meli o'qituvchining "qishloqdagi eng keksa ayol" degan bir og'iz gapi bilan Bayna momonikiga kelib o'rashib olishgan, aftidan, hali-beri ketishmoqchiga o'xshamasdi. Bayna momo ular bilan ochilib gaplashmadi ham. U kechqurun echkilarni sog'arkan, qizlar hayratdan qiy-chuv qilib yubordilar: ularning birontasi ham echki sog'ishni ko'rmagandi. Qizlarning bir-ikkitasi Bayna momoga yaqinroq kelib, uning echki yeliniga borib kelayotgan qoqsuyak qo'llariga qaradilar: mirshablarning hafsalasini pir qilgan, xuddi uyning devori kabi yillar uqalay-uqalay jimit-dek qilib qo'ygan gavdasini sal oldinga egib turganidan uning o'zi ham qari va ozg'in echkiga o'xshab qolgandi.

– Agar o'g'lingiz bo'lganda men sizga jon-jon deb kelin bo'lardim,  
– dedi qizlardan shaddodrog'i Bayna momoning echki sog'ishidan zavqi kelib. Bayna momo unga o'qrayib qaradi va ko'zlarida birdan alam yondi: qizlar qo'rqib ketishdi: ko'z oldilarida Bayna momoning butun tanasi birdan tutab jo'naganday tuyuldi. Qizlar dud hidini aniq sezishdi. Bayna momo o'rnidan turdi-da, qo'lidagi kadi ni supaga qo'yib, ichkari kirib ketdi va shu kirgani bilan ertasiga echkilarni yulg'unzorga haydab ketmaguncha qaytib chiqmadi. Choshgoh payti echkilarni haydab ketar ekan, qizlarga biro og'iz ham gapirmadi. U xuddi oyparastga o'xshab ketib borar, echkilari yulg'unzorga emas, Po'lat cholning bedapoyasiga qarab ketayotganini ham sezmay yulg'unzor tarafga yo'l olgandi. **Kampirning shu holatini tasavvuringizda jonlantirishga urinib ko'ring.** Po'lat chol qorni shishib ketgan echkilarni haydab kelganda Bayna momoni uyidan topolmadi: u allamahal, oy atrofni sutday yoritgan-

da sharpaday kirib ketib, to mirshablar so'rab kelmaguncha uydan chiqmadı. Qizlar bir hafta uning og'zini poylab ovora bo'lishgach, biron narsaga erisholmay qaytib ketishdi. Ular uy oldida paydo bo'lishlari bilan uyning tanazzulga yuz tutgani birdan bilinib qoldi. Ular navqiron va go'zal edilar, uydan va Bayna momodan chirkinlik va musibat hidi kelar, navqironlik oldida birdan uy ham, Bayna momo ham keksayib qolganday edi. Ular uyg'a o'rashib qolgan yolg'izlik va musibatni cho'chitib, so'ng quvib yubormoqchiday tinmay xoxolashardilar. Talaba qizlarning ochiq-sochiqligi va lorisllagan tanalarini ko'z-ko'z qilish uchun kiyib olgan tor shimu ko'yylaklari, kalta sochlari-yu g'alati, oppoq paypoqlari ham tabiatan tekin tomoshani yaxshi ko'radigan tersotaliklarning e'tiborini tortolmadi: ularning shahar atiri ufurib turadigan noz va tamannolari sirli tarzda o'ldirilgan otboqarning azasi orasida ko'zga tashlanmay qoldi. Uzoq vaqt farzandsizlik azobini tortgan otboqarni qirqdan oshib dunyoga kelgan uch o'g'liga birvarakayiga dabdabali to'y qilish uchun kazo-kazolarni shaxsan o'zi aytib kelish maqsadida shahar tushib ketgandan ikki kundan so'ng ertalab daryo bo'yidagi yulg'unzor ichidan chavaqlangan holda topib olishganda allaqa-chon to'y qozonlari qurilib, uzoq manzillardan ba'zi mehmonlar kela boshlagan edi. Uzoq yillar o'zlariga suyanchiq bo'lib kelgan otboqarning o'limi xuddi dushmanlaridan o'zlarini asrab turgan qo'rg'onlari qulagandek tersotaliklarni birdan mung'aytirib qo'ydi – ular qariyb yigirma besh yil rahnamo va peshvolari bo'lib kelgan odamning o'limidan qattiq qayg'uga tushdilar. Ertasiga yetib kelgan mirshablar qishloqdagi har bir erkak bilan gaplashib chiqdi, so'ng ular Bayna momonikiga yo'l oldilar – ular yigirma uch yil muqaddam otboqar tufayli eri va o'g'lidan ajralgan ayolni to'satdan eslab qolishgandi. Biroq uloqlar ichida uloqdan ham kichik jussali, yuziga yillarning beshafqat muhri bosilgan hamda yolg'izlikka mahkum etilgan, har bir soniyaning musibatu anduhi asorati porlab turgan kichkina, jimitday, sochlari oppoq bo'lib qolan kampirni ko'rishgach, negadir botinisholmadi – ular qarshilaridagi ramaqijon kampir bilan devday Zamon otboqarni qiyoslashib, o'z shuhbalaridan uyalib ketishdi, chog'i, indamay iziga qaytdilar. Ular, garchi Bayna momoni so'roq qilganlarida ham hech narsaga erisha olmasdilar – u keyingi

yillarda bir og'iz ham gapirmagan, so'zlar va ularning ma'nosi uning xotirasidan chiqib ketganday yoki o'zmohiyatini yo'qotganday, o'z qayg'u va azobi bilan kунларни zo'rg'a yengib yashayotan edi. Zamon otboqar itday o'lim topgandi. Jasadning shu turishi avval o'zi, keyin tepasi qulab tushgan ulkan minorni eslatardi – kiyimlar pora-pora yirtilgan, avrati uzib tashlangan, o'nta barmoqning hammasi kesib olingandi... Baribir barmoqni izlab topisholmadi. Jasadni barmoqsiz ko'mishga to'g'ri keldi: butun qishloq naq qiyomat maydonga aylangandi: ayollar uvvos solib yig'lashar ekan, endi sochlari qorday oppoq, deyarli arvohga aylangan, qishloqdoshlarining xotirasidan ham chiqib ketgan Bayna momo tom ustida Rayim polvonni itday otib tashlashlaridan bir necha daqiqa oldin otini egarlash uchun olib chiqayotib, o'qqa duchor bo'lgan, yillar pora-pora qilib tashlagan jabduq ustiga cho'kka tushgancha to'y deb kelib, aza berayotgan qishloqdoshlarini kuzatib, xuddi qutlug' bir vazifani o'tab, endi dunyoda armoni qolmagandek, yillar g'ijimlab tashlagan yuzida bir jununvash ifoda qotib qolgan holda tersotaliklar hayotiga yigirma uch yil soya solgan tosh haykal kabi qilt etmasdan o'tirardi.

Nihoyat bu kampirning ham sitamgar kitobi o'qib bo'lindi – u laylatulqadr kutilayotgan oqshom yog'och va ko'p yillik anduhlar hidi o'tirib qolgan, sodiq qo'shriday ellik yilning biron kuni ham tark etilmagan g'amnok va alamli sultanati – kelinlik to'shagida jimgina joni uzildi – faqat o'lishi oldidan singlisini chaqirib yigirma yildan buyon ochilmagan, oltmish yetti yil oldin teraklilik Ko'r Safar usta yasagan, yarim vayrona sandiqqa imo qildi va bir so'z demay to'shakka bosh qo'yib jimgina jon berdi. Uni ertasiga tushga ya-qin chiqarishdi. Udumga ko'ra azaga O'raning barcha qishlog'idan odamlar terilib kelishdi – amir zamonlarini ko'rgan, narigi asrning so'nggi yodgori bo'lgan qishloqdoshlarini so'nggi yo'lga kuzatish uchun barcha keksa-yu yosh yig'ildi. Yig'ilganlar orasida Rayim polvon bilan o'g'lini himoya qilolmay, Bayna momoning bir umrlik nafratiga duchor bo'lgan, o'sha paytda navqiron, endi sharti ketib, parti qolgan chollar ham bor edi. Ular oradan ellik yil o'tgach, bu unut va muztar go'shaga birinchi bor qadam qo'yishgan va tobut ortidan gunohkorona bo'yin egib borishardi.

Murdani yuvish oldidan sandiqni ochishdi. Avval o'limlikka atalgan kiyim-kechaklarni, kafanni olishdi, so'ng dastasi qorayib qolgan qamchi, sopiga gavhar o'rnatilgan xanjar, erkak kishining ter hidi kelib turgan kalapo'shi, ko'krakka taqadigan zebigardon, kampirning qo'lida hech qachon ko'rinnmagan kelinlik bilaguzugi, etagi kashtali, yoqasiga tasma urilgan keng ko'ylak, angishvona va sarg'ayib ketgan Qur'onne olishdi. Eng oxirida sandiqdan bog'ichini chirk bog'lagan, kaptarning yuragidek kichkina, matosi zar sim bilan tikilgan, ko'p yillik qon qotib qolgan tumor va tig'i zanglagan qaychi, ko'p yil turganidan bo'g'in-bo'g'in bo'lib, faqat suyakning o'zi qolgan, u ham qoramfir tus olib, naq kukunga aylanish arafa-siga kelgan, chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta odam barmog'i ham topildi...<sup>1</sup>

*Hurmatli o'quvchi, ishonchimiz komilki, siz hikoyani chuqur bir dardni his qilgan holda o'qib chiqdingiz. Endi esa, biz sizni hayotiy kuzatishlarinigiz va mutolaa davomidagi taassurot-laringiz asosida mushohada yuritmoqqa chorlab qolamiz.*

<sup>1</sup> Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalari.–T.: Sharq, 2008. 251-260-b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. Voqealar rivojidan asar sarlavhasi va qahramonlarning nomlanishi sabablarini topishga urinib ko'ring.
2. Asarda xalqimizning erkka tashnalik kayfiyati,adolat tantanasiga ishonchsizlik g'oyasi qanday vositalar orqali ochib beriladi?
3. Voqealar rivojida ko'pincha tersotaliklarning sukut saqlashi, voqealarni jimgina kuzatishi lavhalariga duch keldingiz. Bunday tasvirlar orqali qishloq ahli ko'z oldingizda qanday qiyofada namoyon bo'ldi? Sabrlimi, uzoqni o'ylab ish ko'rvuchimi yoki momo takrorlaganidek, qo'rqaqlilikmi? Agar buning boshqa sabablari ham bo'lsa, uni matnga tayanib izohlang.
4. Hikoyadan ko'ngli mudroq odamlar ruhiyati va jamiyat psixologiyasi o'rtasidagi bog'lilikni aniqlab tahlil qiling.
5. Momoning hamqishloqlariga qo'pol muomalasi, chin yurakdan taklif qilingan ko'maklarini rad etishi sabablarini xudbinlik yoki manmanlik sifatida baholash mumkinmi?
6. Yillar davomida qahramon qon-qoniga singib ulgurgan odatlarni illat deb bo'ladimi?
7. Hissiz, o'zgalar dardi begona kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatining ramzlar orqali ochib berilishi, shaxsning par-chalanishi sabablariga munosabat bildiring.
8. Bayna momo ruhiyatidagi qarama-qarshi umr manzarasini tasvirlashda yozuvchi qanday yo'nalishga tayanadi?
9. Asarda inson xotirasi va sha'ni masalasi qanday jarayonda aks ettiriladi?

## **YUZMA-YUZ**

---

### **(Nazar Eshonqul bilan E.Norbo'tayeva suhbati)**

Yozuvchining ijodiy konsepsiysi ko'proq nimalarda aks etadi? Uning qahramonlari tabiatidami yoxud adibning tasvir usullarida? "Sariq matbuot" e'lom qilayotgan soxta asarlar haqiqiy san'at asarlarini baholash mezonlariga ta'sir ko'rsatmayaptimi? Bu savollar adabiyot muxlislari bilan birga adabiyotchilaru adib-larning o'zini ham o'ylantirishi tabiiy. Taniqli adib Nazar Eshonqul bilan suhbat shu xususda.

*- Nazar aka, avvalo, suhbatimizni kitoblarining muqovalarida beriladigan suratlardan boshlasak. Negaki ular shunchaki qarab qo'yiladigan suratlar emas. Ularni o'zingiz tanlaysizmi yo rassom ixtiyoriga topshirasizmi?*

– Kitoblarimdagи suratlarni ukam – adabiyotshunos Jabbor Eshonqul tanlagan. To'g'risi kitob nashr qilishga uquvim yo'q. Keyingi uchala kitobdagi suratlar ham Salvador Daliniki. Bu suratlar mening ruhiyatimga yaqinroq. Nashr va bezak ishlarini ukamga topshirganman.

*- Asarlaringizda tez-tez rassom obraziga murojaat qilib turasiz. Bu nima bilan bog'liq? Umuman, ushbu san'at turiga nechog'lik qiziqish, hurmat bilan qaraysiz?*

– Rassom obrazi, menimcha, amalga oshmay qolgan orzularamidan bo'lsa kerak. Rassom bo'lishni ko'p orzu qilganman. Keyin ichki "men"imni rassom obrazi orqali berish o'zim uchun qulay va oson. Men rassomning tasavvur dunyosiga yaqindayman. Shuning uchun mazkur yo'lni tanlagan bo'lsam kerak. Aslida, rassom – mening o'zim. Umuman, o'zimni hikoyalarimda faylasuf, olim, rassom, bastakor, qadim qo'shiqchi aytuvchi qiyofasida tez-tez tasavvur qilib turaman. Agar san'at asari bo'lsa, har qanday

turini hurmat qilaman va hayratga tushaman. San'at – insoniyat yaralgandan beri kashf etgan millionlab narsa-vositalar ichida qalbni va ruhni qutqarishi, davolashi mumkin bo'lgan bordan-bir vosita. Men san'atdan bir qadam uzoqlashish yovuzlikka bir qadam yaqinlashish degan bo'lardim. (San'at haqidagi fikrimning bugun o'zlarini "san'at yulduzlari" deb atayotganlarga hech qanday aloqasi yo'q).

*- Hozircha o'quvchilarga e'lon qilingan to'rtta qissangiz ma'lum. Lekin shulardan uchtasi ("Urush odamlari", "Qora kitob", "Tun panjaralari") adabiy davralarda tez-tez tilga ol-nadi. "Momoqo'shiq" esa deyarli eslanmayotgandek. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?*

– "Momoqo'shiq" jurnalda e'lon qilinmagani uchun bo'lsa kerak... Qolaversa, bu qissani qayta ishslashga o'zimda kuch topolmadim. 1989-yili birinchi bor qanday nashr etilgan bo'lsa, shu holicha yotdi va hozir ham shu holicha bosildi. Aslida, voqelikka boshqacha yondashmoqchi edim. Nimadir, o'sha davrdagi hissiyotlarimmi, xalaqt berdi. Natijada shu qissa chiqdi. Keyin uni tashlab qo'ydim. Menga qizig'i yo'qday edi. Jabbor uni e'lon qilishga ko'ndirdi. Qissadagi Momo obrazi meni ko'proq maftun etgandi. "Urush odamlari"dagi katta kelin, bu qissadagi Muazzam men uchun juda yaqin, bir-birini to'ldiradigandek. Keyinchalik bu asarda topilmagan narsani "Shamolni turib bo'lmaydi" hikoyasida Bayna momo obrazida topdim. Aslida, qissa yozaman deganimda men uchun ikkalasi bir obraz edi. Qissa aynan "Shamolni turib bo'lmaydi"ning muqaddimasi bo'lishi kerak edi.

*- Noan'anaviy yo'nalişda yozilgan asarlariningizda tinimsiz ravishda tun, qora, zulmat, tobut, o'lik, xaroba sifatlariga murojaat etasiz. Bu bilan o'quvchini ruhan toliqtirib yo asaringizdan bezdirib qo'yishdan cho'chimaysizmi? Umuman, sizningcha, ijodkor asar yaratayotganda o'quvchini e'tiborga olishi kerakmi?..*

– An'anaga qaysi tomondan qarashga bog'liq. Agar quruq bayon qilib berish an'anaviy bo'lsa, to'g'ri, men bundan qochishga urinaman. Aslida, o'ta noan'anaviy yozaman. O'zim shunday

o'ylayman. Navoiy, Bobur, Mashrab yoki dostonlarimizga bir qarang. Ularni sinchiklab o'rgansangiz, men oddiy an'anaparast mashq qiluvchi bo'lib qolaman. Ularning asarlarida ham "tun", "qoralik", "zulmat" va hokazo siz sanagan rangu obrazlar (esingizda bo'lsa, "Tun panjaralari" Navoiyning "Boshimg'a, ko'rki, ne tun kelturibsen..." degan bayti bilan boshlanadi) birinchi o'rinda turadi. Go'rda tug'ilgan Go'ro'g'li, bir o'g'il er bo'lib yetishadi-gan vaqt mobaynida zindonga mahkum etilgan Alpomish (Yodgor balog'atga yetishi uchun uni shuncha vaqt zindonda saqlash shartmidi? Yoki nega yetti yil, sakkiz yoki olti yil emas? Nimani anglatadi yetti soni? Zindon-chi?), sandiqda majburan oqizilgan Tohir, Farhodu Shirin fojiasi bizga nimani anglatyapti? Bu yerda siz aytgan "qora" narsadan tashqari yana qanday tashbeh-ishora, ramz bo'lishi mumkin? Nega go'rda tug'ildi? Nega zindon qilindi? Nega shahzoda bo'la turib o'lim topdi? Buyuk xalq va buyuk ajdodlar tafakkuri bizga bular orqali nima deyapti? Bu yerda qanday falsafiy kalit bor? Agar savollarni davom ettirsak, yana ko'plab yangi savollar tug'iladi. Men ana shu buyuk savollarga ilojim yetganicha, aqlim, idrokim qabul qilganicha javob izlashga uringanman, xolos. Meni voqeа emas, uning mohiyati qiziqtiradi. Agar shu mohiyatni – hikmatni topa olsak, sizu biz "qora" deb ta'riflayotgan ko'pgina narsalar inson aqlu shuurini yoritadigan nurga aylanadi. Qaysi o'quvchini e'tiborga olish kerak? Navoiyni, Boburni o'qiydigan, dostonlarimizdagi hikmatlarni kashf qiladi-gan o'quvchinimi yoki ikkita lo'li baronning bir o'zbek qizini talashgani yoki daydi qizning kundaligi aks etgan asarni o'qiydigan o'quvchinimi?

**- Asarlaringizda ekzistensializm mavjudligi haqida aytilan fikrlarga qanday qaraysiz?**

– Agar tanqidchilar shu fikrda bo'lsa, bu ularning ishi. Men Kamyuni ham, Sartrni ham o'qiganman va ular mansub oqimni o'zimga ancha yaqin olaman. Ekzistensializm bilan tasavvurimda yaqinlik ko'p. Mavjudlik falsafasi, avvalo "men"lik falsafasidir.

**- Kimdir sizning an'anaviy usulda yozilgan asarlaringizni, yana kimlardir falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan, ramz, ishoralar**

***vositasida ifodalanganlarini yoqtirib o'qiydi. Ushbu holatdan o'quvchilaringizning didini ajratish mumkinmi, yanayam aniqrog'i, aqliy va hissiy didlar orasida tafovutlar ko'pmi?***

- Aql hissiyot orqali paydo bo'ladi, hisga esa hamisha aql yo'l ko'rsatadi. Faqat bu yerda ham hislar kimnikiligiga bog'liq. Agar u bilimdon va ma'rifatli odamniki bo'lsa, tafovut yo'q. Agar hali tariqatning bu bosqichiga ko'tarilmagan bo'lsa, bor. Osmon bilan yercha farq mavjud. Ma'rifatli odamlarning aqli va hissi bir mezonda turadi. Faqat ma'rifatsiz va johil odamlar yovuz va mustabid bo'lishadi. Ma'rifatli ong esa hamma narsadan go'zallik izlaydi va go'zallik yaratadi.

***Nima deb o'ylaysiz, ilgarigi zamonda yashaganlarga nisbatan bugunning odamlari his-hayajon, hayratdan ko'ra ko'proq aql-idrokka imkon berib yashayotgandek. Bu ahvolda adabiyotga qiziqish ham haminqadar bo'lib qolmasmikan?***

- Xavf bor. Bu xavfni biz olomon madaniyati bostirib kelayotganidan va barchani qamrab, o'z girdobiga olayotganidan ko'rib turibmiz. Bugungi yengil shou-tomoshalar, musiqalaru mash-shoqbozlikka qanchalik asir bo'lsak, mazkur xavf shunchalik kuchayadi. Millat ziylisining vazifasi esa o'z millatini ana shu xatardan xalos qilolmasa, undan ertaga bizni siz aytgan quruq aql va moddiy o'lchovlardan iborat sovuq kelajak kutib turibdi. Agar xalos etisholsa, u holda biz milliy vijdon va milliy didimizni saqlab qolamiz. Shunda san'at ham qoladi, kitob ham.

***Bugungi tanqidchilikdan ko'nglingiz to'ladimi? Milliy adabiyotimizning ertasini qanday tasavvur etasiz? Tanqidchilarimiz o'quvchi didini yengil, oldi-qochdi asarlari orqali zaharlab ulgurgan "sariq matbuot" ofatidan saqlab qola olarmikan?***

- Ular bu fojiani his qilishyaptimi? Tanqidchilik o'z o'rnini ko'cha cho'pchaklari "magnat"lariga bo'shatib berib qo'ymadimi? Ertangi adabiyot ana shu savolga jo'yali javobdan keyin ma'lum bo'ladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Nazar Eshonqul. Menden "men" gacha. – T.: "Akademnashr", 2014. – 162-166-b.

## **Mustaqil mutolaaga yozuvchi ijodidan**

1. Urush odamlari.
2. Maymun yetaklagan odam

*Martning boshlarida Hojar to'satdan isitmalab yotib qoldiyu, Anziratni qo'rqitib yubordi. Hojarning ahvoli og'ir, qorda yalang oyoq yuraman deb o'zini sovuqqa oldirgan edi. Anzirat o'tin tilanib uyma-uy yugurar, uylari sovuq, zax, ustidan chakka o'tib, ko'lmak bo'lib qolgan, singan derazaning bir chetidan huvillab izg'irin kirar, qishning oxiri ko'rinxasdi...<sup>1</sup>*

**Urush odamlari**

---

<sup>1</sup> Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – T.: Sharq, 2008. – 51-b.

## MUHAMMAD RAHMON IJODINI O'RGANISH



*Hech shubha yo'qki, odamlar har xil din va mazhabdan, har xil qabila va millatdan bo'lsalar ham, bir otaning va yagona jinsning farzandi. Boshqacha qilib aytganda, bir-birlarining aka-ukalaridir. Shunday ekan, ular bir-birlariga muhabbatli va shafqatli bo'lislari shart, ya'ni o'zaro umumiyligi birodarlikni yuzaga keltirishlari kerak.*

ABDURAUF FITRAT

### MUHAMMAD RAHMON (1949-yilda tug'ilgan)

Quyosh – tanho.  
Oy – tanho.  
Umr – tanho.  
Izla,  
Top!  
Ajrim qlib ol: nima  
O'tkinchi, nima muhim.  
Beshafqat savollarga  
Bo'lgin munosib javob.  
Mohiyatga kirishdan  
Cho'chimagine, bas, ruhim.

### EZGULIK ISHQIDA

Adabiyotsiz xalq, agar shunday xalq bo'lishi mumkin bo'lsa, vijdonsiz xalqdir. Men Muhammad Rahmonni xalqimizning vijdonini ta'min etayotgan insonlardan

deb bilaman. Bunday ijodkorlar umumjahon ma'naviyatining oldingi jabhalarida mahkam turib ijod etadilar va hamisha taraqqiyot sari ilgarilaydilar. Ularning egallagan sarhadlari hamisha o'zlariniki hamda ularga izdosh bo'lgan o'zgalarniki. Shuning uchun ham ular-da orqaga qaytishga yo'l yo'q. Bu yo'l ular uchun ne baxtki, mangugabekilgan.

... Muhammad Rahmonning she'riyati ko'plab mutafakkirlarimiz, shular safida Muhammad Rahmonning o'zi ham orzu qilgan ulug'vor sukunatning qobig'ini parchalab yuksalgan so'zidir. Bu so'z o'zining ishq po'chog'ini pachaqlabunib o'sgan toshyong'oqqa o'xshaydi. Ildizlari baquvvat, tanasi purviqor, mevalari aqlni ishlataladigan...

Shoirning jasorati payt poylamaydi. Uning hayoti uzluksiz jasoratlar silsilasidan iboratdir. Shoirning har bir olgan nafasi navbat-dagi nafasga ko'rsatilgan jasoratdir. Bu, ayniqsa, Muhammad Rahmonning "Abadiy nido" deb atalgan dramatik dostonida ochiq-oydin namoyon bo'lgan... Shoir bu dostonida o'zining aksar she'rlerida mavjud bo'lgan har qanday muallaqlikdan xoli samoviylikni tark etib, o'ljasini ko'rgan shunqordek, shiddat bilan yerga tashlanadi. Bu "o'lja" esa jamiyatda ham, har bir odamning ruhida mavjud bo'lganadolat tashnalik, haqiqat tarafida turib, istibdodning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda jadal ko'rsatishdir<sup>1</sup>.

**Matnazar Abdulhakim  
Shoir**

---

<sup>1</sup> Matnazar Abdulhakim. Ezgulik ishqida. Muhammad Rahmon. Yo'l ko'rayotgan odam: Saylanma. She'rlar, dostonlar. -T.: Sharq, 2010. - 5-7-b.

## **Mutolaaga tayyorlashga oid savol-topshiriqlar**

- 1. Inson degan ulug' nomga munosib bo'lishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak?*
- 2. Odamlar o'rtasidagi mehr-shafqat, diyonat va oqibat tuyg'ularining yo'qolib borayotganini bugungi globallashuv jrrayoniga bog'lash o'rinnimi?*
- 3. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?*
- 4. Inson manfaatlari, sha'ni, qadr-qiymati har narsadan ustun qo'yilishi borasida mamlakatimizda qanday siyosat olib borilmoxda?*
- 5. Qur'oni karim, hadisi sharifyoki buyuk allomalarining sabr-qanoat, halollik, o'zgalar haqiga xiyonat qilmaslikka undovchi hikmatlaridan namunalar keltiring.*



# ABADIY NIDO

## Dramatik doston

### Muqaddima

Savr boshlanadi, bezavol savr,  
To poyasigacha gullar akaslar.  
Qumrilar saharni kutar besabr,  
Bog'larni to'ldirar dilkusho saslar.  
Boqar eski tomlar ichikib ko'kka,  
Boqar durbin qilib mo'rilarini.  
Uchib ketgusi bor ularning tikka,  
Tark etib tor hovli, so'rilarini.  
Bo'g'otga suykalib gullaydi o'rik,

*O'rikning bo'g'otga suykalib gullahiga alohida e'tibor qa-rating. Bu tasvir zamirida qanday ma'no mujassam?*

Tarnovlar bo'g'zida bahoriy navo.  
Varraklar shoh tashlab boshlaydi ko'rik,  
Nastarin atriga qorishar havo.  
Qaldirg'och vijirlab sho'ng'iydi pastga,  
Yerga urilgudek oq to'shi bilan.  
Qoqigul musht tuga boshlaydi asta.

Bor mahobatiyu junbushi bilan.  
Bulut bosib kelar daf'atan shitob,  
Olov shamshirini chiqarar qindan.  
Ajib mo'jizalar ro'y berar shu tob,  
Osmonu falakda, ko'hna zaminda...

Ko'p qavatli uy qarshisida temir garajlar qatori. Chor-atrofni boshga ko'tarib avtosignalr chinqirmoqda. Avtoulov egalari saro simada hovliqib pastga tushadilar. Garajlarni ochib xotirjam bo'lishadi: hammasi joyida. Avtosignalr o'chiriladi. Kimdir bosh chayqab, kimdir yelka qisib, hamma uy-uyiga tarqaladi.

Garaj va ko'p qavatli uy o'rtasidagi maydonchada faqat Detektiv laqabli yigit, fizik (o'qituvchi), taqvodor (domla imom), Uchar (aslida Ko'char, tijoratchi) qolishadi. Ular soyabonli o'rindiqqa o'tiradilar.

#### Uchar

Ha, domla, uyqungiz qochdimi deyman,  
Xufttonni bo'lgansiz, chamamda, o'qib...

#### Taqvodor

Bir marta mashina o'g'irlatganman,  
O'sha-o'sha, inim, qolganman qo'rqi!

*Imomday dindor bir kishining narsasini o'g'irlatishdan  
yurak oldirib qo'yganini qanday izohlaysiz?*

#### Uchar

Shaloq mashinaga qolibdi kuni  
Sizdek mo'ysafidning. Aytaman betga:  
Janozasin o'qib, topshiring uni,  
Topshirib yuboring, "Vtorchermet"ga!  
Toydek gijinglagan mashina bisyor,  
Shartta bittasini oling-da, mining...

Taqvodor

Aybga buyurmaysan, omiligidim bor,  
Ustaxonami u “Vtorchermet”ing?

Uchar

Chiqit temir-tersak korxonasi u,  
Jamlanar u yerda bor temir-tersak...

Taqvodor

Shunday de... Yo'q, bizga yarashmaydi bu,  
Gunoh qarilikka yo'rg'alik qilsak.  
Eskilikka eski aravam, biroq  
Bozor-o'charimga turibdi yarab...

Uchar

Qori Ishkambaga berasiz saboq,  
**(Qori Ishkamba obrazni haqida nimalarni bilasiz?)**  
Xayolga tolaman goh sizga qarab...  
Nima ko'p, ma'raka, qo'sha-qo'sha to'y,  
Chollar izmingizda mo'l tirab ko'zi.  
Qo'lma-qo'l yurasiz har kun, uyma-uy,  
Yo'q sizda, domlajon, qorin qayg'usi.  
Boshlagan sizniki – bu qonun, yo'riq!  
Qazi-qarta bari avval siz uchun.  
Borgan joyingizdan qaytmaysiz quruq:  
Sarpo, nazr-niyoz deganday, tugun...

***Uchar haqiqatni aytdi deb o'ylaysizmi? Taqvodorni Ko'char ta'riflaganday deb bo'ladimi?***

Taqvodor

Astag'firullo de, astag'firullo,  
Mo'min mo'min bilan birodardir, bas.  
Islom sunnati bu! Elchilik! Illo  
Bizlar savobgarmiz, ta'magir emas.

***Islom sunnatiga yana nimalar kiradi?***

Uchar

Farzandlar qolgan yo'q uy-joy, hovlisiz,  
Arziydi yursangiz to'kib savlatni.  
Sarfu xarajatdan mutlaq holisiz,  
Demoqchi edimki, shuncha davlatni...

Taqvodor

Daylat nima qilsin menda, e, inim,  
Ro'zg'or tashvishi bor hamon boshimda.  
Bilasan, non yopib o'tadi kunim,  
Tandirga bosh suqish... mening yoshimda...

Uchar

Sizga nima zarur, nafaqadasiz,  
Topishi yomonmas o'g'il-qizlarni...

Taqvodor

Alloh marhamati agarchi hadsiz,  
Lekin bandasini, ya'ni bizlarni  
Yaratmagan faqat yeb yotish uchun.  
Qimirlab turmasak bo'lmaydi, inim,  
Bekordan xudo ham bezor, inchunin.

## Uchar

Domla, topping deyman ozgina tinim,  
G'ayratingiz ichga sig'masa biror  
Yengilroq yumushning boshini tuting.  
Kamtarlik qilyapsiz, sarmoyangiz bor,  
Bozor yoningizda, bozorga o'ting!  
Meva-cheva degan qahat emas, ha,  
Xususan, yozda u arzon, suvtekin.  
Qo'yliqdan olasiz ko'tarasiga,  
Chorsu bozorida maydalab sekin...

## Taqvodor

Hadisi sharifda bor shunday oyat,  
Hadisi sharifda bor qutlug' kalom:  
Hazar qilarkanlar haromdan g'oyat,  
Dovud alayhissalom.  
Yonma-yon yuradi minnati bilan,  
Tekinning tersi bor – malol, deganlar.  
Ul zot o'z qo'llaring, mehnating bilan  
Topgan luqmanggina halol deganlar!  
Payg'ambar, avliyo, bor ahli ta'miz,  
Mehnatni bilganlar ko'ngilning mulki.  
Ixroj alamiga Odam Atomiz,  
Yerda bog' qildilar – jannatdan ulgi.  
Qo'y boqqan ekanlar Rasuli akram,  
Haloldir do'zanda Naqshband oshi.  
Shoyi to'qiganlar Imomi A'zam,  
Qulf yasab kun ko'rgan Qaffol ash-Shoshiy!  
Munofiq bo'laman, inim, oqni oq,  
Qorani qora, deb aytmamasam agar.  
Yo'q, yo'q, yarashmaydi menga bu mutlaq,  
Olibstotarlikdan qilaman hazar.

## Uchar

Sizningcha, tijorat, savdo – harom ish,  
Aytsam, bahonangiz tayyor: qarimiz...  
Xotiringizdan sal bo'ldi faromush:  
Tijorat ham qilgan payg'ambarimiz!

## Taqvodor

Xaridor haqqiga qilma xiyonat,  
Nafsul-ammora deb bo'limagin tozi.  
Savdoning mezoni – insof, diyonat,  
Sotgan rozi bo'lsin, olgan ham rozi.  
Beva-bechorani, miskinni o'ylang,  
Zakot bermoqlik ham farz, amri xoliq.

## Uchar

Qaysi zakotdan kam, domlajon, so'ylang,  
Otning kallasiday soliq bor,  
Soliq!

*Ucharning gap-so'zlaridan uning qanday inson ekanligini  
bilib oldingizmi? Qahramon ismi va xatti-harakatlarida qan-  
day mutanosiblik bor?*

## Fizik

Qaffol ash-Shoshiyning qulfsoz bo'lgani,  
Men uchun yangilik.  
Darvoqe, qulf... qulf...  
KuydirGANIMI bu yoki kulgani,  
Garajga kirgan kim?  
Boshim qotdi, uf...

## Detektiv

Boshingga yomon kun tushmaguncha to,  
Mehr-oqibat ham qadrsiz tuproq.  
Yakdillik baxtda, deb o'ylabman xato,  
Kulfatda ekan, ha yakdillik ko'proq!  
Ortmaydi, ortmagan o'zidan hech kim,  
Ko'nikdik biz turmush andozasiga.  
Borgamiz, sir emas, ba'zan kechikib,  
Hattoki qarindosh janozasiga.  
Kimdir mulkimizga qildiyu daxl,  
Biz tarqoq podalar uyushib chopdik.  
Xavf-xatar qilgandek bizlarni ahil,  
Hamardamiz, nihoyat, topishdik-topdik.

*Detektiv nutqiga tegishli oxirgi to'rt misraga singdirilgan  
ma'noni angladingizmi?*

## Uchar

Aravani quruq olib qochma ko'p,  
E, uka, sen bizga berdisin gapir.  
Nega ishlab ketdi signalari, xo'p,  
Avtolar bekorga o'kirmagandir?!

## Detektiv

Mashina aslida o'lik bir buyum,  
Iztirob, og'riq yot - yo'qdir yuragi.  
Va lekin sarf bo'lgan unga - shu muhim! -  
Insonning mehnati, umr bo'lagi.  
Odam toptamaydi o'z mehnatini,  
Yo'qdir umridan ham bo'lgisi judo:  
Avtoga ko'chirgan instinctini -  
Axir, jon qayg'usi atoyi xudo!

## Fizik

Har bir hodisotni, yaxshimi, yomon,  
Bahonai sabab yetaklar ekan.  
Magarkim avtolar solibdi suron,  
Kimdir daxl qilgan,  
Nimadir tekkan...  
Lekin qandoq qilib?  
Eshiklar yopiq!  
Qulflar buzilmagan – o'zingiz guvoh.  
Kim u tinchimizni buzgan betofiq,  
Kim u bemahalda izg'igan gumroh?

## Detektiv

Konan Doyl<sup>1</sup>ni men o'qidim tun-kun,  
Sherlok Xolms ta'limi qat'iydir, aniq:  
Tashqi alomatlar aldashi mumkin,  
Fosh etish quroli mantiqdir,  
Mantiq!

## Fizik

Qo'ysan-chi, iskovuch itlarga o'xshab,  
Ne-ne burchaklarni iskab chopmadik.  
Aldamchi bo'lsa ham sen aytgan o'sha  
Tashqi alomatdan asar topmadik.  
Pashsha ham kirmagan it-mushuk tugul,  
Garajlar qulf edi kelganimizda...

## Uchar

Boshida sinardi albatta so'yil,  
O'g'rining kimligin bilganimizda!

---

<sup>1</sup> Artur Konan Doyl. Mashhur izquvar Sherlok Xolms haqidagi hikoyalar muallifi.

## Detektiv

Avtongiz joyida, qizishmang, aka,  
Illo, jahl kelsa ketarmish aql.  
O'g'ri haqidamas, signal haqida  
O'ylash kerak hozir  
Tahlil shart.  
Tahlil!  
Nechuk?  
Qanday qilib?  
Qaysi tirqishdan,  
Nima, uins-jinsmi, shamol yoki nur.  
Charchadim, rosti gap, taxmin qilishdan,  
Boshim ham bosh emas go'yo kompyuter.  
Maqsadi bo'lmasa bekordan-bekor,  
Kimsa bir yumushga aslo urinmas.  
Uels<sup>1</sup>ni o'qidim takror va takror,  
Ehtimol... odam u... ko'zga ko'rinnmas!

## Uchar

Ko'riniib turibdi: ha, ko'p o'qibsan,  
O'ta pesh aql ham kishiga ofat...  
Boshni qotirmagin cho'pchak to'qib san,  
Uels – fantastika  
Ins-jins xurofat!

## Detektiv

U-bu hodisotning izohin, sharhin  
Topmagach, boshingdan uchar ekan hush.  
Xayol, haqiqatning qolmaskan farqi...  
Yana bir taxmin bor...

---

<sup>1</sup> Gerbert Uels. "Ko'zga ko'rinnmas odam" fantastik romani muallifi.

Fizik

Eshitaylik, xo'sh?

Detektiv

Yelkamdan bosmoqda shubhaning tog'i,  
Sizga balki yolg'on, menga esa chin:  
Shahrimizga tashrif buyurgan chog'i,  
Olijanob o'g'ri janob Detochkin!

Uchar

O'g'ri... Olijanob... Detochkin... Ha-ha,  
Kayfingning borligi, ehtimol to'g'ri.  
E, bola, yolg'on ham evi bilan-da,  
Qachon oljanob bo'libdi o'g'ri!<sup>1</sup>

Detektiv

Tomosha bo'lgim yo'q, tushuning, tekin,  
Dilimda neki bor chiqdi tilimga.  
Hayotda uchramas, ko'rganman lekin  
Men shunday odamni kinofilmda!  
Oppoq qo'lqopiga tiqib qo'lini,  
O'lijasin u chetdan kuzatar edi.  
Mashina o'marib sotar,  
Pulini  
Yetimxonalarga jo'natar edi.

Uchar

O'zga hisobidan hotamtoylik, deng,  
Alining qalpog'in Valiga, demak...  
Kimsani qaqshatmas, oqil, bag'rikeng,  
Sen aytgan Detochkin qallob yo tentak!

---

<sup>1</sup> Mashhur "Avtomobildan saqlaning" filmi qahramoni nazarda tutilmoxda.

Detektiv

Yo'q-yo'q, unday demang!  
Kimki pok, halol,  
Olmagan hattoki bir ninasini.  
O'g'irlab  
Qochardi u faqat dajjol,  
Yulg'ich, poraxo'rlar mashinasini!

Taqvodor

Ptichkin, dedingmi, nimaydi oti?  
Sustlashib, bormoqda xotira o'lgor...

Detektiv

Ptichkin demadim.  
Detochkin, ota!

Taqvodor

Ha, omon bo'lgur-a, ha, omon bo'lgur.  
Yulg'ich, poraxo'rning berib dodini,  
Yetimlar boshini silabdimi, bas,  
Qasoskor atamoq kerak otini,  
Detochkin qallobmas  
Tentak ham emas!

Uchar

Insof, diyonatga bizlarni chog'lab,  
Boya ilhomingiz qaynadi, jo'shdi,  
Endi o'tiribsiz o'g'rini oqlab,  
Domlajon, bu yog'i qanchadan tushdi?!

## Fizik

Oqlamoqchi emas o'g'rini hech kim,  
Eslasam zirqirar yuragim hamon:  
Kerak bo'lgan edi bizga Detochkin,  
Shunday odamlarga zor edi zamon.

(Detektivga yuzlanib)

Bu o'tgan zamonning hangoma, gapi,  
Yosh eding, bilamiz bizlar yaxshiroq...  
Munkillagan, esar "Bosh"lari kabi,  
Chirib bo'lgan edi ichdan Ittifoq.

### ***"Bosh"lar deyilganda kimlar nazarda tutilyapti?***

(Detektiv piqirlab kuladi)

Maymun o'ynatmadim, hirnglama, yo'q,  
Latifa aytmadim ichakuzdi, zo'r...

## Detektiv

Ha, bola bo'lganman o'sha paytlar sho'x,  
Tushib bir voqeа esimga...  
Uzr!

(Bir muddat sukutdan keyin)

Dars qolib ketardi,  
Ekranda ko'zim,  
(Telenarkaman, deb so'kardi dadam!)  
Multfilm, sarguzasht, "Otalar so'zi..."  
Menden qolmas edi "Vremya" ham.  
Ko'rardim: "tom" ketgan, chalajon, o'sal...  
Bilmasdим, kim bunga yo'l qo'yar edi.  
Bosh kotib mamlakat taqdirini hal

Eltuvchi hujjatga qo'l qo'yar edi.  
El ham charchagandi motam, ko'z yoshdan,  
Go'yo kattalarga kelgandi qiron.  
Bolalik ekan-da, siz aytgan "Bosh"dan -  
Birining o'limin qilishsa e'lon,  
"Ura", "yashasin", deb qichqiribman, deng,  
Aytguvchi kimsa yo'q:  
Irg'ishlamay o'!  
Kimga aza edi o'limi "Bosh"ning,  
Bizga-chi kanikul edi, kanikul!

### Fizik

Dalada deydilar bolaning ko'ngli,  
Senga bayram bo'lgan voqeа, to'g'ri,  
Keltirgan bizlarga tashvish, tahlika.  
Kelaverib rahbar ustiga rahbar,  
Bezillab qolgandik, yuraklar zada.  
Har biri o'zicha dohiy, payg'ambar,  
Yorug' kelajakni qilardi va'da.  
Ko'rmasdi o'sha kelajak faqat,  
Shubha, umidsizlik ortib borardi.  
Aql-zakovati, mehnati bilan  
Oyni ham zabit etgan buyuk mamlakat  
Zillat botqog'iga botib borardi.  
Xorijga oqardi xalqning rizq-ro'zi,  
Shubhali rejimlar qo'llanar edi.  
Mamlakat yarim och, uzundan-uzun  
Navbatlar ilondek to'lg'onar edi.  
Tashabbus bo'g'ilgan, so'ngan intilish,  
A'yonnинг o'y-dardi ishrat, as'asa.  
Avomning matlabi kunni kech qilish,  
Yarimta arog'u bo'lak kolbasa.  
Ko'rib turganimiz emasdi ro'yo,  
Ommaviy gunqlikka, yalpi ko'rlikka.  
Cho'kay deb tursa-da sultanat arshi,

Eski ehtiroslar hamon jo'shardi.  
Bundayroq gap qilsang tuzumga qarshi,  
Jazo tegirmoni ishga tushardi.

***"Jazo tegirmoni" qanday vazifalarni bajargan? Markazdan  
kelgan "tegirmonchilar"ga kimlar qulay sharoityaratib berdilar?***

... Bir domlam bo'lardi jindek qiziqqon,  
Qiziqqon fanlarning mohiyatiga.  
Ilmu amaliyot mag'zini chaqqan.  
Til tegizib qo'ydi u birda  
Davlatning qandaydir siyosatiga.  
Qashqir to'dasiga uchragan qo'ydek,  
Sho'rlikni "faollar" rosa talashdi.  
Badnom qilindi u mahalla-ko'yda,  
Keyin ig'vogar deb ishdan haydashdi.  
Muruvvat qilibdi, ayting, kim, qachon,  
Zamonga boqmagan bechoralarga.  
Adolat istab u yugurdi sarson,  
Ne-ne mahkamalar, idoralarga.  
Tibbiy fatvo bilan uning ishini,  
Biryo'la bartaraf etib qo'yishdi:  
Beshinchi tramvay yo'nalishining  
So'nggi bekatiga eltib qo'yishdi!

Detektiv

Beshinchi tramvay... Menga notanish  
Uning borish-kelish yo'l harakati.

Fizik

Bilmaysan! Bo'lardi shunday yo'nalish,  
Jinnixona edi so'nggi bekti!

## Uchar

Baraka topmagan, bo'lmanan to'kis,  
Kov-kov, taftishchilar...  
Bobolar demish:  
Hamonki o'lishni istabdi ho'kiz,  
Oybolta, tig' bilan o'ynashar emish!  
Tinchimas, tinchitmas o'zgalarni ham,  
Suvni loyqalatar pana-panada.  
Nomi haqiqatchi, asli muttaham! –  
Bundaylarning joyi jinnixonada.  
Domlangiz ko'p qaltis yo'lidan yuribdi,  
Kimga demagandir o't-cho'qqa urin.  
Shukur qil, bir kuning o'tib turibdi,  
Siyosatga nega tiqasan burun!

## Fizik

Yashalgan kun hisob, o'tgan kun emas,  
Qadr ham bo'lsin to shunga yarasha.  
Kimsa bor is uchun jonni ayamas,  
Kimsa bir loqayddir, to'nka – tarasha.  
Maoshga kelganda ikkisi ham teng,  
Ajr, taqsimotdaadolat qani?  
Zukko olim edi o'sha domlam, deng,  
Ko'rmadim durustroq kiyinganini.  
Qo'ltig'ida doim uch-to'rtta kitob,  
Faromush yurardi, dardi ichida.  
Istagan kazzob  
Yo to'qimfe'l qassob,  
Ko'rsatardi uni oyoq uchida.  
Shukur qilsin deysiz,  
Nimaga shukur?!

Biri ikki bo'lmay o'tganigami?!

Qariganda ko'rmay huzur-halovat,  
Zahar-zaqqum yutganigami?!

Shukurmi xalqining ziyolilari  
Qatag'on yillari otilganiga.  
Masjid, madrasasi, xonaqolari  
Axlatxonalarga qotilganiga.  
Shukurmi, o'zbekning kech kuzgacha to  
Paxta deb egatga bukilganiga.  
Rahmatning o'rniغا zug'um va ig'vo,  
Boshidan mag'zava to'kilganiga?!  
Esimda: bir shoir solgan edi jar  
Yarim palag'da she'r, yarim chistonda:  
"Olis Afrikada barbarlar yashar,  
"Ber-ber"lar yashaydi O'zbekistonda..."

*Fizikning gaplari alohida diqqat qarating. Unda sobiq Itti-foq davrida xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar qay darajada o'z ifodasini topgan?*

Uchar

Ajab, yodingizda qolgani ajab,  
Kinchimizsiz, deyman qon-qon, jon-jondan.  
Tashlandingiz o'tmishga ham loy chaplab,  
Go'yoki o'zлari boshqa zamondan...

*Ucharning gaplaridan qanday ruh sezilib turibdi? Nima uchun u suhbatdoshlarining har bir so'ziga qarshi chiqmoqda?*

Fizik

Zamon tanlab tug'ilmaydi-ku inson,  
O'sha zamondanman, nima bo'pti, xo'sh?

Uchar

Yomon yashamasdik! Arzon edi non,  
Uch so'm edi aroq!

Besh so'm edi go'sht!  
Zamonga tosh otmoq noshudning ishi,  
Oqarmagan bo'lsa kosasi agar,  
Avvalo o'zidan ko'rsin har kishi,  
Mehnat qilish kerak,  
Mehnat, birodar!  
Qorni ham yoqarmish qalovin topgan,  
Tadbir izlaganning joniga to'zim.  
Kam bo'lmas hech qachon yugurgan, chopgan,  
Uzoqqqa bormaylik, mana, men o'zim...

### Taqvodor

Yo tavba, yo tavba!  
Ishlagan emish,  
Har gapga o'zini, tiqqani-tiqqan.  
Paxta ekibsanmi, teribsanmi g'isht? –  
Chayqovchi bo'lgansan uchiga chiqqan?

### Uchar

Chap yonda turgansiz, chamamda, bugun,  
Ota, haddingizdan oshavermang ko'p.  
Yoshingiz hurmati tilimda tugun,  
Bo'lmasa...

### Taqvodor

Do'qmi, bu?  
Menga ayt-chi, xo'p,  
Yolg'onmi bir narxga o'n narxni qo'shib,  
Bozor izg'iganing, xalqdan yulganing.  
Yolg'onmi qolganing so'ng qo'lga tushib,  
Bir kunda qaygadir g'oyib bo'lganing.  
Safarda dedilar...  
Safaring qursin,  
Ulanib ketdi u oydan-oylarga.

Chillak o'ynagani bormagandirsan,  
Harqalay Tovoqsoy degan joylarga.

***Taqvodorning gaplaridan Ucharning kim bo'lgani, qanday ishlar qilganini tasavvur qildingizmi?***

Uchar

Shama qilyapsizmi qamalganimga,  
Gunohkor bandamiz, dog' bor Oyda ham.  
Yeganim oldimda, yemaganim... ha,  
Yomon yashamadim o'sha joyda ham!

***Uchar qamoqda qanday kun ko'rgan deb taxmin qilasiz?  
Yigitning iqroriga tayanib javob bering.***

Taqvodor

Yomon yashamaysan! Qavming shunaqa,  
Senlar o'tda kuymas, suvda cho'kmassiz.

***Taqvodor "o'tda kuymas, suvda cho'kmass" deganda nima-ga ishora qilmoqda?***

Detektiv

Bir gap kelib qoldi, aytaymi, ota,  
Faqat qahringizni sochib to'kmaysiz...  
Reportaj berishdi kema bortidan,  
Shov-shov bo'ladigan gapmas, mashmasha...  
"Vosxod"mi, "Shatl"ga parvoz oldidan  
Kirib qolgan ekan bir xira pashsha.  
Fazoga uchibdi o'sha pashsha, deng,  
Hamsafar bo'libdi kosmonavtlarga.  
Moslashib olibdi vaznsizlikning,  
Yer tortish kuchining zahmatlariga.

Chiqqach orbitaga balo ham urmay, –  
O'rgangan ko'ngil-da, o'rtansa qo'ymas! –  
G'ing'illab uchibdi bir joyda turmay  
Kir izlabdi fazodan ham yeb to'ymas!  
Balki zamindoshlik, zamondoshlikdan  
Teranroq tuyg'udir, serqamrov, yirik.  
Xullas, kosmonavtlar uni ayashgan,  
Hatto rizqlariga etganlar sherik.  
Dunyoning bu jirkanch maxluqi, ko'rdim,  
Siqma<sup>1</sup> taomlardan tiqilar edi.  
Terlagan oynaga qornini tirab,  
Zaminga bepisand tikilar edi...

Uchar

Shoir ekansan-ku detektiv desam,  
Obbo azamat-ey, qoyilman, yasha.  
Zap ish bo'lgan ekan, men senga aytsam,  
Xo'sh, innaykeyin-chi, xo'sh innaykeyin, –  
Yerga tushibdimi kosmonavt pashsha?

Detektiv

Tushgan, qayoqqa ham borardi tushmay...

Uchar

Itlar, baqalarga qo'yishgan haykal.  
Yomon bo'lmas edi endi pashsha ham  
Biror bir maydonga ko'rak bo'lsa, sayqal!

Detektiv

Nimasiga buncha e'tibor, e'zoz,  
Tadqiqot jabrini tortganmi sira.

---

<sup>1</sup> Pasta holiga keltirilgan taom.

Fazoga parvozi – tasodif xolos,  
Bor-yo'g'i pashsha u,  
Tekinxo'r!  
Xira!

Uchar

"Xira pashsha" deysan, 'tekinxo'r", 'murtad",  
Davomli sannashing tegdi jonimga.  
Sendan qarzim bo'lsa ayt-da qo'y shart-shart,  
Shama qilayapsan nimaga, kimga?!

Taqvodor

Aqli noqisga yetdi, nihoyat,  
Tushunganning sadag'asi... Ha, balli!  
Bo'tam, topib aytding, xursandman g'oyat!..

Uchar

E-ha, pashsha bo'lib qoldikmi hali...

Taqvodor

Pashsha emassan, pashshamijozsan,  
Ori, hamiyati nafsiga qurbon.  
Muhit qanday bo'lsa o'shangang mossan,  
Iymon, e'tiqod deb koyitmaysan jon.  
Kamtar muallimni kamsitding hozir,  
Boqsang bo'larmidi o'zingga avval...

Uchar

Yurish-turishimga siz emas qozi,  
Odam bormi o'zi beayb, mukammal!

Maoshdan-maoshga yetishar zo'rg'a,  
Yana istiqbol deb vaysashar nuqlu.  
Xayoliy qasrlar qurgandan ko'ra,  
Kulbayi vayronang bo'lgani ma'qul!  
Janob muallimga aytganman: – Aka,  
Og'rimagan boshni og'ritmang zinhor.  
Yo'qdir kasbingizda unum, Baraka,  
Havodan pul qilib yurganlar ham bor! –  
O'rghaning ulardan!  
Odamdek yashang!  
Besh kunlik umrni o'tkazmang zoye.

***Sizningcha, "odamdek yashash" qanday bo'lmoq'i kerak?***

Fizik

Ya'ni demoqchisiz mакtabni tashlang...

Uchar

Ha, tashlang!  
Maktab bu lanjlarning joyi!

Fizik

Toshga yetmas emish yomg'irdan asar,  
Oh, es-siz tarbiya! –  
Yo'q boshqa so'zim,  
Shogirdlarim sizga o'xshasa agar,  
Osib o'ldiraman o'zimni o'zim!

Uchar

Sovun surtavering sirtmoqqa, illo...

## Fizik

Nimalar deyapsiz,  
Astag'furullo!  
Yiroqlar harom nafs tamalaridan,  
Baxt silar ularning peshonasini.  
Hozirdan o'y-fikr, amallarida  
Ko'ryapman yetuklik nishonasini!  
Mana, bir o'quvchim...  
Mushtdek chog'idan,  
Alfa, bettalarni suv qib ichgan.  
Tushlik ham esidan chiqib gohida  
Test jumboqlarini yechgani yechgan.  
Internet orqali bitta shogirdim,  
Imtihon topshirdi – qoyilman unga! –  
Ummon ortidagi yetti oliygor,  
Yetti man-man degan dorilfununga.  
Kirsa bo'ladimi yettoviga ham,  
Oldda talabalik tantanalari...  
Shogirdim tanlagan dorilfununning  
Bor ekan ajoyib an'analari:  
G'olibni sharaflash qarzu farzday gap  
Ularning amali-a'mollariga...  
Xullas, hilpirabdi o'zbek bayrog'i,  
San-Fransiskoning shamollarida!  
Quvonmaymi, axir, shundan keyin ham,  
Kasbimga hurmatim orta boshlaydi.  
Shomda hafsalam pir, erta tong yana  
Maktabga oyog'im torta boshlaydi.  
Vatanning ertasi uchun, ehimol,  
Bir kun shahiddurman, bir kun g'oziman,  
Chekkan aziyatim, zahmatlarimga,  
Roziman,  
Roziman,  
Ming bir roziman!

*"Vatanning ertasi uchun, ehimol, Bir kun shahiddurman,  
bir kun g'oziman" satrlarini qanday tushundingiz?.*

## Uchar

Qarqunoqdan – bulbul!  
Sensatsiya bu!  
Notavon bandaga g'oyibdan tortiq.  
Taqsir, bor tomosha oldinda hali,  
Ehtirosga berilmang!  
Tiriklik jomidan bol, zahar ichib,  
Oq ham oralaydi bir kun sochiga.  
Inson, tuyg'ularning yag'iri chiqib,  
Aylanar beo'ylov iste'molchiga!  
Daraxtni suyaydi qulasa daraxt,  
Agarchi do'stu yor, ulfat qoshida,  
Odamzod gohida yolg'izdir, karaxt,  
Xiyonat, xusumat, kulfat qoshida.  
Oqlil chora izlar o'lmaslik uchun  
Raqib raqibining ko'zin o'yadi.  
O'ziga yetadi nochorning kuchi –  
Ichadi yo o'zin osib qo'yadi.  
Hayot shunday battol,  
Shundayin qattol,  
Sinmasang sindirmasang etar belangi.  
Siz aytgan avlod ham erta, ehtimol,  
O'g'ridir, kazzobdir va yoki bangi!

### ***Uchar qay darajada haq yoki nohaq deb o'ylaysiz?***

## Taqvodor

Hay, hay, bu nima gap, bu ne iddao,  
Tavba de, oldingda bolalaring bor...

## Fizik

Dunyoni badbinlar qiladi ado...

Detektiv

Yoqqanday bo'ladi-ya saratonda qor...

Uchar

Na bir illat qoldi, na biror gunoh  
Yozg'irib bo'yninga sizlar ilmagan.  
Hatto tergovchi ham, – odamlar guvoh! –  
Shaxsimni bunchalar taftish qilmagan.  
Go'yoki kamina og'zi qon bo'ri,  
Sizlar farishtasiz etgulik tavof...  
Boshqa-boshqa bo'lar har kimning go'ri,  
Har kim o'zi uchun beradi javob!  
Xohlaysizmi-yo'qmi, haqiqat shudir!  
Xo'p, xayr!  
Uyqdan qolganman kecha...

Taqvodor

Qabrdan gap ochding...  
Yo'q, shoshma, o'tir!  
Endi sen ham eshit oxirigacha.  
Pul dadir tunu kun fikru xayoling,  
Uyqung yo'q bir kuni bo'lmasa tushum.  
Bozorni-ku tamom egallab olding,  
Endi... mozorga ham boshlabsan hujum.

Uchar

Hujum? Mozorga-ya? Domlajon, nima,  
Qaroqchi bo'ldimmi sizga, muttaham...

Taqvodor

Miyasi aynigan, bilmaydi dema,

Battarsan, battarsan qaroqchidan ham!

Uchar

Domla, haqorat bu, haqorat! Tahqir!  
O'la-ya yetmayin toki niyatga...

Taqvodor

Qasamxo'r, men emas, borgan sen, axir,  
Ariza ko'tarib hokimiyatga!

Uchar

E-ha, gap bu yoqda ekan-da! Obbo,  
Yuribman deng seni kuzatib zimdan.  
Shipyon emasmisiz, domla, mabodo,  
Eshita qoldingiz qayerdan, kimdan?

Taqvodor

Bilishing shart emas!

Uchar

Borganman! Bordim!  
Va lekin ko'nglingiz bo'laversin to'q:  
Na sotdim birovni va na yolvordim,  
Shukur, ustim butun, och qolganim yo'q.  
O'tib yotgani yo'q tomimdan chakka,  
Nurab tushgani yo'q devorim bexos...  
Hokim huzuriga yakkayu yakka  
Xolis niyat bilan borganman, xolos!  
Yotar dov-daraxti qovjirab, chatnab,  
Yo'laklar to'libdi qamishga, dedim.  
Bering falon joyni nomimga xatlab,

Qilaman saranjom-sarishta, dedim.  
Yarashmas kuzatsam chetda o'ltirib,  
Butun el himmati jo'sh urgan paytda...

Taqvodor

Falon joyni, deding og'iz to'ldirib,  
U nechuk joy o'zi?  
Buni ham ayt-da!

Uchar

Domla-ya, o'chmisiz, deyman kulguga,  
Mijg'ov, xira pashsha desammi sizni...

Taqvodor

(*Fizik bilan Detektivga*)

Aylantirmoqchi u shaxsiy mulkiga,  
So'nggi manzilimiz – mozorimizni!

***Ucharning "xolis niyati" zamirida qanday manfaat ko'ryapsiz?***

Detektiv

Tushundim, nima dedingiz, nima?

Fizik

Eshitmagan edim shu yoshga kirib...

Taqvodor

Olmoqchi bo'lган u mozorni, ha, ha,  
Xususiy lashtirib!

Hokim yosh bo'lsa ham bama'ni, esli,  
O'pardim duch kelsa peshonasidan...  
Ketiga tepibди bu g'alamisni,  
Haydab chiqaribdi ishxonasidan!

### Uchar

Shoshmang, kelib qolar mening ham galim,  
O'sha hokimchangiz qulashi ayon.  
U so'tak bilmaydi, bilmaydi hali,  
Islohot muqarrar, o'jar jarayon.  
Eskicha qarashlar abadiy emas  
Ha, bugun bo'lmasa erta o'ladi.  
Toki hammaniki – hech kimnikimas,  
Egalik mulkgina chin mulk bo'ladi.  
Majlisdan-majlisdan shataloq otib  
Yugurar, qayoqda hokimning ko'zi,  
Korxona o'likmi, ayama, sot deb,  
Aytib turibdi-ku davrning o'zi!

### Fizik

Maosh to'lamagan yolchitib, hatto  
Ta'tilga jo'natgan jamoasini,  
Suvdan qarz, soliqdan, elektrdan yo,  
O'zi yecholmagan muammosini.  
Dov-daskasi eski, chaqaga qimmat  
Mahsuloti kuya, kalamushga yem,  
Kasod korxonani sot, degan faqat,  
Yo'q, yo'q, sot demagan mozorni hech kim!

### Taqvodor

Har gapdan to'n bichma o'zingga moslab,  
Arvohlar chirqirab chekmasin ozor.  
Tanangga o'ylab boq, ko'rgin taqqoslab:

Axir, bu bozormas, mozor-a, mozor!  
O'tdan-o'tga solar goh kibr, g'urur,  
Goho hoyu havas, maslak burda non...  
Tinib-tinchimaydi inson bir umr.  
Faqat tin oladi qabrida inson!  
Mayllar, istaklar barbod, chilparchin.  
Taqdirga tan berar bunda raqiblar.  
Bunda barham topar adovatu kin,  
Bunda barham topar quvg'in, ta'qiblar.  
Shohu gado bunda barobardir, teng.  
Tengdir yalangoyoq, sarvatdor, g'aniy.  
Bir puldir bu yerda unvon, mansabing  
Barchaning rutbasi marhummdir ya'ni.  
Yoqangni chok etib to'kma qancha yosh,  
Ko'kka o'rlamasin nolayi zoring,  
Sado yo'q,  
Qabrdan ko'taromas bosh,  
Na otang, na onang, suyukli yoring!  
Mozor indamaslar mamlakati, deb  
Nola qilmaydi-da bekorga hofiz.  
Bunda jimlikkina sharpasiz daydib,  
Xotiralar kezar o'ychan va yolg'iz...

### Detektiv

Tush ko'rdim yaqinda  
Rahmatli bobom  
Mendan ranjigandek, ko'zları mungli...  
Uyqum, halovatim yo'qoldi tamom,  
Tongda qabristonga yo'l oldim.  
Ko'nglim  
G'ashlik, xijillikdan forig' bo'ldi sal  
Ruhi poklariga fotiha o'qib,  
Ilkis ilg'agandek bo'ldim shu mahal:  
Kimdir yelkam osha turar tikilib.  
O'grildim! Taxtadek qotdim, yo falak!

Qora marmar toshdan javdirab ko'zi,  
Tikilib turardi menga bir malak,  
Naq Shirin edi u, Laylining o'zi!  
Qazo sanasini o'qidim-u, bir  
Vahimam o'n bo'ldi, qaltirab tizzam:  
Bunchalar beomon bo'lmasa taqdir, -  
To'lmanagan ekan u yigirmaga ham!  
O'y bosdi daf'atan, og'ir o'y bosdi:  
Men ham bir kun... nahot, bo'lmasa chora?!  
O'lim haqligiga o'sha kun, rosti,  
Iyomon keltirganman, iyomon, ilk bora!  
Ayricha nazar-la boqqandek bo'ldim,  
Ilk bor odamlarga, olam, o'zimga,  
Ota-onam, mahallam, tug'ilgan uyim,  
Bir aziz ko'rinish ketdi ko'zimga.  
Bir aziz ko'rindi sharqiragan soy,  
Tongi sabolarning jim esishlari.  
Bulutlar oralab suzgan to'lin oy,  
Yulduzlarning milt-milt ko'z qisishlari.  
Barchasi-barchasi yurakka yaqin...  
Barchasi men uchun g'animat ekan.  
Umr - bir lov etib so'nguvchi chaqin,  
Tiriklikning o'zi bir ne'mat ekan.  
Ketmas ko'z o'ngimdan, eslaganim payt,  
Yoshlarim keladi seldek quyulib.  
Qabr toshidagi iztirobli bayt  
Go'yo yuragimda qolgan o'yilib:  
"Ko'rар ko'zim eding bittayu bitta,  
Oy, yulduzim eding bittayu bitta.  
Voh, seni so'ldirdi zolim saraton,  
Gulim, qizim eding bittayu bitta".

Uchar

Xomkalla Jo'qining ijodimi bu?  
"Zolim", "So'ldirdi"... xo'sh, nega, nimaga?

Saraton to'kinlik, pishiqchilik-ku,  
Bozor to'lib ketar meva-chevaga.

### Detektiv

Uf, yana bozormi, uf, yana bozor!  
Aylanib bo'libdi yurak ham toshga.  
Ayting, kallangizda yana nima bor,  
Shu o'lgur savdoyu bozordan boshqa?!  
Har kuni Navoiy ko'chasi bo'ylab,  
Mashinada ming bor qatnaysiz g'iz-g'iz,

### Taqvodor

Sadqayi suxaning, kuyinma, jigar,  
Ko'ngildan yiroqdir kimki nafsga qul.  
Ko'zlari ko'r buning, quloqlari kar,  
Puldir payg'ambari!  
Xudosi ham pul!

### Uchar

Otam-a, och qorin to'yibdi qachon,  
Quruq nasihatdan, vaysash, xitobdan.  
Bozorga yuz tutgan jumlai jahon,  
Hayot iboratdir hisob-kitobdan.  
Meni savodsizga chiqardi hozir,  
Mana bu tirrancha,  
Ko'z yosh qilyapti...  
Bizda ham yurak bor!  
Bilaman, og'ir!  
Juvonmarg qizchaga rahmim kelyapti!  
Va lekin, nachora,.. Bo'lar ish bo'lgan!  
Tushmasin bunday kun kimsa boshiga.  
Tiriklar tashvishi – tiriklarga tan:

Ayting, o'sha qizning qabrv toshiga  
Nima bo'lar kimdir ko'z olaytirsa?..

Detektiv

Nega ko'z olaytiradi? Qaysi nomard, kim?

Uchar

Deylik, devor oshib mozorga tushsa,  
Uyiga ko'tarib ketsa imi-jim...

Fizik

Niyatni qarang-a! Ha, egri tutun –  
Egri mo'rikondan, – xalq bilib aytgan.

Taqvodor

Bu ishni qilsa ham qilishi mumkin,  
Faqat insofi yo'q, xudodan qaytgan!

Uchar

Marmar qurilishbop uskuna juda,  
Xususan, gullatar ostonalarni...

Taqvodor

Nimalar deyapsan huda-behuda!

Uchar

(Zarda qilib)

Qabrdan olingan o'sha marmarni,

Arradan o'tkazib, teskari qilib,  
Kimdir ostonaga bosvordi, deylik...

Detektiv

Masxara qildingiz xayolparast deb,  
Xayolparast sизsiz!  
Yo'q, bu – johillik!

Uchar

Qalampir qo'ygandek jirillama ko'p,  
Senga ko'rganimni aytib beryapman.  
Hech kim hokimiyat ostonasin o'p –  
Demagan,  
Nega jon kuydirayapman?!

Faqat kunduzgina jimjit turadi.  
Nimalar bo'lmaydi mozorda tunda.  
O'g'rilar tonggacha qimor uradi,  
Fohisha shundadir!  
Bangi ham shunda!  
Bu qabih ishlarga qo'ymoqchiman chek,  
Toki oyoqosti bo'lmasin mozor.  
Loyiha, xarajat, obodonchilik...  
Hammasi o'ylangan,  
Ish rejamiz bor!  
Mozorni devorsiz qo'riqlash qiyin,  
Mustahkam bo'ladi, ha, ihotamiz.  
Ko'taramiz uni uch paxsa, keyin  
Ustidan tikonli simto'r tortamiz.

Taqvodor

Mozorni devor yo panjara bilan  
O'ramoq aslida bema'nilikdir.  
Hali hech kim undan qochib chiqmagan,

Hech kim kirib yotmas toki tirikdir!

Uchar

(E'tibor bermay)

Kuchli yoritqichlar...

Ko'z qamashadi!

Burchak-burchaklarda yuksalar vishka.

Soqchilar kunora bir almashadi,

O'ktam yigitlarni olaman ishga.

Taqvodor

Hali it ham dersan, yigitlaringga...

Uchar

Ishimda bo'lмаган hech qachon yamoq,

Avtomat beraman, kerak bo'lsa, ha!

Taqvodor

Ishsiz qolarkan-da qorovul sho'rlik...

Uchar

Yuragi shir etar chumchuq pir etsa,

Ertadan-kechgacha uyqu, choyxo'rlik.

Shuncha soz, ishdan u qanchalik tez ketsa.

Fizik

Hal bo'lган kadrlar masalasi deng!

Ular joy-joyiga qо'yilar, demak.

Xizmatchi, xo'sh, xizmat?! Shundan gapiring...

## Uchar

Burchimiz mijozlar g'amini yemak!  
Bilasiz, o'zbekning to'y-hashamidan  
Azasi ming chandon sertashvish, og'ir.  
Biz xalos etamiz uni bu ishdan  
Neki xizmat bo'lsa dafnga doir,  
Yo'l qo'ymay ortiqcha qog'ozbozlikka,  
Barchasin o'zimiz etamiz ado:  
Ulov kerak bo'lsa, ulov tap-tayyor,  
Go'rkov, g'assol bizdan, go'yanda hatto...

## Fizik

Go'yanda degani... haligi...

## Uchar

Ha-da!  
Tushuning, zamonga qaramay qolgan  
Shunday satanglar bor, hatto azada  
Ko'z yoshi to'kishga yaramay qolgan  
Chiqmasa bemehr oyimlardan sas,  
Bag'rini astoydil tig'lab beradi  
Go'yanda, – pulini to'lasalar bas! –  
O'shalar uchun ham yig'lab beradi.

## Taqvodor

Yig'i ham pul bo'lsa...  
Astag'firulloh!  
Otarchi ekan-da o'sha iprisqi!

## Uchar

Ota, tirikchilik ayb emas, illo,

Dordan deyishadi dorbozning rizqi.  
... O'z issiqxonasi bo'lar mozorni,  
Qishda ham do'kondan arimaydi gul.  
Haykal o'rnatishmi, sag'ana bormi, –  
Sangtaroshlar sexi bu ishga mas'ul.  
Yana nima qoldi...

### Taqvodor

Restoran, kafe!  
Tunda alvastilar qurishar  
Bazm!

### Uchar

Hazil bo'la qolsin otaning gapi,  
Har qancha zahardir qilamiz hazm.  
Oxirat g'amida zamon boylari  
Chiqimdan qochmaydi – bilar otamiz.  
Sarmoya mozorning sara joylari! –  
Kimoshdi savdoga qo'yib sotamiz.

### Taqvodar

Fikri ojizimcha, miskinu nochor  
Topolmas bu joydan boshpana, qo'nim.  
Itday o'ib ketay ko'chalarda xor,  
Sening mozoringga qolmasin kunim!

### Uchar

Hoy, ota, sekinroq, noshukur bo'l mang,  
Oqilga yarashmas peshgirlik, qasam.  
Avvalo joningiz sog' bo'lsin, o'l mang,  
O'lish ham pul hozir, men sizga aytsam.

*Tasavvur qiling, agar hayotda Ko'charga o'xshagan "ishbilar-mon"lar rejasi amalga oshsa, odamlar qanday kunga qoladi?*

Taqvodor

O'ylab gapirsang-chi, esini yegan!

Uchar

To'g'ri gap yoqmaydi, g'ofilmiz, garang.  
Okean ortida Gevorkyan degan,  
Armani bir do'xtir – yurakni qarang! –  
Avtozaniyani qilibdi joriy...

Detektiv

Avto emas, evto!  
Ev-to-za-niya!

Uchar

Avtomi, evtomi, nima farqi bor.  
O'limni ixtiyor etsa, mabodo,  
Jon taslim qilolmay qiynalgan bemor,  
Xizmat haqi bilan tilxat kifoya  
Gevorkyan pand bermas, ishiga puxta:  
Bitta ukol bilan sho'ring qurg'urning  
Bor azoblariga qo'yarkan nuqta.  
Ehtimol, kimgadir tuyular erish,  
Aslida bu amal insonparvarlik...

Detektiv

Insonparvarlikmi odam o'ldirish  
G'arbda deyishadi buni varvarlik!

Uchar

O'sha G'arbing bugun amaliyotda  
Qo'llab kelayotir bu tajribani.

Taqvodor

Farzand o'stiradi ne-ne niyatda,  
Qayda qolar ota-onalik sha'ni.  
Chalsa oyog'idan xastalik bir kun,  
Farzand yaramasa uning koriga.  
Volidasi, padarni qo'sh qo'llab  
Topshirsa ajalning ixtiyoriga...  
Yaratgan egamning omonati jon,  
Olguvchi O'zidir, bandasi emas.  
Noma'qulni yebdi o'sha Gevorkyan,  
Shaytoni lainni eslatmagan, bas!

Chaqmoq chaqib momaqaldoq gumburlaydi. Garajlar qatorida  
yana shovqin. Bu gal bitta avtosignal ovozi eshitilmoqda. **Avtomobillar signali qayta eshitlishiga ahamiyat qarating.**

Uchar

Birov o'chakishgan go'yo biz bilan,  
Nimaning alami bu achchiq-tiziq?  
Kuyikkan sigirday o'kirayotgan  
Kimning mashinas?..  
Ajabo... qiziq...

Detektiv

Sizniki!

Uchar

Tilingga beraverma erk,  
G'ashimga tegishni boshladning yana.  
Qulfu kalitda-ky qara, axir, berk,  
Pult esa yonimda.  
O'chgan u, mana!

Fizik

Yaxshimas birovni bezovta etish,  
Karnay-surnayngni o'chirib kel, bor!

Uchar

O'lqudek qaysarsizi!  
Xo'p dedik...Hozir...

Garajlar tomonga o'tib ketadi. Avtosignal ovozi o'chadi. Uchar hafsalasi pir bo'lib, qaytib keladi.

Yaqin yo'lamagan yoniga kimsa,  
Uchib turgani yo'q o'g'rining ko'zi...  
Hech gapdan hech gap yo'q o'kiraversa,  
Qanaqa mashina bo'ldi bu o'zi?!  
Benuqson bo'lardi amali doim,  
Nemisga ham ishonch qolmabdi.

Taqvodor

Olmon  
G'irrom emas, ilmu amalda qoyim!  
Ishkalni o'zingdan izlagin, nodon!

Uchar

Ma'zur tutadilar bilmay-bilib man,

Bosgan bo'lsam agar nojo'ya qadam.  
Qani, eshitaylik, nima qilibman!..

Taqvodor

Dindan chiqyapsan, diyonatdan ham!

Uchar

Dindan, diyonatdan?..  
Alhamdulilloh...

Taqvodor

Yuribsan musulmon sanab o'zingni!  
Hattoki o'likdan tamang bor, sulloh,  
Mozorga tikmasding yo'qsa ko'zingni.  
Saxovat emasmi, mehr-muhabbat,  
Asl insoniylikning ziynati, faxri.  
Sendaylar o'zini o'ylasa faqat,  
Kelmaydi deysanmi Xudoning qahri?!  
Mashinang ikki bor bong urdi, ushbu  
Signaling sababli joyi bo'lgandir.  
Isrofil chalgan sur sadosidir bu,  
Sen uchun qiyomat qoyim bo'lgandir!

***"Isrofil chalgan sur" haqida eshitganmisiz? U qachon va  
nima uchun chalinishi haqida nimalarни eshitgansiz?***

Uchar

Yetar! Jonga tegdi malomat, dashnom,  
Qarzim yo'q, hech kimga emasman qaram...  
Miyasi aynibdi bu cholning tamom,  
Omin!

Qani turdik!

Fizik

... Voy kallavaram!..

Fizik peshonasiga shapatilaydi, keyin qornini changallab kula boshlaydi. Turishga chog'lanayotgan hamsuhbatlari joylariga qayta o'tirishdi.

Detektiv

Jerkib tashladingiz men kulsam boyta,  
Qiqirlab turibsiz endi o'zingiz...  
Go'yo fikringizni antiqa g'oya –  
Band etgan, g'alati chaqnar ko'zingiz.  
Bilsak bo'ladimi: Nima gap? Nechuk?

Fizik

Shubhaga borma sen shodonligimdan.  
Sadqayi fizik ket, sadqayi fizik! –  
Kulyapman o'zimning nodonligimdan.  
Talashdik, tortishdik, asablar tarang,  
Birov unday dedi, birov bu desa.  
Axir bu, – xayolga kelmabdi qarang! –  
Oddiy hodisa-ku,  
Oddiy hodisa!  
Tanish hol bizga bu bolalik chog'dan,  
Goh quvonch keltirgan, gohida hadik...

Detektiv

Goh tog'dan kelasiz, goh esa bog'dan,  
Nimalar deyapsiz, hech tushunmadik.

## Fizik

Lolmiz tabiatning oddiy ishidan!..  
Eslanglar, eslanglar yaxshilab biroq:  
Sal oldin avtolar chinqirishidan,  
Gumburlaganmidi momaqaldiroq?

## Uchar

Yana fantaziya! Yana bashorat!  
Birov ustdan kelsa, bu kishi ostdan.

## Detektiv

Gumburlashga gumburlagandi, faqat...

## Taqvodor

Oynalar zirillab ketgandi rostdan!

## Fizik

Oynalar zirillab ketgan! Ha, ana,  
Endi topayapmiz kalava uchin.  
Vibratsiya deyiladi bu fanda,  
Tovushning, havoning tebranish kuchi!  
Tebranish qayerdan bo'ladi paydo?  
Yot ta'sir, zarralar uyg'onishidan.  
Pashshaning rubobga qo'nishidan to  
Yerning silkinishi – to'lg'onishidan.  
Bulutlar chopganda ko'kka beega,  
Do'l, jala oldidan, yomg'irga qadar  
Havo taranglashib ketadi, nega,  
Bezovta g'o'ng'illar asalarilar?!

Aqlu zakovatdan qolmagan maxfiy,  
Izohi yo'q buning hech qanday yangi:

Boshlangan bo'ladi o'sha payt manfiy,  
Musbat quvvatlarning to'qnashuv, jangi.  
Ilmiy islohlardan ensangiz qotsa,  
Keling, tushuntiray, soddaroq va jo'n:  
Elektr simlari qo'shilib qolsa,  
Bilasiz, charsillab sachraydi uchqun.  
Xuddi shu hodisa, xuddi shu holat,  
Osmon falakda ham bo'ladi sodir.  
Miqyosi, ko'lami ulkandir faqat,  
Yer-ko'kni larzaga solishga qodir.  
Bo'g'iq na'ra tortar momaqaldiroq,  
Chaqmoq bulutlarni tashlaydi titib.  
Qisqa tutashuv bu! Zarbasi biroq –  
Olis joylargacha boradi yetib.  
Ko'chkilar ko'chadi, tog'larning toshi  
Chohlarga uchadi futbol to'pidek.  
Soylar o'zanidan chiqadi toshib,  
Chinorlar sinadi gugurt cho'pidek.

*Tabiatda sodir bo'ladigan barcha hodisalar sirini faqat il-miy jihatdan asoslab bo'ladimi yoki buning insoniyat uchun mavhum boshqa tomonlari ham bormi? Momaqaldiroq, mashina signallarining nogoh ishlab ketishi lavhalarini kiritish orqali muallif nima demoqchi?*

Detektiv

Ya'ni demoqchisiz, garajlar...

Fizik

Ukam,  
Buning nimasiga bo'lasan hayron.  
Bir hamla kifoya.  
Qasrlarni ham,  
Istasa, lahzada qiladi vayron!

## Uchar

Yashang!

Bor ekan-ku, axir haqiqat!  
Sal qoldi pichoqsiz so'yishlariga.  
Taftishchi otamiz meni hamoqat,  
Shaytonga chiqarib qo'yishlariga.  
Ota, eshitdingiz, eshitdingiz-a,  
Hammaga ham ilm ato qilmaydi.  
Omilik buyurgan siz bilan bizga,  
Bu odam o'qigan! – xato qilmaydi.  
Xudoning nomidan uraverib do'q,  
O'takamni yoray dedingiz, biroq  
Ko'rdingiz: hech qanday sir-sinoat yo'q,  
Bor-yog'i bahor!  
Ha, momaqaldoiroq!

## Taqvodor

Hammasi ayondir sizlarga kunday,  
Aytdi-qo'ydi, dersiz laqma bir qari...  
Mening bilganim shu: dunyoi dunda  
Hech narsa hukmidan emas tashqari!  
Basir u – ko'rguvchi maxfiymi, oshkor,  
Xabar u – har gapdan voqif, xabardor.  
Kori amolimiz islohhisisidir,  
Ya'ni al-Jabbor u, al-Qahhor, G'affor.<sup>1</sup>  
Tiynatda yomonlik yaxshilik bilan  
Qorilgan omuxta majnun aslida.  
Ular bir-biridan ajralar faqat,  
Nadomat yo do'zax alangasida!  
Ixtiyor gilami poyingda hozir,  
To u yig'ilmasdan dilni Ka'ba qil.  
Tavba hidoyatning ibtidosidir.

---

<sup>1</sup> Abu Hamid G'azzoliyning Tavba ta'limotidan (muallif).

Tavba qil!  
Tavba qil!  
Yana tavba qil!

Uchar

Tavba qiladimi begunoh kishi?

Taqvodor

Ko'ngildan kechsa ham hatto ogohdir.  
Shart emas birovni qon qaqqhatishing  
Niyat buzuqligi o'zi gunohdir!

Uchar

(Fizikka)

Tushunib yetmagan chamamda to'liq,  
Haligi gaplarni yodiga soling...

Detektiv

Og'irroq bo'ling siz – yoshingiz ulug'!..

Fizik

Ota, keling endi bir gapdan qoling...

Taqvodor

Mening oh-vohimga hech kim emas zor,  
Mayli, jim bo'laman!  
Lekin u-chi, u?..

Yana avtosignal ishlab ketadi. Uchar chayon chaqqanday o'rnida sakrab tushadi.

Uchar

Yana boshlandimi? Yo parvardigor!  
Nima degan gap bu...  
Qiziq bo'ldi-ku...

Fizik

Uchinchi signal bu!  
Ikkitasini  
Tushuntirgan bo'ldim o'zimcha sharhlab.  
Injiq tabiatning hunari, dedim,  
Uchinchisi nima bo'ldiykin ajab?..  
Mahliyo bo'lamiz o'zimizga xo'b,  
Sir yo'qdek dunyoda bizlar bilmagan,  
Holbuki voqeа-hodisalar ko'p,  
Aql-idrokimiz bovar qilmagan...

Uchar

Ming la'nat!  
Balo bu, mashina emas!  
Bozorga opchiqib sotaman erta...

Taqvodor

Sotib qutulmaysan!  
Sado u yoqdan (*Ko'kka ishora qiladi*).  
Sen bilan birga u har kun, har yerda!  
Yursang ham, tursang ham nazardasan to,  
Ogoh etaverar kunduzmi, kecha...  
Qulog'ing ostida abadiy sado,  
Abadiy nido u qiyomatgacha!

Fizik

Abadiy nido u qiyomatgacha!

Detektiv

Abadiy nido u qiyomatgacha!

Uchar

Abadiy... nido... u ... qiyomatgacha...

***Bu nido aslida nima o'zi? U insonlarni qanday ishlardan qaytaradi va nimalarga da'vat etadi?***

Uchar titrab-qaqshab o'rnidan turadi. ***Uchardagi bunday ruhiy o'zgarish sabablarini aniqlang.*** Quloqlarini kafti bilan yopib, gandiraklagancha garaj tomon odimlaydi. Chiroq yorug'ida uning garaj eshigini ochgani ko'rinib turadi. Eshik ochilganda avtosignal shovqini yanada kuchayadi.

Chaqmoq chaqib momaqaldiroq gumburlaydi. Yomg'ir sharillab quya boshlaydi. Ust-boshi shalabbo Uchar qo'lini ko'kka ko'tarib xitob qilmoqda. Lekin nima degani eshitilmaydi. Yomg'ir, izg'irin shamol, momaqaldiroq shovqini asnosida uzoqdan hofizning elas-elas xirgoyisi qulqoqqa chalinadi: "O'zni eggil doimo...", "inson o'zing...", "inson o'zing..."<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Muhammad Rahmon. Yo'l ko'rayotgan odam: Saylanma. She'rlar, dostonlar. – T.: Sharq, 2010. – 228-266-b.

## **Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar**

1. Qahramonlar orasida kechgan to'qnashuvlarni belgilang.
2. Asar yakunida Ucharning boshqalarga yon bosishi sabablarini aniqlang.
3. Ko'char tabiyasidagi tanazzulda jamiyatning qay darajada aybi bor?
4. Dramatik doston janriga xos xususiyatlarni izohlang.
5. Tengdoshlaringiz bilan xayrli amallarning mukofoti yoki gunoh ishlarning jazosi albatta muqarrarligi haqida munozara yuriting.
6. Asarning o'zingizga ma'qul bo'lgan lavhalarini sinfdoshlaringiz bilan sahnalashtiring.

---

## **BAHOUDDIN NAQSHBAND**

---

Buyuk pirlardan biri Xoja Muhammad Boboyi Samosiy o'z muridlari Sayid Mir Kulol bilan Qasri Hinduvondan o'tayotganlarida: "Bu tuproqdan bir er kishining hidi kelmoqdadir. Shu zoti sharif barokatidan Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylangay!" deydilar. O'sha paytda hali Hazrat Bahouddin tug'ilmagan, balki onalarining qornida ekanlar. Bir necha vaqtidan keyin esa: "Haligi arning isi ortiqroq bo'libdir", deydilar. Darhaqiqat, Hazrat Bahouddin tug'ilgan ekanlar. Tug'ilganliklariga uch kun bo'lganda Hazrat Bahouddinni Boboyi Samosiy ma'nnaviy farzandlikka qabul qilib, bolani Mir Kulol tarbiyasiga topshirdilar. Bu albatta, Alloh taoloning tariqat pirlariga ato etgan karomat quvvatidir.

Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharqshunos Ye.E.Bertelsning yozishicha, Naqshband ta'lomitining asosida ixtiyoriy faqirlik yotadi. Shunga binoan, Bahouddin Naqshband umr bo'yи dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida uncha katta bo'lмаган yeriga bug'doy va mosh ekar, uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamish, yozda bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlik va yo'qchillikda o'tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "doimo ko'ngling Allohdha bo'lsin, qo'ling esa ishda" degan g'oyani ilgari suradi. U o'z mehnati bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini yetim-yesirlarga in'om etgan, hukmdorlardan doimo o'zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon tama-girlik qilib yashamagan<sup>1</sup>.


---

<sup>1</sup> Yo'ldoshev S., Qodirov M., Usmonov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 78-79-b.

## Topshiriq

*Umr o'tkinchiligi, dunyoda insondan faqat yaxshi nom qolishi xususida tengqurlaringiz bilan suhbat uyuştiring.*

Bahouddin  
Naqshband  
maqbarasi.  
(Buxoro viloyati,  
XVI asr.)



## **Yo'l ko'rayotgan odam**

*Falak menga buqalamunlik qildi.*  
*Alisher Navoiy*

Nayrangi – ko'p, dardi – bedavo,  
Hasratidan yuraklar xundir.  
Topib aytgan Navoiy bobo:  
Falak asli buqalamundir!

Yo'lovchiman, – jonimga to'zim! –  
Men ham hayot arobasida.  
Oltiraman yolg'iz, bir o'zim,  
Ba'zan ko'ngil xarobasida...

Menga aql o'rgatar merov,  
Imonimga betavfiq hakam.  
Piching qilar chet-chetdan birov,  
Bu dunyodan emas, deb, akam.

Yolg'oni ham yo'yaman chinga,  
Umid – dilda miltillagan cho'g' ...  
"Shaxlo ko'z" deb kesatmang menga  
Chingiz bilan qondoshligim yo'q.

Bir kimsaman, xotiri malol,  
Ikki ko'zi nim yumuq qotgan.  
Bu dunyoning ishlaridan lol,  
O'nya botgan –  
Yo'l ko'rayotgan!

Saratonda sarg'aydim sekin,  
Qor, quyunning zahrini yutdim.  
Yo'l ko'rishdan topmadim lekin,  
Kutaverdim,  
Intizor kutdim.

Hayallading buncha ham. Umr  
Umr, emas sensiz, bilasan.  
Ey, pok inson, do'sti begidir,  
Sog'intirding, qachon kelasan?...<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muhammad Rahmon. Yo'l ko'rayotgan odam: Saylanma. She'rlar, dostonlar. – T.: Sharq, 2010. – 146-147-6.

## **“MUTOLAA SAN’ATI” kursi dasturi**

---

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Mashg’ulotlar mazmuni</b>	<b>Soati</b>
1	Mutolaa san’ati	Mutolaa madaniyati tushunchasi. Mutolaa san’atining adabiyot o’qitishdagi o’rni. Mutolaa san’ati kursining boshqa fanlar bilan aloqasi.	1
2	Savod o’rgatish mashqlarining asosiy turlari	Tovush ustida ishslash. Analiz va sintez mashqlari. Tovushlar artikulatsiyasi, diksiya ustida ishslash.	2
3	O’qish malakalari va ularni takomillashtirish. O’qish turlari	O’qish malakalarini shakllantirish bosqichlari. To’g’ri o’qish, tez o’qish, ifodali o’qish. Ovozli o’qish. Ichda o’qish. Shivirlab o’qish.	4
4	Badiiy asar ustida ishslash	Badiiy asar ustida ishslash bosqichlari	3
5	Badiiy asarni o’qishga tayyorgarlik	Badiiy asarni o’qishga tayyorgarlik bosqichlari. Asar bilan tanishtirish.	2
6	Badiiy asar matni ustida ishslash	Tanlab o’qish. O’quvchilarni savol-topshiriqlarga o’z so’zlari bilan javob berishga, savol tuzishga o’rgatish. Matnni tasvirlash. Grafik tasvirlash. Asar rejasini tuzish.	4

7	Mutolaaga oid mustaqil ishlar	Asarni ichda o'qish. O'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. O'qituvchi topshirig'ini bajarish. Matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish. Ijodiy qayta hikoyalash. Inssenirovka qilish. O'qilgan asarga rasm chizish. Hikoyani davom ettirish.	4
8	Badiiy asarni janr xususi- yatiga ko'r a o'rganish. Adabiyot darslarida nutq o'stirish	Epik, lirk, dramatik janrlar, ilmiy- ommabop asarlarni o'qish metodikasi. To'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoyalash.	4
9	Mutolaaga kitob tanlash tamoyillari	Tarbiyaviy maqsadlarning ko'zda tutilishi. Asar janri va mavzular xilma-xilligi. Kitobning o'quvchi yoshi va saviyasiga mosligi. Kitob tanlashda o'quvchilarning qiziqish va mustaqil o'qishni hisobga olish. Mavsumiy tamoyil.	2
10	Mutolaa san'atini egallashda interfaol xizmatlar.	Axborot-kutubxona markazlarida tashkil etilgan xizmat turlaridan foydalanish. Veb sahifalarga sayohatlar uyuştirish, internet forumlar, onlayn konsultatsiyalar, video anjimanlar o'tkazish.	4
	Jami		30 soat

**5-9-sinf o'quvchilariga mustaqil o'qish uchun  
tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati**

<b>Nº</b>	<b>Badiiy asarlar nomi</b>	<b>Janri</b>	<b>Muallifi</b>
<b>5-sinf</b>			
<b>O'zbek adabiyoti</b>			
1	"Aziz momo", "Oy bilan kun"	Asotirlar	Xalq og'zaki ijodi
2	"Kulsa gul, yig'lasa dur"	Ertak	Xalq og'zaki ijodi
3	"Mujdalar", "Ko'klam chog'i yaproqlar", "Til", "Qalbim"	She'rlar	Elbek
4	"Jinlar bazmi"	Hikoya	Abdulla Qodiriy
5	"O'rik gullaganda", "Hol"	She'rlar	Hamid Olimjon
6	"Oqibat"	Hikoya	Hakim Nazir
7	"Ona qabriga gul"	Hikoya	Mirmuhsin
8	"Ertalab", "Bahor", "Tog' manzarasi"	She'rlar	Qudrat Hikmat
9	"Robinzonlar"	Hikoya	Nosir Fozilov
10	"Tong lavhasi", "Kamtarlik haqida", "Sadoqat"	She'rlar	Erkin Vohidov
11	"Tongda", Olti xurjun", "Osmon qaydan boshlan-nadi", "Tuproq", "Chum-chuqlarga uyadir"	She'rlar	Tursunboy Adashboyev
12	"Cho'loq Turna"	Hikoya	Shukur Xolmirzayev
13	"Gul ishqibozi"	Hikoya	Erkin Malik
14	"Ota o'giti", "Bulbul-ning salomnomalari", "Chirmanda qo'shig'i"	She'rlar	Anvar Obidjon

15	Katta "A", kichkina "a"	Hikoya	Shahodat Isaxonova
<b>Jahon adabiyoti</b>			
16	"Konfutsiy hikmatlari"	Hikmatlar	Konfutsiy
17	"Irkit o'rdakcha"	Ertak	Hans Kristian Andersen
18	"Oqso'yloq"	Qissa	Жек Лондон
<b>6-sinf</b>			
<b>O'zbek adabiyoti</b>			
1	"Kayumars", "Erxubbi"	Miflar	Xalq og'zaki ijodi
2	"Temur Malik"	Qissa	Mirkarim Osim
3	"Oftoboyim"	Hikoya	Said Ahmad
4	"Yaxshilik urug'i"	Hikoya	Sunnatilla Anorboyev
5	"Yaxshilik"	Hikoya	Odil Yoqubov
6	"Ilinj"	Hikoya	Pirimqul Qodirov
7	"Oq o'tov ortida", "Do'stlarim bor...", "Nasi- bang oq bo'lsin", "Izlan- ish", "Vatan", "Qatralar"	She'rlar	Ibraim Yusupov
8	"Saboq"	Hikoya	Farhod Musajonov
9	"Yanga"	Hikoya	O'tkir Hoshimov
10	"Afandinining qirq bir pashshasi"	Qissa	Zohir A'lam
11	"To'rtliklar"	She'rlar	Omon Matjon
12	"Tiriklik suvi"	Hikoya	Tohir Malik
13	"Baliq ovi"	Hikoya	Qamchibek Kenja
14	"Paxmoq"	Qissa	Normurod Norqobilov
15	"Boybichcha"	Hikoya	Jamila Ergasheva

16	"Shamolli kecha"	Hikoya	Isajon Sultonov
17	"Rivoyatlar kitobi"	Rivoyatlar	Ahmad Muhammad Tursun
<b>Jahon adabiyoti</b>			
18	"Robinzon Kruzonning hayoti va ajoyib sarguzashtlari"	Badiy noma	Daniyel Defo
19	"Andijon shahzodasi"	Sarguzasht qissa	Fris Vyurtle
<b>7-sinf</b>			
<b>O'zbek adabiyoti</b>			
1	"Go'ro'g'li" turkumidan "Malika ayyor"	Doston	Xalq og'zaki ijodi
2	"Devonus lug'otit turk"dan "Mehnat qo'shiqlari"	Qo'shiqlar	Mahmud Qoshg'ariy
3	"Ming bir jon"	Hikoya	Abdulla Qodiriy
4	"Orzular, fikrlar", "Meros", "Umid", "Yaxshilik", "Tomchiga qulq sol"	She'rlar	Shuhrat
5	"Ikki narsa og'ir...", "Umr", "Men ko'p yo'llar yurdim", "Nihol"	She'rlar	Asqad Muxtor
6	"Cho'li iroq", "She'r o'qigim kelar", "Yo'qlamagan kuning...",	She'rlar	Saida Zunnunova
	"G'ayb qushlari"	Hikoya	Erkin Samandar
7	"Yashagim keladi", "Yoshlilik bir asrday...", "Bor", "Egilgan bo'yinlar"	She'rlar	Miraziz A'zam

8	“Iblis bilan muloqot”	Hikoya	Hojiakbar Shayxov
9	“Dorilamon kunlar keldi”, “Dunyolarga sig’magan g‘avg‘o”	She’rlar	Halima Xudoyberdiyeva
10	“Turkiylar”, “Tunggi manzara”, “Oy sinig‘i”	She’rlar	Shavkat Rahmon
11	“Kaptarlar qaytmagan kun”	Hikoya	Nurali Qobul
12	“O‘rin”	Doston	Ikrom Otamurod
13	“Ilinj”, “Alamli dunyoda”, “Teskari oqqan daryolar qaytdi...”	She’rlar	Sirojiddin Sayyid
14	“Tuproq hidi”	Hikoya	O’ktam Mirzayor
15	“To‘tinoma”	Hikoya	Ilhom Zoir
16	“Qo‘noq”	Hikoya	Luqmon Bo‘rixon
17	“Quduq”	Qissa	G‘afur Shermuhammad

### Jahon adabiyoti

18	“Qo‘rg‘on uzra gulxانلار”	Roman	Vasiliy Yan
19	“Xazon qoplagan bog”	Hikoya	Sinyiti Yuki
20	“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”	Qissa	Mark Tven

### 8-sinf

### O‘zbek adabiyoti

1	“Hibat ul-haqoyiq”	Doston	Ahmad Yugnakiy
2	“Devoni hikmat”	Hikmatlar	Ahmad Yassaviy
	“Saddi Iskandariy” (“Xamsa” asaridan)	Doston	Alisher Navoiy

3	"Yo'qlash", "Bir kuni...", "Umr mazmuni", "Aylanur"	She'rlar	Jumaniyoz Jabborov
4	"Dunyo", "Hamroz bilan", "Nima qoldi..."	She'rlar	Oxunjon Hakim
5	"O'yin"	Hikoya	Omon Muxtor
6	"Buyuklar izidan"	Safarnoma	Qamchibek Kenja
7	"Ey do'st"	Qayirmalar	Azim Suyun
8	"Bir qadam yo'l"	Drama	Usmon Azim
9	"Panoh"	Qissa	Xurshid Do'stmuhammad
10	"Txarad"	Hikoya	Erkin Usmon
11	"Lolaqizg'aldoq", "Ma'yus kunim ko'zim tushsa ", "Iqror"	She'rlar	Muhammad Yusuf
12	"Boburning tushlari"	Esse	Xayriddin Sultonov
13	"Temir xotin"	Komediya	Sharof Boshbekov
14	"Sendan shafqat kutgandan ko'ra", "Ruh shamoli tanni qaqshatdi", "Ayolni sev", "Ona yer – tufroq qolib..."	She'rlar	Farida Afro'z
16	"Na'matak"	Mini-roman	Ulug'bek Hamdam
17	"Navoiyning armonlari"	Tarixiy-ilmiy esselar	Umid Bekmuhammad
<b>Jahon adabiyoti</b>			
18	"Hayotga muhabbat"	Hikoya	Jek London
19	"Yetti iqlim sultoni"	Roman	Hilda Hukhem

20	“Merosxo'r yoki Devid Belfurning sarguzashtlari”	Sarguzasht roman	Robert Luis Stevenson
<b>9-sinf</b>			
<b>O'zbek adabiyoti</b>			
1	“Padarkush”	Pyesa	Mahmudxo'ja Behbudiy
2	“Abulfayzxon”	Fojia	Abdurauf Fitrat
3	“Arabmuhammad Bahodirxon”	Drama	Erkin Samandar
4	“Yaxshilar bahori yoxud Mahmud Zamaxshariy dahosi”	Ilmiy-ma'rifiy roman	Pirmat Shermuhamedov
5	“Munojot”ni tinglab, “Umr”, “Inson qalbi”, “Ruhim”, “Men anglab yetgan falsafa”	She'rlar	Abdulla Oripov
6	“Sarbadorlar”	Tarixiy diliqoya	Muhammad Ali
7	“Sensiz”, “Uxlama, sen, haqiqat”, “Yo'lovchi”	She'rlar	Rauf Parfi
8	“Oriyat”	Hikoya	Shodmon Otobek
9	“Bir kun chumoli bo'lib...”	Hikoya	Nodir Normatov
11	“Kampir osh”	Hikoya	To'lqin Hayit
12	“Ayolga baxt bering...”, “Vatan”, “Mana turna qaytdi...”, “Fozil el taraf-daman”	She'rlar	Zulfiya Mo'minova
13	“Sho'rodan qolgan odamlar”	Qissa	Shoyim Bo'tayev

14	“Arafa”, “Insonning sarguzashtlari”, “Afsungar”	She’rlar	Bahrom Ro’zimuhammad
15	“Maymun yetaklagan odam”	Hikoya	Nazar Eshonqul
16	“Qadimiy qo’shiq”	Hikoya	Zulfiya Qurolboy qizi

### **Jahon adabiyoti**

17	“Shoh Edip”	Tragediya	Sofokl
18	“Shohnoma”	Noma	Firdavsiy
19	“Begona”	Qissa	Alber Kamyu
20	“Alkimyogar”	Roman	Paulo Koelo
21	“Halokat”	Roman	Rabindranat Tagor

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

---

1. Mirziyoyev Sh. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizi-mini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida. //Ma'rifat. – T.: 2017-yil 16-sentabr . 6 b.
2. Abdurahmonova U. She'rlarining birinchi "senzurachisi" o'zim edim. // "Til va adabiyot ta'limi". – T.: 2014, № 6. 46-47 b.
3. Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar va dostonlar. – T.: Sharq, 2000, 256 b.
4. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona-nasi nashriyoti, 2009, 368 b.
5. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. –T.: Fan va texnologiya, 2016. – 140 b.
6. Mixail Gar. Mahallamning oltin tuproqlari. //Sharq yulduzi. –T.: 2013, № 3. –5-7-b.
7. Muhabbat Ato. So'nmas yulduzlar. – T.: Tafakkur Qanoti, 2010, 480 b.
8. Muhammad Ali. Amir Temur chamani. –T.: O'zbekiston, 2006. 216 b.
9. Muhammad Rahmon. Yo'l ko'rayotgan odam: Saylanma. She'rlar, dostonlar. –T.: Sharq, 2010, 272 b.
10. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. –T.: Sharq, 2000.
11. Nazar Eshonqul. Menden "men" gacha. – T.: "Akademnashr", 2014, 512 b.
12. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. –T.: Sharq, 2008, 400 b.
13. Norqobilov N. Ovul oralagan bo'ri. Qissalar. –T.: Sharq, 2005, 256 b.
14. Norqobilov N. Tog'dagi yolg'iz odam. Qissalar va hikoyalar. –T.: O'zbekiston, 2011, 304 b.
15. Oydin Niso. Eplab yozishdan boshqa mezon yo'q. –T.: Yoshlik, 2015, № 3. – B. 2-5.
16. Sodiqova T. Baxt nima? – A., Andijon, 1994. 134 b.
17. Qamchibek Kenja. Buyuklar izidan: (Safarnoma – 3). – T.: Sharq, 2006. – 240 b.

18. Qorayev C. Yer – jonli mavjudot... // Tarbiya. -T.: 2008. № 6, 16-18-b.
19. Rahmonov V., Nishonov Sh. “Bobur yurgan yo'llardan....” // “Til va adabiyot ta'limi”. – T.: 2017, № 2. 49-50 b.
20. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. – T.: Sharq. 2013. – 320 +8 b. zaryv.
21. Sultonov X. Boburning tushlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 272 b.
22. Xolmirzayev Sh. Saylanma: III jildlik, II jild: Hikoyalar. -T.: Sharq, 2005, 464 bet.
23. Xudoyberdiyeva H. Osoyishta sham: She'rlar. -T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017, 168 b.
24. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: “Sharq”, 2005, 368 b.
25. Yo'ldoshev S., Qodirov M., Usmonov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
26. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. /Tahrir hay'ati A.Qayumov va boshq. – T.: Sharq, 2014, 744 b.
27. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3 jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 704 b.
28. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6 jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 704 b.
29. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11 jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 608 b.
30. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. -T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 608 b.
31. G'oziyev E.G. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi, 2008, 94-b.
32. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. She'rlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: G.Rahmonova, O.Tolib; mas'ul muharrir I.Mirzo. -T.: Movarounnahr, 2012, 384 b.
33. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **SAODAT IRKINOVNA KAMBAROVA**

# **O'QUVCHILARNI MAXSUS SAVOL VA TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA MUTOLAAGA QIZIQTIRISH**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018**

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	F.Tishabayev
Musavvir:	A.Moydinov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 27.08.2018.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 19,5. Nashriyot bosma tabog'i 18,75.

Tiraji 100. Buyurtma № 400.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**